

88.4  
M.32

RMATOVA, SH. HASANOVA

# RASM, BUYUMLAR YASASH VA TASVIRIY FAOLIYAT METODIKASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

M.SH.NURMATOVA, SH.T.HASANOVA

# RASM, BUYUM YASASH VA TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH METODIKASI

*O'zbekiston Respublikasi Oly va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
O'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi markazi tomonidan  
pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etilgan*

«Musiqa» nashriyoti  
Toshkent  
2012



**Taqrizchilar:** N.M.Egamberdieva – pedagogika fanlari nomzodi  
M.P.Ibragimova – pedagogika kolleji o'qituvchisi

**Maxsus muharrir:** O.U.Hasanboyeva – pedagogika fanlari  
nomzodi, professor

**M.Sh.Nurmatova**

**N 87 Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi:**  
o'quv qo'llanma / M.Sh.Nurmatova, Sh.T.Hasanova; muharrir  
H.Yusupova; O'zbekiston Respublikasi olyi va o'rta maxsus ta'lif  
vazirligi, O'rta maxsus kasb-hunar ta'lifi markzai. –Toshkent:  
Musiqa, 2012. 184 b.

1. Sh.T.Hasanova

**KBK 85.15ya721**

Bolalarni san'atga oshno qilish, ularga go'zallik tuyg'usini singdirish ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'quv qo'llanma talabalarda mакtabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilishning maqsad va vazifalari, badiiy faoliyat qobiliyatları va ijodini tarbiyalash, oilada va maktabgacha ta'lif muassasasida bolalarning tasviriy faoliyatiga rahbarlik qilish usullari, rasm chizish, loy ishi, applikatsiya va qurish-yasashga o'rgatish usullari, tasviriy san'at bilan tanishtirish metodikasi haqidagi bilimlarini boyitishga yordam beradi.

## KIRISH

O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mayjud muammolarni hal etish ta'lim va tarbiya samaradorligini zamон talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'limtarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim-tarbiyaning mohiti mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha tarbiya tizimini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tarbiyani, ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida yuksak siyosiy hayotga mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola biliш qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni, yangi avlodni shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Ushbu qo'llanma maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning estetik tarbiyasi, badiiy mehnat malakalarini, estetik tasavvurlarining shakllanishini va bolalar badiiy ijodkorligining rivojlanishi ni ko'zda tutadi. Qo'llanma tasviriy faoliyat jarayonida bolalarning badiiy ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish mezon, prinsiplari asosida maktabgacha ta'lim muassasasida rasm chizish, loydan buyum yasash, qirqib yelimlash, qurish-yasashga o'rgatish vazifalari, mazmuni, uslubiyoti bilan tanishtiriladi. Qo'llanmaning yakuniy mavzulari katta tarbiyachining, maktabgacha ta'lim muassasasi va pedagogika kollejlarida shu fan o'qituvchisining ishini belgilab beradi. Qo'llanmada bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish borasida o'tiladigan mashg'ulot-larning namunaviy ishlanmalari ham o'z o'rnnini topgan. Talabalarning tanlagan kasblariga qiziqishlarini uyg'otish, olgan bilimlarini rivojlantirish, tasviriy faoliyat orqali olgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishga ham katta ahamiyat berilgan.

**I BOB.**  
**TASVIRIY SAN'AT NAZARIYASI,**  
**UNING TUR VA JANRI**

San'atning turlari juda ko'p. Ular musiqa, kino, teatr, xoreografiya, tasviriy san'at va boshqalardir. Odatda borliqni tasviriy obrazlarda, shakllarda, fazoviy kenglikda yoki tekislikda (qog'oz yuzasida, devor yuzasida va hokazolarda) aks ettiradigan san'at tasviriy san'at deb ataladi.

San'atkor real borliqni o'z asarlarida tasvirlar ekan, u hech vaqt uni mexanik ravishda ko'chirmaydi. Aks holda, u yaratgan san'at asarlarining fotograf yaratgan rasmlardan farqi bo'lmay qoladi. San'atkorning vazifasi oliyroqdir. U hayotda mavjud bo'lgan voqe va hodisalarni tasvirlar ekan, u tasvir orqali o'zini hayajonlantirgan biron bir fikrni ilgari suradi, ijtimoiy hayotda sodir bo'layotgan voqe va hodisalarning mohiyatini ochib berishga intiladi, ularga o'z munosabatini bildiradi, hukmini chiqaradi. Masalan, rassom biror shaxsning rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga intilish bilan chegaralanmaydi.

Rassom shu ishlayotgan tasviri orqali, avvalo, o'zinинг fikr va tuyg'ularini tomoshabining yetkazishga harakat qiladi. Tomoshabin rasmda tasvirlangan oljanob, mard kishilar obrazini ko'rib, undan g'ururlanadi (chunki rassom ham g'ururlanib shu rasmni ishlagan) unga taqlid qiladi, undan o'rnak oladi. Agar asarda pastkash, razil odam tasvirlangan bo'lsa, tomoshabin undan nafratlanadi. Tomoshabin o'zida shunday xususiyatlar bo'lmasligi uchun harakat qiladi. Bundan ko'rinish turibdiki, tasviriy san'at asarlari san'atning boshqa turlari – adabiyot, kino, teatr va hokazolar kabi insondagi ajoyib fazilat borliqni bilish, uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga faol ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at asarlari ko'rish uchun mo'ljallangan san'atdir. Uni ko'rish orqaligina zavq olish mumkin. Kuy va ashulaning go'zalligini so'z bilan ta'riflab bo'lmaganidek, rassomning asarlarini ham so'z bilan to'liq ta'riflash mumkin emas. Tasviriy san'at asarlarini to'g'ri tushunishga oid ba'zi misollarga murojaat qilaylik.

A. Plastovning «Peshin» deb nomlangan asarining sujeti juda sodda, hatto bir qarashda san'atga loyiq mavzu yo'qqa ham o'xshaydi. Shu asarni so'z bilan ta'riflansa, eshitgan odam, xo'sh, nima bo'pti,

deyishi va unga beparvo bo'lishi ham mumkin. Lekin asarga qara gan tomoshabin hech qachon shunday demaydi. Ko'rinishdan sodda bo'lib tuyulgan bu asar uni o'yashga majbur qiladi, tevarak-atrofning naqadar go'zal ekanligini his qilishga, shu go'zallikdan hayajonlanishga da'vat etadi. Haqiqatan ham beg'ubor, kuchga to'lgan sokin tabiat, zilol suv, kishi qalbiga orom beruvchi quyoshning mayin nurida qanchadan qancha go'zallik, latofat bor. Rassom shulardan quvonadi, shu quvonchini boshqalar bilan o'rtoqlashishga intiladi. Bunga erishish uchun tasviriy san'atning ifoda vositalari kompozitsiya, kolorit, yorug', soya, chiziq, faktura imkoniyatlaridan foydalanadi. Rassom shunday kompozitsiya tanlaganki, bu voqeanning qachon va qayerda sodir bo'layotganini ochib, rasm ishlangan yuza (xolst) – ning bir butun bo'lib ko'rinishini ta'minlagan. Shu rasmdan kompozitsiyadan biron-bir detalni, aytaylik, mototsiklni olib tashlaylik yoki obrazlarning birortasining o'rmini o'zgartirib ko'raylikchi, u holda tasvirning ta'sir kuchi yo'qoladi. Kompozitsiya yaxlitligi buziladi. Rassom yorug' va soya imkoniyatlaridan foydalanib, voqeа sodir bo'layotgan vaqtни ko'rsatishga erishgan. Suv ichayotganlarning tagiga tushayotgan soya voqeanning peshinda, quyoshning tikkaga kelgan paytida sodir bo'layotganligidan dalolat beradi. Asar uchun tanlangan rang gammasi – kolorit yozning issiq jaziramasini his etishga xizmat qilgan. Quyosh nuriga to'yingan sarg'ish-yashil ko'katlar hamda qizil mototsikl, quyosh nurida toblanib, qizargan odamlar gavdasi ning ranglari birgalikda butun asarning rang gammasini tashkil etadi. Shuning uchun ham asarga qaraganimizda shu issiq rang gamma hisobiga biz yozning jazirama issig'ini his qilgandek bo'lamiz. Kompozitsiya markazidagi buloq suvining salqini shu jaziramani yorib atrofga salqin havo taratayotgandek va hayotning o'ziga xos kurashini tomoshabinga ko'z-ko'z qilayotgandek tuyuladi. Rassom asar yaratganda, chiziqlarning emotsiyal imkoniyatlaridan ham foydalanadi. Ma'lumki, har xil chiziq kishida har xil taassurot qoldiradi. Silliq chiziqlar ko'p hollarda sokinlik, xotirjamlik baxsh etsa, aksincha pala-partish, har tomonga yo'nalgan chiziqlar notinchlik, hayajon tug'diradi.

Tasviriy san'at asarlarini kuzatganda undagi har bir obrazning psixologik kechinmali qanday yechilganligini, ularning tevarak-atrofga bo'lgan munosabatini to'g'ri ko'rsatib bera olish ham muhim

o'rinni egallaydi. Shuning uchun rassom ishlatgan ranglar jilosiga ham, bo'layotgan voqeanning kompozitsiyasiga ham, rassomning ishlash mahoratiga, tanlangan har bir shakl xarakteriga, umumiy rang gammasi – koloritiga, yuzaning xarakteriga (masalan, rassom ishlagan holat yuzasining silliqligi yoki g'adir-budurligiga) ham e'tibor berish, ular nima uchun shunday olinganiga javob to'pishga harakat qilish zarur. Shundagina tasviriylar san'at asarlarining asl mohiyatini tushunib yetish va ularni to'g'ri tahlil qila olishni o'rganish mumkin.

## I. 1. TASVIRIY SAN'ATNING TUR VA JANRLARI

Tasviriylar san'at tushunchasi keng ma'noga ega. Tasviriylar san'at deyilganda, grafika, rangtasvir, haykaltaroshlik san'ati tushuniladi. Me'morchilik va dekorativ-amaliy san'at asarlari ham qisman tasviriylar san'atga kiradi. Haqiqatda esa ularda mavjud borliq tasvirlanmaydi. Lekin bu san'at asarlarda ijodkorning maqsadi, fikri, histuyg'ulari, orzu-istiklari o'z aksini topadi. Demak, ijodkorning dunyoqarashida ma'lum miqdorda davr ruhi va mazmuni o'z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, me'morchilik va amaliy san'at buyumlari ham tasviriylar san'at sifatida qaraladi. Tasviriylar san'atning hamma turlari bir-biriga juda yaqin va ularning bir qator o'xshashliklari bor. Lekin shu bilan birga, ulardan har birining o'ziga xos tasviriylar uslublari va texnikasi mavjud. Bundan tashqari, ularning har biri ishlatilish o'rni, aks ettiradigan mavzusi, ishlanish uslubiga qarab bir qator tur va janrlarga bo'linadi.

**Grafika.** Hozirgi zamon san'atining keng tarqalgan turlaridan biri grafika san'atidir. Tasviriylar san'atning bu turiga oddiy qora qalamda chizilgan surat, mavzulik kompozitsiyalar, kitobning ichki va tashqi tomoniga ishlangan turli rasm, illustratsiya, plakat, karikatura, sharj, etiketka, marka, ekslibris va boshqalar kiradi. Grafika san'ati asarlari hajm jihatdan uncha katta bo'lmay, ko'p holdarda qog'ozga ishlanadi. Grafikaning xarakterli tomonlaridan biri, uning seriyali qilib ishlanishi, ya'ni voqeani bir necha qog'ozda tasvirlanishidir. Bunday seriyali rasmlar o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir mazmunni ochib beradi. Grafika san'ati hozirjavob san'atdir. Masalan, rassomlik asarlari yaratilishi uchun uzoq vaqt kerak bo'ladi (axir ba'zi rassomchilik asarlarini yaratish uchun

15–20 yil kerak bo‘lgan), grafika san’ati asarlarida esa shu bugun sodir bo‘lgan voqealarda shu bugunoq o‘z aksini topishi mumkin.

Grafika san’atida rang ishlatalmaydi, ishlatsa ham, uning xarakterli tomonini belgilamaydi. Masalan, D. Moorning «Sen ko‘ngilli bo‘lib yozildingmi?», Toidzening «Ona Vatan chaqiradi!» degan plakatlarida odam kiyimi ochiq qizil rangda ko‘rsatilgan. Aslida hayotda bunday voqeani uchratish qiyin. Rassom rang orqali o‘z asarining yanada ta’sirchan bo‘lishiga erishgan. Kishi shu plakat oldidan o‘tib borar ekan, qizil rang uning diqqatini o‘ziga tortadi. Natijada u to‘xtab plakat mazmunini chuqurroq bilib oladi. Rus san’atining atoqli vakillari Mayakovskiy, Cheremnixlar qizil rangdan davlatning ramzi sifatida foydalanganlar, ular rus kishilarining rasmini qizil rang bilan, hokimiyatning dushmanlarini esa qora va ko‘k ranglarda ishlab, o‘z g‘oyalarni tez va oson tushunarli bo‘lishiga erishganlar. Grafika asarlari o‘zining bajaradigan funksiyasi va mazmuniga qarab, dasttoh grafikasi, kitob va gazeta-jurnal grafikasi, plakat hamda amaliy grafika san’atiga bo‘linadi. Dastgoh grafika san’atiga mustaqil xarakterga ega bo‘lgan, o‘zida tugal fikrni anglata oladigan, yangi g‘oyalarni ilgari suradigan grafika asarlariga aytildi. Dastgoh grafika san’ati asarlarining ko‘rinishlaridan biri estampadir. Dastgoh grafikasi asarlarida biron-bir mazmun, odamlarning xatti-harakati, tabiat ko‘rinishi yoritiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasi turi dastgoh grafikasidan farq qilib, bevosita kitob va jurnal mazmuni bilan bog‘liq bo‘ladi hamda ularning maqsad va mazmunini to‘laroq ochib berish uchun xizmat qiladi. Kitob va gazeta-jurnal grafikasiga rassom tomonidan kitob va gazetalarga chizilgan turli rasmlar, bezaklar, harf kompozitsiyalari kiradi. Kitob hamda gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan biri bu illustratsiyalardir. Illustratsiya biron-bir badiiy asar bilan bog‘liq bo‘lib, shu asarda tasvirlangan biron-bir lavhaning tasvirini aks ettiradigan rasmliga aytildi. Rassom biror-bir hikoya yoki kitobga illustratsiya ishlashga o‘tishdan oldin uni sinchiklab o‘qiydi, matnda tasvirlangan har bir obrazning xarakterini, voqealarda sodir bo‘layotgan joyning xususiyatlarini o‘rganib chiqadi, shundan keyingina unga illustratsiya ishslashga kirishadi.

Illustratsiyaning maqsadi badiiy asar mazmunining chuqurroq ochilishiga va ta’sirliroq bo‘lishiga yordam berishdir. Illustratsiyalar turli ko‘rinishda bo‘ladi. Illustratsiyalarda badiiy asar-

da ishtirok etuvchi shaxs portreti, shuningdek, muhim voqealar tasvirlanishi mumkin. Kitob va gazeta-jurnal grafikasining ko‘rinishlaridan yana biri karikatura bo‘lib, u tanqidiy xarakterga ega bo‘ladi hamda o‘zida satira va yumorni mujassamlashtiradi.

Karikaturachi rassom hayotda mavjud bo‘lgan voqealari hodi-salarni o‘z asariga mavzu qilib oladi va uning ba’zi tomonlari ni bo‘rttirish orqali rasmlarning qiziq va kulgili bo‘lishiga erishadi. Bu orqali rassom hayotdagi kamchiliklarni tanqid qiladi, jamiyat taraqqiyotiga xalaqit beradigan, zamonamiz, kishilarimiz sha’niga dog‘ bo‘lgan hodisa, illat va marazlarni qoralaydi, mavjud bo‘lgan nodonlik, xurofot, tekinxo‘rlik, poraxo‘rlik, davlat mulki-ga xiyonat qiluvchilarning basharalarini ochib tashlaydi. Grafika san’atining turlaridan yana biri plakatdir. Plakat lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «e’lon», «guvohnoma» degan ma’noni anglatadi. Grafika san’atining nihoyatda keng tarqalgan turlaridan biri amaliy grafikadir. Turli xildagi etiketkalar, konvert yuzasiga ishlanadigan bezak rasmlar, tabriknoma, telegrammalar, markalar grafika-ning shu turiga mansub.

Amaliy grafika shunchaki bezak uchun ishlatiladigan san’at emas, u ham san’atning boshqa turlari kabi ijtimoiy hayotda faol qatnashadi, jamiyatda bo‘layotgan yangiliklar bilan ommani tanishtiradi. Hukumatning g‘oyalarini xalq orasida targ‘ib qiladi.

Grafika san’ati eng demokratik san’atdir. U goh plakat tarzida, goh gugurt qutichasining yuzasiga ishlangan tasvir tariqasida, goh gazeta sahifalaridagi surat tarzida o‘lkaning uzoq chekkalariga kirib boradi, o‘sha yerlarda ma’rifat tarqatadi, kishilarni bo‘layotgan yangiliklar bilan tanishtiradi. Shuning uchun ham grafika san’ati katta g‘oyaviy-siyosiy ahamiyatta egadir.

**Rangtasvir.** Tasviriy san’atning ikkinchi bir turi rangtasvir san’atidir. Devorlarga ishlangan turli rasmlar, polotnolarga chizilgan surat, kino va teatr dekoratsiyalari shu san’at turiga kirdi. Rangtasvirda rang muhim o‘rinni egallaydi. Agar grafika san’atida rang shunchaki yordamchi vazifani o‘tasa, rangtasvirni esa rangsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Rassom rang orqali borliqni ko‘rinarli obrazlarda tasvirlaydi, makonning cheksizligini, undagi narsalarning rang-barangligini, moddiyilagini, hajmini ko‘rsata-di. Rangtasvir asarlari yana o‘zining vazifasi va ishlanish uslubiga ko‘ra monumental, dastgoh va dekorativ turlarga bo‘linadi.

Monumental rangtasvir me'morlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu turdag'i asarlar mustaqil mazmuniga ega hamda ular-da jamiyat hayotidan olingan muhim voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlar, odatda, uzoqdan ko'rishga mo'ljallanganligi tufayli obrazlarni iloji boricha umumlashtirilgan holda tasviriya, mayda detallardan iloji boricha kamroq foydalanishga harakat qilinadi. Ranglar ham birmuncha shartli olinadi, shunga qaramasdan u borliq to'g'risida real tasavvur berishi kerak. Monumental rangtasvir me'morchilikda ma'lum miqdorda bezash vazifasini ham o'taydi, shuning uchun ham uni ba'zan monumental – dekorativ rangtasvir deb ham yuritiladi. Monumental rangtasvir asarlari bajarilish usuli-ga qarab, o'z navbatida, bir necha turlarga bo'linadi. Bular: freska, mozaika va pannodir. Freska odatda devorga to'g'ridan to'g'ri su-voq ustiga ishlanadi. Bolonka rangli tosh, shisha, bo'yagan oyna, sirli sopol parchalaridan ishlanadi. Devorga ishlangan surat yoki o'yma naqshlar ba'zan har xil shakldagi ramkalar (to'rtburchak, kvadrat, beshburchak va hokazolar) bilan chegaralangan bo'ladi – bu pannodir. Panno dastlab alohida yuzada (xolstda, ganch-da, yog'ochda) ishlanib olinib bitgandan so'ng devorlarda qoldirilgan maxsus o'rnlarga o'rnatiladi. Lekin mazmun jihatdan mustaqil xarakterga ega bo'lishi ham mumkin. Ba'zi hollarda panno dastlab xolstga moy bo'yoq bilan ishlanib, keyin kerak bo'lgan o'ringa yopishtiriladi.

Dekorativ rangtasvir me'morchilik va amaliy san'at bilan bog'-liq bo'lib, asosan bezash vazifasini o'taydi. Dekorativ rang tasvirga naqqoshlik san'ati, teatr, kino dekoratsiyalari va qisman monumental rassomchilik ham kiradi. Dekorativ rangtasvir monumental rangtasvir singari to'g'ridan to'g'ri devorga ishlanishi, panno, mo-zayka tarzida bo'lishi mumkin. Dastgoh rangtasvir hozirgi zamon tasviriy san'atida yetakchi o'rinni egallovchi san'at turlaridan biri hisoblanadi. Odatda u maxsus ramkaga tortilgan matolar ustiga ishlanadi. Bunday rasmlar molbert deb ataladigan alohida dastgolida ishlangani uchun ham ularni dastgohli rasmlar deyiladi.

Bunday rassomchilik asarlari jamiyatda bo'layotgan muhim voqealari hodisalarini aks ettirishidan tashqari, shaxsning individual xislatlarini, intim kechinmalari, his-tuyg'ularini to'liq ko'rsatish imkoniyatiga egadir. Shuningdek, ularda tabiatda bo'layotgan o'zgarishlar o'zining yorqin ifodasini topadi. Dastgoh rangtasvir

monumental va dekorativ rang tasvirdan farqli o'larq, mustaqil ahamiyatga ega, u boshqa biron san'atga bog'lanmaydi. Dastgoh rassomligi birmuncha kech paydo bo'lgan bo'lib, uning rivojlanish davri Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Hozirgi kunda esa tasviriy san'at turlari ichida uning keng tarqalgan turlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda rassomchilikning bu turi asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab paydo bo'lgan. Hozirgi kunda u o'zbek tasviriy san'atida yetakchi o'rirlardan birini egallaydi.

**Haykaltaroshlik.** Tasviriy san'atning turlaridan biri bo'lgan haykaltaroshlik asarlarida borliq hajmga ega bo'lgan shakllar orqali makonda tasvirlanadi. Stol ustiga qo'yiladigan haykalchalar, park va xiyobonlarga o'rnatilgan turli haykal va yodgorliklar, binolar ning devorlariga, tanga, belgi, medal kabi buyumlarning yuzasidagi bo'rtma tasvirlar haykaltaroshlik san'atining turli ko'rinishi hisoblanadi.

Haykaltaroshlik asarlari o'z ishlatalish o'rni, bajaratdigan vazifasi va tayyorlanish usuliga qarab turlicha nomlanadi. Ular odatta dumaloq va qabariq ko'rinishda bo'ladi. Dumaloq haykallarni hamma tomondan aylanib ko'rish mumkin bo'lsa, qabariq haykallarni yuzaga bo'rttirib ishlanganligi sababli faqat bir tomondan ko'rildi. Qabariq haykallar relyef deb ataladi. «Relyef» fransuzcha so'z bo'lib, yuza degan ma'noni bildiradi. Relyefli haykallarda asosiy obrazlar bilan bir qatorda, kenglik, tabiat manzaralarining ko'rinishi ham aks etadi. Shuning uchun bunday relyeflarni ba'zan perspektivali relyef deb ham yuritiladi. Relyef, o'z navbatida, ikki turga bo'linadi. Ulardan biri barelyef, ikkinchi turi esa gorelyefdir. «Barelyef» ham fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, past relyef degan ma'noni anglatadi. Barelyefda haykal tekis yuzaga nisbatan biroz qabargan (bo'rtgan) bo'lib, lekin uning qalinligi o'zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshmasligi lozim. Masalan, tanga, zna-chok, medal yuzalaridagi bo'rtma tasvirlar bunga misol bo'la oлади. Barelyeflar ayniqsa, amaliy san'at buyumlarini, me'morchilik binolarini bezashda juda qo'l keladi. Qadimgi Gretsiyada hayotda ishlataladigan turli xil buyumlar, masalan, ko'za, guldon, quroslahalarning yuzalarini barelyeflar bilan bezaganlar, binolarning devorlariga turli hayotiy voqealarni aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar ishlaganlar. «Gorelef» so'zi ham fransuzcha bo'lib, baland

relyef ma'nosini bildiradi. Haykaltaroshlikning bu turida tasvirlar yuzadan sezilarli darajada bo'rtib chiqqan bo'lib, uning qalinligi o'zining haqiqiy qalinligining yarmidan oshgan bo'lishi shart.

Relyefning yana bir turi bor. Bu o'yib ishlangan relyeflardir. Bunday relyeflar, odatda, tekis yuzaga o'yib ishlanadi. Yuzani o'yish natijasida hosil bo'ladigan yorug'-soya o'yini hisobiga tasvir ko'zga tashlanadi. Bunday relyeflarning imkoniyati chegaralangan bo'lganidan ular amalda juda kam qo'llaniladi. Bunday relyeflar qadimgi Misrda ishlatilgan. Haykaltaroshlik asarlari uchun turli xildagi materiallar ishlatiladi. Bu materiallar haykalga turli xarakter va mazmun berishda xizmat qiladi. Masalan, tosh-granitda ishlangan haykallar kishida ulug'vorlik, adabiylik baxsh etsa, aksincha, marmarda ishlangan haykallar nozik, ko'rakm ko'rinati. Shuning uchun haykallar o'zining mazmuni va o'rnatiladigan joyiga qarab, har xil materiallardan ishlanadi. Haykaltaroshlik materiallari ko'p. Bu plastilin, loy, yog'och, metall, marmar, granit, suyak, sement, gips va hokazolardir. Qimmatli metallar – oltin, kumush, nikellar ham haykaltaroshlikda qo'llanadi. Haykaltaroshlikda deyarli rang ishlatilmaydi. Xalq haykaltaroshligida haykallarni bo'yash hollari uchraydi. Bunga O'zbekiston hududidan topilgan qator haykaltaroshlik asarlari misol bo'la oladi. Haykaltaroshlik asarlari ham tasviriy san'atning boshqa turlari kabi o'zining bajaradigan vazifasi, mazmuniga qarab qator tur va janrlarga bo'linadi. Haykaltaroshlik turlari deganda biz monumental, dekorativ va dastgoh haykaltaroshligini tushunamiz. Monumental haykaltaroshlikka muhim tarixiy voqealar, atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o'rnatilgan yirik o'lchovdagi, turli xildagi yodgorliklar, haykaltaroshlik ansamblari kiradi. Odatda monumental haykaltaroshlik asarlari o'zida katta mazmunni anglatib, mustaqil xarakterga ega bo'ladi. Lekin shu bilan birga, u bevosita muhit bilan bog'liq bo'lib, me'morchilik binolari hamda tabiat bilan uyg'unlikda bo'lishi lozim. Bu unga yanada ulug'vorlik va ta'sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlik asarlari xos bo'lgan xususiyatlaridan biri bu tasvirlanayotgan qahramonlarning ko'tarinki ruhdagi tasviridir. Monumental haykaltaroshlik asarlari doim ochiq havoda turish uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli ular uzoq turadigan qattiq materialdan, masalan, tosh, bronza va hokazolardan ishlanadi. Bulardan tashqari, monumental haykaltaroshlik asarlari

uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi sababli ularda katta-katta yaxlit shakllardan keng foydalaniladi. Odam yuzidagi mayda detallar, kiyimdagи bukhanishlar, undagi mayda detallar ko‘rsatilmaydi. Istirohat bog‘lari, xiyobon va ko‘chalar, shuningdek, me‘morchilik binolarining devorlarini bezash uchun ishlataladigan haykallarning hamma turlari dekorativ haykaltaroshlik san‘atiga kiradi. Haykaltaroshlik san‘atining bu turi monumental haykaltaroshlikdan shu bilan farq qiladiki, agar monumental haykaltaroshlik asarlari o‘zida mustaqil mazmunni anglatib, me‘morchilikka ham, tevarak-atrofga ham tobe bo‘lmagan holda, kishiga mustaqil fikrni bera olsa, dekorativ haykaltaroshlik asarlari esa bevosita me‘morchilik bilan bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari agar monumental haykaltaroshlik asarlarini ishlashda obrazlarni ko‘tarinki ruhda ishlansa, dekorativ haykaltaroshlik asarlarida esa obrazlar biroz yumoristik tarzda talqin etiladi, bo‘rtiriladi. Haykaltaroshlikning bu turida turli hayvon va qushlar shakli keng ishlataladi. Binolarning devorlariga ishlana-digan turli bo‘rtma tasvirlar, amaliy san‘at buyumlarining yuzasi-ga ishlangan tasvirlar ham dekorativ haykaltaroshlikka kiradi. Turli fontanlar, panjaralar, badiiy darvozalar ham dekorativ haykaltaroshlik namunalari sifatida qaraladi. Chinnidan yasalgan turli haykal-chalar, loydan ishlangan o‘yinchoqlar ham shu haykaltaroshlikning ko‘rinishi hisoblanadi. Dastgoh haykaltaroshligiga o‘zida mustaqil mazmunni anglatadigan, san‘atning bosh turlariga tobe bo‘lmagan asarlar kiradi. Bunday asarlar ko‘rgazmalarga qo‘yish, uylarga qo‘yish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Haykaltaroshlikning bu turi-da voqelik o‘zining butun borlig‘i bilan aks etadi. Haykaltaroshlik san‘atining bu turi inson, psixologiyasidagi nozik o‘zgarishlar, uning ichki ruhiy kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati-ga ega. Xuddi shu holda u tabiatdagi mavjud hayvon va jonivorlar ni ishlashda ham ularning hayoti, kuchi, xarakterini ko‘rsata oladi. Dastgoh haykaltaroshligining ko‘rinishlaridan biri byust bo‘lib, u odam gavdasini aks ettiruvchi dumaloq haykal hamda o‘zida bir qator obrazlarni mujassamlashtirgan haykallar guruhi (kompozitsiya) tarzida bo‘ladi. Haykaltaroshlik san‘atining yana bir ko‘rinishi – terrakota hisoblanadi («terrakota» italyancha so‘z bo‘lib, pishirilgan loy ma’nosini bildiradi). Terrakota keng ma’noda loydan yasa-lib, pechda pishirilgan haykaltaroshlik asarlaridir. Haykaltaroshlikda insonning faqat tashqi ko‘rinishi tinch turganligi holati yoki

harakatdagi paytini aks ettirish bilan uning imkoniyati tugamaydi. Undagi kechinmalar, uning hayajon va g‘amg‘inligi, keljakka intilishi va o‘tmishga qayg‘urishi ham o‘z ifodasini topadi. Haykaltarosh asarida insonning tevarak-atrofga bo‘lgan munosabati ham, qalbidagi iztirob ham ishonarli talqin etilishi mumkin. Bunda, al-batta, eng avvalo, haykaltaroshning o‘ta ziyrakligi, odam gavdasi va mimik o‘zgarishlarini to‘g‘ri ifodalashi muhim o‘rinni egallaydi. To‘g‘ri topilgan harakat yuzdagagi mimik holat – bular uning ta’sirli bo‘lishiga zamin tayyorlaydi.

## I. 2. DEKORATIV-AMALIY VA ME’MORLIK SAN’ATI

**Dekorativ-amaliy san’at.** San’atning keng tarqalgan turlaridan biri dekorativ amaliy san’atdir. Bu san’at hayotda ishlatiladigan buyumlar, idish-tovoq, kiyim-kechak, mebel, gilam, o‘yinchoqlar va boshqa shu kabilarni bezatishni o‘z ichiga oladi.

Dekorativ-amaliy san’at asarlari odamlarning kundalik tur-mush ehtiyojlarini qondirish, tevarak-atrofga, park-bog‘, uylarning tashqi va ichki ko‘rinishiga go‘zallik kiritish vazifalariga xizmat qiladi. Bu san’at dastgoh san’atidan o‘zining bevosita xalq ehtiyoji-ga moslanganligi bilan farq qiladi va inson hayotida ishlatiladigan buyumlarning mazmunidan kelib chiqadi va shunga bo‘ysunadi. Dekorativ-amaliy san’atda real voqeliklar (masalan, gullar, hayotiy lavhalar va hokazolar), aks etishi mumkin, lekin ular mustaqil xarakterga ega bo‘lmaydi hamda ma’lum bir buyum mazmuni va shakli bilan bog‘liq bo‘ladi. Tasvirlangan voqealarda shartli elementlar keng o‘rinni egallaydi. Dekorativ san’at buyumlari bir-muncha erkin, ijodkor fantaziyasiga bog‘liq holda yaratiladi va eng avvalo, tevarak-atrofga fayz kiritishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, jimjimador ustun, eshik, darvozalar, devorlarning tashqi va ichki tomoniga ishlanadigan rangli naqsh va bo‘rtma tasvirlarni bunga misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Dekorativ-amaliy san’at juda qadim zamonalarda paydo bo‘lib, xalq hunarmandligi tarzida rivojlandi. O‘zbekistonda dekorativ-amaliy san’at tasviriy san’atning eng qadimdan rivoj topgan yagona va barhayot turi bo‘lib keldi. Chunki san’atning boshqa turlarini (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik) yaratish islom dini tomonidan cheklab qo‘yilgan edi. O‘zbek xalqining amaliy san’at asar-

larida ko'proq chamandek ochilgan gulgul, bog'lar aks ettiriladi. Chunki jazirama issiq ostida, qaqrab yotgan cho'llarni gulzorga aylantirish qadimdan o'zbek xalqiga xos odat bo'lgan. Dekorativ-amaliy san'atga alohida e'tibor berilgan. Dekorativ-amaliy san'at ustalariga katta imtiyozlar yaratilgan, maxsus artellar, ustaxonalar tashkil etilgan. Hozirda yog'och o'ymakorligi, kulolchiligi bilan bir qatorda, o'zbek kashtasi, atlasi, beqasami va boshqa naqsh berilgan har xil jihozlari dunyo xalqlari orasida shuhrat qozondi. Amaliy san'atning eng ko'p tarqalgan va eng ommaviy turi kashtachilik bo'lib, u qadimiy an'analarga ega, o'zbek kashtachiligi, yuqorida aytib o'tganimizdek, ochilgan bog'larni eslatadi. Shuning uchun ham biz o'zbek kashtachiligidagi guldastani, majnuntolni, quyoshni, ba'zan daraxt shoxchasiga qo'ngan qushchalar, hatto hayvon va odam tasvirlarini ham uchratamiz. O'zbekistonning eng qadimiy madaniyat o'choqlari hisoblangan Buxoro va Samarkand so'zanalari o'zining serrangligi, shakllarining turli-tumanligi va ularning nihoyatda nozik tikilishi bilan farqlanadi. Shahrisabzlik ayollar tikkan kashtachilik buyumlari esa ko'proq gilamni eslatadi. O'zbek oilalarida uyning ichki devorlarining tekis qismiga aylantirib ilib qo'yiladigan dorpechdan bezak maqsadida foydalaniadi. ularning past qismida shokila-shokila bo'lib osilib turgan kogillari bo'ladi. Dorpechlardagi bir shakl qayta takrorlanaveradi. Bu gulli daraxt yoki guldastani qator qilib safga tizib qo'ygandagidek manzarani beradi.

O'zbek kashtachiligidagi do'ppi alohida o'rinni egallaydi. Shahrisabzning gilam do'ppisi, Buxoroning zardo'ppisi, Farg'onaning chust do'ppisi, iroqi, duxoba va boshqa do'ppilar O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan. Do'ppi nusxalari ichida eng mashhuri chust do'ppilaridir. Qora atlas (yoki satin) ustiga ipak bilan tikilgan bodom guli (yoki qalampir), kizakka tushirilgan gullar do'ppiga nafislik baxsh etadi. Kashtachilik san'atidagi belbog', dastro'mol, sandalpech, bo'g'macha va turli to'rvachalari ham nafis bezatiladi. O'zbek kashtachiligining an'analari hozirgi kunda ham muvaffaqiyatli ravishda rivojlanmoqda. Kashtachilik san'atida kishilar portretini aks ettirish o'sha davrida paydo bo'ladi.

Nimshohi gazlamalar – beqasam, banoras va adres, atlaslar xalqimiz tomonidan e'zozlanadi. O'zbek xalqi ipak yetishtirishda mohir bo'libgina qolmay, balki shoi-ataslarni to'qigan, uni niho-

yatda yuqori badiiy did bilan bo'yay olgan. Faqat ipakdan tikilgan to'rt, sakkiz, o'n ikki tepkili atlaslar jahonga dong taratgan.

Atlas gazmollar kompozitsion jihatdan turli-tumandir. Hozirgi kunda uning yuzdan ortiq bezash turi bor. Bular, asosan, turli geometrik shakllar, o'simliklarning gul va barglari, uy-ro'zg'or buyumlari va hokazolardan iboratdir. O'zbek kashtachilik san'atida zardo'zlik buyumlari, yorqin va lo'nda gulli gilamlar, jundan tikilgan bejirim jihozlar ham keng tarqalgan, bularga xalqning hayotida turli maqsadlarda hamon foydalanilmoqda.

**Ganchkorlik** – O'zbekistonda amaliy san'atning eng sevimli va qadimiy turlaridan biridir. Amaliy san'atning bu turida Buxoro va toshkentlik ustalar samarali mehnat qilganlar.

Avvallari devorlar o'yma gulli pannolar bilan bezatilar, taxmonlar qirrasiga naqshlar o'yilardi. Tokchalar bo'lsa, o'ymakor yoki jimjima tabaqalar bilan yasatilar, xonaga nur va havo kirib turishi uchun deraza va eshik ustidan tuynuk qo'yib, unga ganch va yog'ochdan panjara o'rnatilar edi. Hozirda qandil, navo, ship kabi me'morchilik detallari ganchlardan tayyorlanmoqda. Shuningdek, madaniyat saroylari, klublar, teatr va uy-joy binolarining ichki va tashqi qismini ko'rishda ganchkorlikdan keng foydalanilmoqda. O'zbek ganchkorligining ajoyib sahifasini Buxoro yaqinidaagi «Sitorayi-mohi xossa»dagi «Oq uy»da, Toshkentdagagi Navoiy nomli katta opera va balet teatrida ko'rish mumkin. San'atning bu ajoyib va murakkab turida ustalardan Usta Shirin Murodov, Toshpo'lat Arslonqulovlar dong taratganlar. Amaliy san'atning yog'och o'ymakorligi turi xalqlarning ko'pchiligidagi qadimdan mavjud bo'lib, o'zining boy an'analariga ega. Yog'och o'ymakorligi asarlari eshik, deraza, quti, xontaxta, kitob tokchalari, qutichalar, qanddon, ustunlar, panjaralar, o'yinchoqlarda o'z aksini topgan. O'zbekistonning xalq san'atida yog'och o'ymakorligi salmoqli o'rinni egallaydi. Bu borada Xiva ustalarining ishlari maqtovga loyiqidir. Ular ishlagan asarlar o'simliksimon elementlarning ko'pligi va bo'rttirib ishlanganligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Toshkent ustalari esa ko'proq «girih» usulida ishlab, geometrik ornamentlardan ko'p foydalanishadi.

Yog'och o'ymakorligi san'atida musiqa asboblarni bezash ham alohida o'rinni egallaydi. Dutor va tanburlarga, tor va changlarga suyak va sadaflardan qadalgan chiroyli naqshlar kishi-

ni hayratda qoldiradi. Bu san'at hozirgi vaqtida Toshkentda keng rivojlangan.

O'ymakorlik san'atining ajoyib turlaridan biri misgarlikdir.

O'zbek misgarligi san'ati juda qadimdan shuhrat qozonib keldi. Sariq va qizil misdan ishlangan turli xil xo'jalik va uy-ro'zg'or buyumlari juda nozik shakllar bilan bezatiladi. Bezatilgan mis asboblar Buxoro, Qo'qon, Samarcand, Qarshi va Xiva shaharlari da ko'proq yasaladi. Misgarlikda bu shaharlar ustalarining o'zicha ishlash uslubi bor. Lagan, patnis, chloy idish, oftoba va obdastalar misgarlik buyumlari ichida eng ko'p tarqalgan buyumlardir.

Suyak o'ymakorligi amaliy san'atning shimolda keng tarqalgan turidir. Suyak o'ymakorligi buyumlarining o'ziga xos tayyorlanish uslubi bor. Bunda ish, avvalo, zarur materialni topishdan boshlanadi. Keyin materialning notekis joylari egov bilan, mayda jilvir qog'ozda tekislab chiqiladi. So'ngra unga rasm ishlanib, lak surtiladi va naqsh o'yib ishlanadi. Tayyor ishga keyin pardoz beriladi. Tayyor buyum bo'r va spirit bilan artib chiqiladi. Partam, arracha, egov va boshqalar suyak o'ymakorligida qo'llanadigan asboblardir. Suyak o'ymakorligi ustalari ota-bobolarining eng yaxshi an'analarini davom ettirib, ajoyib asarlar – qutichalar, trubkalar, kichik-kichik haykal va hokazolar yaratmoqdalar.

Qadimdan uy-ro'zg'or buyumlariga bo'yoqlar bilan ajoyib naqshlar ishlanib kelgan. Bu ham naqqoshlik san'ati deb yuritiladi.

Respublikamizda amaliy san'atning bu turi, qadimdan rivojlangan bo'lib, o'zbek ustalari faqat uy-ro'zg'or buyumlarini emas, balki uy-joy va jamoat binolarining devor va shiplarini ham bezaydilar. San'atning bu turida har bir xalq o'zicha ijod qiladi. Masalan, rus amaliy san'atida tekislangan yog'ochga usta o'simliksimon naqsh rasmini tushiradi, keyin unga maxsus bo'yoqlar beradi. U bir oz qurigandan so'ng bo'yog'i o'chib ketmasligi uchun ustidan bir necha bor tiniq lak surtiladi. O'zbek rassom ustalarining ish uslubi boshqacharoqdir. Bu ustalar eskiz bo'yicha duradgor ishlagan yog'ochga yelim surtadilar. Jilvir qog'oz bilan yelim tozalangandan so'ng materialga bronza beriladi. Keyin bronza ustidan ulgi asosida kompozitsion tasvir, uning ustiga qora bo'yoq surtib, naqsh ishlanadi. Naqshlarning o'chib ketmasligi uchun naqsh ustidan bir necha bor toza lak surtiladi.

Xalq ustalari tajribasida naqshning quyidagi turlari ko‘proq qo‘llanadi: islumi – egri chiziqli o‘simlik elementlaridan iborat naqsh; Girih – to‘g‘ri chiziqli elementlardan geometrik shakl hosil qiluvchi naqsh; murakkab naqsh, bu avvalgi ikki guruhdagi naqsh (islumi va girih) elementlarining yig‘indisidan iborat. Islimi turidagi asosiy elementlar novda, yaproq, gul, g‘uncha, kurtak, qalampir, meva, poya kabilar hisoblanadi. Poya va novda turli naqshlarning eng ko‘p uchraydigan elementlari hisoblanib, ular naqsh hoshiyalarda qo‘llaniladi. Girihsalar esa tursimon va yulduzsimon bo‘lib, yulduz nurlarining soni 5 tadan 16 tagacha boradi. Naqshning uchinchi turi hisoblangan murakkab naqshda esa naqsh geometrik va o‘simlik elementlarining birga qo‘shib ishlatalishi natijasida hosil bo‘ladi. Bunda geometrik element doimo naqsh o‘rtasida joylashadi.

Naqqosh ustalardan A. Qosimjonov, Y.Raufov, T.To‘xtaxo‘jáev, A.Boltayev, S.Norqo‘ziyev va J.Hakimovlar san’atning bu turida samarali mehnat qilib, shuhrat qozonganlar.

Tabiiy loydan turli idishlar yasash va ularni tegishli ranglarga bo‘yash – kulolchilik O‘zbekistonda juda qadim zamondan rivojlangandir. Kulolchilik san’ati buyumlariga lagan, tovoq, choynak, piyola, sopol va chinni idishlar, shuningdek, loydan ishlangan o‘inchoqlar kiradi.

Kulolchilik san’atida bezatishning turli usullari qo‘llaniladi. Shunday usullardan biri «qalam» usulidir. Bu usulda bezak idishlarga naqshlarning rasmi chizib olinmasdan to‘g‘ridan to‘g‘ri mo‘yqalam bilan ishlanaveradi. Bu usulda ko‘proq Rishton bilan G‘ijduvon ustalari ishlashadi. Ba’zi joylarda ustalar gilvata orqali gul chizib, keyin bo‘yoq beriladigan «chizma» usulidan foydalana-dilar. Bu usul toshkentlik ustalar orasida ko‘p tarqalgan.

O‘zbek kulolchilik buyumlari bezak kompozitsiyalarida o‘simliksimon va geometrik elementlarning boyligi, xilma-xilligi, bo‘yoqlar gammasing yorqinligi bilan ajralib turadi. Ularda feruza rang baxt keltiruvchi belgi sifatida ko‘p ishlataladi. Kulolchilik O‘zbekiston me’morchiligidagi ham keng qo‘llanilgan. Madrasa, masjid, karvonsaroy, hammomlarning peshtoqlarida xona ichlaridagi devor bezaklarida kulolchilik san’atining namunalari o‘z aksini topgan. Hozirgi kunlarda ham kulolchilik jamoat, turar-joy binolarini bezatishda keng qo‘llanilmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda bir qator usta kulollarni birlashtirgan bir qator kulolchilik ustaxonalari bo'lib, ular xalqimiz talablariga va didiga mos amaliy san'at buyumlari yaratmoqdalar. O'zbekiston kulolchilik san'atini rivojlantirishda kulppardan U.Jo'raqulov, M. Rahimov, U. Usmonov, I. Nazrullayev va boshqa qator ustalar o'zlarining salmoqli ulushlarini qo'shamoqdalar. Kulolchilik boshqa xalqlar orasida ham keng rivojlangan. O'tgan asrlarda kulolchilik Moskva gubernasining Gjel shaharchasida keng shuhrat qozondi. Gjel kulolchilik korxonasida o'tmishda ganch, loydan kichik-kichik kompozitsiyalar yaratilib, ularning sujetiga portretlar, turmushda uchraydigan har xil voqealar, hayvonlarni tasvirlovchi o'yinchoqlar asos qilib olinar edi. O'tgan yillarda kulolchilik arteli tashkil qilinib, unda gjel ustalari ota-bobolarining san'atlarini davom ettirib, mavzuli asarlar va o'yinchoqlarning yangi namunalarini yaratmoqdalar. Gjel ustalari ishlab chiqarayotgan chinni buyumlar o'simliksimon va geometrik shakl bezaklarining boyligi bilan ajralib turadi.

O'rta Osiyo xalqlari qadimdan o'zlarining zardo'zlik san'atlari bilan fahrlanadilar. Zardo'zlik uchun asosiy material zar iplar, baxmal kabilardir. Ustalar zar tikishning ikki turini qo'ilashadi. Birinchisi, fonni zar bilan tikib to'ldirish va ikkinchisi, naqshlarni zar bilan tikib to'ldirish. Chevarlar ornamental va mazmunli kompozitsiyalarda ko'pincha o'simliklarni tasvirlaydi, gullar, barglar, bodom to'plari, paxta shular jumlasidandir. Keyingi vaqtarda zargarlik buyumlarida jonli narsalar tasvirlanadigan bo'ldi.

Qadimdan zardo'zlik Buxoro va Samarcand shaharlarida keng rivojlangan. O'tgan yillar davrida zardo'z ustalariga sharoit yaxshilanishi natijasida ularning ishlari ijodiy yo'nalish oldi. Natijada har xil sovg'a va ommaviy zardo'zlik buyumlari yaratila boshlandi. Hozirgi vaqtida zardo'zlik buyumlari Buxorodagi zardo'zlik maxsus fabrikasida ko'plab ishlab chiqilmoqda.

### **Me'morlik san'ati**

Inson hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan san'at me'morlik san'atidir. Bu san'at ham san'atning boshqa turlari singari o'zida inson aqliy faoliyati, tabiatiga bo'lgan munosabatlarini aks ettiradi, ijtimoiy tuzum xarakterini ochib beradi, jamiyat ideologiyasini

o‘zida ifoda qiladi. Bu san’at inson bilan birga paydo bo‘ldi. U o‘zini dastlab yog‘in-sochindan, issiq-sovuqdan himoya qilish, tunlari xotirjam yotish uchun joylar qurdi. Bu joylar tosh, yog‘och, loylardan qurildi, tabiiy g‘ordar turar-joy manzillariga aylantirildi. Vaqt o‘tishi, inson onginging taraqqiy etishi bilan uylar, saroy va ibodatxonalar vujudga keldi. Istehkom, qal’a, shaharlar, ko‘prik va keng yo‘llar qurildi. Zavod-fabrikalar, yirik kosmodromlar – bular ham davr taqozosи bilan maydonga kelgan me’morlik san’atining turlaridir. Me’morlik san’ati ham san’atning boshqa turlari singari inson psixologiyasiga ta’sir etadi, uning kayfiyatini belgilaydi, ish qobiliyatiga, dunyoqarashiga, fikrlashiga ta’sir etadi. Shu boisdan bu san’at ham juda qadimdan sinfiy xarakterga ega bo‘lib, ijtimoiy tuzum xarakterini o‘zida ifodalab kelgan. Bu holni bizgacha saqlanib kelgan turli davrlarga mansub bo‘lgan me’morlik yodgorliklarini taqqoslab bilish mumkin.

Me’morlik san’atida geometrik shakl va hajmlar asosiy ifoda va tasvir vositasi hisoblanadi. Shularning turli xildagi nisbat va joylanishlari, o‘zaro kombinatsiyalari ma’lum me’morlik kompozitsiyasini tashkil etadi. Bu o‘rinda Buxorodagi mashhur Ismoil Somoniy maqbarasini olib ko‘raylik. Bu bino asosan to‘rt yoqli prizma va yarimshar – gumbazdan tashkil topgan. Ular hamkorlikda yagona me’morlik kompozitsiyasini tashkil etadi. Bu geometrik shakllar, o‘z navbatida, dekorativ bezaklar hisobiga boyitilgan. Maqbara devoridagi oq-qora soyalar esa uning badiiy qiymatini yanda oshirgan. Bu yodgorlikda o‘rinli topilgan nisbatlar, dekorativ elementlarning o‘z o‘rniga tushganligi uni tugal badiiy asar darajasiga ko‘targan.

Me’morlik san’ati bir necha turlarga bo‘linadi. Bular uy-joy qurish san’ati, shahar qurish san’ati, sanoat va suv inshootlari qurish san’ati hamda jamoat va ma’muriy binolar ko‘rish san’atidir. Bular ham o‘z o‘rnida yana qator turlarga ajraladi. Bu turlarning har biri o‘ziga xos funksiya va xarakterga ega bo‘lib, ular binolarning loyihasi, tashqi va ichki ko‘rinishi, badiiy bezatilishi bilan ajralib turadi. Har bir me’morlik yodgorligining qiymati va go‘zalligi shu yodgorlikning o‘z maqsadiga, vazifasiga to‘liq javob berishidadir. Masalan, teatr binosining tashqi ko‘rinishi, badiiy bezaklari, maktab yoki fabrika binosining tashqi ko‘rinishi, badiiy bezatilishidan butunlay farq qilishi o‘z-o‘zidan ma’lum. Shuning uchun ham

qurilgan binoning funksiyasi va xarakteri uning tashqi va ichki bezatilishida, ko‘rinishida ifoda etiladi va bir-biridan ajralib turadi. Me’morchilikdagi bu talablarni hisobga olmaslik uning kishi asabi-ga tegish, charchatish hollarini keltirib chiqarishi mumkin.

## II BOB.

### JAHON SAN’ATI TARIXIDAN MA’LUMOTLAR.

#### II. 1. QADIMGI DUNYO SAN’ATI

Qadimgi dunyo san’ati deyilganda, ko‘p hollarda ibtidoiy jamaoa tuzumidan to quldarlik tuzumining inqirozga yuz tutishigacha bo‘lgan davr san’ati tushuniladi. Shu davrda hashamatli me’morlik binolari, nafis dekorativ-amaliy san’at buyumlari, chuqur mazmunli tasviriy san’at asarlari maydonga keldi.

Qadimgi dunyo tarixida bir qator muhim madaniyat o‘choqlari bo‘lganki, bularning mavjudligi keyinchalik yer yuzida san’at va madaniyatning ravnaqiga, kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Shunday madaniyat o‘choqlari orasida ikki daryo oralig‘i (Messopotamiya), Misr, O‘rta Yer havzasidagi davlatlar, ayniqsa, Gretsiya, Rim davlatlarning roli benihoyadir. Misrda 5000 yil burun ilk sinfiy jamiyat – quldarlik davlati paydo bo‘ldi. Misrning tabiiy sharoiti insonni juda erta hayotga, hayot uchun kurashishga da’vat etdi. Bu hol, o‘z navbatida, uning ongingin o‘sishiga, tasavvurining kengayishiga olib keldi, aql taraqqiyotini tezlatdi. Meditsina, astronomiya, matematika rivojlan-di. San’at sohasida katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Qadimgi Misrda yaratilgan haykaltaroshlik, rassomchilik, amaliy-dekorativ san’ati va me’morchilik yodgorliklari hanuzgacha o‘zining badiiy qiymatini yo‘qtogani yo‘q. Tasviriy san’atda shartli belgilardan foydalanish Misr san’atida juda erta boshlandi va uning xarakterli tomonini tashkil etdi. Misrliklarning bunday badiiy fikrlashlarini ular yaratgan sfinkslarda ham ko‘rish mumkin. Odam boshli, sher (arslon) tanali haykallar orqali inson kabi aqlli, arslon kabi kuchli zotlar timsolini yaratganlar. Shu obrazlar orqali fir‘avnlarni kuchli va donishmand siymo darajasiga ko‘tarishga, ilohiylashtirishga harakat qilganlar. Shu bilan Misr san’atida realistik san’at oqimining mavjudligini ham inkor etib bo‘lmaydi. Bu hol, ayniqsa, oddiy xalq hayotiga bag‘ishlangan tasvirlarda ko‘proq

uchraydi. Oddiy turmush voqealari jonli, real va ba'zan yengil yumor bilan ishlangan tasvirlar kishida hamon estetik zavq va yengil kulgi uyg'otadi. Turli qushlar, hayvonlar (yovvoyi mushuk, maymun, qo'ng'iz va hokazolar) tasviri realligi va ta'sirchan ishlanganligi bilan kishi xotirasida yaxshi saqlanadi.

Misr san'atida mavjud bo'lgan bu realizm oqimi, ayniqsa, Fir'avn Exnaten (Amen Xoap IV) davrida yuksak kamolotga erishi di. Shu davrda yaratilgan nodir haykaltaroshlik namunalaridan biri bo'lgan Nefertiti haykali hozirgi kunda ham go'zallik ramzi tarzida kishiga quvonch baxsh etadi. Bu haykal o'zining ishlanish mahorati, o'rinli topilgan material (sarg'ish qumtosh) obrazning yana da latofatli va ko'rkam bo'lishiga xizmat qiladi. Ochiq chehra, tabassumga shaylanib turgan lablar, katta ochilgan ko'z, qirra burun – bularning hammasi ayollarga xos nafis va nazokatli xislatlar ni ochishga yordam beradi. Misr san'atida me'morchilik yetakchi o'rinni egallab kelgan, san'atning boshqa turlari esa shu san'at bilan bog'liq holda rivojlangan. Misr me'morchiligining namunalaridan biri – bu mastaba va piramida(ehrom)lardir. Shularning ichidagi eng yirik fir'avn ehromi bu Giza yaqinidagi Xeops piramidasidir. Bu piramidaning balandligi 146,6 m, asosining uzunligi 233 m. U hozirgi kunda ham yaxshi saqlanib qolgan. Tarixchi Gerodotning gapiga qaraganda, bu piramida 30 yil mobaynida qurilgan. Uni qurish uchun 100 000 qul haydab olib kelingan va ular chet eldan keltirilgan qullar hisobiga to'ldirilib borilgan. Piramida og'irligi 2–3 tonnali ohaktoshdan qurilgan bo'lib, uni qurish uchun 2 300 000 ohaktosh bo'lagi ishlatilgan. Bu piramidalarning vazifasi faqat maqbara ustiga qo'yilgan yodgorlik toshi emas. Bular, avvalo, fir'avnlarni ulug'lash, ularni ilohiylashtirish va shu bilan fuqarolarda podsho hokimiyatining mustahkamligiga ishonch tug'dirish va ularni doim qo'rquv asoratida saqlash va itoatkor bo'lishini ta'minlash edi.

Misrda saroylar va ayniqsa, ibodatxonalar qurilishiga alohi da ahamiyat berilgan. Har bir qurilgan saroy va ibodatxonalar ning ichki va tashqi tomoni tasviriy san'at asarlari bilan bezatilgan. Shunday muhtasham ibodatxonalar qurilishi, ayniqsa, yangi podsholik davrida (eramizdan avvalgi ikki minginchi yillar) keng taraqqiy etgan. Bu davrda yaratilgan Luksor va Karnak ibodatxonalarida g'oyat katta ustunli zallar, ochiq ustunli hovlilar bo'lgan, uning

kiraverishiga mustahkam minor (pilon)lar tiklangan, ro'parasiga esa sfinkslar galleyasi ishlangan. Ibodatxonaning devorlari devoriy surat, bo'rtma tasvir va ieroglislar bilan qoplangan.

Qadimgi dunyo san'ati taraqqiyotining keyingi bosqichi qadimgi Gretsya bilan bog'liqdir. Qadimgi Gretsyaning eng gullagan davri eramizdan avvalgi V—IV asrlarga to'g'ri keladi. Bu Gretsyaning klassika davri hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan me'morlik, tasviriy va amaliy-dekorativ san'at yodgorliklari hanuzgacha o'zining qiymatini yo'qtgani yo'q. Klassika davrida Gretsiyada bir qator ibodatxonalar, teatrлar, majlis zallari qurildi, shaharlarni planlash-tirish paydo bo'ldi. Grek me'morligining yutuqlaridan biri — bu orderlar tizimini yaratish edi. Bu tizimda binolarning ko'taruvchi va ko'tariluvchi qismlarining bir-biriga hamohangligi muvofiq kelishining qat'iy tartibi ishlab chiqildi. Grek me'morchiligidan yaratilgan doriy, ioniy va korinf orderlari keyinchalik jahon me'morchiligi rivojiga katta ta'sir qildi. Grek me'morchiligidan paydo bo'lgan doriy orderi eramizdan avvalgi VII—VI asrlarga to'g'ri keladi.

Doriy uslubida qurilgan binolarning ko'rinishi sodda, salobatli va vazmin ko'rindi. Ustunlari yo'g'on va baquvvat, tepe qismi, ya'ni kapiteli sodda va ko'proq trapetsiya shaklida bo'ladi. Doriy ustunlari to'g'ridan to'g'ri dolga o'rnatiladi. Ioniy orderi eradan avvalgi V asrda paydo bo'lgan. Bu orderda ishlangan binolar ko'rinish jihatdan ixcham, nafis bo'ladi. Ustunlar esa birmuncha ingichka bo'lib, uning kapiteli ikki gajakli naqshlar — volyutalar bilan bezalgan.

Ioniy orderi polda emas, balki pol ustida o'rnatilgan tagkursida — bazada bo'ladi. Korinf orderi eramizdan avvalgi IV asrda paydo bo'lgan. Bu order o'z ko'rinishi bilan birmuncha ioniy orderiga o'xshasa ham, lekin uning ustunlari uzunroq baza va kapiteli badiiy ishlanishi jihatidan murakkab bo'lib, kapiteli akanf o'simligi yap-roqlari bilan bezatilgan.

Grek me'morligining eng nodir yodgorligi Afina akropolida saqlanib qolgan Parfenon ibodatxonasıdır. Bu ibodatxona jahon me'morchiligining nodir durdonasi hisoblanadi. Doriy va ioniy orderlarida oq marmardan qurilgan, haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan bu bino o'z nisbatlarining mutanosibligi, ustunlarining ohangdorligi, binoning yaxlit badiiy butunligi inson aql-zakovati-

ning tabiat ustidan hukmdor ekanligini tarannum etadi, doim nur, kenglik va koinotga intilgan insonni kuylaydi. Qadimgi Gretsiyada haykaltaroshlik san'ati muhim o'rinni egalladi. Gretsiya haykaltaroshligi eramizdan avvalgi V asrda, ayniqsa, rivoj topdi. Bu davrda yashab ijod etgan yirik haykaltaroshlar Miron, Poliklet, Fidiy asarlarida grek ijtimoiy ideali o'zining badiiy ifodasini topdi. Jismoniy go'zal, ma'naviy barkamol, o'z grajdanolik burchini chuqur his qiladigan inson unga eng go'zal ideal bo'lib hizmat qildi.

Diskobol (disk otuvchi) klassika davrining mashhur haykalidir. Uning muallifi Miron. Bu haykalda san'atkor harakatni, aniqrog'i, tinchlikdan harakatga o'tishni ustalik bilan ko'rsata olgan. Kompozitsiyaning tabiiy holda echilishi, yuz mimikasidagi xotirjam va o'z kuchiga ishonch asar mazmunini yanada chuqurlashtiradi. Grek haykaltaroshligidagi yangi taraqqiyot bosqichi eramizdan avvalgi IV asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda insonning individual xislatlari, his-hayajonini ochib berishga, insonning jismoniy go'zalligini kuylashga intilish kuchayadi. Bu o'rinda shu asrda yashab ijod etgan Skopas, Lisipp hamda Praksitel haykallari xarakterlidir. Skopas o'z asarlarida jismoniy ruhiy azoblarni tasvirlashga harakat qilsa (masalan, yaralangan jangchi haykali), Lisipp aksincha, jismoniy va irodasi kuchli kishilar tasvirini ishlashga e'tibor beradi (masalan, sher bilan olishayotgan Geraql haykali), Praksitel esa insonning jismoniy go'zalligini kuylaydi (masalan, Knidli Afrosita haykali). Grek san'atida rangtasvir san'ati ham rivojlanganligi ma'lum. Lekin, bizning zamonamizgacha uning namunalari yetib kelmagan. Biz bu san'at taraqqiyotini kulolchilik namunalarining yuzasiga ishlangan qizil va qora figurali tasvirlar, yozuv manbalari orqali tasavvur qilamiz. Kulolchilik buyumi namunalari, ularning yuzasiga ishlangan tasvirlar, shuningdek, bizga qadimgi grek dekorativ-amaliy san'ati haqida ham fikr yuritish imkoniyatini beradi. Antik davrning so'nggi madaniyat o'chog'i qadimgi Rimdir. Rim o'zining me'morlik san'ati, portret-haykal va tarixiy bo'rtma tasvir yaratish san'ati borasida katta yutuqlarga erishdi.

Rimliklar qadimiylar xalqlar san'atiga hurmat bilan qarab, uning ijobjiy tomonlarini chuqur o'rgandilar. Ayniqsa, grek san'atining ta'siri kuchli bo'ldi. San'atkor bo'lishni istagan har bir rimlik greklar yaratgan haykaltaroshlik, rangtasvir asarlaridan nusxa ko'chirishini o'zining sharaflı burchlari deb bildilar. Shuningdek, ular musta-

qil ravishda tasviriy san'atda yangi kompozitsiyalar, me'morlikda yangi konstruksiyalar yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Bu yutuqlar rimliklar tomonidan yaratilgan ma'muriy bino va hashamatli saroylarda, go'zal va ko'rkan ibodatxonalar, tomoshagohlarda, tosh to'shalgan keng ko'cha va osma suv quvurlarida (akveduklarda), zafar arki va ustunlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bular jahon ma'morchilik san'atiga qo'shilgan buyuk hissadir, 56 ming tomoshabinga mo'ljallangan Kolizey amfiteatri, antik dunyoning eng katta ibodatxonasi bo'lgan Panteon binosi, Troyan ustuni hanuzgacha o'zining qaytarilmas jozibasi va ulug'verligi bilan kishi ko'ngliga g'ulg'ula solib keladi. Rimliklar haykaltaroshlik san'ati borasida ham katta muvaffaqiyatga erishdilar. Ularning portret-haykal, aniq tarixiy shaxsga bag'ishlangan Haykal-monument va tarixiy voqealarni o'zida bataysil hikoya qilish kuchiga ega bo'lgan bo'rtma tasvir – relyef sohasidagi yutuqlari jahon haykaltaroshlik san'atini yanada boyitdi. «Gretsiya bilan Rim qurib bergen poydevor bo'lmaganda – hozirgi Yevropa ham bo'lmas edi», – degan edi F. Engels. Bu so'zlar grek va Rim madaniyatining jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasining naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Qadimgi Gretsiya va Rim san'atining o'lmas hayotbaxsh kuchini ko'rsatadi.

## II. 2. O'RTA ASRLAR SAN'ATI

O'cta asr tarixi feodalizmning shakllanishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi yillarini o'z ichiga oladi. Bu formatsiyaning davriy chegarasi turli mamlakatlarda (Sharq va G'arb mamlakatlari ko'zda tutiladi) turlicha davom etdi. Jumladan, Yevropadagi ko'pgina mamlakatlarda O'cta asr 476-yilgi Rim imperiyasining qulashidan to XVII asrning 40-yillarigacha, aniqrog'i, Yevropadagi birinchi burjua inqilobi – ingлиз inqilobigacha bo'lgan davrni, aksincha, Sharq mamlakatlari, jumladan, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlarda III asrdan boshlanib, XIX asr boshlarigacha davom etgan davrni o'z ichiga oladi. Shu davrlarda mavjud bo'lgan san'at O'cta asr san'ati deyiladi. O'cta asr san'ati insoniyat san'ati taraqqiyotining yangi bosqichi bo'ldi. U ko'proq omma hayotiga singib bordi. Xalq, o'z navbatida, san'atning rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. San'atda milliylik yaqqol sezila boshladi. Agar qadimgi

dunyo tarixida, yirik madaniyat o'chog'lari Misr, Rim, Gretsya, Mesopotamiya bo'lgan bo'lsa, O'rta asrda esa bunday yirik madaniyat markazlarining soni ortdi. G'arbiy Yevropa, Vizantiya, Eron, O'rta Osiyo, Qadimgi Rus, Xitoy, Hindiston shu davrdagi muhim madaniyat o'chog'i, jahon san'ati taraqqiyotining muhim zamini bo'ldi. O'rta asr san'ati ko'p hollarda din bilan bog'liq holda rivojlandi. Din ideologlari esa asosiy buyurtmachi (zakazchik) bo'lib qoldilar. Shu boisdan san'atkorlar o'z-o'zidan din ideologiyasini targ'ib etuvchilarga aylandilar. Din ta'siri shu davrda san'atning shakli va mazmunida o'z ifodasini topdi. Buni xristian dini tarqalgan yerlarda cherkovlar, islom dini mamlakatlarida masjidlar, budizm mavjud bo'lgan joylarda Buddha va uning hayoti bilan bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar, ibodatxonalar paydo bo'lishi, ularning konstruktiv tuzilishi va xarakterida ko'rish mumkin. Albatta, O'rta asr san'atida faqat din ideologiyasidan boshqa g'oya yo'q, deyish noto'g'ri bo'lardi. Hayot go'zalligini tarannum etuvchi, tabiat latofatini aks ettiruvchi asarlar yo'q emasdi. Hayot fantaziyasi bilan yaratilgan ertak va dostonlarda, tasvir va haykallarda ularning oljanoblik, insoniylik, ma'naviy poklik, tabiat go'zalligiga muhabbat tuyg'ulari, o'y-xayollar, orzu-istaqlari o'z ifodasini topdi. O'rta asr san'atida me'morlik san'ati yetakchi o'rinni egalladi. San'atning qolgan turlari esa (rangtasvir, haykaltaroshlik) u bilan bog'liq holda rivoj topdi.

O'rta asr me'morlik san'atining juda ko'p nodir yodgorliklari bizgacha saqlanib qolgan. Bu yodgorliklarda, ayniqsa, monumetal me'morlik san'ati O'rta asr ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini bilishda muhim o'rinni egallaydi. Ular davrning diniy falsafiy qarashlarini aks ettiribgina qolmay, balki shu bilan birga, inson aql-zakovatining qudratini ko'rsatdi.

Bu davrda qurilgan Yevropadagi ibodatxonalar, musulmon sharqidagi hashamatli masjidlar o'rta asr tafakkurining mahsuli, insoniyat tarixining haykali sifatida hanuzgacha kishilar qalbini to'lqinlantiradi.) Buyuk inson aql-zakovati qudratiga ta'zim etishga da'vat etadi.

X-XII asrdagi Yevropa san'ati odatda roman san'ati deb yuritiladi. «Roman» iborasi shartli bo'lib, lotincha rimniki, degan so'zdan olingan. Bu san'at namunalarini Fransiya, Germaniya, Italiya va G'arbiy Yevropaning boshqa joylarida uchratish mum-

kin. Roman uslubidagi binolar o‘zining vazminligi, bo‘yini birmuncha past qilib ishlanganligi, devorlarning qalnligi, ishlatilgan ustunlarning yo‘g‘on va birmuncha dag‘alligi, darvoza va ayniqsa, derazalarining ensizligi bilan boshqa uslubda ishlangan binolardan ajralib turadi. Roman uslubida qurilgan ibodatxonalarining tashqi va ichki tomonlari (devorlari) tasviriy san’at asarlari (haykaltaroshlik, rassomlik) bilan bezatilgan. Roman ibodatxonalarining ichki tomonini (interyer) bezashda devoriy surat va vitrajarlar keng qo‘llanilgan. Buni Fransiyaning Puatye shahridagi Notr Dam Grand ibodatxonasida ham ko‘rish mumkin. Bu ibodatxona ko‘rinish jihatidan birmuncha past, tosh devorlari qalin va salobatli qilib ishlangan. Uning kichik, tor darchalari bu devorlar qalnligini yanada bo‘rttirib, vazminligini oshiradi. Bu ibodatxona uch nef (zal)dan iborat. O‘rtadagi nef ikki yon tomondagi nefdan biroz baland, u yerdagi mayjud darchalar ichkariga nur tushishiga xizmat qiladi. Bino devorlari haykaltaroshlik asarlari, turli me’morchilik dekorativ elementlari bilan bezatilgan. Masalan, yarim kolonna, yarim aylana shaklidagi ark va hokazolar. Bular binoning jiddiy ko‘rinishiga latofat kiritadi.

Yevropada feodalizmning gullagan (XII–XV asrlar) davridagi san’atni gotika san’ati deb yuritiladi. «Gotika» iborasi ham shartli olingan. Uning lug‘aviy ma’nosи italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, «gotlarniki» degan mazmunni bildiradi (Gotlar german qabilalaridan biri). Bu ibora Uyg‘onish davrida kiritilgan bo‘lib, san’atda got qabilalari san’ati ta’siri kuchliroq bo‘lganligini bildiradi. Gotika san’ati bevosita roman san’ati an’analalarini rivojlantirib, uni yangi bosqichga olib chiqdi. Gotika san’ati ham cherkov g‘oyalarini shartli belgi va simvolik obraslarda talqin etishga harakat qildi. Shu bilan birga, bu san’at bag‘rida yangi tendensiyalar – hayotiy tabiat shakllariga qiziqish, inson ruhiy olamini ochishga intilish kuchaya bordi. Gotika san’atining xarakterli tomonlari me’morchilikda yaqqol namoyon bo‘ladi. U roman me’morchiligidan o‘zining ko‘rkamligi va yengilligi bilan ajralib turadi. Gotika me’morchiligidida hamma dekorativ elementlar ochiqlikka, falakka intilayotgandek qilib ishlangan bo‘lib, bu davr kishilarining ozodlikka, yorug‘likka, hayotga intilishlarini belgilaydi.

Me’morchilik binosidagi shu g‘oyalar arkarda ham ko‘zga tashlanadi. Ibodatxonalarining kiraverishida atirgulga o‘xshash qilib ish-

langan vitrajlar binoga alohida go'zallik baxsh etadi. Gotika binalarining devorlariga, peshtoqlariga ishlangan tasvirlarda realistik tendensiyalar kuchayadi. Gotika uslubida qurilgan binolar baland bo'lib, uning ichki qismidagi nafis ustun binoning jozibasiga yanada joziba qo'shami. Keng va baland rangdor zinali darvozalar, ulug'ver eshiklar binoni shohona qilib ko'rsatadi. Gotika me'morligi namunalari hozirgi kunda ham Fransiya, Germaniya, Angliya, Polsha, Chexiyada o'zining qaytarilmas go'zalligi bilan kishini xayol dunyosiga boshlaydi. O'rta asr me'morligi san'ati to'g'risida gapirliganda Vizantiya me'morligi san'atini (uning nodir yodgorligidan biri Konstantinopoldagi avliyo Sofiya ibodatxonasi), Buddizm me'morlik san'atini (Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan) eslamay bo'lmaydi. Bular ham o'zining qaytarilmas jozibasi, g'oyaviy mazmuni bilan kishiga ma'naviy qoniqish baxsh etadi, insoniyat tafakkuri to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi.

O'rta asr me'morlik san'atida islom me'morligi ham (Yaqin Sharq, Old Osiyo, O'rta Osiyoda tarqalgan me'morlik uslubi) jahon me'morlik san'atida muhim ahamiyat kasb etdi. Islom me'morligida ko'rilgan masjid, madrasa, maqbara, turli minoralar, bezaklar, naqshlar, suls va kufiy uslubida yozilgan yozuvlar hamda rang-barang sirkor parchalar bilan bezatilib, ular qiyofasining serhasham va nazokatini oshirgan. Binolardagi gumbaz va minoralar esa uning yanada dabdabali bo'lishiga xizmat qilgan. Samarqanddagagi Bibi-Xonim va Shohi Zinda ansamblisi, Ispaniyadagi Algambra masjidi, Hindiston, Afg'oniston, Arab mamlakatlaridagi qator yodgorliklar islom me'morligi san'atining nodir yodgorliklari hisoblanadi.

O'rta asrda dekorativ-amaliy san'at ayniqsa kamol topdi. No'ma'lum xalq ustalari yaratgan rang-barang buyumlar hanuzgacha o'zining nafosat bilan tanlangan ranglar tovlanishi-yu, chiziqlar jozibasi, ishlatilgan material imkoniyatlarining emotsiyonal ta'sir kuchidan o'rinni va mohirona foydalilanligani bilan kishi diqqatini o'ziga tortadi. O'rta asrlarda tasviriy san'atda ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrga kelib uning tur va janrlari kengaydi. Inson ruhiy olamini ochib berishga intilish ko'pgina san'atkorlarni o'ziga tortib, ifoda vositalarining ham yangilanishiga, yanada ta'sirchan bo'lishiga olib keldi. San'atkorlar san'at orqali katta fikrlarni ba-

yon etishga intilib, turli xildagi ramziy obrazlarga murojaat qildilar, allegoriyalardan foydalandilar. O'rta asr san'atining xarakterli tomonlaridan biri turli xildagi shartli belgi va obrazlarga murojaat qilinishi. Qadimgi dunyo san'atidan ilgarilab ketdi. O'rta asr rassomi (haykaltaroshi ham) tasvir ishlaganda uni real voqelikka o'xshatishni emas, balki shu tasvir orqali biron-bir fikrni ilgari surishga harakat qildi.

## II. 3. UYG'ONISH DAVRI SAN'ATI

XIII asr oxiri va XIV asr boshlaridan e'tiboran, din o'z kuchi va obro'sini yo'qota bordi. Odamlar real dunyoga qiziqa boshladilar. Bu qiziqish yangi-yangi kashfiyotlar, yangi qit'alarning ochilishiga olib keldi. Fan, adabiyot, san'at misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. «Bu – insoniyat shu davrgacha o'z boshidan kechirgan hamma o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi, bu shunday davr ediki, bu davr ulug' siymolarga muhtoj edi va bu davr o'z tafakkur kuchi, ehtiros va xarakteri jihatidan, mukammallik va olimlik jihatidan juda ulug' siymolarni yetishtirib berdi». Bu Uyg'onish davri edi. Bu davrda ayniqsa tasviriy san'at jadal rivojlandi, yetakchi san'at turlaridan biriga aylandi. Uyg'onish (renessans – fransuzcha) termini XVI asrda paydo bo'lib, uni birinchi bor italiyalik rassom va tarixchi J.Vazari ishlatgan edi. Keyinchalik bu ibora Yevropa mamlakatlarining XV–XVI asr san'atini belgilash uchun qo'llanila boshlandi. Hozirgi kunda esa bu ibora keng ma'noda umuman XV–XVI asrlar san'atini ta'riflash uchun ham ishlatiladi. Masalan, O'rta Osiyo renessansi deb XV–XVI asr san'ati tushuniladi. Insonning aql-zakovatiga, imkoniyatlarining cheksizligiga, ma'rifatning kelajakda tantana qilishiga ishonish Uyg'onish davri ideologiyasining xarakterli tomoniga aylandi. Hayot birdan bir real hodisadir, deb tan olindi. Bu hol, o'z navbatida, san'atda realizmning yangi pog'onaga ko'tarilishiga, tasviriy san'atda faqat mavzu kengayishi, yangi tasviriy san'at tur va janrlari dastgoh rangtasvir, gravyura, portret, manzara paydo bo'lishigagina emas, balki tasvir va ifoda vositalarining ham yan-gilanishiga olib keldi. San'atkorlar voqelik real tasvirining qonun-qoidalalarini izlay boshladilar. Perspektiva, rangshunoslik, yorug'-soya nazariyasi, anatomiya borasida katta yutuqlar qo'lga kiritil-

di. Uyg'onish davrining o'ziga xos tomonlari protorenessans davrida dastlab Italiya rangtasvirida o'zini namoyon qildi. Ijodkorlar diniy mavzuda ishlangan devoriy suratlarda realistik mazmunni ilgari sura boshladilar, insonlar orasidagi munosabatlar, muhabbat, oljanoblikni, razilik, xudbinlikka qarshi qo'ya boshladilar, voqelikning real tasvirini yaratishga harakat qila boshladilar. Ularning asarlarida Uyg'onish davri realizmning o'ziga xos tomoni – hayotiy problemalarni ko'pincha diniy niqob ostida, diniy mifologik obrazlar orqali berish hollarini uchratamiz.

Uyg'onish davri san'atkorlari ijodida insonlar hayoti, inson baxt-saodat yaratuvchisi va ozodlik uchun kurashchi ekanligi asosiy mavzu bo'lib qoldi. Insonni o'z asarlarida shunday kuylagan san'atkorlardan biri, ilk Uyg'onish davrining yirik vakili Donatello bo'ldi. Uning «David» deb nomlangan haykali Uyg'onish davrida birinchi marta kiyimsiz holda tasvirlangan haykal bo'ldi. «Otdagi Gattamelatta» haykali esa jamoatchilikka manzur bo'lgan insonni uluglash yo'lidagi birinchi otliq haykal edi.

Insonni kuylash, uning qahramonligi, aql-zakovatini ulug'lash uygonish davrida portret san'atining qaytadan tug'ilishiga olib keldi. Portret san'atida ifodalanadigan insondagi nozik his-tuyg'ular o'zining butun borlig'i bilan Uyg'onish davrining buyuk san'atkorlari Leonardo da Vinci, Rafael Santi, Mikelanjelo, Titsian ijodida o'z ifodasini topdi. Ona, onalik mehri ulug'landi. Bu o'rinda Leonardo da Vinchingining «Benua madonnasi» va mashhur Mona Liza (Jakonda) portretini, Rafael Santining Sikstin Madonnasi», Mikelanjelonning haykallari va devoriy suratlarini, Titsianning inson jismoniy go'zalligini tarannum etuvchi polotnolarini eslamay o'tish mumkin emas. Bu polotno, devoriy surat va haykalarda Uyg'onish davri kishilarining ideali o'zining to'liq obrazli talqinini topdi.

Uyg'onish davrida me'morlik va dekorativ-amaliy san'at borasida ham katta yutuqlarga erishildi. Bu davrda yaratilgan asarlarda shakl va mazmun birligi, san'atkorlarning har bir narsani yaratishda unga aql bilan yondashish, har bir qo'yilgan chiziq va shaklning maqsadga muvofiq bo'lishiga harakat qilishi ko'zga tashlanib turadi. Bu yutuqlar, ayniqsa, me'morlik san'atida ko'zga yaqqol tashlanadi. Bu davrda yaratilgan ulkan gumbazli baland binolar, davr kishilarining aql-zakovati, estetik ideali hamda g'oyaviy prinsiplari-

ni aniq ochib beradi. Bu Uyg'onish davrining yirik me'morlari Filippo Brunelleski, Leon Battista Alberti ijodida o'z ifodasini topdi. Jumladan, Brunelleski birinchi bo'lib katta gumbazli bino qurish muammosini hal qildi. U Florensiyadagi ko'pgina cherkov va saroylarning muallifidir. Ayniqsa, uning Florensiyadagi Santa Mariya del Fiore sobori mashhurdir. Bu sobor keyinchalik Uyg'onish davri me'morligi, umuman, Yevropa me'morligi san'atining rivojlanishi-da muhim ahamiyat kasb etdi.

Alberti ham Uyg'onish davri me'morlik san'atining taraqqiyotiga hissa qo'shgan san'atkordir. U «Me'morlik to'g'risida o'n kitob» deb nomlangan kitobida antik yodgorliklarni o'rganish asosida o'zining me'morlik san'ati haqidagi ilmiy-nazariy asarini qoldirdi. «Rassomlik to'g'risida»gi kitobida antik rassomlar merosiga tayaniq, rassomlik san'ati nazariyasini bayon qildi.

## II. 4. CHET EL SAN'ATI

XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshlarida ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar san'atda g'oyaviy-badiiy mazmunning o'zgarishiga olib keldi. Ba'zi demokrat rassomlar ijodida proletariatning inqilobi bilan bog'liq asarlar paydo bo'la boshladi, san'at asarlarining tarbiyaviy imkoniyatiga alohida e'tibor berila boshlandi. Tanqidiy realizm rivojlandi. Rassomlar o'z asarlari bilan idealistik san'atga qarshi chiqib, aristokratiya parokandaliklarini tanqid qila boshladilar. Bu o'rinda angliyalik rassom U.Xogartning satirik kartina va gravyuralarini, germaniyalik rassom D.Xodovetskiyning hayotiy qalam suratlarini eslab o'tish mumkin.

XVIII asrning oxirgi choragida Yevropa tasviriy san'atidagi asosiy oqim klassizm oqimi bo'lib qoldi. Bu oqim o'zining to'liq mohiyatini ayniqsa, Fransiya san'atida namoyon qildi. Bu yerda u inqilobiy mazmun bilan sug'orilib, o'zida burjuaziya inqilobiy g'oyalarini targ'ib etdi. Bu inqilobiy klassitsizmning yirik vakili va yo'lboshchisi Jak Lui David ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Uning «Goratsiyolar qasami» (1784-y. Luvr) inqilobiy klassitsizm oqimining xarakterli namunasidir.

Bu kartinaning sujeti Rim respublikasi tarixidan olingan bo'lib, asarda otaning o'z o'g'illarini dushmanlariga qarshi jangga bo-

rishga da'vat etib, ularga qilich tutqazayotgan vaqtin tasvirlanadi. Rassom bu asarida fuqarolik burchini har qanday shaxsiy manfaatdan ustun qo'yadi. Yuksak ideallar uchun har qanday qiyinchiliklarni yengishga, kerak bo'lganda qurban bo'lishdan ham qo'rmaslikka da'vat etadi. David ijodining eng cho'qqisi «Maratning o'limi» (1793, Bryussel, Nafis san'at muzeyi) nomli asarida namoyon bo'ldi. Bu asar XVIII asr Yevropa tasviriy san'atining eng nodir asari hisoblanib, unda fransuz inqilobining dohiysi Maratning o'ldirilishi tasvirlanadi va bu orqali David aniq voqeasida yuksak badiiy obraz yaratadi. «Maratning o'limi» asari inqilob qurbonlari uchun yaratilgan asar sifatida, ommani inqilobiy ruhda tarbiyalashga xizmat qildi, ularni kurashga chorladi. David inqilob yillarida portret janriga ham murojaat qiladi. Inqilob qatnashchilarining, shuningdek, oddiy kishilarning portretlarini yaratadi. Ularning bo'ysunmas xarakteri, psixologik holatini ochib beradi. Bu o'rinda uning «Ko'kchi ayol (1795, Lion) portreti diqqatga sazovordir.

Yevropa san'atida XVIII asrning oxirida vujudga kelgan yana bir yirik oqimlardan biri romantizm bo'ldi. Bu oqimning eng gullagan davri 1820–1830-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda romantizm oqimining vakillari o'zlarining xarakterli asarlarini yaratdilar. Romantizm vakillari san'atni his-tuyg'uga, voqelikni dinamik harakat vaqtida tasvirlashga, yorqin ranglar gammasiga alohida e'tibor berdilar. Ular klassitsizm vakillariga nisbatan real voqelikka ko'proq e'tibor bera boshladilar. Romantizm oqimining o'ziga xos tomonlari shu oqimning yirik vakili va asoschilaridan biri T. Jeriko ijodida o'z ifodasini topdi. Uning «Meduza soli» kartinasida bo'lib o'tgan voqeasiga «Meduza» kemasining Atlantik okeanida falokatga uchrashi tasvirlanadi. Ochiq okeanda «Meduza» kemasi suv osti qoyasiga urilib, parchalanib ketadi. Kemada qutqarish uchun hech qanday vositalar yo'q edi. Shu boisdan kema a'zolari kema qoldiqlaridan sol yasab olishadi va uning ustiga 149 kishi chiqib oladi. Sol ochiq okeanda 14 kun kezadi va shulardan faqat 15 odam sog' qoladi. Tasodifan o'tib ketayotgan kema odamlari tomonidan bu qolgan odamlar qutqarilib qolinadi. Bu asarda rassom ana shu voqeani soldagi odamlarni uzoqda suzib borayotgan kemani ko'rib, undan yordam so'rayotgan vaqtini ko'rsatgan. Romantizm oqimining yana

bir yirik vakili E.Delakruadir. Uning «Barrikadalardagi ozodlik» (1831, Lvvr) polotnosi ham bevosita aniq voqeani aks ettirishga qaratilgan. Bu asar 1830-yil iyul oyidagi inqilob ta'sirida yaratilgan bo'lib, rassom san'at tarixida bиринчи bo'lib tarixiy voqeani aks ettirdi, inqilobda qatnashgan xalq obrazini yaratdi. Rassom bu asarda bo'layotgan jangning shiddatini, qizg'inligini, bu inqilobda xalqning hamma tabaqasi qatnashganini, bu xalq inqilobi ekanini ishonarli ko'rsata oldi. Qo'lida bayroq ushlagan ayol obrazi ozodlik ramzi sifatida tasvirlangan. Qolganlar esa unga intilgan. Ularni ozodlik olg'a boshlamoqda.

XVIII asrning oxirlaridan boshlab Yevropa san'atida realistik oqim asosiy oqimlardan biriga aylanib bordi. Voqelikka murojaat qilish, hayotda sodir bo'layotgan voqe va hodisalarning mohiyatini ro'yrost ko'rsatish ko'pchilik san'atkorlar diqqatini o'ziga jalb eta boshladi. Bu prinsip ispan rassomi F. Goyya ijodida alohida o'rinni egallaydi. Uning polotnolari va satirik ofortlarida ispanlar hayotida sodir bo'lgan voqealar o'zining to'liq badiiy ifodasini topdi. Uning «2-maydan 3-mayga o'tar kechasiagi qottillik» (1808, Prado) asari XIX asr xalqlarining ozodlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashini aks ettiruvchi buyuk asarlar dan biridir. Asarda qo'zg'olon ko'targanlarni tundagi otish nayti tasvirlanadi. Kompozitsiya quolsiz omma va qurollangan jallodlarni qarama-qarshi qo'yish prinsipida tuzilgan. Asar markazida oq ko'ylaqli qo'zg'olonchi tasvirlangan bo'lib, u orqali rassom bo'ysunmas ispan xalqi timsolini gavdalantiradi. Goyya o'zining mashhur ofortlar turkumida Ispaniyadagi monarxiya tuzumini, ma'naviy qashshoq ruhoniylarni, bag'ritosh inkvizatsiyani qattiq qoralaydi. XIX asrdan boshlab g'arbiy Yevropa san'atida realistik oqim asosiy o'rinni egallab oldi. Buning boisi bor edi, al-batta. Ko'pgina ijodkorlar ijtimoiy hayotda bo'layotgan inqilobiy harakatlarda qatnashib, shu voqealarni o'z asarlarida tasvirlab, shu bilan birga, ularni ham shu mamlakatning faol grajdani ekanini chuqurroq his eta boshladilar, ular o'z xalqlarining orzu-istaklari, intilishlari bilan yashay boshladilar.

XIX asrdan boshlab manzarachi rassomlar ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kirita boshlaydi. Ular jonajon o'lkalari manzarasini chizish orqali kishilarda o'z yurtiga muhabbat uyg'otish, ular da vatanparvarlik tuyg'ularini oshirishga harakat qildilar. Manzara

janriga bo'lgan bunday munosabat angliyalik rassom J.Konstebli va fransiyalik barbizon matabining yirik vakillari T. Russo, Sh. Dobini va boshqalar ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular erta bahorgi maysazorlarni, suv, havo, nur go'zalligini kuylaydilar. Jamiyatning ilg'or ijodkorlari shu mavjud hayotda sodir bo'layotgan voqealarni tasvirlash bilan chegaralanmasdan, shu bilan birga, shu voqelikni ideal taraqqiyot yo'lliga burish, dunyoni go'zallik qonunlari asosida qayta qurish ishtiyoqi bilan yondashadilar. O'z asarlarini shu maqsadga bo'ysundirishga harakat qiladilar. Bu davr san'atkorlarining asarlari ko'proq tanqidiy xarakterga ega bo'lib, sotsial tengsizlik, og'ir mehnat va boshqa jamiyat illatlarini ro'yrost ko'rsatishga intilish bilan xarakterlanadi. Buni ko'rsatishda, ayniqsa, mehnat mavzusi ko'pchilik ijodkorlar diqqatini o'ziga jalb qiladi. Dehqon, hunarmand va ishchilar hayoti, mehnati ko'pgina san'atkorlar asarlarining bosh mavzusi bo'lib qoldi. Shunday mavzuda ijod qilgan san'atkorlardan biri O.Domedir. U o'z asarlarida bo'layotgan voqealarni tasvirlar ekan, u shu voqealarga o'z munosabatini bildiradi, insonlar orasidagi samimiy muhabbatni kuylaydi, burjua illatlarini, ikkiyuzlamachilikni tanqid qiladi, hayotiy voqealarga befarqlikni qoralaydi.

O. Domening ana shunday mavzularga bag'ishlangan asarlaridan biri «Qonun chiqaruvchilar uyasi» (1834) asaridir. Bu asarda rassom deputatlarni palata majlisi vaqtida tasvirlaydi, har bir obrazning individual xarakterini ochib berishga harakat qiladi. Lekin shu bilan birga, bu obrazlarning hammasida umumiy o'xshashlik – atrofga befarqlik, ma'naviy pastlik, aqliy notavonlik yaqqol seziladi. «Davlat arbobi» degan oliv nomga bularning hech qanday daxli yo'qligini ko'rsatadi.

Domening ta'sirchan asarlaridan biri «Transonen ko'chasi» (1834) polotnosidir. Bu asarda ishchi kvartallaridagi qo'zg'olon-chilarning qirg'in qilinishi juda ta'sirchan qilib ko'rsatilgan. Polda o'lib yotgan ishchi, uning tagida ezilib o'lib qolgan go'dak, qariyanning tasviri orqali fofianing nihoyatda og'ir ekanligini ko'rsatishga harakat qilgan.

Dome o'z ijodida ijobiy obrazlarga ham murojaat qiladi. Oddiy mehnatkash xalq obrazini mehr bilan tasvirlaydi, ularga o'z xayrixohligini bildiradi. Uning «Kir yuvuvchi», «III klass vagon pas-sajirlari» degan asarları shular jumlasidandir. Oddiy xalq hayoti va

mehnatinining tasviri yirik fransuz rassomlari J.F.Milleva, G.Kurbe asarlarining mazmunini tashkil etadi. Millening mashhur asarlaridan biri «Boshoq yig‘uvchi ayollar» kartinasidir. Bu asarda dehqon ayollari, o‘rimdan keyin dalada qolgan bug‘doy boshoqlarini yig‘ayotganlarning tasviri orqali dehqonlar turmushining ni-hoyatda og‘ir ekanligini ko‘rsatadi G.Kurbe o‘z asarlarida ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni ochib berishga intildi. «Demokratik san’at realizmdir», – degan edi u. U bu tezisiga umrining oxirigacha sodiq qoldi. Kurbe o‘zi bilgan va uni o‘rab tur-gan voqealarni tasvirlar ekan, ularning ulug‘vor, badiiy bo‘lishiga harakat qildi, uning kartinalari ichida «Ornandagi ko‘mish marosimij» kartinasi diqqatga sazovordir. Bu kartina bevosita ma’lum voqeaga asosida ishlangan bo‘lib, unda tasvirlangan har bir obraz rassomga tanish va ular qaytarilmas xarakterga, o‘z dunyoqarashi-ga ega bo‘lgan shaxslardir. Passom har bir shaxsning xarakterini, bo‘layotgan voqeaga munosabatini ko‘rsatish orqali asar g‘oyasi hisoblangan inson qadrining so‘nib borayotganligini ochib berishga muvaffaq bo‘ldi.

## II. 5. HOZIRGI ZAMON CHET EL SAN’ATI

Ikkinci jahon urushining tugashi ezilgan Osiyo, Afrika, Lot-in Amerikasida milliy ozodlik harakatlarini kuchaytirib yubordi. Xalqlarning mustaqillik, ozodlik uchun kurashi ko‘pgina mamlakatlarda yangi mustaqil davlatlarning tarkib topishiga olib keldi. Bu sodir bo‘lgan jiddiy o‘zgarishlar mamlakatlarning ijtimoiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi, inqilobiy proletariat bilan demokratik tashkilotlarning aloqasini kuchaytirdi va u, o‘z navbatida, madaniyat va san’atning ideologik kurashdagi rolini oshirib yubordi. Formalistik va realistik san’at orasidagi kurash yanada keskinlashdi. Formalistik oqim namoyandalari kapitalistik mamlakatlarning burjua-ziya matbuoti, maxsus suratlar bilan savdo qiluvchi firmalar, davlat tashkilotlari va yirik muzey rahbarlari tomonidan qo’llab-quvvatlanadi. Bu oqimlarning eng yiriklari ekspressionizm, surrealizm va abstraksionizmdir.

Ekspressionizm (fransuzcha so‘z bo‘lib, ifodalash ma’nosini bildiradi) hozirgi zamon formalistik oqimning yirik turlaridan biridir. Bu oqim voqelikni real tasvirlashni inkor etadi, uni ata-

**y**in buzib ko'rsatishni, primitiv san'atni ulug'laydi. Bu oqimi ras-somlari real voqelikning tasviridan ko'ra, kishi psixikasida sodir bo'ladigan turli vahimali alahsirashlar, voqelikka qo'rqnich bilan qarashga undovchi asarlarni yaratishga, bu dunyoni bevafo qilib ko'rsatishga harakat qiladilar. Formalistik oqimlardan yana biri bu surrealizmdir (fransuzcha so'z bo'lib, realizmdan yuqori, degan ma'noni bildiradi). Surrealistlarning asarlarida mistik g'oyalar voqelikning o'ta illuzion – naturalistik tasvirlanishi bilan bir qatorda, uning ko'rinishini kishi aqliga to'g'ri kelmaydigan darajada buzib aks ettiradilar. S.Dali bu oqimning yirik vaki-jidir. Uning «O'lik shahar» deb nomlangan surati shu oqimning o'ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Hozirgi zamon yirik formalistik oqimlaridan yana biri – bu abstraksionizmdir. Bu oqim realizmni butunlay inkor etadi. Voqelikni o'ziga o'xshatishdan voz kechish va uning o'rnini shu voqelik to'g'risida tasavvur bera oladigan shakl, rang dog'lari, chiziqlar orqali tasvirlashga da'vat etadi. Bu oqim nazariyotchilari esa rassom o'z asarlari orqali tomoshabinga biror-bir g'oya, fikr, his-tuyg'u yoki kayfiyat berishi shart emas, tomoshabin rassom tasvirlagan turli rang dog'lari, chiziqlar, hajmlardan o'ziga kerak bo'lgan faraziy-optik tasavvur qilishi kerak, deb ta'lim beradilar. Bu bilan ular san'atning muhim tomoni, insonga ma'naviy ozuqa berish imkoniyatini butunlay cheklab qo'yadilar.

Lekin hozirgi zamon chet el san'atida faqat formalistik oqim mavjud va bugungi kun san'atining xarakterli tomonini belgilaydi, deyish noto'g'ri bo'lar edi. Kapitalistik mamlakatlardagi progressiv rassomlar o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqlalar, yer yuzida tinchlik, do'stlik, birodarlik, tenglik qaror topishi uchun kurashmoqdalar. Ularning asarlari o'zining sotsial o'tkirligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Bu o'rinda fransuz rassomi A. Fujeron, italiyalik rassom R. Guttuzo, haykaltarosh D. Mantsu asarlarini eslab o'tish kifoyadir.

Hozirgi zamon san'ati to'g'risida gapirganda Lotin Amerikasi mamlakatlarining progressiv san'ati, Osiyo, Afrika xalqlari san'ati haqida ham alohida to'xtalish zarur bo'ladi. Bu qit'a mamlakatlarida milliy san'at o'choqlari shakllanibgina qolmay, balki jahon san'ati tarixiga o'zining sezilarli ta'sirini o'tkaza olgan progressiv san'atkorlar ham yetishib chiqdi. Meksikalik grafik rassom, A. Bus-

tosning AQSHda yasalgan gravyurasi, A.Gomesning «Urushga qarshi ona» grafikalari o‘zining sotsial ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Afrika, Osiyo mamlakatlari xalqlarining badiiy hayotida esa jiddiy ko‘tarilish yaqqol ko‘zga tashlanib bormoqda.

Ruminiyalik rassom K. Baba o‘zining bir qator asarlari bilan keng jamoatchilikka tanish. U portret, hayotiy-maishiy janrda asarlar yaratgan. Uning mashhur asarlaridan biri «Dalada dam olish» (1954) kartinasidir. Rassom har bir obraz xarakterini to‘liq ochishga, kompozitsiyani tuzishda voqelikni tabiiy holda ko‘rsatishga intiladi, bu esa uning asarlarining ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Germaniyalik haykaltarosh F.Kremer bugungi haykaltaroshlik san’atining yirik vakillaridan biridir. Uning Buxeivalddagi fashizm qurbanlari uchun o‘rnatilgan yodgorligi davrimizning yetuk monumental asarlaridandir. Ko‘p figurali bu kompozitsiyada qamoqdagilarning qo‘zg‘oloni aks ettiriladi. Ozodlik uchun birlashgan kishilar obrazi asar g‘oyasini tashkil etadi. Kompozitsiya markazidagi o‘layotgan jangchi obrazi orqali haqiqiy vatanparvar, o‘z xalqiga sodiq kishini tasvirlab, tomoshabinda dushmanga nisbatan nafrat uyg‘otadi. Bu kompozitsiya murakkab psixologik asardir. Bu yerda tasvirlangan har bir obraz o‘z xususiyatiga ega. Ularning hammasida ozodlikka intilish kuchli. Bu intilish ularni yagona oilaga birlashtirgan. Asarning o‘ziga xos badiiy tili, san’atkor foydalangan yorug‘-soya kurashidagi keskinlik, obrazlarning tashqi ko‘rinishi birgalikda bu asarga joziba baxsh etadi.

Hozirgi zamon jahon san’ati taraqqiyoti juda murakkabdir. Bu formalistik va realistik san’at tarafдорлари kurashining keskinlashuvi bilan belgilanadi. Bunga sabab bugungi kun ideologik kurashida san’atning roli ortib borayotganligidir. Ommaning ongiga ta’sir etish, uning dunyoqarashini egallashga intilish kuchayib bormoqda. Lekin shuni qayd etish kerakki, keyingi paytlarda realistik san’atga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganligi sezilmoqda. Buni keyingi yillarda tashkil etilayotgan ko‘rgazmalarda realistik asarlarning keng o‘rin egallayotganlidan bilsa bo‘ladi. Yer yuzida realistik san’at tarafдор-larining ortib borayotganligi, ularning o‘z asarlarida davrning ilg‘or g‘oyalarini ifodalayotganliklari bugungi jahon san’ati taraqqiyotining xarakterli tomonini belgilamoqda.

## II. 6. QADIMGI O'ZBEK SAN'ATI

O'zbek san'ati qadimiy tarixga ega. Hozirgi O'zbekiston hudo-dida ibridoiy jamoa davridayoq odamlar yashaganlar. Ular yashagan manzillardagi qoya suratlar, bronzadan yasalgan turli xildagi ta-qinchoq, mehnat va urush qurollari ibridoiy jamoa davri kishisining hayotini bilishga yordam beradi. Shunday qadimiy yodgorlik suratlardan biri Zarautsoydag'i (Surxondaryo vil.) qoyaga ishlangan suratlardir. Bu surat birmuncha primitiv, sodda bo'lishiga qaramay, ibridoiy jamoa davri kishilari hayoti, ularning yovvoyi hayvonlarni ov qilayotgan vaqt iishonarli talqin etilgan. Chopib borayotgan yovvoyi qo'tos, shoxli buqalar va unga niqob ostiga yashirinib, humum qilayotgan odamlar tasviri orqali ibridoiy jamoa davri rassomi shu ov manzarasidagi kuchli harakat va hayajonni ustalik bilan ko'rsata olgan. Suratda, ayniqsa, hayvonlar tasviri ifodali chiqqan. Ulardagi kuch, epchillik hayotiy talqin etilgan. G'op devorlariga ishlangan suratlar O'zbekistonda, jumladan, Boysun va Termiz tumanlari, Samarqand, Toshkent, Jizzax, Xorazm, Farg'ona viloyatlardan arxeologlar tomonidan ko'plab topilgan. Bu suratlarining mavzusi juda chegaralangan. Asosan, hayvonlar tasviri yoki ov manzaralarini uchratamiz. Shu bilan birga, topilgan suratlar orasida uy hayvonlarining tasviri (kuchuk, ot, sigir, qo'y, tovuq va h.k.) ham uchrab turadi. Bu tasvirlar ibridoiy jamoa tuzumidagi o'troq holda hayot kechirayotgan odamlarning tevarak-atrofni o'ziga bo'ysundirish, ular tafakkurining taraqqiy etib borayotgani tushunishda muhim rol o'ynaydi. Eramizdan avvalgi asrning oxirlari va yangi eraning boshlarida O'zbekistonda kulolchilik borasida jiddiy rivojlanish sezildi. Bu davrlarda yaratilgan turli shakl va kattalikdagi ko'zacha va xumchalar qurol va dastgohsiz, qo'lda bajarilgan. Ularning tashqi bezagiga e'tibor berilganligi seziladi. Jumladan, ushlaydigan bandi ko'pincha biror bir hayvon ko'proq qo'y, qo'chqor boshiga o'xshatib ishlangan. Vaqt o'tishi bilan bu shakllar soddalashib borgan, xum yuzasi esa chiziqli naqshlar bilan bezatila boshlagan. Bu davrlarda oltindan, kumushdan bezak va amaliy buyumlar ishlash san'ati ham keng tarqala boshlagan. Tasviriy san'atda ham mavzu kengayib borgan. Bu o'rinda yuz manzaralarini aks ettiruvchi bo'rtma tasvirlar, jangchilar obrazi diqqatga sazovordir. Yozuv manbalariga ko'ra, quldorlik davrida ham

O'rtalik Osiyoda san'atga qiziqish kuchli bo'lgan. Boylarning uyi, ibodatxonalar suratlar, naqshlar bilan bezatilgan.

Eramizning boshlariga kelib, iqtisodiy jihatdan birmuncha ilgari siljish yuz bera boshladi, shaharlar qurilishi jonlandi. Bu davr san'atida grek san'atining ta'siri borligi seziladi. Mayda haykal-taroshlik keng tarqaldi. Bunday haykalchalar Sug'd, Xorazm da-gi shaharchalardan ko'plab topilgan. Termiz atrofidagi topilgan haykallarda esa, ko'proq Buddha va uning shogirdlari tasviri uchraydi. Yangi eraning boshlarida devoriy rangtasvir borasida ham asarlar yaratilganligini Termizdan topilgan devoriy suratlar tasdiqlaydi. Xorazm yodgorliklari, ayniqsa Tuproq qal'adan (III–IV asr) topilgan hayvon va devoriy rasmlar qadimgi o'zbek san'atini bilishda muhim daliliy material bo'lib xizmat qiladi.

VI–VII asrlar ham san'at, ham madaniyat tarixida ko'tarilish davri bo'ldi. Bu asrlarda ko'plab yirik monumental inshootlar, hashamatli binolar qurildi. Varaxsha (Buxoro vil.), Afrosiyob (Samarqand vil.) dagi saroy qoldiqlari, ularning devorlariga ishlangan suratlar, yaratilgan haykallar yuksak mahorat bilan ishlanganligi hozir ham kishini hayratga soladi. Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Forobi yashagan vaqtlar ham bizga juda ko'p nodir yodgorliklar qoldirdi. Bu asrlarda me'morlik yetakchi o'rinni egalladi. Shu davrning nodir yodgorligi bo'lgan Somoniylar maqbarasi o'z davrining estetik-falsafiy qarashlarini mujassamlashtirgan. Temur va Temuriylar davrida yaratilgan Bibixonim masjidi, Amir Temur maqbarasi, Ulug'bek madrasasi va rasadxonasi, Shoxi Zinda ansamblı – bularning hammasi xalq badiiy merosining yorqin sahifasini tashkil etibgina qolmay, balki jahon tasviriy san'ati tarixi sahifalarida o'zining faxrli o'rnini egalaydi. Bu davrlarda miniatura san'ati borasida ham sezilarli jonlanish bo'ldi.

Shu davrda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Murod Samarqandiy va boshqa qator musavvirlar miniatura san'atining nodir namunalarini yaratib qoldirdilar. Bular orasida, ayniqsa, K.Behzodning faoliyati (taxminan 1466–1535-yillar) diqqatga sazovordir. Behzod Xirotda tug'ilgan. Bu yerda Husayn Boyqaro kutubxonasida ishlagan. 1507-yili Xuroson Shayboniyxon qo'liga o'tgach, Behzod Buxoroga ko'chib kelgan va shu yerda 1522 yilgacha yashab, ijod qilgan va o'zining mashhur Shayboniyxon

portretini yaratgan. Keyinchalik qisqa vaqt Tabrizda (1522–1524) keyin yana Hirotda yashab ijod etgan. Buyuk Alisher Navoiyning g'amxo'rligida kamol topgan Behzod Sa'diyning «Bo'ston», «Gulistona», Nizomiyning «Xamsa», Xisrav-Dehlaviyning «Xamsa», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlariga ko'plab suratlar chizgan. Navoiyning dostonlarini ajoyib suratlar bilan bezagan. Behzod portretchi rassom sifatida ham mashhurdir. U Navoiy, Jomiy, Husayn Boyqaro, Shayboniyxon portretlarining muallifidir. Bundan tashqari, manzara, tarixiy, hayotiy, maishiy janrlarda ham samarali mehnat qilgan. Bu o'rinda uning «Juma masjidi qurilishida» miniaturasini eslab o'tish mumkin. Uning mavzutik kompozitsiyasi dinamik xarakterga ega.

Behzod o'z ishining ustasi edi. U O'rta Osiyo miniatura maktabining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Behzodning ijodiy rejalarini keyinchalik uning shogirdlari Qosim Ali, Mahmud Muzahhib, Mulla Yusuf va boshqalar davom ettirdilar.

XVII–XVIII asrlarda Buxoro, Xiva, Urganch, Toshkentda yaratilgan me'morchilik obidalari, dekorativ-amaliy san'at buyumlari xalqning go'zallikka bo'lgan intilishidan dalolat beradi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'zbek san'ati tarixida yangi bosqich boshlandi. Bu davrda xalq dekorativ-amaliy san'ati yetakchi o'rin egalladi. Bu san'at shu davr kishilari uchun voqelikni, tevarak-atrof go'zalligini yuksak poetik shakllarda aks etiruvchi, ularning hayot, go'zallik tushunchalarini ifodalovchi bir dan bir san'at turi bo'lib qoldi. Qo'li gul xalq ustalari yaratgan nafis zargarlik buyumlari, kulolning ajoyib sopol buyumlari, naqqoshning bezaklarida shu davr kishilarining voqelikka bo'lgan estetik munosabati, estetik ideali, hayot to'g'risidagi falsafiy qarashlari o'zining badiiy talqinini topdi. Bu davrlarda Buxoro, Xiva, Qo'qon va boshqa shaharlarda qurilgan me'morlik yodgorliklari, A. Donish (Ahmad Kalla) va boshqa miniatyurachilar ijodida o'zbek xalqining boy o'tmishi an'analari davom ettirildi.

O'rta Osiyoning Rossiya bilan qo'shilishi natijasida ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan o'zgarishlar bevosita san'atda ham o'z ifodasini topa bordi. Buni dekorativ-amaliy san'at asarlaridagi yangi kompozitsiyalarda, ularning sujet va motivlarida, real hayotning tasvirlanishida voqelikni ustalar tomonidan real tasviriga intilishlari ko'rish mumkin. Bunday o'zgarishlar rus va o'zbek me'morlik

san'ati an'analarining bir-biriga yaqinlashishi va qo'shilishi nati-jasida paydo bo'lgan yangi uslublarda ham namoyon bo'la bosh-ladi. Muhibi, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek xalqining badiiy hayotida sodir bo'lgan muhim o'zgarishlardan biri – bu realistik dastgoh san'atining maydonga kelishi edi. Jon-li narsalar tasvirining din tomonidan taqiqlanishi bu san'atning O'rta Osiyo xalqlari orasida tarqalmasligining sababi bo'ldi. Hozir bu san'at rivojlanmoqda. Dastgoh realistik rasmlar chizishni bi-rinch bo'lib XIX asrning 40-yillaridan boshlab O'rta Osiyoga kela boshlagan rus badiiy mакtabining talabalari boshlab berdilar. Bu borada rus rassomlari V.V.Vereshagin, A.Karamzin, I.Kazakov, S.Yudin, R.Zommer, ukrain rassomi S. Svetoslavskiy va bosh-qalar ijodi diqqatga sazovordir. Lekin shu bilan birga, rus rassom-larinining mahalliy xalq oldida borliqni, ayniqsa, jonli narsalarni do'zax jazosidan qo'rqmay tasvirlashlari ruhoniylar obro'yining pasayishiga, dinga ishonchszlik tug'ilishiga olib kelishi muqarrar edi. 1886-yildagi ko'rgazmada toshkentlik Buxta Sodiq Xo'jayevning alebastrdan yasagan ot va kiyik haykalchalarinинг qo'yilishi, 1915-yil bosmadan chiqqan S. Siddiqiyning «Ko'r o'g'li» epik poemasiga ishlangan grafik illustratsiya larining yuzaga kelishi davr taqozosi edi. O'zbek san'atida mayjud bo'lgan an'analar, shakllanib kelayotgan yangi tendensiyalarning mavjudligi esa o'zbek san'atining tarixan qisqa vaqt ichida katta mu-vaffaqiyatlarga erishganligini ko'rsatadi. Bu asosda esa o'zbek san'ati shakllandi, rivojlandi.

San'at insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bu san'at chin ma'noda ommaning orzu-istiklarini, his-tuyg'u, fikr-o'ylarini ifodalovchi san'atga aylandi. Xalqning o'zi esa uning ijodkori bo'lib maydonga chiqdi.

San'at shu ommaga tushunarli bo'lishi va omma tomonidan sevilishi lozim. U ommaning tuyg'usini, fikrini va irodasini birlashtirishi, ommani ko'tarishi kerak. San'at omma orasida san'atkorlar yetishtirib chiqarishi va ularni o'stirishi kerak. Kamol topib kelayotgan me'morlik, amaliy-dekorativ va tasviriy san'atning nodir yodgorliklari jahon san'ati taraqqiyotida salmoqli o'rinni egallab, uning rivojiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. O'sha davrda san'atning mavzusi kengaydi, uning yangi tur va janrlari maydonga keldi. Ana shunday janrlardan biri tarixiy-inqilobiy janrdir. Bu janr-

ning mazmuni bevosita inqilob, grajdanlar urushi yillari va ularning rahbari va yo'lboshchisi faoliyati bilan bog'liqdir. Rassom va haykaltaroshlar bu janrga murojaat qilar ekanlar, dastlab xalqning ulug'vorligi va qudratini ochib berishga, xalq va partiya birligidagi kuchni ifodalashga harakat qiladilar. Izhor etish, uning oljanobligi va prinsipialligidan hayratlanish, uning, jumladan, N.A. Andreyevning (1931–1932) haykaliga xos prinsipiallik, o'tkir zakovat va kelajakka ishonch yuksak professional mahorat bilan badiiy ifodalangan. A.M. Gerasimovning (1930) mashhur rangtaviri esa ko'z o'ngimizda kuchli va otashin notiq obrazini gavdalantiradi. Osmondag'i pag'a-pag'a qora bulutlar, namoyishchilarning qo'lidagi qizil alvon va bayroqlarning hilpirashi esa davrning notinchligini ochib berishga xizmat qiladi. Hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan asarlar urushdan keyingi yillarda ham ko'plab ishlandi. B.V.Ioganson boshchiligidagi bir guruhi rassomlar ishtirokida yaratilgan asar «Yoshlarning III sobiq syezdda chiqishi» (1951) urushdan keyingi sobiq sovet san'atida yoshlardan hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan yirik polotnolardandir.

## II. 7. O'ZBEK SOBIQ SOVET SAN'ATI

1918–20-yillarda Toshkent, Samarqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko'plab mahalliy yoshlardan ja'lb etildi. Inqilobdan keyingi dastlabki yillarda rus va boshqa millat rassomlari faollik ko'rsatdilar. Ular yosh milliy kadrlarni tarbiyalash, xalq orasida san'atni targ'ib etishda faollik ko'rsatdilar. Shu bilan birga, o'zbek xalq san'atini o'rganish orqali haqiqiy milliy san'at namunasini yaratishga, o'z asarlarida davrning muhim voqealarini aks ettirishga harakat qildilar. Shunday rassomlardan biri O.K.Tatevosyan bo'ldi. Mashhur rus rassomi V.Korovinining shogirdi bo'lgan bu rassom 1915-yili birinchi bor O'zbekistonga keldi. Uning serjilo tabiatni, boy me'morlik yodgorliklari yosh rassomni o'ziga mahliyo etdi. O'zbekistonda o'z ijodiy izlanishlari uchun katta imkoniyatlar borligini his qilgan rassom o'qishni bitirgach, butunlay O'zbekistonga ko'chib keldi va o'zining sermahsul ijodini boshladi, yosh rassomlarga murabbiylik qildi. Uning inqilobgacha bo'lgan davrdagi ijodi, asosan, Samarqandga bag'ishlangan. Gavjum ko'chalar, nozne'matga to'lib-toshgan bozor ko'rinishlari, choyxonalar rassom-

ning ko‘pgina asarlarining mazmunini tashkil etdi. Tatevosyan ijdida yangi davrni boshlab berdi. Xalq milliy san’ati an’analarini o‘rgandi. Inqilob natijasida o‘zbek xalqi hayotida sodir bo‘layotgan yangi an’analar, uning ma’naviy olamidagi muhim o‘zgarishlar, odamlarning mehnatga bo‘lgan munosabati rassom asarlarida badiiy ifodasini topa boshladi. Rassomning «Kommuna o‘quvchilar» (1918-yil) asari shunday asarlardandir. Bu asarda Tatevosyan turli millat yigit va qizlarining dalada qizg‘in mehnat jarayonida ifodalar ekan, do’stlik, tenglik, ozodlik g‘oyalarini ilgari suradi. Yosh respublika vakillarining ertangi kunga ishonch bilan boqishi, ko‘tarinki ruhda mehnat qilayotganliklari kuylanadi. O‘zbek san’atining dastlabki taraqqiyot bosqichi 20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu yillardan boshlab milliy rassomlar ko‘rina boshladi. Ular o‘zlarining dastlabki asarlari bilan respublika badiiy ko‘rgazmalarida ishtirok etib, badiiy hayotni yanada jlonlantirdilar. Bu yillarga kelib, san’at mavzusi kengaydi. Do’stlik, tinchlik, mehnat go‘zalligini kuylovchi asarlar yaratildi. Kishilarda sodir bo‘lib kelayotgan mehnatga ko‘tarinki munosabatni aks ettiruvchi asarlar yaratildi. Talantli rassom Bahrom Hamdamiyning «Ish tugadi» (1940) deb nomlangan kartinasи shu davrda kishilar ongida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, mehnatga yangicha munosabat o‘z ifodasini topgan. Ish tugadi. Lekin odamlar uya shoshilishmayapti. Ular qilingan ishni muhokama qilib, ertangi kun rejasini belgilashmoqda. Asarda ana shunday soddha sujet tasvirlangan. Lekin rassom shu oddiy hayotiy lavhada yangi davr odamlarining yangi jamiyat qurish ishidagi jonbozligini ko‘rib, ularidan quvonadi va boshqalarni ham shunga da’vat etadi. L. Abdullayevning «Yosh shoir uyidagi uchrashuv» deb nomlangan asari 20–30-yillardagi yoshlar orasidagi san’at va ma’rifatga intiluvchi yoshlarining fazilatlarini ochib berishga bag‘ishlangan. Shoir yangi she’rini stol atrofidagi o‘rtoqlariga o‘qib bermoqda. Stol usti to‘la nozne’matlar, yorug‘ va shinam xona farovon turmushdan dalolat beradi. Devordagi surat, guldonga qo‘yilgan gullar uy egasining xarakterini yoritishga, uning hayotni sevuvchi, go‘zallik shaydosi ekanligini ochib berishga xizmat qiladi. Bu yillarda O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sigan yoki o‘zga o‘lkalardan kelgan rassomlar ham badiiy hayotda faoliik ko‘rsatdilar. Ular O‘zbekiston san’atining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shdilar. Ana shunday rassomlardan biri

Aleksandr Volkov edi. Farg'onada tug'ilib o'sgan, Moskva badiiy mактабларida ta'lim olgan bu rassom shu yillarda o'zining barkamol asarlarini yaratdi. Davr kayfiyati, kishilarning hayotga bo'lган yusak munosabati uning asarlarida o'zining haqiqiy poetik obrazini kashf etdi. Uning shunday asarlari ichida «Choyxonada» (1928), «Kultmagda» (1931) polotnolari, «Paxta» triptixi o'zining chuqur mazmuni va yusak badiiy tili bilan ajralib turadi.

O'zbekistonda samarali mehnat qilgan rus rassomlaridan biri Pavel Petrovich Benkov edi. U o'zbek sobiq sovet san'atining rivojlanishiga, milliy kadrlarning yetishib chiqishiga katta hissa qo'shdi. U O'zbekistonda bo'lган dastlabki yillarda Buxoro, Xiva, Samarqandga atab juda ko'p polotnolar ishlagan. Bular, asosan, yarim manzara va yarim maishiy janrda bo'lib, ularda rassom kundalik xalq turmushini qadimgi nodir me'morlik fonida ustalik bilan tasvirlaydi. 30-yillardan boshlab Benkov voqelikka ko'plab e'tibor bera boshlaydi. Xotin-qizlar hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar uning asarlarida o'zining badiiy ifcdasini topadi. «Dugonalar» (1940-yil) deb nomlangan polotno P.Benkovning do'stlik mavzusida yaratgan yirik asaridir. Bu asarda o'zbek va rus qizining ishkomda g'arq pishgan uzumlarni tomosha qilishayotgan paytining tasviri orqali rassom xalqlar orasidagi do'stlikni kuylaydi. Asar o'zining boy koloriti, obrazlar harakatidagi tabiiyligi bilan tomoshabinda yaxshi taassurot qoldiradi.

Urush yillari o'zbek rassomlari uchun katta sinov bo'ldi. Ular g'oyaviy jihatdan chiniqdilar. Rassom va haykaltaroshlar front g'alabasi uchun rag'batlantira oladigan asarlar yaratishga harakat qildilar. Urush yillarda O'zbekistonga evakuatsiya qilingan Moskva, Leningrad, Kiyev, Xarkov badiiy institutlari, ular bilan birga kelgan yetuk san'atkorlar D.Moor, V.Favorskiy va boshqalar respublika badiiy hayotini jonlantirdilar. O'zbek rassomlarini g'oyaviy-badiiy asarlar yaratishga da'vat etdilar. Xalqning Germaniya fashizmi us-tidan erishgan olamshumul g'alabasi bilan yakunlandi. Tinch qurilish yillari boshlandi.

Urushda vayron bo'lган shahar va qishloqlarni tiklash, qishloq mahsulotlarini ko'paytirish ishlariga kirishdi. O'z mehnat faoliyatini doim xalqlar, partiyaga bag'ishlagan san'atkorlar va hayotida sodir bo'lган bu o'zgarishlarni o'zlarining yorqin polotnolarida aks ettirishga intildilar. Bu davrdan boshlab o'zbek san'ati ham o'z

rivojlanishida yangi bosqichga qadam qo‘ydi. To‘laqonli, g‘oyaviy yuksak, badiiy barkamol asarlar yaratish o‘zbek sovet san’atining bosh yo‘nalishi bo‘lib qoldi. Inson go‘zalligi, tabiat ulug‘vorligi rassomlarimiz polotnosida o‘z ifodasini topa boshladi. Bu urushdan keyingi yillarda yaratilgan A.Abdullayevning A.Hidoyatov portreti (1949), Oybek portreti (1949), L.Abdullayevning «Qahramonni kutib olish» (1947), U.Tansiqboyevning «Qayroqqum GESida tong» (1957), R.Ahmedovning «Onalik o‘ylari» (1958), R.Timurovning «Samarqand» (1958), Y.Elizarovning «O‘zbekiston adabiyot va san’at arboblari guruhi portreti» (1959), N.Qoraxonning «Oltin kuz» (1958), V.Fadeyevning «Soqchi ayol» (1958), M.Saidovning «Xirmonda» (1958), Ch.Axmarovning devoriy rasmlari va boshqalar o‘zbek san’ati tarixida o‘zlarining munosib o‘rnini egalladi Respublikamiz rassomlari bu davrdan boshlab respublika va Butunittifoq ko‘rgazmalarida faol ishtirok etib, san’atimiz ta’sirchanligining ortib borayotganini namoyish etdilar. Ayniqsa, 1957-yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunittifoq badiiy ko‘rgazmasi, 1959-yili dekada kunlari tashkil etilgan badiiy ko‘rgazmalar o‘zbek tasviriy san’ati tarixida muhim voqeа bo‘ldi. Rassomlarimiz zamonaviy mavzularda g‘oyaviy-badiiy barkamol asarlar yaratib, tasviriy san’at muxlislari dilini xushnud etdilar.

Bu yillarda haykaltaroshlik borasida ham ko‘zga ko‘rinarli yutuqlarga erishildi. F.Grishchenkoning portretlari, X.Husnidinxo‘jayevning haykallari, A.Kramskayaning barelyesi hamda P.Ivanovaning hayvonlarni aks ettiruvchi asarlari bunga misol bo‘ladi. 60–70-yillardan boshlab o‘zbek san’ati yangi pog‘onaga qadam qo‘ydi. Bu davrda faqat keksa rassomlar ijodidagina emas, balki yoshlari ijodida ham yangi ifoda vositalarini izlash, asarni talqin etishda uning emotsiyal tomoniga e’tibor berish kuchaygаниligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Voqelikni ko‘tarinki ruhda talqin etish, chiziqlarning ifoda imkoniyatlariga alohida e’tibor berish, rang ta’sirchanligini oshirishga intilish bu yillardagi ijodkorlar izlanishining muhim tomonini belgilaydi. Buni B.Boboyev va R.Choriyevlarning rangtasvirlarida, T.Muhamedovning karikaturalarida ko‘rish mumkin. O‘zbek san’ati zafarli yo‘lni bosib o‘tdi. U ko‘pmillatli san’atining ajralmas qismi sifatida insoniyatning porloq kelajagi uchun xizmat qilib kelmoqda.

### **III BOB. MAK TABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR NI HAR TOMONLAMA TARBIYALASHDA TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH METODIKASINING AHAMIYATI**

Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya – bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi tevarak-atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Masalan, yozuvchining she'ri va rassomning asari. Tasviriy faoliyat maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy faoliyat bolalarni ongli tomondan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Birorta predmetni chizish yoki yasash uchun albatta u bilan oldindan tanishish yoki kuzatib chiqish, uning shakli, katta-kichikligini, qismlarning joylashishi, rangini bilish kerak bo'ladi. Bu jarayonda ko'rish, sezish, qo'l harakatlari ishtirok etmay qolmaydi. Bolalar predmet va hodisalar ni kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida predmetni katta-kichik guruhlarga bo'lib, uning shaklini o'zgartirib, rangini turli-tumanligi bilan tasvirlaydilar. Shuningdek, tasviriy faoliyat jarayonida bolalar turli xil material (qog'oz, bo'r, bo'yoqlar) bilan ularning o'ziga xos xususiyatlari, ular bilan ishlash texnikasi bilan tanishadilar, bu esa bolalarning aqlan o'sishiga sabab bo'ladi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda fikr yuritish operatsiyalari (tahlil, sintez, taqqoslash umumlashtirish)ning rivojlanishiga imkon beradi, bu, o'z navbatida, bolalarning oqilona o'sishiga olib keladi. Bu jarayonda bolalarning nutqi rivojlanadi. Sensor tarbiyani amalga oshirishda tasviriy faoliyatning ahamiyati katta. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi bilan, katta-kichikligi bilan tanishadilar, ularning farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalaydi. Chunki bolalar o'z ishlarida bizning hayotimizda, jamiyatda bo'layotgan voqealarni aks ettiradilar, ulardan mammun bo'ladilar, hayajonlanadilar.

Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari – boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shami bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish

jarayonida bolalarga bir-biriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlar tarbiyalanadi. Bolalarda, ishni baholash jarayonida, bolalarni o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda bo'lish, to'g'ri baholash, o'z ishidan va o'rtoqlarining ishidan xursand bulish kabi axloqiy sifatlar tarbiyalanadi. Tasviriy faoliyat bu bolalarni o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini bajarishda tinmay mehnat qilishga undovchi faoliyat hisoblanadi. Bolalarda mehnat ko'nikmalarini o'stirish, tarbiyalash kerak, faqat navbatchilik orqali ba'zi bolalarda emas, balki, har bir bolada. Tasviriy faoliyat bolalarga estetik tarbiya berishning asosiy vositasi hisoblanadi. Har bir predmetning katta-kichikligini, rangini, shaklini, fazoda joylashishini ajratish, bu estetik sezgining bo'laklari hisoblanadi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi – bu rangi, ritmi, proporsiyani chuqurroq sezish bilan bog'liqidir. Bolalar rangni, shaklini, uning xilma-xilligini sezsa yoki his etsa, u shunchalik ranglar aralashmasining xilma-xilligidan zavq oladi, bahramand bo'ladi. Bolalarda estetik sezgining rivojlanishi, ularda predmetga va uning ba'zi sifatlariga nisbatan estetik baho berishga o'rganadilar. Ularda tasviriy san'at asarlari ni tushunishga, ularga nisbatan his-tuyg'uni, munosabatni tarbiyalaydi. Tasviriy faoliyat bolalarda badiiy-ijodiy o'stirishda muhim rol egallaydi. Bolaning badiiy ijodiy o'sishi bu obrazli fikr yuritish, estetik idrok etishni va obraz yaratishda zarur bo'lgan mala-ka, ko'nikmalarni egallah hisoblanadi. Masalan, tabiatga yoki istirohat bog'iga sayr, ko'z faslida sayohat uyuştirish. Tarbiyachi bolalarni predmet yoki tevarak-atrofni kuzatishda paydo bo'luvchi estetik his-tuyg'u orqali, tevarak-atrofga, kishilar mehnatiga to'g'ri baho berish, vatanga nisbatan muhabbat kabi sifatlarni tarbiyalash mumkin. Bolalarni o'z ishini yana ham chiroyli va yaxshi bajarish, boshqalarga yoqadigan, ularni ko'rganda quvonadigan qilib yaratish bu badiiy, axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Maktabga bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyat kasb etadi. Rasm, loy, qurish materiallari bo'yicha bilim, malakalarini egallah maktabda tasviriy faoliyat darslari va mehnat darslarini muvaffaqiyatli egallahslariga asos bo'ladi. Ularni o'quv faoliyatiga tayyorlaydi: pedagogni tinglashga, uning ko'rsatmalarini bajarishga o'rgatadi. Oldiga qo'yilgan vazifani hal etishda, uning asosiy va muhim hal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z

ishini nazorat qilib borish, mактабда vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi. Shuningdek, bola tasviriy faoliyat jarayonida psixologik jihatdan ham tayyorlanib boradi. Mактабда qiziqishga xohish, yangiliklarni bilishga intilish, maqsad sari intilish, tartibli holda shug'ullanish va shu kabilar. Shunday qilib, tasviriy faoliyat jarayonida olgan malakalar bolalarni mактаб hayotiga tezda kirishib ketishiga asos bo'ladi.

### **III. 1. TASVIRIY FAOLIYATNING BOSHQA FAOLIYATLAR BILAN O'ZARO BOG'LQLIGI**

Tasviriy faoliyat – bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning qismi sifatida. Mактабгача ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat bolalar bilan olib boriladigan butun ta'lim-tarbiyaviy ishning bir qismi hisobланади. Shu sababli u xilma-xil faoliyat va mashg'ulotlar turlari bilan bog'liq bo'lishi muhimdir. Bunga bola tasviriy faoliyatining xarakterining o'zi imkoniyat yaratadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish ishларida bolalar o'zларining tevarak-atrofидаги narsa hodisalar, badiiy asarlar, qo'shiqlardan olgan taassurotini aks ettiradilar. Rasm, loy, qirqib yopishtirish va qurish-yasash ishларining boshqa mashg'ulotlari va faoliyat turlari bilan bog'liqligi bolalar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishning samarasini, bolalarning turli mashg'ulotlarga qiziqishni oshiradi.

Mактабгача ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ish bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ularda turli qobiliyatлarning shakllanishi uchun xizmat qiladi. Barcha faoliyat turlarining bog'liqligi bolalarda kuzatuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlash, xayol, estetik histuyg'u, badiiy did, shu bilan birga, axloqiy sifatlar, mehnat qilish xohishi va ko'nikmasi, boshlangan ishni oxiriga yetkazish, qiyinchiliklarni yengish hissining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bolalar bilan tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'tkaziladigan suhbat ularda rasm chizishga, loydan buyum yasashga qiziqishларини uyg'otishi zarur. O'tayotgan jarayon bilan bog'liq bo'limgan yuzaki talablar bolalarning ijodiy emotsiyalarini so'ndiradi. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari jonli, emotsiyonal, ertakli surprizli elementlar bilan o'tilishi lozim. Ta'lim jarayonini bolalar sezmaydigan, yengil qilib o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar – o'yin, badiiy o'qish va hikoya qilish, musiqa va hokazo bi-

lan bog‘liqligini sismali olib borish kerak. Dastavval rasm, loy qir-qib yopishtirish mashg‘ulotlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash zatur. Bu bolalarning estetik tarbiyasiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

### **III. 2. BOLALARING TASVIRIY FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH VAZIFALARI**

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari boshqa ta’lim-tarbiyaviy ish bo‘limlarining vazifalari bilan chambarchas bog‘liq. Mashg‘ulot o‘tishda tarbiyachi bolalarning boshqa faoliyatlarida olgan bilim-lariga ham tayanadi. Bolalar tasvirlamoqchi bo‘lgan predmet haqidagi tasavvurga ega bo‘lsalar, rasm, loy, applikatsiya ishlarida samarali natijalarga erishish mumkin.

Tasviriy faoliyat turlari bolalar o‘yini bilan ham bog‘liq bo‘ladi. O‘yin bola hayotida katta o‘rin egallaydi. Maktabgacha ta’lim muassasasidagi turli xil – mazmunli-rolli, dramalashtirish, didaktik va harakatli o‘yinlar o‘tkaziladi.

Har qanday o‘yin bolaga zavq bag‘ishlaydi. Shunday ekan, tasviriy faoliyat ham o‘yin bilan bog‘lab borilsa, u bolalarga qiziqarli va yoqimli bo‘ladi va emotsiunal holatni uyg‘otadi, bu esa bolalar ishlarining sifatiga yaxshi ta’sir etadi. Mashg‘ulotlarda o‘yinli holatlarni tashkil etish yaxshi natijalar beradi. Bolalar bunday mashg‘ulotlarda erkin harakat qiladilar. O‘yin usuli barcha guruhlar da qo‘llaniladi. Bu usul yordamida yengil, quvnoq muhit yaratadi. Bolalarning mashg‘ulotga qiziqishi ortadi, tasviriy faoliyatida ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi. O‘yin shaklida o‘tadigan mashg‘ulot bolalar e’tiborini qamrab oladi, ularning estetik, axloqiy jihatdan tarbiyalanishlariga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish o‘yinchoq orqali o‘yin bilan bog‘-langan bo‘ladi. O‘yinchoqni chizish, yasash, qirqib-yopishtirish barcha yosh guruh bolalarida zavq uyg‘otadi, o‘yinchoqlarni tasvirlash bo‘yicha mashg‘ulotlar yil davomida bir necha bor o‘tkazilishi mumkin. Lekin ularning shakli turlicha bo‘lishi zarur. Bolaning hayotida mazmunli-rolli o‘yinlar muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun tasviriy faoliyatning o‘yin bilan bog‘lanishi bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Mazmunli-rolli o‘yinlarni mashg‘ulot mazmuniga kiritish bolaning tasvirlash faoliyatga qiziqishini, bajarayotgan ishining sifatini yaxshilaydi.

**O'yining borishi:** o'yin obrazlarning tasviri, quruq rasm chizish, loydan yasash, qirqib yopishtirish ishlaridan ko'ra, bolalar uchun qiziqarlidir. Bolaning kechinmalariga o'yin bo'yoq beradi. Bola o'z o'yinli rasmlarining to'la va yorqin ifodalani shiga intiladi. Tarbiyachi esa bolaga bunda yordam berishi kerak. Rasm, loy, qirqib yopishtirish bilan dramalashtirib, o'yinlarini uyg'unlashtirib olib borish, bolalarni har tomonlama rivojlanтиrishdek vazifani amalga oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Dramalashtirish o'yinlari uchun ko'pgina narsalarni bolalarning o'zлari yasashlari mumkin: dekoratsiya yoki uning qismllari, kostum detallari, maskalar. Tarbiyachining rasm, qirqib-yopishtirish mashg'ulotida bolalarga o'ynagan o'yinlarining tasviriy topshirig'ini berish, ularda tasviriy faoliyatga jonli qiziqishini uyg'otadi. Tasviriy faoliyatning dramalashtirish o'yini bilan birlashtirib olib borish o'rta guruhdan boshlanadi. Rasm, loy, qirqib yopishtirish mashg'ulotlarida bolalarga qahramonlar obrazlarini ifodalab berish vazifasi topshiriladi. O'ynagan harakatli o'yinlarining tasviriy taklifi bolalarda zavq uyg'otadi. Bu o'yinlarning mazmunini faqatgina rasmda emas, balki qirqib yopishtirish bilan ham oson tasvirlash mumkin. Didaktik o'yinlar jarayonida bolalar predmetning belgilari, rangi, shakli, tuzilishi ni, kattaligini va boshqalar haqidagi bilimlarini mustahkamlab boradilar, xilma-xil sensor tajribaga ega bo'ladilar, tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari boyiydi. Didaktik o'yinlarning o'zi ham tasviriy nutqning mazmuni bo'la oladi. Bolalar qiziqish bilan didaktik materialni tayyorlaydilar. Tasviriy faoliyat bolalarning tabiat bilan tanishtirish, nutq o'stirish, musiqa mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'ladi. Tabiat hamma vaqt tasviriy ijodiyotning mazmuni bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning rasmlari tabiat haqidagi bilimlarini aniqlashtirish, mustahkamlash uchun yordam beradi, bundan tashqari, bolalarda o'sha kasbga nisbatan estetik his-tuyg'ularni uyg'otadi, bu esa hayotlarini yanada mazmunli va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Rasm, loy, qirqib yopishtirish mashg'ulotlarining nutq o'stirish bo'yicha olib boriladigan ish bilan o'zaro bog'liqligi juda muhimdir. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarga ertak, hikoya o'qib berishadi, she'rlar yod oldiradilar. Bolalarda bu ishlar davomida obrazli tasavvur shakllanadi va ular ertak va she'rdagi obrazlar-

ni o'zlaricha tasvirlab, unga nisbatan munesabatlarini bildirishga intiladilar. Bunda tasviriy faoliyat mashg'ulotlari qo'l keladi, bu mashg'ulotlar davomida bundan tashqari nutq boyligini o'stiriladi, u obrazli ifodalar boyitib boriladi.

Tasviriy faoliyat va musiqaning uzviy bog'liqligini ham bolalarning estetik, ijodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bog'cha yoshdagi bolalarga musiqali asarni tasvirlab berish taklif etilsa, bu taklif ularda jonli qiziqishni uyg'otadi. Bu bolalarda ijodiy izlanish, mustaqillik kompozitsiyasini tuzish qobiliyatlarini o'stiradi. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini tasviriy san'at asarlari bilan uyg'unlashtirib olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar tasviriy san'at namunalarini kuzatib borar ekanlar, ular rassomlarning ijodi bilan kengroq tanishib qolmay, surat chizishda mazmun, rang, shakl tanlashda muhim ko'nikmalarni egallab oladilar, san'at go'zalligini, boyligini ko'ra bilishga o'rghanadilar. Shunday qilib, maktabgacha ta'limga muassasasida tasviriy faoliyatni boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borish bolalar hayotini boyitadi va tarbiyaviy ish samaradorligini yanada oshiradi. Yana bir muhim tomoni shundaki, o'yinlarda, zal va guruh xonalarini bezashda bolalarning ishlari kerak, ya'ni bolalarning ishlari ularning hayotida kattagina o'rinnegallashi kerak.

#### IV BOB.

### MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari bu rasm chizish, loy, applikatsiya, qurish-yasash mashg'ulotlaridir. Bu mashg'ulotlar maktabgacha ta'limga muassasasining barcha guruhlarida aniq bir vaqtida, rejim asosida uyushtiriladi.

I kichik guruhda yilning boshida uncha katta bo'lmagan guruhlar bilan, yilning ikkinchi yarmidan boshlab butun bir guruh bilan uyushtiriladi.

I kichik guruhda mashg'ulotlar yilning birinchi yarmida 5–7 daqiqadan asta-sekin 10–15 daqiqagacha cho'zib boriladi.

II kichik guruhda 15–20 daqiqagacha, o'rta guruhda 20–25 daqiqagacha, katta tayyorlov guruhda 30–35 daqiqagacha bo'ladi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining muvaffaqiyatli uyuşhtirish,unga zarur bo'lgan materiallarni o'z vaqtida tayyorlashga ham bog'liqdir. Bu tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iboratdir:

a) tarbiyachi rasm va applikatsiya mashg'uloti uchun kerakli kattalikdagi va rangdagi qog'oz varaqlarini tayyorlaydi (tasvirlanadigan predmetning tuzilishiga ko'ra). Qog'oz varag'iga oldindan orqa tomoniga bolalarning ismi, familiyasi, mashg'ulot o'tkaziladigan sana yozib qo'yiladi.

Tarbiyachi oldindan qalam uchlarini ochib qo'yadi (albatta, 4-5 qalam ortiqcha qilib tayyorlab qo'yiladi);

b) katta tayyorlov guruhlarida bolalar qo'proq akvarel bo'yog'ini ishlata dilar. Oldindan bo'yoqlar ho'llangan bo'lishi lozim. Mo'yqalamlar yaxshilab yuviladi;

d) mashg'ulot uchun lattalar, bankachalarni tayyorlash zarur. Suv bankalarga mashg'ulot boshlanish arafasida quyiladi;

e) applikatsiya uchun rangli qog'oz yig'masi tayyorlanadi (ortiqcha miqdorda).

f) kleyster (undan tayyorlanadi);

g) loy haftada bir marotaba tayyorlanadi, polietilen plenkalarda saqlanadi. Tarbiyachi har bir bolaga loy parchasini qo'yish uchun taxtachalar, katta tayyorlov guruhlari uchun ko'rgazmalar, harakatlanuvchi taxtachalar tayyorlaydi, ho'l yoki nam lattalar berilishi kerak;

h) plastilin ham rangi bo'yicha tayyorlanib, rangdor mayda detallarni yasash jarayonida beriladi. Ko'proq katta guruhlarda beriladi, oldindan issiqda yumshatib qo'yiladi;

i) maktabgacha ta'lim muassasasida ko'rgazmali materiallar ham bo'lishi lozim. Masalan, predmetlar, o'yinchoqlar, illustratsiyalar, xalq amaliy dekorativ san'at namunalari;

jj) har bir guruhda bolalar ishining tahlili uchun ko'rgazmalar bo'lishi kerak. Mashg'ulot uchun zarur bo'lgan materiallarning har biri aniq, bir joyda, faoliyat turlariga qarab saqlanishi kerak, navbatchilar bunda ularni mashg'ulot uchun tayyorlay olishlari lozim;

k) o'rta guruhdan boshlab bolalar ham tarbiyachi bilan birgalikda mashg'ulotga tayyorlanib, jarayonga, ya'ni navbatchilikka jalb qilinadi. Har bir guruhda, har bir bola yoki navbatchilar vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi.

I kichik guruhda: tarbiyachi guruhda bolalarni mashg‘ulotdan keyin o‘z joyini tartibga solishga, ya’ni qolgan loyni, mo‘yqalamni, salfetkani, qalamni tarbiyachiga berishga o‘rganadilar.

II kichik guruhda: yilning boshida tarbiyachining o‘zi materiallarni tayyorlaydi, so‘ng alohida bolalarni materiallar tayyorlashga jalb etadi. Bu navbatchilik emas, balki ba’zi bolalar uchun topshiriqlar berish hisoblanadi (yil davomida tarbiyachi hamma bolalarni mehnat topshiriqlarini bajarishga jalb etishi lozim). Mashg‘ulotdan so‘ng bolalar, har biri o‘z stollaridagi narsalarni oldin umumiy stolga olib kelishga o‘rganadilar, so‘ng tarbiyachi o‘z yordamchilari bilan mo‘yqalamlarni yuvadi, salfetkalarni yig‘ib oladi.

O‘rta guruhda ham yilning boshida xuddi II kichik guruh kabi topshiriqlar beriladi. Yilning ikkinchi yarmida tarbiyachi bolalarni navbatchilikka jalb etadi. Ular bankalarga suv quyadilar, bo‘yoqlarni qo‘yib chiqadilar va boshqalar. Mashg‘ulotdan so‘ng bo‘yoqlarni joyiga olib borib, suv va mo‘yqalamlarni yuvib, joyiga qo‘yadilar.

Katta guruhdagi navbatchilar stol va stullarning qay tarzda turishini nazorat qilib, mashg‘ulotdan so‘ng stollar ustini artib chiqadilar, ular loy, bo‘yoqni, mo‘yqalamlarni stol ustiga qo‘yib chiqadilar. Yelim ham qo‘yib chiqadilar. Taxtachalarni yig‘ib, bankachalarni yuvib, joyiga qo‘yadilar, qaychilarni tarqatib, mashg‘ulotdan so‘ng yig‘ib chiqadilar.

Tayyorlov guruhida navbatchilikka katta mustaqillik beriladi. Tarbiyachi bolalarga, navbatchilarga mashg‘ulot uchun nimalar kerak bo‘lishini aytadi, navbatchilar ularni tayyorlaydi. Tarbiyachi kuzatadi.

#### **IV. 1. MASHG‘ULOTGA TARBIYACHINING TAYYORLANISHI**

Mashg‘ulotni boshlashdan avval, tarbiyachi albatta o‘zi tanlagan natura, o‘yinchoq, illustratsiya va o‘zi bolalarga nisbatan qayerda turishi kerakligini aniqlab oladi. Mashg‘ulotdan oldin tarbiyachi albatta chizishni, loydan yasashni, qirqishni mashq qilishi lozim. Bu esa tarbiyachiga uni tasvir etishning yo‘l va vositalarini aniqlab olish va har bir murakkab qismi ustida ko‘proq ishlash-

ni va bolalarning diqqatini ham shu yerga ko'proq tortish imkonini beradi. Mashg'ulotga tayyorlanish jarayonida tarbiyachi metodik adabiyotlarga murojaat etadi, qay bir metod va usullarni qo'llash mumkinligi ustida ishlendi. Tarbiyachi mashg'ulotni tashkil etishga tayyor bo'lgach, bolalarni o'yin faoliyatidan asta ta'limi faoliyatga ko'chirib o'tadi. Mashg'ulotni tashkil etish jarayoni bir-ikki daqiqani tashkil etadi. Bu qism mashg'ulotga qarab turlicha uyuştirilishi mumkin. Masalan, bolalarning tasvirlashlari kerak bo'ladigan predmet yoki illustratsiyalarni ko'rishni, kichkintoylarga esa o'sha narsa bilan o'ynashi, qo'li bilan tegishi mumkin bo'ladi. Kichik guruhdan boshlab bolalarni sekin-asta, shovqinsiz, stol atrofiga o'tirishga o'rnatamiz. Mashg'ulotning turiga va mazmuniga qarab, turlicha o'tkazilishi mumkin. Masalan, kichik guruhda yarim oy-simon shaklda o'tkazish mumkin. Bunda tarbiyachi har bir bolani ko'radi va yordam ko'rsatish maqsadida har birining oldiga borishi mumkin.

Hamma mashg'ulotlar uch qismga bo'linadi:

- mashg'ulotning boshlanishi – topshiriqni tushuntirish;
- mashg'ulotning borishi – topshiriqning bolalar tomonidan bajarilishi;
- mashg'ulotning yakuni – bolalar bilan bajarilgan topshiriqni tahlil qilish.

I va II qismlar bolalar yoshi va topshiriqqa qarab, 2–5 daqiqagacha davom etishi mumkin, I qismda tarbiyachi bolalarga ular bajaradigan topshiriqni xabar qiladi. Tarbiyachining tushuntirishi emotsiyal, ijodiy kayfiyat tug'dirishi lozim. II qismda tarbiyachi bolalarning berilgan topshiriqni bajarishga kirishishlarini tekshiradi. Bolalar ishi o'rtasida pauza bo'lmasligini, bola bir topshiriqni bajardimi, keyingisiga darhol o'tishlari, bajarishlarini kuzatish lozim. Mashg'ulot davomida bolalar tinch ishslashga, o'z o'rinalidan so'roqsiz turmaslikka o'rGANADILAR. Katta guruhdagagi bolalar dastavval tarbiyachi ruxsati bilan, keyin o'zlarini suvni, mo'yqalamni o'z joyiga qo'yadilar. Kichik guruhda bolalar mustaqil bo'limganlari uchun ko'proq tarbiyachining o'zi bolalar oldiga kelib turadi. O'rta guruhdan boshlab bolalar tarbiyachiga qo'llarini ko'tarib, murojaat etishga o'rGANADILAR. Bolalarni asta-sekin mustaqil ishslashga o'rnatib boriladi. Bor bo'lgan qiyinchiliklarni o'zlarini hal etish yo'llarini o'rGANIB boradilar. Mashg'ulotning yakuniga ↴

daqiqa qolganda bolalar ogohlantiriladi. Bu narsa kichik guruuh bolalari uchun ortiqcha hisoblanadi, chunki ular hali bu aloqani egallamagan bo‘ladilar. Kichik guruuhdan boshlab bolalarga agar-da ishini oldinroq tugatgan bo‘lsa, o‘zi yana rasmni element bilan boyitish taklif etiladi. Tarbiyachi ishni tugatishni qat’iyan taklif etsa, bolalar hammasi ishni tugatishi va tarbiyachi kunning ikkinchi yarmida bolalarga o‘z ishlarini tugatib olishga imkon yaratishi lozim.

Bolalar ishini tahlil qilish muhim metodlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Bolalar ishlarining tahlili ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bolalar ishlari devoriy ro‘znama qilib osiladi. Bolalar devoriy ro‘znomadagi ishlarini yaxshilab ko‘rib chiqadilar. Tarbiyachi bolalarning fikrlarini so‘raydi va bolalar ishlariga umumiy baho beradi. Mashg‘ulotdan so‘ng bolalarga o‘z ishlarini ko‘rib chiqish uchun yana bir bor imkoniyat yaratib beradi. Agar mashg‘ulot cho‘zilib, vaqt qolmasa, sayrdan keyin yoki kunning ikkinchi yarmida amalga oshirish mumkin. Bolalar ishlarida tarbiyachi ota-onalar uchun burchak tashkil etadi va bolalar ishlarini u yerda keyingi mashg‘ulotgacha qoldiradi. Albatta, ular dastavval yaxshilab bezatiladi. Ularni turliche bezatish mumkin. Masalan, pasport si-fatida. Pasport bolalar ishidan katta bo‘lib, bolalar ismi, familiyasi yoziladi va ancha vaqtgacha saqlashga imkoniyat beradi. Agar burchak tashkil etishning iloji bo‘lmasa, bolalar ishidan albom qilinadi. Har bir kishiga bittadan varaq ajratiladi va varaq ustiga konvert yopishtiriladi. Bolaning ismi yozib qo‘yilib, shu konvertga bolaning har bir bajargan ishi solinadi.

Aralash yosh guruhlarda mashg‘ulotni tashkil etish o‘ziga xos xususiyatga egadir. Bu guruhni 2-3 yuqori guruhga bo‘lib, har biri uchun o‘zining dastur mazmuni aniqlanadi (bolalarning hammasi birgalikda, bir vaqtda, bir faoliyat bilan shug‘ullansa ham).

## IV. 2. BOLALARINI MASHG‘ULOTLARDA O‘QITISH

O‘qitish – muktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni elementar bilimlar sistemasi bilan tanishtirishda, «Uch ming yillikning bolasi dasturi»da nazarda tutilgan ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda yetakchi rolni o‘ynaydi. O‘qitish jarayonida bolalarga yangi bilimlarni muntazam berib borish, ular

jamg‘argan tasavvurlarni aniqlash va sistemalashtirish, bolalarning bilish jarayonlari hamda tafakkur faolliklarini rivojlan-tirish amalga oshiriladi.

O‘qitish – ikki tomonlama jarayon: mashg‘ulotlar kuzatilar ekan, tarbiyachining ta’lim berish faoliyatini, uning bolalarga ta’sir etish imkoniyatlarini hamda bolalarning javob berish reaksiyalari-ni, o‘quv harakatlari sifatini ham baholash muhimdir.

Ta’lim jarayoni bolalarning jismoniy, ma’naviy, mehnat va estetik rivojlanishlariga har tomonlama ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ta’lim jarayonini kuzatishning muhim vazifasi uning bolalarga tarbiyaviy, umumta’lim ta’sirini (kuzatuvchanlik, zehnlilik, aqliy, nutqiy va harakat faolligi, mustaqillik, ijodiy tashabbusning rivojlanishini) aniqlashdir.

Pedagog har bir mashg‘ulotda ta’lim va tarbiyaning o‘zaro bog‘liq vazifalarini amalga oshirishni esda saqlashi muhimdir. Masalan, bolalarga rasm solish usullarini tushuntirar ekan, u bolalarga predmetni izchil tahlil qilishni, ko‘rganlarini tasvirlashni, harakat usullari haqida gapirishni, bo‘yoqdan tartibli foydalanishni, o‘rtog‘iga xalaqit bermaslikni oxirida hamma narsani o‘zi joy-joyiga olib qo‘yishni o‘rgatadi. Shuning uchun tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bolalarning tashqi dunyo haqidagi tasavvurlari qandayligini, ular o‘z fikrlarini erkin bayon qila olishlarini, ularning lug‘at boyliklari qandayligini aniqlash mumkin. Bolallardagi ma’naviy tasavvur darajasini bajarilgan ishlarni baholashi va shu kabilardagi fikrlari hamda luqmalaridan bilib olish mumkin. Demak, ko‘rilgan har bir mashg‘ulotlarda dasturning barcha bo‘limlari bo‘yicha bolalar bilan olib borilgan ishning daraja-si xuddi ko‘zgudagidek aks etadi. Tarbiyachi o‘tkazadigan mashg‘ulotlarning muvaffaqiyati uch shartga: dasturni yaxshi bilishga, ta’lim metodikasini egallaganlikka, o‘z guruhidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari hamda imkoniyatlarini bilishga bog‘liq bo‘ladi.

Tarbiyachini nazorat qilish va unga yordam ko‘rsatish uchun maktabgacha ta’lim muassasasi mudirasi barcha yosh guruhlari ning dasturini hamda ta’lim metodikasini bilishi, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixo-fiziologik xususiyatlarini tu-shunishi, yangi ilmiy tadqiqotlar va ilg‘or pedagogik tajribadan xabardor bo‘lishi kerak.

#### **IV. 3. MASHG‘ULOTLARNI KUZATISH BO‘YICHA UMUMIY KO‘RSATMALAR**

Ijobiy natijalarga erishish ta’lim jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishiiga bog‘liqdir. Mashg‘ulotlarga kirishda, eng avvalo, gigiyenik sharoitlarga rioya qilishga e’tibor berish kerak: mashg‘ulot o‘tkaziladigan xona yaxshi shamollatilgan bo‘lishi lozim; me’yoriy yoritilgan va yorug‘lik chap tomondan tushib turgan bo‘lishi kerak; jihozlar, asbob-uskuna va materiallar hamda ularni joylashtirish pedagogik, gigiyenik va estetik talablarga javob berishi kerak. Mashg‘ulotlarning davomiyligi belgilangan me’yorlarga muvosiq kelishi kerak, vaqtidan esa to‘liq foydalanish lozim. Mashg‘ulotning boshlanishi, bolalar e’tiboriniing uyushtirilishi, bolalar oldiga ta’lim yoki ijodiy vazifalarning qo‘yilishi, uni bajarish usullarining tushuntirilishi katta ahamiyatga egadir.

Tarbiyachining ishi kuzatilar ekan, uning bolalar bilan aloqasini, ularning muvaffaqiyatlariga qiziqish bildirilayotganligini, ularga xayrixohlik va mohirlik bilan munosabatda bo‘linayotganligini, bolalar oldiga o‘quv-ijodiy topshiriqning qo‘yilishini e’tiborga olish muhimdir. Ayniqsa, tarbiyachining nutqiga (savodli, tushunarli, emotsiyal ta’sirli qilib gapira oladimi) alohida e’tibor berish kerak.

Tarbiyachi harakat usullarini tushuntirishi, ko‘rsatishlar vaqtida bolalarni faollashtirishi, ularni aytayotgan gaplarni anglashga, eslab qolishga undashi muhimdir. Bolalarga u yoki bu holatni takrorlashlariga, aytishlariga (masalan, masalani hal qilish, o‘yinchoqni qanday yasash) imkon berish kerak. Tushuntirishlar 3–5 daqiqadan ortiq vaqt ni olmasligi kerak.

Pedagog mashg‘ulot davomida bolalarning individual xususiyatlarini nazarda tutib, bolalarni ishda faol qatnashishga jalb qiladi, ularda o‘quv faoliyati malakalarini tarkib toptiradi, o‘z harakatlarini baholash va nazorat qilish qobiliyatlarini o‘stiradi. O‘quv vaziyatidan bolalarda o‘rtoqlariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo‘lish, chidam, maqsadga intilganlikni rivojlantirish-dan foydalaniлади.

Mudira e’tibor beradigan asosiy obyekt, bu bolalar hamda bo‘ladigan mashg‘ulotning boshlanishi va davomiyligi xatti-harakatlaridir. U bolalarning mashg‘ulotlarda xatti-harakat qoidalarini ba-

jarayotgan yoki bajarmayotganliklarini kuzatadi. Mashg'ulotlarda bolalar to'g'ri o'tirishlari, chalg'iyyer masliklari, tarbiyachi va o'rtoqlarining gaplariga diqqat bilan qulq solishlari, faqat tarbiyachi so'ragandagina javob berishlari kerak; javob b'erayotganda o'rinalardan turishlari, agar kerak bo'lsa, stol yoniga kelishlari lozim; rasm bo'yicha gapiргanda ko'rsatkichdan foydalanishlari lozim. Kattaroq bolalar o'z ish joylarini darhol tayyorlay olishlari, kerakli materialni (bo'yoq, suv, plastilin va shu kabilarni) olib kelishlari, zarur mavzuda ishlay olishlari kerak.

Mashg'ulot davomida asosiy e'tibor dastur materialining bolalar tomonidan o'zlashtirilishiga, bolalar bilimining sifatiga, nutq, qo'l va harakat ko'nikmasi hamda malakalarining rivojlanganlik darajasiga qaratilishi lozim. Mashg'ulot kuzatilar ekan, ayrim bolalar qanday ishlayotganligini qayd etish, ayrim topshiriqlarni bajarish vaqtida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni aniqlash muhimdir. Mudira dalillarni qayd etadi, keyin shular asosida bolalar tomonidan bilimlarning egallanishi, ko'nikma va malakalarning shakllanganligi haqida xulosalar chiqaradi.

Shuningdek, maktabgacha ta'llim muassasasining mudiralari (bir guruhda turli yoshdag'i bolalar tarbiyalanadigan) yoshga qarab guruhchalarga bo'lish qanday tashkil etilganligi (kichik va katta guruhchalar qayerda va qanday joylashtirilganligi, guruhchalar ishini qanday boshlaganliklari – bir vaqtida boshlagan yoki boshlamaganligi, qaysi guruhcha oldinroq shug'ullana boshlaganligi) va har qaysi yoshga ko'ra bo'lingan guruhchalar uchun mashg'ulotning davomiyligi, mashg'ulot yakunida kichik bolalar nima bilan mashg'ul bo'lishgan hamda katta bolalar ishda davom etib turishganda ular o'zlarini qanday tutishgani, tarbiyachi barcha bolalarning faol faoliyatlarini qanday usullar bilan ta'minlagani, u o'z diqqatini bolalarning ikki-uch guruhchasiga taqsimlay olgan yoki olmaganligi, har bir bola faoliyatini nazardan qochirgan-qochirmaganligi, bolalarda e'tiborning to'planganligi va mustaqillikning tarbiyalangan-tarbiyalanmaganligi haqida qo'shimcha tarzda tushuntirishi kerak.

Mudira qanchalik ko'p narsani ko'ra olsa va eslab qola olsa, u mashg'ulotning ijobiy tomonlari va nuqsonlarini shunchalik chuqur tahlil qila oladi, u chiqaradigan xulosalar shunchalik ishonchli bo'ladi.

Kuzatishlar vaqtida yozib borish kerakmi va u qaysi sxemada bo'lishi kerak? Yozuvlar ko'rilganlarni, kuzatilayotgan narsalar haqida o'z fikrini, ijobiy yoki salbiy dalillarni qayd etish uchun zarurdir. Mashg'ulotlarni tahlil qilishda xulosalarni isbotlashga asoslashga yordam beradi.

Qanday yozish kerakligi haqidagi masala prinsipial masala emas: har kim o'ziga qanday qulay bo'lsa, shunday yozaverishi mumkin.

Kuzatish va dalillarni to'plash ishning birinchi yarmi bo'lsa, ikkinchisi dalillarni tahlil qilish va pedagogik jarayonning yutuqlari va kamchiliklari haqida asosli xulosalar chiqarishdan iborat. Amalda esa quyidagi kabi holatlar uchraydi: mudira tarbiyachining ishini tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi, ammo ularni aniq dalillar, ishonarli misollar bilan tasdiqlamaydi. Bunday hollarda xulosalar tasodifiy, subyektiv tuyulishi mumkin. Boshqacha ham bo'ladi: mudiri mashg'ulotni diqqat bilan kuzatgan, ko'pgina dalillarni yozgan va eslab qolgan, ammo bu dalillarni tahlil qilmagan, ularni umumlashtirmagan, shuning uchun chiqarilgan xulosa va tarbiyachiga berilgan tavsiyalar bunday vaqtida retseptiv xarakterda bo'lib qoladi. Demak, mudira o'zida kuzatish, dalillarni ko'rish, shuningdek, ularni tahlil qilish, umumlashtirish ko'nikmasini tarkib toptirish kerak. Mashg'ulotlarni tahlil qilish uchun: 1) mashg'ulotning tashkil etilishini; 2) dastur mazmunini; 3) mashg'ulotni o'tkazish metodikasini; 4) uning natijalarini (ya'ni tekshirish vaqtida bolalardagi bilim, ko'nikma, malaka hamda ularning xatti-harakatlarini) ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

#### **IV. 4. TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINING KO'RIGI**

Har bir mashg'ulotning tarbiyaviy-ta'limiyligi ahamiyati dastur mazmunining to'g'ri tanlanishi, yaxshi tashkil etilishi, tarbiyachining tayyorlarligi, tegishli asbob-uskunalar va tasviriy materiallarining mavjudligi, bolalar faoliyatiga aniq rahbarlik bilan aniqlanadi.

Bolalarning mashg'ulotlardagi to'laqonli o'quv yoki ijodiy faoliyatlar oldingi barcha ishlarning sifatiga, shuningdek, ularni mana shu aniq mashg'ulotga tayyorlashga bog'liq bo'ladi. Tayyorlov ish-

lari bo'lajak mashg'ulot mazmuniga mos bo'lishi kerak: mazmunli rasm solishdan oldin tevarak-atrof bilan tanishtirish maqsadida sayohatlar o'tkazish, badiiy asarlar o'qish, bolalarga mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq bo'lgan illustratsiyalar, reproduksiyalarini ko'rsatish, suhbat o'tkazish, diafilm va bolalarning yaxshi chiqqan rasmlarini ko'rsatish mumkin va hokazolar; katta guruhlarda dekorativ rasm chizishlardan oldin bolalarga xalq amaliy san'ati namunalarini, illustratsiyalar, bolalar rasmlarini ko'rsatish, suhbat o'tkazish, «Tasvirdan bilib ol» didaktik o'yini, didaktik mozaika bilan o'yinlar o'tkazish va shu kabilar maqsadga muvofiqdir; loy va plastilindan narsalar yasash mashg'ulotidan oldin kichik shakldagi haykaltaroshlik bilan tanishtirish, bolalarga o'zлari yasaydigan jonivorlar tasvirlangan rasmlarni tanlashni, dekorativ plastika es-kizini bajarishni topshirish mumkin va boshqalar. Qog'ozga rang-tusini mustaqil bera olish, applikatsiya va konstruktorlik ishlari uchun tayyorgarlik qilish ham mashg'ulotga tayyorlanish jarayoniga kiradi.

Oldindan qilingan barcha ishlarning mazmunini mudira tarbiyachi bilan qilingan qisqa suhbatdan bilib oladi. Mudira tarbiyachining dastur vazifalarini to'g'ri tushunish va tushunmasligini aniqlaydi, mashg'ulot rejsi bilan tanishadi, konspektini ko'rib chiqadi, tasviriy materialning mavjudligi va uni stollarga joylashtirishning to'g'riliqini qayd etadi.

Mashg'ulotlarni ko'rish vaqtida mudira quyidagi holatlarga e'tibor beradi. Mashg'ulotning boshlanishi (3–5 daq.). Tarbiyachi bolalarni o'yindan mashg'ulotlarga o'tkazishda foydalangan usullar.

Shundan keyin mashg'ulotning birinchi qismi – bolalar oldiga tasviriy vazifalarning qo'yilishi va ish usullarini tushuntirishning mazmuni hamda metodikasi baholanadi.

Bolalarning aqliy va nutq faoliyatlari, ularning mashg'ulotga qiziqishlari qanday usullar vositasida yuzaga keltirilganligi (kichik guruhlarda – o'yin usullari, ovutmachoqlardan, katta guruhlarda – bolalardagi mavjud tajribaga tayanish, qo'shiq, she'r, ertaklardan parchalar o'qish va shu kabilar) ni qayd etish lozim.

Bolalarga berilayotgan savollardagi maqsadga yo'llangan tu shuntirishlarning aniqligi. Ishni bajarish bosqichlarining ajratilishi. Bolalarning tushuntirishlarni qanchalik egallayotganlik

larini nazorat savollar yordamida (masalan, bolalar predmetni qanday izchillikda tasvirlaydilar, qanday harakatlarni bajaradilar) tekshirish. Tushuntirishlarda ko'rgazmali material – natura, namunaga tayanish. Predmetning tasviriy usullarini tarbiyachi tomonidan ko'rsatishning sifati (agar mashg'ulotda shunday qilingan bo'lsa). Bo'lajak ish uchun tushuntirishlar yoki ko'rsatmalarining davomiyligi. (Shuni unutmaslik kerakki, tayyorlov ishlarining barchasini tarbiyachi mashg'ulotdan oldin amalga oshirish kerak.)

Bolalar ishni bajarishga qanday kirishdilar: qanchasi tarbiyachining tushuntirishi tugashi bilanoq, rasm solishga (yasashga) kirishdi, qanchasi tushuntirishdan keyin ham o'ylanib, qiynalib turdi. Bolalar tarbiyachiga savollar berishdimi, ular nima haqida so'rashdi.

Tarbiyachi mashg'ulot jarayonida qo'yilgan vazifalarning bajarilishiga erishdimi, individual yondashuvdan foydalandimi. Tarbiyachi ayrim bolalarga qanday ko'rsatma va maslahatlar berdi. Topshiriqning eng qiyin elementlari haqida o'z vaqtida eslatma berish yo'li bilan xatolarning oldi olindimi? Tarbiyachi qanday usullar vositasida shug'ullanuvchilarning o'zini-o'zi baholash va o'zini-o'zi nazorat qilishga undadi. Berilayotgan ko'rsatmalarining maqsadga muvofiqligi va ularni bajarishning sifatini tekshirish. Tarbiyachining e'tiboridan chetda qolgan bolalar bo'ldimi? Tarbiyachi bolalarni egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan mustaqil foydalanishga, ijodiy ishlashga undadimi? Tarbiyachi bolalarning noto'g'ri o'tirishi, noto'g'ri holat (poza)larini sezdimi va ularni to'g'riladimi?

Bolalar qalam (mo'yqalam, qaychi va shu kabilar) ni qanday ushlayapti va ulardan to'g'ri foydalanayaptimi? Ular qanday texnik malaka va ko'nikmalarga ega bo'lganlar (dasturning tegishli tablalariga qarang). Ayrim bolalarning ko'nikma va malakalarini oshirish uchun tarbiyachi nimalar qildi?

Shug'ullanayotganlarning qanchasi ishni o'z vaqtida, qanchasi erta tugatdi va qanchasi tugata olmay qoldi? Bolalar ishni bajarishga qancha vaqt sarflashdi? Tarbiyachi mashg'ulot oxirida bolalar ishlarining ko'ruvini nazarda tutdimi va u qanday tashkil etilgan edi (jamoa tahlil, o'zaro tahlil, o'zini-o'zi baholash)? Bajarilgan ishlarning tahliliga bolalar jalb qilingan-

medi, naturadan, namunadan, tasavvur bo'yicha bajarilgan ishlarni baholashda ular qanday mezondan foydalanishardi? Bu baho dastur talablarini va mazkur mashg'ulotning vazifalarini umuman aks ettiradimi? Bolalar predmetlarning xususiyatlari, rang-tuslari, tasviriy va texnik usullarni belgilovchi so'zlardan to'g'ri foydalanishadimi? Bolalar ishlarini ko'rish qancha vaqt-ni oladi?

### **Mashg'ulot tahlili.**

Mashg'ulot mazmuni mazkur yosh guruhi dasturiga, yil fasliga, bolalarning tasviriy imkoniyatlariga muvofiq keladimi?

Yangi narsalar va bolalarga tanish narsalar o'rtasidagi muvofiqlikning oldingi o'tgan mashg'ulotlar bilan aloqasi. Emotsionalijodiy o'quv yuklamasi, mashg'ulot mazmunining tarbiyaviy va bilih ahamiyati.

Mashg'ulotning tashkil etilishini, materiallar va ko'rgazmali qurollarning sifatini, bolalar hamda tarbiyachilarining tayyorgarliklari (ish usullarini ko'rsata bilish)ni baholash. Navbatchilarining mashg'ulotga tayyorlanishdagi roli, navbatchilar ishining o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish bilan biriktirilishi.

Tarbiyachi tushuntirishlarining to'g'riliqi va tushunarligi. O'qitishning mashg'ulot turlarida foydalilanilgan usullarining muvofiqligi (masalan, dekorativ rasm solishda, grafik tasvir ko'rinishidagi namunadan, predmet-naturani tahlil qilish, uning tasviriy usullarini ko'rsatish va boshqalardan foydalaniлади) dastur vazifalarining xarakteriga (yangi yoki takrorlanayotgan mazmun), bolalarning yoshiga (masalan, kichik guruh bolalarini o'qitishda yetakchi usul bu ko'rsatish, katta guruhlarda esa o'qitishning ko'rgazmali usullari bilan birga, aniq og'zaki yo'llanmalar, ishni qaysi usulda va qanday izchillikda bajarish lozimligini mustaqil aniqlash topshiriqlari katta ahamiyat kasb etadi) bog'liq.

Mashg'ulotning bosqichlar bo'yicha umumi davomiyligi, agar shunday bo'lgan bo'lsa, kechikishning sabablari.

Bolalarning mashg'ulotda o'zini tutishi: uyushganlik, intizomiylik, qiziqish, ularda vaqt, ish tempi hissiyotining mavjudligi.

Bolalarning ishlarini ko'rib chiqish: olingen ko'rsatmalarga muvofiq ishlay bilish, texnik va tasviriy ko'nikma hamda malakalar, qo'yilgan vazifani hal etishga ijodiy yondoshish, ishning puxta yoki naridan beri bajarilganligi.

Mudira tarbiyachi bilan birga, har bir bolaning mazkur mashg'ulotda bajargan ishini ko'rib chiqadi va tahlil qiladi. Ayrim holdarda (ishning sifati ko'pchilik bolalarnikidan past bo'lsa) bolaning oldindi mashg'ulotlarda bajargan ishlari ko'rib chiqiladi. Bu o'rinda quyidagilar qayd etiladi:

1. Ishning taklif etilgan mavzu va ko'rsatmalarga muvofiq kelish-kelmasligi, bola o'z ishini tugatgan-tugatmaganligi.
2. Tasvirlangan va asl predmet (natura, namuna) o'rtasida o'xshashlikning bor-yo'qligi.
3. Predmetning qaysi belgilari: xarakterli yo kam ahamiyatli yoki har ikkalasi ham tasvirlanganligi.
4. Predmetning tuzilishi (qismlarining joyylanishi) to'g'ri berilgan-berilmaganligi.
5. Predmet qismlarining lozim joylaridagi farqlari berilgan-berilmaganligi. Bola predmetning rangini realistik bera olgan yoki bera olmaganligi. Bolaning kuzatuvchanligi, tasavvurining mahsuli haqida nimalar dalolat berayotganligi. Bolaning o'zi tasvirlayotgan narsaga munosabati nimalarda namoyon bo'lganligi (rasmga rangli qilib bo'yoq berishda, o'lchamdan foydalanishda, obrazlar dinamikasida).
6. Bolaning qog'oz sahifalarini qanday to'ldirganligi, bolada predmetlarning real va ma'naviy aloqalarga muvofiq keluvchi fazoviy joylashuv haqida tasavvurning bor-yo'qligi (yonida, oraliqda, oldinda, orqasida, yuqorida, pastda va shu kabilar).
7. Bola tavsiya etilgan mavzuning mazmunini mustaqil bera olgan-olmaganligi (bu savolga javob berish uchun guruhdagi barcha bolalarning rasmlarini qiyoslash lozim bo'ladi).
8. Texnik malaka va ko'nikmalarining sifati (predmet kontur to'g'ri tasvirlanganmi, rasm tartibli qilib bo'yaganmi, bola mayda detallarning tasvirida mo'yqalamning ingichka uchidan foydalana oladimi yoki yo'qmi, loy va plastilindan narsalar yasashda predmetning shaklini to'g'ri belgilanganmi, yuza qismi tekislanganmi, qismlar oralig'i mustahkam qilib biriktirilganmi, g'adir-budur elementlari yo'qmi, predmetning konturi to'g'ri qirqilganmi, predmetning qismlari to'g'ri yelimlanganmi).
9. Mashg'ulotning umumiy bahosi, ijobiy tomonlari va nuqsonlari, mazkur mashg'ulotning metodikasiga qanday o'zgarishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## IV. 5. TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARI UCHUN MATERIALLAR VA USKUNALAR

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari pedagogik o'ylangan moddiy jihozlanishni: maxsus uskunalar, asboblar va tasviriy materiallarini talab qiladi. Mashg'ulot o'tkazish uchun sharoit yaratuvchi barcha predmetlar taxtalar, molbertlar, tagliklar va hokazolar; asboblar: tasviriy jarayonda kerak bo'ladigan qalamlar, mo'yqalamlar, qaychilar va boshqa narsalar: tasvir yaratishda ishlataladigan tasviriy materiallar – jihozlash uskunalariga kiradi. Mudira tarbiyachi-metodist bilan birgalikda tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini muvaf-faqiyatli o'tkazish va bolalar ijodiyotini o'stirish uchun olingen barcha kerakli narsalarini ko'rib chiqadi, material hamda uskunallardan qanday foydalani-layotganligini, bolalarda ularga nisbatan ehtiyyotkorona munosabat tarbiyalanayotganligini tekshirib chiqadi. Tasviriy faoliyatning har xil turlari turlicha jihozlanadi.

**Rasm** – predmetli, mazmunli, dekorativ, o'ylangan fikr bo'yicha solish mashg'ulotlari uchun lenolium qoplangan doskalar (devorga va polga qo'yiladigan); bolalar chizgan rasmlarni namoyish qilish uchun uchta reykali doskalar; natura uchun taglik; stolga qo'yiladigan doskalar – yig'ma molbertlar (katta guruhlar uchun) va boshqalar kerak bo'ladi.

Guruhsda seksiyalardan biriga lenolium, ikkinchisiga flanel qoplangan, uchunchisiga esa reyka qoqligan, uch seksiyali, kombinatsiya qilingan, devorga o'rnatiladigan doskaning bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarning ko'rish faoliyatini saqlash maqsadida katta guruhlarda sathi qiya turadigan individual taxtalardan foydalanish maqbuldir, chunki bunday taxtalar nuring ko'zga burchak ostida emas, balki perpendikulyar yo'nalishda tushishini ta'minlaydi.

**Qalamlar.** Rasm solish uchun bolalarga rangli qalamlar to'plami kerak: kichik guruhsda beshta qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq va qora); o'rta guruhsda-oltita qalamdan (qizil, ko'k, yashil, sariq, qora va jigarang) foydalaniadi; katta guruhlarda yuqorida aytilganlardan tashqari, qizg'ish, binafsha rang, to'q qizil, pushti zangori, och yashil ranglar qo'shiladi. Kichik guruhlarda qalamlar dumaloq bo'lishi kerak. Katta guruhlarning bolalariga yumusloq grafitli qalamlar («Shkolnoe», «Iskusstvo» № 1, 2) tavsiya qilinadi

Qalamni ishlatischga tayyorlashda yog'och qatlami 25–30 mm olib, grafiti 8–10 mm ochiladi (rangli qalamlarning yog'ochi kamroq olinishi kerak, chunki ularning o'zaklari yo'g'onroq, qattiqroq bosganda uvalanib, sinib ketadi).

**Mo'yqalamlar.** Bo'yoq bilan rasm chizish uchun tuki yumshoq va elastik bo'qirsoq, olmaxon va shu kabilarning qilidan qilingan dumaloq mo'yqalamlar kerak. Mo'yqalamlar nomerlariga ko'ra farqlanadi: 1–8 ingichka, 8–16 yo'g'on. Kichik guruh bolalariга 12–14 nomerli mo'yqalamlarni berish tavsiya qilinadi. Bunday mo'yqalam qog'ozga bosilganda yorqin, yaxshi seziladigan iz qoldiradi, predmetning shaklini berishni osonlashtiradi. O'rta va katta guruhlar bolalariga ham ingichka, ham yo'g'on mo'yqalamlarni berish mumkin.

Bolalarning mo'yqalamlardan foydalanishlari kuzatilar ekan, eng avvalo, ular uni to'g'ri ushslashni bilishlariga, tarbiyachi buni eslatishi va ko'rsatishiga: mashg'ulot vaqtida va tugugandan so'ng bolalar mo'yqalamni taglikka qo'yishlariga (tarbiyachi tagliklarni qalin kartondan yoki uzunasiga ikkiga qirqilgan g'altakdan tayyorlashi mumkin) e'tibor berish kerak. Bolalarga mo'yqalamni suvli bankada qoldirishga ruxsat bermaslik kerak, bunday qilinganda uning tuki egiladi, har tomonga tarqab, shaklini yo'qotadi. Agar tukli mo'yqalamlarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'linsa, ular uzoq muddat xizmat qiladi. Mashg'ulot uchun bo'yoq tayyorlashda uni mo'yqalam bilan aralashtirmaslik kerak, buni cho'p bilan qilish ancha qulay. Akvarel bo'yog'i bilan rasm solishda mo'yqalamning tuklari yelpig'ich singari tarqab ketmasligi uchun uni bosmasdan, bo'yoq yengil yarim aylana harakat bilan olinadi. Ish tugagandan keyin, bo'yoq qurib qolmasdanoq, mo'yqalam yaxshilab yuvildi. Mo'yqalamlarning mo'yini stakanda yuqoriga qilib saqlash tavsiya qilindi. Mudira mashg'ulot boshlanishidan oldin, qog'oz qanday tayyorlanganligini ko'radi. Rasm solish uchun anchagina qalin, bir oz g'adir-budur qog'oz (yaxshisi, yarim vatman) kerak. Qalin yozuv qog'ovi uning o'rnini bosishi mumkin. Rasm solish uchun ustiga qalam deyarli iz qoldirmay, sirpanadigan, yaltiroq va qalam kuchliroq bosilganda yirtilib ketadigan yupqa qog'ozlar yaramaydi. Ish vaqtida qog'oz qimirlamay, bir tekis turishi kerak (bolalar qog'oz holatini o'zgartirishlari mumkin bo'lgan manzarali rasmlar solish bundan mustasno).

Kichik guruh bolalariga rasm solish uchun yozuv qog‘ozni kattaligidagi qog‘ozni berish tavsiya qilinadi u bolakay qo‘lini yozgandagi kenglikka muvofiq keladi. O‘rtta va katta guruh bolalariga alohida predmetlarning tasvirlari uchun yozuv qog‘ozining yarmini (butun qog‘ozdan ham foydalanish mumkin) berish tavsiya qilinadi: mazmunli rasmlar uchun kattaroq shakldagi qog‘ozni berish kerak. Rasm solish uchun qog‘oz tayyorlar ekan, tarbiyachi tasvirlanadigan predmetning tuzilishini va o‘lchamini hisobga olishi kerak.

Guash bo‘yoqlar bilan rasm solishda to‘yingan va yumshoq tondagi rangli qog‘ozlardan foydalaniladi. Katta guruh bolalari kerakli rangdagi qog‘ozlarini mustaqil tayyorlay oladilar (qog‘ozga tus berishda guash va akvarel bo‘yoqlardan hamda yo‘g‘on, yumshoq mo‘yqalamlardan foydalanadilar: o‘lchami unchalik katta bo‘limgan yassi bo‘yoq mo‘yqalamlari – fleytslar qulaydir. Bo‘yoq oldin gorizontaliga, so‘ngra uning ustidan vertikaliga beriladi).

**Bo‘yoqlar.** Rasm solishda suvli bo‘yoqning ikki turi – guash va akvareldan foydalaniladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun pastasimon, shaffof bo‘limgan bo‘yoqlar – guash qulaydir.

Bo‘yoqni mo‘yqalamda turadigan, undan tomib tushmaydigan, suyuqroq qaymoq quyuqligidek qilib aralashtirilishi kerak. Bo‘yoqlarni bolalar rangni ko‘rib turishlari uchun qirralari past shaffof bankachalarga quygan ma’qul.

Yopiq qopqoqchali polietilen bankachalardagi guash bo‘yoqlaridan foydalanish qulay: tarbiyachilar bo‘yoqni ularning o‘zida tayyorlaydilar va mashg‘ulotdan so‘ng ularni boshqa narsaga qo‘ymay qoldiraveradilar. Bunda bo‘yoq tejam bilan sarflanadi va uni tayyorlashga ko‘p vaqt ketmaydi. Tarbiyachi bo‘yoqning kerakli rangini chiqarishni bilishi kerak. Akvarel bo‘yoqlar katta va maktabga tayyorlov guruhlari bolalariga tavsiya qilinadi. Akvarel bo‘yoqlarining farqlovchi xususiyati, bularning kukun qilib maydalangan pigment va ko‘p miqdordagi yopishtiruvchi moddalaridan (bog‘lovchi sifatida) iboratligidir. Kukun qilib foydalanganligi tufayli akvarel bo‘yoqlar o‘zlarining asosiy fazilatlari – shaffoflik kasb etadilar. Hozirgi kunda akvarel har xil ko‘rinishda: qattiq – plita shaklida, yarim yumshoq-chinni shaklchalarda va yumshoq tubikchalarda ishlab chiqarilmoqda. Maktabgacha ta’lim muassasi sharoitlarida yarim yumshoq (shaklchalardagi) akvareldan soy

dalanish ma'qulroq. Bolalarning akvarel bo'yoqlaridan xuddi guash bo'yoqlari bilan rasm solganidek foydalanishlariga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bolalar akvarel bo'yoqlari bilan rasm solar ekanlar, predmetlar konturini oldin qog'ozga oddiy qalam bilan tushiradilar. Mashg'ulotlar va bolalarning mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatlar uchun pastel – turli rangdagi yo'g'on sterjenchalar tavsiya etiladi. Pastel to'plamida har biri bir nechta tusga ega bo'lgan beshta rang bo'ladi, buning o'zi ish uchun tayyor palitradir. Pastel qattiq, yumshoq va o'rtacha turlarga bo'linadi. Bolalar uchun yumshoq pastel tavsiya etiladi. Bu bo'yoq ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi, chunki u oson uvalanadi, sinadi. Shuning uchun pastel sterjenining har birini zar qog'ozga o'rash kerak bo'ladi. Rangli mum bo'rlar sterjen ko'rinishida 12 tadan 36 tagacha rangda to'plam qilib sotiladi. Uning bilan ham xuddi pastel singari rasm solinadi. Rangli mum bo'rlarning afzalligi shundaki, ular bilan qalam chizig'i qalinligidagi chiziqni chizish mumkin. Shuning uchun mum bo'rlar bilan rasm chizishda oddiy qalamdan foydalilmaydi. Rangli bo'rlardan mashg'ulotlardan bo'sh vaqtarda taxta (doska)ga rasm chizishda foydalaniladi. O'chirish uchun ikkita – quruq va ozgina namlangan latta kerak: qurug'i bilan xatolar yo'qotiladi, rasmga bo'r changi (kukuni) tushurilib, ayrim joylari xiralashtiriladi: ho'li bilan eng to'q joylari oqartiriladi, oxirida esa rasm doskadan o'chiriladi. Rasm solishga mo'ljallangan ko'mir uzunligi 10–12 sm va diametri 5–8 mm bo'lgan yirik sterjenden iborat bo'ladi. U yumshoq, sinuvchan, uqalanuvchan material bo'lganligi uchun zar qog'ozga o'ralishi kerak. Ko'mir to'q, xira-qora iz qoldiradi. Ko'mir bilan ishlashda uning changini saqlab qoladigan tukli qog'ozlar – gulqog'oz, o'rash uchun ishlatiladigan va rasm solish qog'ozlari ishlatiladi. Agar ko'mir bilan ishlangan rasm ustidan paxta tamponni ozgina ho'llab, rasm solingan qog'oz sathidan vertikaliga yengil surib chiqilsa, bo'yoq yanada mustahkmlanadi.

Loy va plastilindan narsalar yasash uchun maxsus uskunalar: aylanadigan doirali dastgoh (katta guruhlari uchun), suv solinadigan idishlar, latta; bolalar yasagan narsalarni bo'yash uchun – gruntovka; bundan tashqari, bo'yashda ishlatiladigan maxsus bo'yoqlar – angoblar kerak bo'ladi. Bolalar ishlagan haykal taroshlik mahsulotlarini pishirish uchun mufel pechkaning bo'lishi

maqsadga muvofiqdir. Bunday pechkani o'quv kollektorlaridau topish mumkin.

Natura yoki namunani namoyish qilish uchun natura uchun mo'ljallangan tagliklardan foydalansa bo'ladi. Karkaslar – turli uzunlik va kenglikdagi oddiy taxtalar ham uskunalarga kiritiladi. Karkaslardan foydalanish bolalarga jonivorlar oyooqlarining mu-kammalroq tasvirida va ularning figuralarini barqaror hamda dinamikroq qilishga imkon beradi.

Narsalar yasash mashg'ulotlari uchun plastik materiallar – loy, plastilin kerak bo'ladi, bunda asosiy yasash uchun eng maqbul material, bu loydir. Kichik guruhlarda faqat loydan foydalilanidi, chunki bu yoshdagি bolalar plastilindan narsa yasashda qiynaladilar. O'rta guruhda ham bolalar asosan loydan narsalar yasaydilar. Rangli plastilindan katta guruhlarda mazmunli narsalar yasashda foydalilanildi.

Narsalar yasash uchun loy qanday tayyorlanadi?

Turli joylardan olingan loy rangi bilan farqlanadi; u sarg'ish, jigarrang, qizg'ish, kulrang, oq, yashil-ko'kish, qo'ng'ir rang bo'lishi mumkin. Loy, uning tarkibida qum kam bo'lsa, kuchli bo'ladi, qum aralashmasi uni sochiluvchan qiladi. Loyni bevosita yerning o'zidan tanlash mumkin. Kuchli loyning yaxshi qatlamlari daryo va ariqlarning yaqinida uchraydi. Shuning uchun shahar bog'chalari uchun loyni yozda dala hovliga chiqqan vaqtarda g'amlab kelish kerak.

**Plastilin** – loy, mum, yog', bo'yoq va boshqa qo'shilmalardan tayyorlangan sun'iy plastik massa. U yumshoq va qayishqoq, u uzoq qotmaydi, ammo temperatura oshganda yumshaydi va eriydi. Narsalar yasashda plastilinni qo'lda uzoq muddat ezish tavsiya qilinadi. Plastilin bilan ishlashdan oldin uni qutisi bilan issiqroq joyga yaqin qo'yib, biroz isitiladi. Katta guruhlar tarbiyalanuvchilarida plastilinning individual tayyor to'plamlari bo'lishi kerak. Ular plastilinning holatini o'zları nazorat qilib, qolgan plastilinni rangiga ko'ra joylab qo'yadilar.

Applikatsiya mashg'ulotlari uchun tayyor shakl, qog'oz, qiyqimlar uchun patnis va yuza qutilar; kleyonka; shakllarga yelim surish uchun plastmassa taxtachalar ( $20 \times 15$  sm): latta, shirach uchun chetlari past quticha; mo'yqalamlar uchun taglik; dag'al jundan tayyorlangan mo'yqalamlar; to'mtoq uchli qaychilar; (richagining

uzunligi 18 sm) kerak bo‘ladi. Applikatsiya ishlarida har xil navli oq va rangli qog‘ozlardan foydalaniladi. Fon uchun oq qalin qog‘oz: rasm albomlarning varaqlari yoki stolga solinadigan rangil qog‘oz yo bo‘lmasa, yupqa karton ishlataladi. Predmetning qismlari yupqa qog‘ozdan, yaxshisi yaltiroq qog‘ozdan qirqilgani ma’qul; uning rangi yorqin, ushlaganda qo‘lga xush yoqadi. Maktabgacha katta yoshdagilar har xil rang va tusdagi jilosiz rangli qog‘ozlardan ham foydalanadilar. Katta guruhlarda har bir bola uchun turli rang va tusdagi qog‘ozlar naboriga ega bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Tasviriy faoliyatga mo‘ljallangan barcha materiallar turlarga ajratilgan va ma’lum tartib bilan har qaysisi joy-joyiga qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Qaychilar qutichada saqlanadi. Foydalanim bo‘lgandan keyin bo‘yoqlar bankalarga qayta quyiladi (bankalarning og‘zini bo‘yoq qurib qolmasligi uchun mahkam qilib berkitish kerak). Bankalar-dagi guash bo‘yoqlari ustiga suv quyish lozim. Qog‘oz dasta qilib taxlanib saqlanadi. Rangli qog‘ozlarni kichikroq bo‘laklarga qir-qib, press ostiga qo‘yish mumkin (keyin katta guruhlarda ular individual konvertlarga solinadi). Tartibli joylashtirilgan material kam joyni egallaydi, yaxshi saqlanadi, ulardan foydalanish ham qulay bo‘ladi.

## V BOB. MASHG‘ULOTDAN TASHQARI VAQTLARDA TASVIRIY FAOLIYAT

Bolalarning badiiy jihatdan tarbiya olishi faqatgina mashg‘ulot jarayonida emas, balki kundalik hayotda yuzaga keladi. Bu o‘rinda bolaning o‘z faolligi jarayonida yuzaga keluvchi mustaqil tasviriy faoliyat muhim rol o‘ynaydi. U bu jarayonda mashg‘ulotlarda ol-gan badiiy tajribasidan foydalanadi. Mashg‘ulotdan tashqari vaqt-larda bolada o‘zi sevgan mavzularga tasviriy faoliyatning biror bir turlariga nisbatan layoqat yoki xohish seziladi. Bunga bolalarning o‘z ixtiyorlari, xohishlari bo‘yicha ishlagan loy, applikatsiya, rasm va qurish yasash ishlari misol bo‘ladi. Shuningdek, tasviriy san’at va uning turlari, musiqa, adabiyot, bolalar mustaqil tasviriy faoliyatining asosiy sababchisi hisoblanib, bolalarning kechinmalarini boyitadi. Teatr, kino, sirk yoki televizion eshittirishlarni ko‘rish bolalarda obrazlarni ifodali, mazmundor bo‘lishini yanada oshi-

radi. Bolalarda tasviriy faoliyat bilan o‘zlar shug‘ullanishlari ja-rayonida ularda chizish, yopishtirish, loydan yoki qurilish materiallaridan o‘yinchoqlar yasashga nisbatan xohish uyg‘onadi. Ular o‘z o‘yinchoqlarini o‘rtoqlariga, tarbiyachisiga 8- martga o‘z bu-vilari, onalari uchun sovg‘alar tayyorlab, ularga hadya qiladilar. Ba’zida bolalar zalni, guruh xonasini bezatish uchun o‘yinchoqlar yasaydilar yoki mashg‘ulotlar uchun ko‘rgazma materiallari tayyorlaydilar. Masalan, sanash uchun shablonlar, solib qo‘yish uchun qutilar va hokazo. Bolalar guruhdha yoki o‘rtoqlarida paydo bo‘lgan yangi narsalar bilan qiziqib, uni chizishga yoki aplikatsiya qilishlari mumkin. Masalan, birorta bola bog‘chaga yangi qo‘lqopda keladi, bolalarga u yoqib qoldi va bolalar uni tasvirlashga o‘tishlari mumkin. Bolalar albatta, o‘zlariga yaqin bo‘lgan narsalarni chizadilar. Masalan, shimolda yashovchi bug‘uni, O‘rta Osiyoda esa tog‘lar, qumliklar va tuyalarni tasvirlaydi. Bolalar, ayniqsa, ko‘proq dekorativ va ertak hikoya asosida rasm chizadilar. Qizil gilam va naqshlarni chizadilar, qo‘g‘irchoqni bezaydilar. Tayyorlov guruhidha esa ko‘proq bolalarning naturaga qarab gullar, vazalar chizishlarini kuzatish mumkin. Shuningdek, guruh xonasini, zalni bezatish uchun dekorativ bezaklar chizadilar. Bu jara-yonda bolalar, asosan, akvarel, guash, rangli bo‘rlar, ko‘mirli tayoqchalardan foydalanadilar. Bolalar bo‘sht vaqtlarida loydan, plastilindan narsalar yasashni yaxshi ko‘radilar. Ular odamlar, hayvonlar, ertak qahramonlarini loydan yasaydilar. Ayniqsa, jamoa bo‘lib narsalar yasash katta o‘rin tutadi. Bolalar guruhlarga birlashib, mavzular asosida o‘yinchoqlar yasaydilar. Masalan, «Mazay bobo va quyonlar», turli idish-tovoqlar. Bolalar geometrik shakllarni qirqib yopishtiradilar, qor parchalari, qog‘ozdan qirqilgan qo‘g‘irchoqlar uchun ko‘ylaklar va hokazo. Bolalar jamoa bo‘lib aplikatsiya ishlarini bajaradilar. Masalan, qo‘g‘irchoq uchun gilamcha, bolalar ishlaringin mazmuni, muktabgacha ta’lim muassasasi hayotidan yoki yaqin ularni o‘rab turgan hayotdan, atrof-dan olishi mumkin. Qurish yasashda esa bolalar katta va mayda qurilish detallaridan foydalanadilar, garaj, uylar, paroxodlar quradilar. Qog‘ozdan archa uchun, guruh xonasi uchun o‘yinchoqlar yasaladi. Tabiat materiallaridan, gugurt cho‘pi, plastilin yordamida, qayiqchalar yasaydilar. Kuzda turli-tuman barglardan piramida yoki shapkachalar yasaydilar. Mashg‘ulotdan tashiqari, bola

lar kitoblardagi rangli rasmlarni rasmiy albomchalarni tomosha qiladilar. Bu esa bolalarning badiiy didlarini, idrok qilishlарini o'stiradi. Rangli shaklni sezishni o'stirish maqsadida didaqtik o'yinlar uyushtiriladi. Shuningdek, bolalar mustaqil tasviriy faoliyat bilan bino ichida ochiq havoda ham shug'ullanishlari mumkin. Buning uchun bolalarga, masalan, asfaltda chizish uchun rangli bo'rlar, loydan yoki qumdan turli xil figuralar yasash, toshlarni terib, turli ko'rinishlarni hosil qilish, somondan turli xil narsalar yasashlarini, qishda esa qordan turli narsalar yasab, ularni rangli muzchalar bilan bezatishni taklif etish mumkin. Shuningdek, bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatlarini o'zaro, ya'ni rasm, loy, aplikatsiya, qurish yasash bilan chambarchas bog'liqdir.

Bolalarning bu faoliyatlarini ularni tashkil etadigan roli o'yinlar bilan ham bog'liqdir. Yirik qurilish detallaridan jamoa fermasi, kino, do'kon quradilar, bu o'yin uchun loydan sabzavot va mevalar yasaydilar. Har bir bola mustaqil tasviriy faoliyat jarayonida tarbiyachi oldiga kelib, o'ziga kerakli zarur narsani so'rab olishi, tu-shuntirib berishi va u bilan nima ish qilmoqchi ekanligi haqidada so'zlab berishi mumkin. Bu jarayonda bolalar o'z oldiga aniq maqsad qo'yib, uni bajarish usullarini, yo'llarini o'zlarini mustaqil axtarib topishga harakat qiladilar.

Bolalarning faolligi jarayonida vujudga keluvchi mustaqil tasviriy faoliyati tarbiyachining shu ishga rahbarlik qilishida biroz qiyinchilik tug'diradi. Chunki tarbiyachi to'g'ridan to'g'ri rahbarlik qilmay, balki ikkinchi darajali holatni egallaydi. Bola tevarak-atrof haqidagi taassurotlarini mustaqil ravishda tasvirlash uchun ular tasvirning vositalaridan keng va erkin foydalanishni bilishlari lozim. Bu esa mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi tomondan berilib, bolalar tomondan egallangan bilim va malakalar hamda taassurotlarning ko'payib, boyib borishi bilan belgilanadi. Masalan, naturaga qarab gul rasmini chizgach, bolalar bilan gulzordagi gullarni yoki uchastkadagi gullarni, rasmlardagi turli gullarni ko'rib chiqish lozim. Shundagina bolalar o'z mustaqil faoliyatlarini gullardan chiroyli guldstalar va dekorativ kompozitsiyalar tuza oladilar.

Tarbiyachi bolalarga ular nimalarning tasvirini xohlashsa, o'sha predmetlarni ko'rib, kuzatib chiqishni taklif etadi. Agarda bola samolyot, mashina chizmoqchi bo'lsa, tarbiyachi undan chizishni bilasanmi, deb so'rashi va yordam sifatida bolalarga transport turlari-

ning rangli rasmini ko'rib chiqishini va bunda ularning har bir o'ziga xos xususiyatlariga bola diqqatini tortishi lozim. Bolalar diqqatini ko'proq uncha murakkab bo'lmagan dekorativ kompozitsiyalar tortadi. Masalan, gilamcha, salfetka va hokazo. Shuning uchun tarbiyachi bolalar ishini boyitish maqsadida, mashg'ulotlardan tashqari tasviriy faoliyat jarayonida bolalarga dekorativ naqshlarni ko'rib chiqish uchun tavsija etishi mumkin. Masalan, Dimkov naqshlari. Agarda bolalar mashg'ulotdan tashqari mazmunli kompozitsiya tasvirlamoqchi bo'lsalar, tarbiyachi qog'oz varag'idan predmetlar qanday yasalishi, ish tartibini eslatib o'tishi zarur. Bolalar bo'sh vaqtlarida o'zлari sevgan ranglar bilan bo'yodda, qalamda shug'ullanishni sevadilar, tarbiyachi materialning xillarini range-rang qilib, bolalarning bu qiziqishlarini, xohishlarini o'stirishi lozim. Bolalarga chizayotgan ishlarni toza, chiroqli qilib bajarishtalarini eslatib borishi lozim. Tarbiyachi bolalarning bu ishlarida ularga maslahatgo'y bo'lishi kerak. U bola qanday qilish lozimligini aytmaydi, balki bola bilan ishning borishini tahlil qilib, bolaga ishning sifatli bo'lishi uchun yordam beradi.

Mustaqil tasviriy faoliyat jarayonida faoliyk yoki xohish, bolalar tomonidan kelib chiqishi kerak. Agarda tarbiyachi bu jarayon davomida kichik va o'rtalik guruh bolalariga ko'proq maslahat berib, faolligini oshirsa, katta tayyorlov guruhlarida bolalarga ko'proq mustaqillik berishlari lozim. Tasviriy faoliyatida bolalar faolligi asosida do'stona munosabatlardan tarkib topadi, bolalar bir-birlariga maslahatlar beradi, yordam beradi, ya'ni jamoa bo'lib ijod qilish o'sadi. Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatini bilan shug'ullanishi uchun materiallar yetarli darajada bo'lishi, loy yetarli va qulay bo'lishi, materiallarni saqlash uchun joylashgan joyvonlar bolalar olishi uchun qulay bo'lishi, tasviriy san'at asarlari, shuningdek, dekorativ san'at namunalari, naqshlar, xoxloma va Dimkov o'yinchoqlari bo'lishi zarur. Bular tasviriy faoliyat burchagini bezashi mumkin. Shuningdek, tasviriy faoliyat zonasida doska bo'lishi lozim, chunki bolalar unga rangli bo'rlar bilan rasmlar chizadilar. Turli-tuman materiallarning bo'lishi, bolalar mustaqil tasviriy faoliyatlarini yana ham boyitadi. Tasviriy faoliyat burchagidagi materiallarni tarbiyachi vaqtiga vaqtiga bilan almashtirib, to'ldirib boradi. Illustrativ rasmlar to'plami bo'yicha xoxloma, dimkovo o'yinchoqlari stol ustiga terib joylashtiriladi. Bolalar ularni ko'rib chiqadilar. Bola-

lar o‘yin jarayonida rasm chizishdan tashqari, loydan o‘yinchoqlar yasashni yaxshi ko‘radilar. Qurilish materialardan bolalar keng foy-dalanib, o‘yinlar tashkil qiladilar. Ammo tarbiyachi oldindan qurilish burchagini tashkil etish to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishi kerak. Bu burchakda tarbiyachi yirik va mayda qurilish detallarini plastmas-sa, rezinadan qilingan o‘yinchoqlarni, odam va hayvon obrazlari-ni, transport, o‘simliklarni tasvirlovchi mayda o‘yinchoqlarni ham joylashtiradi. Katta va tayyorlov guruh qurilish burchagiga qurilmalar tasviri aks ettirilgan albomlar, fotosuratlarni ham joylashtirish lozim. Albomda yig‘ilgan fotosuratlar turli-tuman binolarning ko‘rinishini tasvirlash mumkin. Masalan, ko‘prik, transport, bino-lar kabi.

Bolalar qurilmalar qurish jarayonida o‘z qurilmalarini boshqat-dan ko‘rib, o‘zgartirib, turli xil detallar bilan boradilar, shuning uchun bolalarning juda qiziqib qurayotgan ishlari bir necha kun mobaynida saqlanishi zarur. Kichik guruhlarda esa tarbiyachi bolalarga nimalar qurishga o‘rganganligini o‘zi eslatadi, o‘zi bolalar o‘rnida ishtirok etadi va qurilmalarni qurish jarayonida birgalikda yordamlashadi va o‘z vaqtida maydonchaga qurilish materiallarining to‘plamini olib chiqadi, bolalar stol ustida turli xil quri’malar qura-dilar, ular bilan o‘yin o‘ynaydilar. Qo‘l mehnati burchagida xil-ma-xil materiallardan karton, yelim, qog‘oz, qutichalar va tabi-at materiallaridan saqlanadi. Katta yoshdagi bolalar tarbiyachining rahbarligida mashg‘ulotda olgan bilim va malakalari asosida, o‘yin uchun kerakli o‘yinchoqlar yasaydilar. Tarbiyachi bolalarga masla-hatlar beradi, qiynalishsa, ko‘rsatib beradi. Ba’zida tarbiyachining o‘zi o‘yinchoq yasaydi, ammo albatta bularni bu ishga jalb etadi. Masalan, qaysidir qismini yopishtirishni yoki kerakli qismlarni tan-lab olishni taklif etishi mumkin. Ba’zida tarbiyachi mashg‘ulotdan ikki-uch kun oldin, bolalar yasashi lozim bo‘lgan buyumni bolalar ishtirokida yasab, ikki-uch kun burchakda saqlashi mumkin. Tabi-at materiallari bilan ham barglar, shoxlar, o‘simlik urug‘lari, jolud-lar ishlashadi. So‘ng ularni sayr yoki ekskursiyada kuzatadi, bola-lar ularni yig‘adilar va tarbiyachi ulardan qanday qilib o‘yinchoq yasash kerakligini ko‘rsatib beradi. Masalan, shishkalardan tip-ratikan, baliq va boshqalar yasaydilar. Tarbiyachi bolaldandan bu materiallardan nimalar qilish mumkinligini so‘rab, ularda fanta-ziyaning faolligini o‘stirib boradi.

Kichik va o‘rtalari ham mashg‘ulotlardan tashqari vaqtarda rasm chizish, loydan buyumlar yasashga qiziqishi uy-g‘onib boradi. Ular turli xil sodda ko‘rinishdagi rasmlar chizishiga va o‘rtalari turli xil figuralarni rangli qog‘ozdan qirqadilar. Tarbiyachi ularning qiziqishlarini o‘stirib, rangli qog‘ozdan chiptalar, cheklar qirqishni tavsiya etishi mumkin. Tasviriy faoliyatga pedagogik rahbarlik qilish mashg‘ulotdan tashqari vaqtida asta-sekin o‘zgarib boradi. Ya’ni harakatlarni ko‘rsatib berishdan mustaqillikka o‘tish, material tanlashda yoki o‘z rejasini o‘ylagan maqsadini tasvirlashda ham. Mashg‘ulotdan tashqari vaqtida tasviriy faoliyatni ishning yordamchi shaklsiga aylantirib yuborish kerak emas. Shuningdek, tarbiyachi shuni esda tutmog‘i lozimki, mashg‘ulotdan tashqari tasviriy faoliyat bilan shug‘ullanish hamma uchun majburiy emas, u bilan kim chizishini, loydan narsa yasashni, qirqishni yaxshi ko‘rgan bolalar shug‘ullanishi mumkin. Bolalar tasviriy faoliyat bilan mashg‘ulotdan tashqari vaqtida 10–15 daqiqa davomida shug‘ullanib, o‘z rasmlarini, loy va applikatsiyani tugatishlarini yoki uni keyingi kunda ham davom ettirib, tugatishlari mumkin. Bu faoliyatga rahbarlik qilish tarbiyachidan juda katta sezgirlikni, diqqatni va bolalarning ijodiy qobiliyatlarining o‘sishi uchun sharoit yaratib berishni tablab etadi.

Bolalarning mustaqil tasviriy faoliyatlari burchagini jihozlari va materiallari. Bolalarning mashg‘ulotlardan tashqari vaqtarda tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratilgan bo‘lishi kerak. Bu maqsadda guruh xonasining yaxshi yoritilgan va o‘yin burchagidan mumkin qadar uzoqroq biron bir joyi ajratilishi kerak. Xonaning deraza oldi ajratilishi maqsadga muvosiq, u yerda ikki-uch stol qo‘yiladi. Agar deraza tokchalari past bo‘lsa, ularga taxtalar mustahkamlanadi, bolalar shug‘ullanmayotgan paytda ularni tushirib qo‘yish mumkin. Rasm solish, narsalar yasash, applikatsiyalar uchun mo‘ljallangan buyumlar yaqin turgan javonning ochiq tokchalarida, stollar-da turishi kerak. Kichik guruhda bolalarga erkin foydalanishlari uchun faqat rangli qalamlar beriladi. Katta guruh bolalariga (ayrim cheklanishlar bilan) barcha materiallar berilishi mumkin: Loy o‘rniga plastilin tavsiya qilinadi. Bolalar o‘z rasmlarini «Xalq er-taklari», «Odamlar mehnati», «Manzarali naqshlar», «Tabiat haqiqi-

da» va shu kabi mavzutik papkalarga joylashtiradilar. Tasviriy faoliyat «zonasida» bolalar o‘z ishlarida ijodiy foydalanadigan tabiiy materiallar solingan quti va ko‘rgazmali qurollar bo‘lishi kerak.

## VI BOB. TASVIRIY SAN’ATDA BADIY IDROK

Idrok deb, predmet va hodisalarning ongda, ularning bevosita ta’siri natijasida aks etishga aytildi. Atrof olamdagи narsa hodisalarni idrok qilishdan bilish boshlanadi. Bilishning hamma boshqa shakllari – esda olib qolish, tafakkur, tasavvur idrok obrazlari asosida kuriladi. Bolalar tasviriy faoliyati atrof-muhit, borliqni bilishga asoslanadi. Shuning uchun idrokning rivojlanishi masalasi bolalarni rasm, loy, aplikatsiya ishiga o‘rgatish uslubiyatining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Badiy obrazning yaratilishi mazmunning yorqin hissiy shaklda berilishiga asos bo‘ladi. Shuning uchun rassomning hayotni idrok qilishi bilishga oid va emotsional tomonlarni birlashtirish kerak. Bu muammo haqidagi qiziqarli fikrlarni biz O‘rta asr sharqning mutafakkir-ensiklopedisti Abu Nasr al-Forobiyning «Saxovat shahri» risolasidan topishimiz mumkin. «Sezayotgan narsani aql kuchi vositasida bilish, xohish bo‘lsa, shu vosita yordamida yetilishayotgan harakat boshqa kuchning dalilidir va bu kuch aql, hissiyot, fikrlash, xulosa qilishni yaratadi. Lekin agar his qilinayotgan jismni sezish vositasi orqali o‘rganishni keltirib chiqarayotgan istak jismoniy va ruhiy ta’sirning dalili bo‘ladi».

Atrofdagi, borliqning rassom tomonidan idrok qilinishi maxsus xususiyatlarga ega. Odatda, buyumni idrok qilishda biz, ko‘pincha, shu narsa bilan tanishishda cheklanamiz, chunki biz uchun undan foydalanish va ko‘rsatma olish asosiysi hisoblanadi. Rassom esa predmetni tasviriy maqsadda har gal idrok qilganida shakl, rang, fazoda joylashishini har tomonlama o‘rganadi. Mashhur rassom K.F.Yuon, rassom idrokining o‘ziga xos tomoni shundaki, u diqqat bilan hayotdagи hamma oddiy va oddiy bo‘limgan, hamma ifodali va bir xil narsalarni ko‘rib, belgilay olishi va o‘z asosida aks ettirishi kerak, degan edi. Bizni o‘rab turgan buyum dunyosi uzoq evolyutsiya jarayoni, jamiyat va insonning ijtimoiy-tarixiy tajribasi jarayonida vujudga keldi. Predmetli fazoviy muhit bizning

«ikkinchchi tabiat» insondan tashqarida, o‘zining butun mazmuni ni yo‘qotadi. Qadimgi Sharq mutafakkirlari, keyinchalik XVII–XIX asr faylasuflari ham, faqatgina inson hamma narsalarning estetik va jismoniy o‘lchovidir, deb ta’kidlagan edi. Bolaning hayotida atrofdagi sharoitning muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi V.A.Suxomlinskiy ham ta’kidlab o‘tgan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning estetik rivojlanishi boshqariladigan va shakllantiriladigan jarayondir. A.N.Leonteva, A.O.Zaporojets, E.A. Flyorina va maktabgacha tarbiya sohasidagi boshqa mutaxassislar ham shu nuqtai nazarda turadilar.

### Ibn Sino «Bilim kitobi»

Qayerda idrok bo‘lmasa, o‘sha yerda rohat ham, azob ham bo‘lmaydi. Demak, birinchidan, bizda ikki ko‘rinishda bo‘ladigan idrok bo‘lish kerak: birinchisi, tashqarida (yuzaga keladi), histuyg‘udek, ikkinchisi esa, ichkarida, tasavvur va ong shaklida. Bolalar atrofdagi narsalarga juda ta’sirchan bo‘ladilar, shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasasining joylashishi, jihozlanishi katta ahamiyatga ega.

«Har bir inson o‘zgarishlarga qodir, bolada esa bu juda kuchi. Bolalar hayotidan alohida lahzalarni eslatishning o‘zi kifoya: ularning muhiti o‘zgargan vaqtda, atrof-muhit ularda qanchalik katta iz qoldirishi ochiq ko‘rinadi». (Jaloliddin Devoniy, «Siyaniy rukovodstva»).

Tashqi passivlik natijasida tashqi olam bolaga faol ta’sir qildi. Ular narsalarning ahamiyati bilan tanishadilar, o‘yinchoqlarni ularning shakli, rang, materialiga diqqatlarini qaratib, bir-biridan farqlaydilar. Yoshi ortgan sari ular qanday qilib jihozlarni har xil qo‘yish mumkinligi va o‘yinchoqlarni joylashtirishni, xona devorlari qanday bezatilganligini farqlay oladilar. Sekin-asta bolalar o‘zları mashg‘ulotga tayyorlanishda, ovqatlanish uchun stolni tayyorlash, bayramga guruh xonasini kuzatishda ishtirot eta boshlaydilar. Ular endi faqatgina hamma narsadan foydalanmay, balki o‘zları ham kerakli sharoitni yaratishga o‘rganadilar. Bolalarning bu faoliyati kattalarning doimiy yo‘naltirilgan yordami natijasida ularda go‘zallik va foyda haqida tasavvurlarning shakllanishiha olib keladi, estetik his va ijodga ehtiyojni tarbiyalaydi. Lekin

bu jarayon muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun bolani o'rab turgan butun muhit o'ziga jalb qiladigan, chiroyli, yetarli bo'lishi kerak. Pedagog esa bolalarni badiiy va maishiy-estetik tarbiyalash masalalarini yaxshi bilish va farqlashi kerak. Maishiy estetikani mutaxassislar buni qanday tushunadilar – bu go'zallik va foyda qonunlari asosida tashkil etilgan, bizni o'rab turgan butun sharoit, o'zini tuta bilish, tashqi ko'rinish, kiyimi, ya'ni bu bizga va atrofimizdagi odamlarga yaxshi kayfiyat bag'ishlaydigan, to'laqonli ish va dam olishni ta'minlaydigan hamma narsa.

Estetika demak, chiroyli, ongli va qulay. Maishiy estetika maktabgacha ta'lismuassasasida bu binoning badiiy jihozlanishi (pedagogik ta'sir vositasi, estetik tarbiya vositasi) va kompleks arxitektorli badiiy masalalarning yechimi vositasi, maktabgacha ta'lismuassasasining har xil bolaning jamoada badiiy rivojlanishi uchun sharoit yaratilishi kerak. Jihozlar (interyer) maktabgacha yoshdag'i bolalar badiiy tarbiyasi masalalari bilan kelishilgan holda o'rmatiladi, shuningdek, zamonaviy dizayn talablariga ham riosa qilinadi (texnik estetika).

Maydonda bo'lish bolani doimo xursand qilishi uchun, o'yinga qiziqtirishi turli xil faoliyatga tortishi, jismonan sog'lomlashtirishi uchun maydonning jihozlanishi bir qator talablarga javob berishi kerak:

- arxitektorli badiiy va pedagogik;
- barcha turdag'i jihozlarning miqdori;
- maydonning ko'kalamzorlashtirilishi;
- maydonning, ayvonning, besetkaning badiiy bezatilishi.

Maktabgacha ta'lismuassasasining badiiy bezatilishi o'z-o'zicha muhim, lekin zamonaviy pedagogik masalalarning yechilishi aloqasi bilan bu mavzu yanada oydinlashadi, tarbiyaga kompleks yondashuv «funksional yondashuvga qaraganda katta tarbiyaviy effekt bilan ta'minlaydi» (Babanskiy Yu.K.).

Bolalar ijodi uchun idrokning bilish tomoni katta ahamiyatga ega. Bola buyum yoki hodisaning nomini, tashqi ko'rinishini (shakli, rangi kattaligi va b.) bilishi kerak, uning qaysi xususiyatlari 1-darajali, qaysilari 2-darajali ekanligini aniqlay olishlari kerak. Bu xususiyatlarni bolalar har doim ham mustaqil ajrata olmaydilar. Ko'pincha u diqqatini yorqin ahamiyatli bo'lmagan detallarga qaratadi, natijada esa obyektning realligi buziladi.

**Pedagogning vazifasi** – bolani qurishga o‘rgatish, ya’ni buyumi ni uning hamma asosiy xususiyatlarini birgalikda idrok qilishga o‘rgatish. Bu masalani yechishning asosini sensor madaniyatni tarbiyalash tashkil qiladi. «Sensor madaniyat» tushunchasini maktabgacha tarbiya pedagogikasiga M. Montessori ishlari olib keldi. Lekin nisbatan oldingi davrda ko‘pincha faylasuflar hissiy tajribaga katta ahamiyat berishgan. Shuningdek, Abu Nasr al-Forobiy (873–950) «Insonning bilimlarni egallashi sezgi vositasida amalga oshiriladi. Uning universalistlarini egallashi alohida predmetlarni hissiy idrok qilish orqali yuzaga keladi. Sezgi bu – inson ko‘nglining bilimlarni egallash vositasi», – degan edi.

Inson paydo bo‘lishi bilan unda paydo bo‘ladigan birinchi narsa bu kuch, uning vositasida u ozuqlanadi. So‘ng kuch vujudga keladi, uning vositasida u hissiy idrok qiladi: issiq, sovuq, hid, maza, tovush, ranglarni, sezgi paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda unda sezgi apparati vujudga keladi. Qandaydir buyumni bilish, fikrlash kuchi, tasavvur yoki hissiyotning vositasi bo‘lishi mumkin.

«Donolikning asoslari» risolasida u «tashqi sezgi a’zolari orqasida idrok vositasida chiqariladigan, obrazlarni tutish uchun qandaydir kuchlar va turlar bor. Bunga miyaning oldingi qismida joylashgan va shakl hosil qiladigan, deb ataluvchi kuch tegishlidir. Bu kuch his etilayotgan narsalar qanday yo‘qotilayotganini mustahkamlaydi. Ular idrok etish sferasidan yo‘qoladilar, lekin shakl hosil qiluvchi kuchda qoladilar. Tevarak-atrofni idrok qilish maqsadga yo‘nalgan bo‘lishi kerak. Bola nimani va nima uchun kuzatishi kerakligini aniq tasavvur qila olishi kerak. Bunday maqsadga yo‘nalganlik va harakatning mukammalliligi idrokni chuqur lashtiradi, ma’lum momentlarda diqqatni va fikrni to‘playdi, idrok tanlanganlik, baholangan ko‘rinishga keladi. Bunday tahlil qilish qobiliyatini egallab olish uchun yuqori sensor madaniyat – predmetlarni qurish va ularning xususiyatlarini ajrata bilish kerak bo‘ladi, bu esa tasviriy faoliyatda alohida ahamiyatga ega. Tasviriy faoliyat uchun birinchi o‘rinda ko‘rish va his etish sezgilarining rivojlanishi muhimdir.

«Har bir yuqori sezgi idrok etilayotgan obyektdan uning o‘ziga xos xususiyatining taassurotidan olinadi. Ko‘z – bu ko‘zgu, unda ko‘rinayotgan narsaning aksi, ko‘z uning qarshisida turganda tasvirlanadi. Qaralayotgan obyekt yo‘qolgan vaqtda, agar u yorqin

bo‘lmasa, uning aksi ham yo‘qoladi. His etish – bu bir tekisda tartibga solingan organda harakat qiluvchi kuchdir, bu biron bir narsa bilan to‘qnashish natijasida kelib chiqadigan har qanday o‘zgarishni idrok qiladi» (Abdulla Avloniy, «Gullayotgan o‘lka va axloq»).

N.M.Sechenov fikricha, ko‘rish orqali qilinadigan tahlilning natijalari nozikroq va boyroq, shu sababli odam ko‘rishga ko‘proq ishonadi. Bunday fikr haqqoniy, lekin yangi obyektni idrok qilishda, predmet xususiyatini idrok qilishda, uning natijalariga biringa ko‘z bilan ko‘rish yetarli emas. Bolalar psixologiyasida atrofni idrok etish jarayonida his etish va ko‘rishning o‘zaro munosabatlarning rivojlanish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu muammoga V.I.Zinchenko va A.G.Rudskoy ishlari bag‘ishlangan, bunda ular mактабгача bolalikning turli bosqichlarida qo‘l va ko‘zning bilish funksiyalarini o‘рганадilar. Psixologlar (L.A.Venger, N.V.Venger, A.V.Zaporojes, M.I.Lisina va boshqalar) bir qancha analizatorlarning birlashishi tasavvurlarining aniqlashuviga yordam beradi, deb hisoblaydi.

Shuning uchun har tomonlama kuzatishga, predmetni faqat ko‘rish orqaligina emas, balki boshqa analizatorlar orqali ham ko‘z-dan kechirib chiqishga imkon berish kerak. Ko‘pincha ko‘rishda his etish yordamga chaqiriladi. Faqat ba‘zi vaqtarda, ya’ni predmetni qo‘lga olib bo‘lmaydigan paytda, muzkur hisni kiritish kerak, bolalarga predmet konturini fazoda qo‘l bilan chizib yurgizishni taklif qilish kerak. Gullayotgan o‘simliklarni, mevalarni idrok etishda hid bilish ham ahamiyatga ega. Bu bilan umumiylashtirish qilish bo‘iydi. Bolaning sensor rivojlanishi tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, hatto kichik yoshdan bir guruhga kiradigan predmetlarning alohida xususiyatlarini predmetlarning umumiylashtirish qilish qobiliyatini tarbiyalash mumkin (olmaga o‘xshagan dumaloq, mevaga o‘xshagan qizil va hokazo).

Abu Ali ibn Sino (986–1037) «Emizikli bolani parvarish qilish haqida». «Turli ranglarni ko‘rsin u va qurish qobiliyatini kuchaytirsin u», deydi. Katta mактабгача tarbiya yoshidagi bolaning umumiylashtirish qilish qobiliyatini tarbiyalash mumkin (olmaga o‘xshagan dumaloq, mevaga o‘xshagan qizil va hokazo).

Tasviriy faoliyat uchun bolalarni predmetlarning qiyin shaklini, ya’ni predmetlarning asosini – geometrik shaklini qurishga

o'rgatish muhim bo'lib hisoblanadi. Xuddi shunday etalonlar rangni, praporsiyalarni va boshqalarni his etishning mukammallashi-shiga yordam beradi.

Analizatorlarning rivojlanishi o'z holicha ketaverishi mumkin emas. Sensor tarbiyaning asosi bo'lib bolalarni umumiy idrok qilish usuli tekshirishga o'rgatish hisoblanadi. Bu esa bolalarga predmetning asosiy xususiyatlarni mustaqil holda tahlil qilishga va ajratishga imkon beradi.

## VI. 1. IDROK ETISHNI BOSHQARISH METODIKASI

Tasviriy faoliyat bolalarning voqelik haqidagi tasavvurlarining kengayish va mustahkamlanish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Taniqli psixolog V.M.Teplov idrokning alohida xarakterini quyidagi tasvir bilan bog'liq holda ta'kidlab o'tadi: «tasviriy san'atda tasvir masalasi kuchli idrok qilishni talab etadi. Qurilgan narsaning tasvir masalasini yecha turib, bola har doim narsalarni yangicha tomonidan anchagini tezroq, kuchliroq va aniqroq qurishni o'rGANIB boradi». Idrok etishning rivojlanishi tasviriy faoliyatdan kelib chiqib, ikki maqsadni ko'zlaydi. Birinchidan, o'rab turgan voqelik bilan tanishish jarayo-nida bolaning bilish va estetik malakasi bo'iyidi, ikkinchidan, turli predmetlar haqidagi tasavvurlari aniqlashadi. Predmetlarning xususiyatlari va belgilarini idrok etish shu predmetlarning keyinchalik tasvirlay olishi bolalardan tekshirish vositalari orqali tanishishni talab qiladi. Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlarida tekshiruv maqsadlari turlicha bo'ladi. Tarbiyachi turli faoliyat turlarida bolalar diqqatini predmetning shakliga, hajmiga, fazoda joylashishiga qaratadi, keyin rasm chizish mashg'ulotidan oldin predmetning konturi qismlarini alohida ajratib ko'rsatadi, agar berilgan predmet uchun xarakterli rang bo'lsa, uni ham ajratib ko'rsatadi. Loy mashg'ulotining hajmli massasi har tomonidan ko'rildi, uning qo'shilib ketgan va ajralib turgan qismlari ko'rib chiqiladi. Qurish-yasash mashg'ulotlarida qismlarning proporsional munosobatlari, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Ko'zdan kechirish jarayonining o'zi 5 bosqichni o'z ichiga oladi.

– predmetni o'z holida idrok etish (tarbiyachi yorqin obrazli shaklda predmetning umumiy xarakteristikasini beradi);

- tahlil bilan birgalikda ko‘zdan kechirish (oldin katta qismlar, keyin mayda qismlar ajratiladi, ularning shakllari aniqlanadi);
- predmetning qurilishini aniqlash va katta qismlarning o‘zaro bog‘liqligi;
- rangning ajratilishi;
- predmetni butun holda qaytadan ko‘zdan kechirish;

Idrok etish jarayonining bosqichlariga bunday taqsimlanishi shartli va ular har doim idrok etishda ishtirok etmaydi. Bu bolarlarning malakalariga va ular oldida turgan vazifalariga bog‘liqdir. Predmetni qayta ko‘zdan kechirish talab etilmaydi, kimdir faqat ko‘rish orqali predmetni tahlil qilish yoki so‘z orqali tasvirlab berish o‘tiladi.

Bir turdagи predmetlarni qismlarga ajratish va o‘zaro bog‘liq shakllarini topish qobiliyatini tarbiyalash uchun taqqoslashdan foydalanish muhimdir. Masalan, hamma daraxtlarning asosi vertikal holatda joylashgan, shoxlari asosiga nisbatan burchak ostida joylashgan; ko‘pgina hayvonlarning tanasi oval shaklida.

«Shakl(forma)ni idrok etish ko‘rish orqali hamda his etish yordamida o‘tilishi kerak. Bolani ko‘z bilan yoki qo‘l harakati bilan konturni bir qismdan ikkinchi qismga o‘tib, chizib chiqishga o‘rgatish lozim. Kichik guruhlarda qo‘l harakatlarini, albatta, kiritish kerak, katta guruhlar uchun esa konturni idrok qila olish yetarli, qo‘l esa yordamchi organ bo‘lib hisoblanadi» (L.A.Lublinskaya).

Hajm (velichina)ni idrok etish kichik maktabgacha yoshdagи bolaga tushunarli, agar farq ancha katta bo‘lsa (katta-kichkina). Hajmni idrok etish proporsional munosabatlarni o‘z ichiga oladi va ko‘rish hamda his etish kabi tekshirishlarni talab qiladi. Bunda qurish ko‘rsatgichlari harakatli yo‘llar bilan tekshirilib borishi kerak – bir qismni boshqasidan farqlash orqali. Voqelikdagi munosabatlar (prostranstvennoe otnosheniye)ni idrok etish tasviriy maqsadi bilan birgalikda juda qiyin masaladir. U katta va maktabgacha tayyorlov guruhlarida o‘tiladi va idrok etish jarayoni rasm chizish bilan birgalikda o‘tilsa, oson o‘zlashtiriladi. Shunday ishning qiziq tadqiqotini L.A.Rayeva «Bolalar bog‘chasining katta guruhlarida mazmunli rasm chizish» kitobida yozgan. Rangi idrok etish bolaga katta emotsional ta‘sir etadi. Shuning uchun har doim uni alohida ajratib ko‘rsatish kerak. Bolalar predmetning hamma xususiyatlarini ko‘rib chiqib bo‘lganlaridan keyingina ular-

ning diqqatini rangga qaratish kerak. Bolalar bilan tekshirishlarni o'tkazish metodikasi ko'pgina shartlar bilan bog'liq. Avvalo, bolalarning egallagan malakalari bilan egallab olmagan, notanish idrok etish usullari o'rtasida bog'liqlik bo'lishi lozim.

Birinchi bor tanishuv har doim yuzaki bo'ladi. U o'ziga predmet va uni o'rab turgan muhit haqida umumiy tasavvurlarini hosil qilishni kiritadi. Birinchi bor tanishuvda tor maqsadni qo'yish mumkin emas. Idrok etish keng bo'lishi, turli munosabat va bog'liqlikni kiritish kerak. Dastlabki tekshiruvlar ba'zida juda yorqin, lekin tasvirlash uchun yetarli bo'lмаган umumiy tasavvurlarini hosil qiladilar. Takroriy tekshiruvlar natijasida idrok etish yetarlicha yorqin, aniq bo'lishi mumkin. Takrorlanish idrok etishni, esda olib qolishni va esga tushirishni murakkablashtiradi.

Idrok etishda eng kerakli bo'lib qolgan estetik hislarning kiritilishi ham muhim hisoblanadi. Chunki estetik hisning rivojlanishi ham mashq qilishni talab qiladi. Masalan, daraxtlarning tasviridan oldin bolalar daraxtlar, gullar, o'tlarni ko'rishlari, ulardan zavq olishlari kerak. Bolalar diqqatini soya joylarga va daraxt barglarida quyosh nurlarining o'yiniga qaratish kerak. Bolalar oldida ancha tor maqsad qo'yilgan vaqtida, qayta kelish vaqtida daraxtlarning tuzilishi bilan tanishtirish, ularni ko'zdan kechirayotganda qanchalik chiroyliligini, yashil fonda uning oppoq asosi yaqqol ajrab turganiga qaratish kerak. Shu vaqtida she'riy misralardan misollar keltirib o'tish ham yaxshi natijalar beradi.

Idrok etishni umumlashtirishda unga bolalarning turli analizatorlar bilan birgalikdagi faol faoliyatlarini kiritish katta ahamiyatga ega, gullab yotgan qirni idrok etishda uzoqdan uni ko'rish yetarli emas. Bolalar qirda yugurishlari, gullar uzishlari, ularni hidlab ko'rishlari, guldasta yasashlari, ashula aytishlari lozim. Bularning hammasi mashg'ulot davomida hisobga olinadi. Kuzatishlarni o'tishda tarbiyachining so'zi va bolalarning roli katta ahamiyatga ega. Har qanday tushuntirish, savol, ko'rsatma, bolani fikrashga majbur qilish kerak. Idrok etishning aniqlashuviga, uning emotsiyonalliligiga estetik fikrashni kengaytiradigan taqqoslashlar yordam beradigan badiiy obrazlardan foydalanish muhimdir. Tarbiyachi so'zining o'rni va roli bolalarning yoshiga bog'liqidir. Diqqati tarqoq bo'ladigan kichik yoshda idrok etish momenti bi-

lan so'z birgalikda kelish kerak. Katta yoshda tarbiyachi bolalarga kuzatilayotgan obyektga o'zлari xarakteristika berishlariga imkon beradi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga atrofdagi hayotni va predmetlarni kuzatish vaqtida hayajon tez vujudga keladi. Bu hayajonda endi yuzaga kelayotgan estetik tuyg'u rivojlanib boradi. Bolalardagi estetik tuyg'ular yosh o'tgan sari ancha chuqurroq va anglaganroq bo'ladi. Bevosita estetik tuyg'u chiroli predmetni idrok etishda yuzaga keladi va turli tashkiliy elementlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shunday usul bilan rang hissini estetik tuyg'uning chiroli ranglar birlashmasini idrok etishdan kelib chiqishini: to'q osmonni yorqin yulduzlar, to'q palto va yorqin qalpoqchani ajratish mumkin.

Ritm hissi predmetning ritmik kelishganligi, qismlarning ritmik joylashuvini, masalan, daraxtning shoxlarini idrok etilayotgan vaqtida kelib chiqadi.

Proporsiya hissi, konstruktiv butunlik turli qurilishlarni idrok etish orqali kelib chiqadi.

Bola qanchalik atrofni bilib idrok eta olsa, uning estetik tuyg'usi shunchalik chuqur, murakkab bo'lib boradi. Asta-sekin bolalar elementar estetik fikrlash qobiliyatini egallab boradilar. Ularda estetik tuyg'ularning rivojlanishi predmetning va uning xususiyatlarini estetik tomondan baholay olishlariga olib keladi. Sekinlik bilan bolalarda estetik did rivojlanib boradi.

## **VII BOB. TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGTISHNING METOD VA USULLARI**

O'rgatish metodlari — pedagogikada qabul qilingan ta'rifga ko'ra, qo'yilgan masalani yechish uchun tanlangan yagona yo'l sifatida ta'riflanadi. U mashg'ulotdagi bolaning va tarbiyachining butun faoliyatini o'rgatish usullari ayrim yordamchi vosita bo'lib, mashg'ulotdagi faoliyatning xususiyatini aniqlamaydi, u ta'limdator ma'nodagi ahamiyatga ega.

Ayrim metodlar mashg'ulot ishining umumiyo yo'nalishini aniqlamay, balki usul sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, mashg'ulot boshida she'r (hikoya) o'qish beriladigan vazifaga bolalarning qiziqishini uyg'otish uchun o'qilsa, boshqa mashg'ulotlarda esa she'r

**o'qish tarbiyachi uchun xizmat qiladi, ya'ni mashg'ulot boshlanishini tashkil qilish uchun qo'llaniladi.**

Y.B.Babanskiy tasviri san'at metodlarini faoliyatning umumiy xarakteriga qarab, 3 guruhga klassifikatsiyalagan:

**1-guruh:** o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish. Bunga o'quvchilarning ko'rgazmali, og'zaki, amaliy, induktiv va deduktiv, reproduktiv va muammoli-izlanuvchan hamda mustaqil ishlari kiradi.

**2-guruh:** ta'lif berishning o'quv faoliyatini stimullashtirish (qiziqtirish va rag'batlantirish) va motivatsiyalash (maqsadga yo'naltirish) metodlari. O'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va motivlashtirish; burch va javobgarlikni stimullashtirish motivlashtirish.

**3-guruh:** o'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari:

- og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;
- yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;
- laboratoriya amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;

Y.B. Babanskiyning taklif qilgan bu metodlari asosan maktab ta'limga mos bo'lib, ularning 1-guruhidangina maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lif berishda foydalilaniladi, ya'ni bu: ko'rgazmali, og'zaki, amaliy metodlar hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lish uchun qaratilgan qisman reproduktiv mashqlardir.

Maktabgacha ta'lif muassasasida bolalarning mustaqil ishlari katta o'rinni egallaydi, faqat bu mustaqil ishlarga bolalarning murakkab muammoli masalalarini yechish kirmaydi, chunki bunday murakkab masalalar uzoq vaqtini talab qiladi. Qolgan metodlar maktabgacha yoshdagagi bolalar uchun murakkablik qiladi, chunki ularning deyarli barchasi muammoli masalalarini yechish bilan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lif muassasasi uchun o'ziga xos bo'lgan asosiy guruhni o'yin usullari tashkil etadi va bu o'yinlardan turli metodlar ichida foydalanimish mumkin.

**Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullari.** Kuzatish metodi tasviriy faoliyatga o'rgatish tizimining umumiy asosini tashkil qiladi. Chunki u atrof-muhitni o'rganishda, bilish hamda uni aks ettirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Bolalarda qanchalik kuzatish, atrof-olam ko'rinishi bilan aloqa o'rnatish, umumiylilik va yakkalikni ajratish malakasi rivojlangan bo'lsa, shunchalik bolalar ijodiy qobiliyatining rivojlanishi bog'liq bo'ladi. Lekin kuzatish-

ning o'zi ko'rganni tasvirlab berishga to'la imkon bermaydi. Bola-larni tasviriylikning muhim usullariga, turli tasviriy materiallardan foydalanish yo'llariga o'rgatish zarur.

Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga naturadan, rasm reproduksiyalaridan, namunadan, boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanish, alohida predmetlarni ko'rib chiqish, tarbiyachi tomonidan tasviriy usullarini ko'rsatib berish, bolalarning bajargan ishlarini mashg'ulot yakunida ko'rsatish, ularni baholash kiradi.

**Naturadan foydalanish.** Tasviriy san'atda naturadan foydalanish deganda, kuzatish asosida predmet yoki ko'rinishning tasviri tushuniladi. Naturadan foydalanib ishlanganda chizayotgan kishining ko'ziga nisbatan naturaning qay holatda turganini hisobga olgan holda ma'lum bir nuqtayi nazardan turib, predmet ko'rinishi tasvirlanadi. Bu naturadan olinib, tasviriy xususiyati mashg'ulot mobaynida o'zgacha idroknинг rivojlanishiga ko'mak beradi. Bunda asosiysi tomoshabinning idroki bo'lib, tekislikda tasvirlangan predmet (rasm, applikatsiya) faqat bir tomondan idrok qilinadi; loydan buyum yasaganda va qurish-yashashda bolalarda naturani o'girib qurish hamda hajm-shaklni turli xil burilishda tahlil qilish imkoni bo'lishi kerak.

Maktabgacha yoshdagи bolalar bilan ishlashda naturadan foydalanishning ayrim xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Natura xotiranning ishini yengillashtiradi, negaki tasviriy jarayon idrok bilan birlashadi, yana esa u predmetning shaklini, tuzilishini, rangini to'g'ri tushunib, yetkazib bera olishga yordam beradi. 4–5 yoshdagи maktabgacha ta'lim bolalarining qobiliyatlaridan qat'i nazar, maktab o'quvchisi yoki rassomning natura bilan ishlashiga nisbatan qara-ganda, bolalarning tasvirlangan obyektini tahlil qilishlari, shu natura bilan ishlashlarining o'ziga xos farqi bor. Maktabgacha ta'lim bolalari uchun sodda shaklli, aniq chizmali va aniq qismlarga ajratilgan predmet natura sifatida tanlanadi. Naturani shunday joylashtirish kerakki, hamma bolalar shu naturani ayni bir xarakterli tomonidan qabul qilishlari kerak. Masalan, bolalar mashinani yon tomonidan, qo'g'irchoqni oldidan chizadilar va bunda hajmini yetkazib berolmaydilar. Agar guruhda bolalar soni ko'p bo'lsa, barchasiga teng ko'rinishi uchun 2–3 ta bir xil predmet qo'yiladi. Tarbiyachi naturani bolalar bilan birgalikda detallarga ajratib ko'rib chiqadi, bunda u tahlil jarayonini osonlashtirib, o'z so'zları, harakatlari bi-

lan yo'naltiradi. Bu jarayon ma'lum bir idrok madaniyatini, rivojlangan analitik fikr yuritishni talab qiladi. Bunday ko'nikmalar bolalarda 5-6 yoshda rivojlana boshlaydi. Bu yoshda bolalar tasvirlayotgan ishlarini naturaga nisbatan taqqoslashga urinadilar. Masalan, katta guruuhda naturadagi archa shoxlarini tasvirlayotganda, bolalar shoxni fazoda joylashtiradilar (vertikal yoki qiya holatda) va shoxdagi shoxchalarining sonini, o'lchamlarini chap va o'ng tomondan, to'q yoki och rang bilan chizadilar. Natura sifatida tirik qushlar, hayvonlardan foydalanish mumkin emas. Ularning harakatlari, tovushlari bolalarni rasm chizishdan chalg'itadi, bolalarning predmetni kerakli holatda idrok qilishlariga, diqqatlarini bir nuqtaga qaratishga xalaqit beradi.

Shunday qilib, o'rgatish metodi sifatida naturadan foydalanish tasvirlashning butun jarayonini o'z ichiga mujassamlashtiradi:

- \* predmetning birlamchi tahlili;
- \* tasvirni naturaga nisbatan taqqoslash;
- \* natijaning shaklini, holatini, rangini taqqoslash;
- \* natijadagi rasm va naturani taqqoslash yo'li bilan baholash;

Mashg'ulot boshida predmetlarni ko'rib chiqish. Kichik va o'rta guruhlarda ko'pincha mashg'ulot boshida alohida predmetlar ko'rsatiladi. Bolalar diqqatini topshiriqqa qaratish va tasavvurlarini jonlantirish maqsadida bolalarga koptok, lenta (tasma), belkurak va shu kabilar ko'rsatiladi. Mashg'ulotning qolgan vaqt mobaynida esa bolalar o'z tasavvurlari asosida chizadilar. Ular rasmlarini ko'rgan predmetlariiga nisbatan taqqoslay olmaydilar va predmetlarni idrok qilishlariga qaytib murojaat qilmaydilar.

Katta guruuhda ham predmetlarni ko'rib chiqish uchun imkon bo'ladi. Masalan, «Uch ayiq» ertagi mavzusi bo'yicha rasm chizishdan yoki buyum yasashdan avval, tarbiyachi bolalarga o'yinchoq ayiqni ko'rib chiqishni, predmet shaklining asosiy xususiyatlarini va ayrim qismlarning proporsiya nisbatlarini aniqlashni, so'ng predmetning burilishiga nisbatan shu ayrim qismlarning o'zgarishini kuzatishni taklif qiladi. Bolalar rasm chizishda ertakning qaysi epizodini tanlasalar, ayiqni ham shu epizodga nisbatan mos holatda tasvirlaydilar.

**Namunadan foydalanish.** Namunadan foydalanish ko'proq o'rgatish usuliga taalluqlidir. Namuna o'rgatish metodi sifatida tasviriy faoliyatning shunday turlaridan foydalaniladiki, qayerda atrof-

ni idrok qilish taassurotini mustahkamlash maqsadi emas, balki shu faoliyatning ayrim alohida momentlarini rivojlantirish masalasi tursa. Ko'proq dekorativ va konstruktiv (applikatsiya) ishlarida foydalaniladi.

Dekorativ naqshni hosil qilish usuliga o'rgatish – badiiy didni rivojlantirishdir. Bolalarning umumiy estetik didlarini oshirish uchun chiroqli predmetlarni tomosha qildirish kerak. Masalan, gilamlar, vazalar, kashtalar va hokazo.

Dekorativ rasm chizish mashg'ulotlarida bolalar ko'rgan predmetlarini aks ettirib, ulardagi naqshlarni qayta chizibgina qolmay, balki mustaqil ravishda naqshlarni aks ettirib, yorqin rang va shakllarni moslashtirib chizishni ham o'rganadilar. Shuning uchun boshlang'ich bosqichda bolalar namunadan naqsh elementlarini chizib oladilar, keyinchalik elementlarning o'rmini va rangini o'zgartirib boradilar. Bolalar ma'lum bir malakaga ega bo'lganlardan keyin, bir necha xil namunalarni bolalar ixtiyoriga ko'rsatish mumkin. Ba'zi mashg'ulotlarda tarbiyachi namunani qo'yadi va bolalar ko'rib chiqib, tanishib, tarbiyachining ko'rsatmasiz mustaqil ravishda ishlaydilar. Predmetli rasm chizish yoki buyum yasashda namuna ko'chirib olish uchun emas, balki tasvirlanayotgan predmet haqidagi tasavvurni aniqlash uchun qo'yiladi.

**Rasmlardan foydalanish.** Rasmlar asosan bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun va tasviriy usullarini, vositalarini tushuntirish uchun xizmat qiladi. Pedagog va psixologlarning tashviqotlari shuni ko'rsatadiki, 2 yoshdagagi bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunib yetadilar. Lekin rasmdagi personajlarning o'rtaqidagi bog'liqlikni, ya'ni harakatlarni tushunish kechroq, 4–5 yoshlarda yuzaga keladi. Masalan, 2 yoshli bola rasmdagi hayvonlarni «turibdi» deydi, 4–5 yoshligisi esa «gapiryapti», «yuryapti», «kelyapti» va hokazo deydi.

Bolalarning kuzatishlari ko'pincha qisqa muddatli bo'ladi (Masalan, shahar sharoitida hayvonlarni kuzatish). Shuning uchun rasmlardan foydalanish qayta idrok qilishga va keyingi tasvir uchun xarakterli bo'lgan eng asosiysini aniqlashga yordam beradi. Rasmilar ana shunday sharoitlarda kerak bo'ladi: kerakli predmet qo'l ostida yo'q paytida yoki bo'lmasa, tekislikda tasvirining ayrim usullari bilan tanishtirish uchun xizmat qiladi. Masalan, tarbiyachi bolalar-

ga uzoqlashgan predmetni tushuntirish uchun rasmni ko'rsatadi. Hayotda bolalar shu uzoqdagi predmetlarni bir chiziqda joylashgan, deb idrok qilsalar, rasmida tarbiyachi uzoqlashganini ko'rsatib, tushuntirib beradi, 6 yoshdan boshlab shu maqsad bilan rasmdan foydalanish mumkin. Rasmni ko'ra turib, bola yerni bir chiziq bilan emas, balki keng yer bo'lagi bilan chizishni, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriqoda, yaqindagilari pastroqda va qog'oz chetiga joylashishini tushunib yetadi. Rasm mashg'ulot davomida bolalar oldida qoldirilsa, bolalar tushunib yetmay nusxa ko'chirishga o'rganib qoladilar. Bu yoshda esa bolalar nusxa ko'chirish bilan emas, balki ijod bilan rasm chizishlari kerak. Ba'zida mashg'ulot davomida bolalarga ayrim detallarni aniqlab olish uchun rasmni ko'rsatish kerak bo'ladi. Keyin esa rasm olib qo'yiladi, chunki bolalar nusxa ko'chira boshlaydilar.

### **Tarbiyachi tomonidan ishlash usulini ko'rsatib berish.**

Maktabgacha ta'lif muassasida ta'lif jarayoni bolalar o'rganishi kerak bo'lgan tasviriy ko'nikma va malakalarning o'lchamini aniqlab beradi. Keng bo'lman doiradagi malakalarning o'lchamini aniqlab beradi. Keng bo'lman doiradagi malakaga ega bo'lgan bola turli xil predmetlarni tasvirlay oladi. Masalan, uyni chizish uchun, to'g'ri to'rtburchak shaklini chizishni bilish, ya'ni chiziqlarni to'g'ri burchak ostida birlashtirishni bilish kerak. Ana shu chizish usullari mashina, poyezd va boshqa to'g'ri to'rtburchakli predmetlarni chizishda qo'llaniladi. Tarbiyachi tasviriy vositalarini ko'rsatib berishi ko'rgazmali amaliy usul bo'lib, bu usul bolalarni kerakli shaklini aniq tajriba asosida ongli ravishda chizishga o'rgatadi.

Ko'rsatma 2 xil turda bo'ladi:

- 1) imo-ishora bilan ko'rsatish;
- 2) chizish usuli bilan ko'rsatish.

Har ikkala turida ham ko'rsatma og'zaki tushuntirish yo'li bilan olib boriladi. Imo-ishora bilan predmetning qog'ozda joylashishi tushuntiriladi. Qo'lning yoki qalamchaning qog'oz bo'ylab harakati, hatto 3–4 yoshli bolalar uchun yetarli bo'ladi. Imo-ishora orqali bola xotirasidagi qiyin bo'lman predmetning asosiy shaklini yoki uning alohida qismlarini eslaydi.

Bolalar biror predmet yoki hodisani tarbiyachining qaysi harakat ishorasi orqali idrok qilgan bo'lsalar, xuddi shu harakat ishora

ni tarbiyachi mashg'ulotda qaytarsa, bolalar ko'rganlari bilan chizmoqchi bo'lganlari o'rtasida aloqadorlikni ongli ravishda sezadilar. Masalan, uy qurilishini bolalar kuzatayotganlarida tarbiyachi qurilayotgan uyning korpus chiziqlarini tepaga qarab qurilayotganligini harakatlari bilan ko'rsatadi, xuddi shu harakatlarni mashg'ulot boshida qaytarar ekan, bolalar xotirasidagi ko'rganlarini qayta esga tushiradi. Ishora bilan bola xotirasidagi predmet shaklini eslashga hamda chizish mobaynida bolaning qo'l harakatlarining yo'nalishi aniqlanadi. Bolaning yoshi qancha kichik bo'lsa, uni chizishga o'rgatishda shunchalik qo'l harakatlarining ishorasini ko'rsatish muhim rol o'ynaydi.

Kichik guruhdagi bolaning harakatlari yaxshi rivojlanmagan bo'lsa va bola o'z harakatlarini boshqara olmasa, tarbiyachi bolaning qo'lini ushlab, birgalikda harakat bilan chizadi. Bunday ish usuli shu harakatlarini o'zi his qilishi uchun qo'llaniladi. Agarda predmetning shakli murakkab bo'lmasa, ishora bilan butun predmetni chizish mumkin. Masalan, koptok, kitob yoki olma shaklining detallarini, archa shoxining joylashishi, qush bo'yning qiyaligi. Tarbiyachining ko'rsatma berishi mashg'ulotda qanday topshiriq berilishiga bog'liq. Tarbiyachi mashg'ulotda predmet shaklini to'g'ri harakatlari bilan chizib ko'rsatadi. Bu asosan, kichik guruhda o'tkaziladi. Masalan, bolalarga yumaloq shakldagi predmetlarni chizishni o'rgatish uchun tarbiyachi koptok yoki olmani, o'z harakatlari bilan tushuntirgan holda chizib ko'rsatadi. Agar predmetni tasvirlayotganda uning detallarini aniq ketma-ketlikda chizish kerak bo'lsa, tarbiyachi predmetni boshidan yagniga qadar chizib ko'rsatadi. Faqat bunda bolarning diqqatini jalb qilish uchun tarbiyachi bolalarga «Endi nimani chizish kerak?» degan savolni beradi.

Katta guruhdagi bolalar ko'pincha qisman ko'rsatmalar berish o'rinali bo'ladi. Bolalar hali chizishni bilmaydigan predmetning biror detalini yoki alohida elementini chizishda ko'rsatmalar beriladi. Masalan, 4–5 yoshli bolalar daraxtning tanasini uchburchak shaklida, keng asos bilan chizadilar. Bu ko'pincha tarbiyachining og'zaki tushuntirishidan kelib chiqadigan kamchilikdir. «Daraxt tanasining yuqori qismi tor, quyi qismi esa keng bo'ladi». Og'zaki aytib berish bilan birga, qo'l harakatlari bilan chizib ko'rsatish lozim. Katta guruhda esa «Chiroli uy» mav-

zusida bolalar rasm chizayotganlarida, tarbiyachi doskada uyning oyna-eshiklari turli xil shaklda bo'lishini ko'rsatib beradi. Bunday ko'rsatma bolaning rasmini umumiy chizmada hech qancha chegaralamaydi. Malakalarni mustahkamlash uchun qaytarilayotgan mashqlarda, so'ng ulardan mustaqil ravishda foydalanishda ko'rsatma faqatgina individual ravishda, ma'lum bir ko'nigmaga ega bo'lmagan bolalarga beriladi. Doimiy ravishda ko'rsatma berish bolalarning passivlashishiga hamda fikrlash jarayonlarining tormozlanishiga olib keladi. Chunki bolalar tarbiyachining ko'rsatmasini va yordamini kutib, o'rganib qoladilar. Tarbiyachining ko'rsatmasi yangi texnik usullarni tushuntirishdагина kerak.

**Bolalar ishlarini tahlil qilish.** Bolalar o'zlarini bajargan yoki do'stлари bajargan ishni mustaqil ravishda tahlil qilib, baho berishlari 5 yoshga borib to'la shakllanadi. Kichik guruhdagи bolalar o'z harakatlarini va ularning natijalarini nazorat qila olmaydilar, shuning uchun ular o'z ishlarini bajarayotgan vaqtida mamnun bo'lgan bo'lsalar, ularning natijasidan ham mamnun bo'lishi uchun tarbiyachidan maqtov eshitishni kutadilar. Kichik guruhda tarbiyachi bolalarning ishlarini baholayotganda tahlil qilmaydi, balki 4-5 yaxshi bajarilgan ishlarni bolalarga ko'rsatadi. Shu bilan birga, qolgan bolalar ishlarini ham maqtaydi, chunki maqtov bolalarning ushbu mashg'ulotga nisbatan qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Rasmlarni ko'rsatishning maqsadi esa bolalarning o'z ishlarini natijasiga jalb qilishdir.

O'rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalarning ishlarini ko'rsatadi va kamchiliklarini aytib o'tadi. Bolalar kamchiliklarini qanchalik ko'ra bilsalar, keyingi rasmlarini shunchalik ongli raishda chizib boradilar.

Mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalar ishlaridan birini olib, ijobjiy tomonlarini ko'rsatadi. Masalan, «Ranglarini yaxshi tanlaganini – och rang bilan to'q rang yonma-yon yaxshi ko'rinishi, chiziqlarning ozoda va aniq chizilganligini va hokazo». Agarda kamchiliklar ko'philik bolalarda uchrasa, shu kamchilikni bartaraf qilish uchun bolalarga savol beradi va diqqatini qaratadi. Agarda bir bolaning kamchiligi bo'lsa, u holda yakkama yakka tushuntirish munosibdir, chunki jamoa oldida birgina bolaning ishini tahlil qilish faqatgina shu bolaning o'zi uchungina tushunarli bo'ladi.

Katta guruhsda tahlilga barcha bolalarni jalb qilmoq zarur. Ba'zida esa tarbiyachining o'zi baho beradi. Masalan, yaxshi chizmaydigan bolaning ishidagi kamchiliklarni boshqa bolalar aytishlarini tarbiyachi oldindan bila turib, o'zi avval shu bola bajargan ishining ijobjiy tomonlarini aytib o'tadi. Vaqtin tejash maqsadi da tarbiyachi 5–6 ta bolaning ishini olib, tahlil qiladi, faqat har mashg'ulotda bir xil bolalarning ishlarini olib baholash yaramaydi. Chunki doimiy maqtov asosida o'sha bolalarda haddan tashqari ishonch, boshqalardan ajralib turish rivojlanadi. O'ta qobiliyatli bolalar bilan ularning layoqatlarini hisobga olgan holda, alohida ish olib boriladi. Ba'zida tarbiyachi tahlil qilish uchun bajarilgan ishlarini bolalarning o'zlariga topshiradi. Bunda barcha bolalarning ishlari stolga yoyiladi yoki stendga mahkamlanadi va bolalar o'zlar eng yaxshi bajarilgan ishlarini tanlaydilar. So'ng tarbiyachi tahlil qiladi. Ko'proq bolalarga (6 yoshda) o'z ishini naturaga nisbatan o'zi baholashga imkon berish kerak. Chunki bola o'z ishiga hamda do'stlarining ishlariga salbiy tomonidan baho berishga o'rghanadi.

**Og'zaki metod va o'rgatish usullari.** Tasviriy faoliyatda tarbiyachining mashg'ulotdag'i doimo bolalar bilan suhbatidan boshlanadi. Suhbatning maqsadi bolalar xotirasidagi avvalgi idrok qilingan obrazlarni qayta esga olish va mashg'ulotga bo'lgan qizi-qishini uyg'otishdir. Bolalar o'z tasavvurlari asosida ijod qiladigan mashg'ulotlarda suhbatning roli kattadir.

Suhbat qisqa, mazmunli va his-hayajonli bo'lishi kerak. Tarbiyachi asosiy diqqatini mashg'ulotda qilinadigan ishga qaratadi. Bolalarning mavzu bo'yicha yoki yangi tasviriy usullari haqidagi tasavvurlarini aniqlab olishdan avval, suhbat mobaynida yoki suhbatdan keyin tarbiyachi kerakli predmet yoki rasmni ko'rsatadi. Topshiriqni boshlashdan avval esa, ish usulini bolalarga ko'rsatadi. Suhbat o'rgatish metodi sifatida 4–7 yoshli bolalar bilan ishslashda asosiy rol o'ynaydi. Kichik guruhlarda suhbat bolalar tasvirlashi kerak bo'lgan predmetni eslatish uchun yoki yangi ish usulini o'rgatish uchun kerak bo'ladi. Bunday hollar da suhbat tasvirining maqsadini va vazifalarini bolalarga yaxshi-roq tushuntirish uchun xizmat qiladi. Bolalarning tasavvurlari va hissiyotlari tez jonlanib, ijodiy kayfiyatları tez yo'qolib qolmasligi uchun suhbat metod sifatida ham, usul sifatida ham qisqa

va 3–5 daqiqadan oshmasligi kerak. Yaxshi uyuşdırılmış suhbat mashg'ulotda maqsadga yaxshi erishish uchun qulay sharoit yaratadi.

**Badiiy adabiyotning obrazlaridan foydalanish.** Badiiy obrazni o'zida mujassamlashtirgan nutq o'ziga yarasha ko'rgazmalilikka egadir. Masalan, she'r, hikoya, topishmoq va hokazo. Ifodali o'qilgan badiiy asar ijodiy kayfiyatning oshishiga, tafakkurning, xayolning faol ishlashiga yordam beradi. Shu maqsad bilan badiiy so'zdan faqatgina ifodali o'qish mashg'ulotlarida emas, balki predmetlarni idrok qilgandan so'ng tasviriy jarayonlarda ham foydalaniлади.

Barcha yosh guruhlarda mashg'ulotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda topishmoq aytishdan boshlash mumkin. Masalan, «Boshi taroq, dumি o'roq». Bu topishmoq orqali xo'roqning boshqa qushlarnikidan chiroyli toji, dumining betakrorligi kabi detal shakllari ajratiladi. Ba'zida kichik she'rlarni yoki asarlardan parcha o'qish ham mumkin. Agar kerak bo'lsa, asarni o'qish bilan birga, og'zaki obrazga qo'shib, natura yoki predmetning tasviri bolalarغا ko'rsatiladi.

Rasm chizish, loydan buyum yasash mashg'ulotlarida badiiy asar o'qish har doim ham qo'l kelavermaydi, uni boshqa o'rgatish usuli bilan almashtirgan ma'qul. Chunki bola og'zaki so'zni eshitgandan ko'ra, naturani ko'rganida ko'proq jonlanadi. Tarbiyachi badiiy obrazni tanlayotganida juda ham ehtiyojkorlik bilan tanlashi lozim. Negaki, to'g'ri tanlangan asar predmetni, qiyofalarini ko'rish idrokini o'z ichiga oladi (rangini, shaklini, holatini). Masalan: «Bo'g'irsoq» ertagi orqali bo'g'irsoqning obrazi, «Oltin baliq» ertagi orqali esa baliq obrazi yanada yorqinroq tasvirlanadi.

### **Mashg'ulot davomida tarbiyachining ko'rsatmalari va tushunchalari**

Tarbiyachining ko'rsatmalari barcha ko'rgazmali usullarni o'z ichiga oladi hamda o'zi mustaqil o'rgatish usuli sifatida xizmat qiladi. Bu bolalarning yoshi va topishmoqlariga bog'liqdir. Kichik yoshdagi bog'cha bolalari uchun og'zaki ko'rsatmalar kamdan kam beriladi. Bolalarning tasviriy malakalari yetarli bo'lmay, sezgi analizatorining ishtirokisiz tarbiyachining ko'rsatmasini tus

hunmaydilar (ko‘rish, eshitish, qo‘l, ta’m bilish sezgilari). Agarda bolalar mustahkam ko‘nikmaga ega bo‘lsalar, tarbiyachi ko‘rgazmani ko‘rsatmasiz tushuntirishi mumkin. 5–6 yoshli bolalar uchun bir so‘zning o‘zi xotiradagi chizish usuli haqidagi tasavvurni eslashga yordam beradi. Tarbiyachining ko‘rsatmalari butun guruh bolalariga va alohida bolalarga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Butun guruh uchun beriladigan ko‘rsatmalar mashg‘ulotning boshida beriladi. Ular qisqa, lo‘nda, tushunarli bo‘lishi kerak. O‘rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalar topshiriqlarini qanday o‘zlashtirganliklarini bilish uchun biror boladan topshiriqning ketma-ketligini va qaysi usullardan foydalanib bajarish kerakligini so‘raydi. Bunday qayta so‘rash yaxshi tushunishlariga yordam beradi.

Kichik guruhda tushuntirib, ko‘rsatgandan so‘ng, tarbiyachi yana ishni nimadan boshlash kerakligini qayta esga soladi. Katta guruhda esa bolalarga: nimani chizishini yoki yasashini, asosiysi nimadan iborat, predmetlarni qanday joylashtirish kerakligi haqidagi o‘ylashni taklif qiladi. Bolalar ishga kirishgandan so‘ng, tarbiyachi har bir bolaga ko‘rsatma berishga kirishmasdan, balki ishga kirisha olmayotgan bolalarga nima narsa tushunarli bo‘lmaganini so‘rashi lozim, bunday bolalarga qaytdan vazifa tushuntiriladi va ko‘rsatma beriladi. Hamma bolalarga ham ko‘rsatma berish zarur emas. Ko‘rsatma ikkilanuvchan, uyatchan, o‘ziga ishonmaydigan bolalarga kerakdir. Yuzaga keladigan qiyinchiliklarni tarbiyachi har doim ham oldindan aytib berishi kerak emas. Ba’zi bir bolalar o‘zi mustaqil bajarishiga tarbiyachining ko‘zi yetsa, u holda tarbiyachi ko‘rsatma berishdan bosh tortishi ham mumkin emas. Asosiysi, tasviriy faoliyatda bola qiyinchilikka duch kelib, uni yechishga yo‘l topa olishi kerak. Ko‘rsatma shakllari hamma bolalar uchun har xil bo‘lishi kerak. Ayrim bolalarga maqtovli ton bilan ko‘rsatma berilsa, o‘ziga ishongan bolalarga esa ko‘proq talab qo‘yiladi. Tarbiyachining ko‘rsatmalari to‘g‘ridan to‘g‘ri, buyruq shaklida bo‘lishi kerak emas. U bolani o‘ylashga, fikrlashga undashi kerak. Bola qilgan xatoni ko‘rsatish bilan birga, tasvirning ma’nisi o‘zgarayotganiga diqqatni qaratish lozim. Masalan, «Qizchaning ko‘ylagi xuddi g‘ijimga o‘xshaydi» (yaxshi bo‘yalmagan), «Daraxtlar yiqilib ketayotganga o‘xshaydi» (yaxshi joylashtirilmagan), «Bu odam biram katta, shu bois uyga

kira olmayapti». Shu bilan birga, xatoni qanday qilib to‘g‘rilash kerakligini aytib bermaslik lozim. Bolaning o‘zi fikr yuritsin. Ko‘rsatma yoqimli tovush bilan berilishi bolalarning qiziqishini orttiradi. Individual ko‘rsatmalar boshqa bolalarning diqqatini jalb qilmasligi uchun pastroq tovush bilan beriladi. Mashg‘ulot davomida qachon ko‘rsatma beriladi? Qachonki, ko‘pchilik bolalar xatoga yo‘l qo‘ysalar va tarbiyachi barcha bolalarning diqqatini o‘ziga jalb qiladi va qaytadan tushuntiradi. Bunday mashg‘ulot davomida beriladigan ko‘rsatmalarni kamroq berish kerak, negaki u ijodiy faoliyatini buzadi.

**O‘yinli o‘rgatish usullari.** Tasviriy faoliyatda o‘yin momentlari dan foydalanish ko‘rgazmali amaliy o‘rgatish usuliga kiradi. Bola qancha kichik bo‘lsa, o‘yin uning tarbiyasida shuncha katta o‘rin tutadi. O‘yin usullari qo‘ylgan masalaga nisbatan bolalarning ishga diqqatini yaxshi jalb qiladi va xayol bilan tafakkurning ishini yengillashtiradi. O‘yin usullari kichik guruhi uchun birinchi marta E.A. Flerina tomonidan tashkil qilingan, keyinchalik A.A. Volkova, T.G. Kazakova tomonidan davom ettirilib, T.G. Kazakova tomonidan kichik bog‘cha bolalari uchun har bir mashg‘ulotni o‘yin obrazi bilan bolaga katta bir sistema ishlab chiqildi.

Kichik yoshdagi bolalar uchun o‘yin mashqlaridan rasm chizishda keng foydalaniladi. Maqsad bolalarning oddiy chiziqli shakllarni chizishga o‘rgatish hamda qo‘l harakatlarini rivojlantirishdir. Bolalar tarbiyachining ortidan qo‘llari bilan havoda, so‘ng qog‘ozda turli chiziqlarni chizadilar. Tarbiyachi: «Bolakay yo‘lda chopib ketyapti», «Buvijon» va hokazo, degan iboralar bilan tu-shuncha hosil qiladi. Obraz bilan harakatning birlashuvi bola tomonidan chiziqlarni va sodda shakllarni tasviriy malakasiga ega bo‘lishni ancha tezlatadi.

Kichik guruhda predmetlarni tasvirlashda ham o‘yin usullari dan foydalaniladi. Masalan, qo‘g‘irchoq mehmonga keladi va bolalar unga noz-u ne’matlar yasaydilar, non, pirog, pechenye va hokazo. Bunday ish mobaynida bolalar sharni yassilashga urinadilar.

O‘rta guruhda bolalar ayiqni yumshoq o‘yinchog‘iga qarab chizishlari kerak. Shunda qiziqarli o‘yin o‘tkazish uchun, ayiqcha eshikni taqillatadi, so‘ng bolalar bilan salomlashib, bolalar dan uning rasmini chizib berishlarini iltimos qiladi. Mashg‘ulot

yakunida u rasmlarni baholashda qatnashadi va yaxshi rasmlarni o‘zi tanlaydi.

6 yoshli bolalar bilan ham tasviriy faoliyat davomida o‘tkaziladi. Lekin kichik guruhga qaraganda bu o‘yinlar ancha kamayadi. Masalan, sayrda bolalar o‘zlarinig «fotoapparatlari» bilan atrofni rasmga oladilar: daraxtlar, qushlar, hayvonlar va hokazo. Bog‘chaga kelib, o‘zları olgan «rasmlarni proyavka qiladilar va chiqaradilar», ya’ni ko‘rganlarini qog‘ozga tushiradilar. Tarbiyachi o‘yindan foydalanganida butun mashg‘ulotni o‘yinga aylantirib yubormasligi kerak. Chunki bu bolalarning diqqatini topshiriqni bajarishdan tortib, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lish tizimigacha buzishi mumkin.

**Amaliy metodlar.** Tasviriy san’atga o‘rgatish mobaynida bolalar turli materiallardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. Rasm chizish, loydan buyum yasash, applikatsiya turli metodlardan hamda o‘rgatish usullaridan foydalanishni talab qiladi, shu jumladan, bolalarda ko‘nikma, malakalarni hosil qiladigan amaliy metodlardan ham foydalanish talab qilinadi. Amaliy metodlardan asosiysi bo‘lmish, texnik va ba’zan tasviriy malakalarni o‘rgatadigan mashqlardir.

Kichik guruhda bu mashqlar bolalar uchun zerikarli emas, chunki yumaloq shaklli predmetlarni yashashni o‘rganib, bolalar koptokni, olmani, apelsinni va shu kabi predmetlarni yasaydilar. Yo‘llarni, yomg‘irlarni chizib, ular gorizontal va vertikal chiziqlarni chizishni mashq qiladilar.

Katta guruhdagi bolalar oldiga esa, to‘g‘ridan to‘g‘ri ma’lum bir topshiriq qo‘yiladi, ya’ni chirolyi va to‘g‘ri shtrix bilan chizishga o‘rganish. Shtrixlab chizishni ko‘rsatib bergandan so‘ng, bolalarga murakkab bo‘Imagan predmet konturini (Masalan, uy, qo‘ziqorin, olma) chizib olib, uni ozoda qilib bo‘yamaslik rasmni xunuk qilib qo‘yishini biladilar va sidqidildan mashq qiladilar. Mashqlardan tasviriy xarakterga ega bo‘lgan topshiriqlarni tushunish uchun foydalaniлади. Masalan, tarbiyachi bir chiziq bilan inson boshining yonlamasiga qiyofasini chizishni ko‘rsatib bergenidan so‘ng, bolalar odam boshining rasmini bir necha marta qayta-qayta chizadilar.

**Evristik metod.** Evristik metod grek so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «Evristika» – haqiqatni topish san’atidir. Bu metod topqir-

likni, faollikni rivojlantirishga yordam beradi. Tarbiyachining vazifasi bolalarning tasviriy faoliyatini shunday tashkil qilish kerakki, u faol va ijodiy bo'lsin. Har bir mashg'ulot faqatgina didaktik vazifani emas, ya'ni ma'lum bir predmetning tasvirini o'rgatish emas, balki boladan ishni mustaqil bajarishni ham talab qiladi. Shu maqsad bilan tarbiyachi turli xil usullardan foydalanishi mumkin: maslahat, maqtov, topshiriqni bajarish usulining ko'rsatmasi (to'liq bo'limgan), o'yinchoq ko'rsatmasi, eslatma va shu kabilar. Bolani shunday holatga qo'yish kerakki, u o'ylagan o'yini bajarishi uchun o'zi yo'l topsin. Shunday qilib, u yoki bu metod va usullarni tanlash quyidagilarga bog'liqdir:

- \* mashg'ulot mazmuniga va mashg'ulot oldida turgan maqsadga, shu bilan birga, tasviriy faoliyatning vazifalariga;
- \* bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga;
- \* bolalar foydalanadigan tasviriy materiallariga bog'liqdir.

Atrof olam haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash maqsadli mashg'ulotlarda, asosan og'zaki metodlar qo'llaniladi: suhbatlar, bolalarning ko'rganlarini xotiradan qayta eslash uchun yordam beradigan savollar.

Tasviriy faoliyatning turli ko'rinishlarida o'rgatish usullari turlichadir, chunki bir obraz turli vositalar yordamida vujudga keltililadi. Masalan, mazmunli mavzularda kompozitsiyaga o'rgatish vazifasini rasmga, kartinalarga qarab tushuntiriladi, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriqoda, yaqindagilari esa pastroqda chizildi. Bu masala loydan buyum yasaganda, shakllar ularning holatiga qarab joylashtiriladi; yonma-yon yoki ketma-ket va hokazo. Bu yerda alohida tushuncha yoki ko'rsatma berish shart emas. Har bir usuldan o'ylab, mashg'ulot oldida turgan vazifalarga nisbatan, das turda berilgan mashg'ulotning mazmuniga nisbatan va asosan ushbu guruh bolalarining qay darajada rivojlanganligini hisobga olgan holda foydalanish kerak.

Mashg'ulotda alohida metod va usullar – ko'rgazmali va og'zakilari o'zaro qo'shiladi, mujassamlashtiriladi va bir-biriga umumiy ta'lim jarayonida bog'lanadi. Ko'rgazmalilik bolalar tasviriy faoliyatining moddiy, hissiy asosini yangilaydi, so'z esa to'g'ri tasavvurni, tahvilni, idrok qilinganlarini va tasvirlayotganlarini umunlashtirishning shakllanishiga yordam beradi.

## **VIII BOB. MAK TABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA RASM CHIZISHGA O'RGATISH**

Rasm chizish bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda asosiy o'rinni egallaydi va uchta turni o'z ichiga oladi:

Alovida predmetlarni chizish.

Mazmunli rasm chizish.

Dekorativ rasm chizish.

Tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy vazifasi – tevarak-at-rofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish. Ular-da kuzatuv-chanlikni rivojlantirmoq, estetik go'zallik hissini tarbiyalamoq hamda tasvirlab berish usullarini o'rgatmoqdir. Shu bilan birga, tasviriy faoliyatning eng asosiy vazifasi – ma'lum bir yosh uchun mos tasviriy materiallar bilan bolalarda turli xil predmetlarning turli timsollarini yaratish kabi ijodiy faoliyatini shakl-lantirish amalga oshiriladi.

### **Alovida predmetlarning rasmini chizish**

Psixologlarning qilgan tadqiqotlariga ko'ra, bitta predmetni boshqa predmetlar orasidan ajratib olish uchun bolaga shu predmetni idrok qilishga, predmetning shaklini bilishga yordam berar ekan. Shakllarning tasviriy jarayonidagi xatoliklar faqatgina bolaning noto'g'ri tushunchalari va ko'nikmalarining yetarli emasligi emas, balki predmetni to'g'ri idrok etishni bilmasligi bilan tu-shuntiriladi. Bolaning tasvirlay olish qobiliyati hali yaxshi rivojlan-magani uchun uning oldida fikr yuritib, tasvirlash kabi qiyinchiliklar ham turadi. Rasmda shakl to'g'ri kontur bilan chegaralab chiqilgan, lekin shu bilan birga, ishning 1-bosqichlari chiziqlar-ni to'g'ri, aniq chizish va konturlarning (aniqlash) tasviri, rasmda ishlash jarayonining vazifasi bo'lib hisoblanmaydi. Agar umumiyy shakl topilmagan bo'lsa, konturni to'g'ri chiziq bilan chizib bo'lmaydi, chunki u har doim o'zgaruvchan, shunga qarab uni chizish ham o'zgaradi, ya'ni natijasi, rasmning oxiri, yo'nalishi ham o'zgaruvchandir.

Rassom predmetni tasvirlayotganda avval asosiy shaklning belgilarini qog'ozda belgilab oladi. Maktabgacha tarbiya yosh-dagi bolaga, ayniqsa, 3–4 yoshli bolaga tasvirlashning bunday

usuli juda qiyin, chunki u predmetni butunligicha tasavvur qila olmaydi. Unga predmetni asta-sekinlik bilan bir tomonga chizish osonroq. Tasvirlashning bu usuli bolaning ishini osonlashtiradi. Oldin bitta bo'lagini tanlab, naturadagi keyingi bo'lagini eslab yoki ko'rib, shu bo'lagini bo'laklarga bo'lib, rasm chizishni davom ettiradi. Asta-sekinlik bilan bolalarga rasmning umumiy belgilarini qog'ozga tushirib chizishni o'rgatish zarur, chunki rasmni bo'laklarga ajratib chizishning o'ziga xos qiyinchiligi bor. Bunda kerakli shaklning asosiy bo'laklari va ikkinchi darajali bo'laklarning o'zaro joylashishlari va fazodagi o'rinalarini aniq proporsional holatda chizish, aniqlash qiyin bo'ladi. Hamma yosh guruhlar uchun rasm chizish faoliyatiga o'rgatishning asosiy umumiyligi vazifalari quyidagilar:

1. Predmetning shakli va tuzilishini tasvirlashga, ularning qismalarini o'zaro proporsiyalashni ko'rsatib berishga, harakat natijasida ulardagi o'zgartishlarga o'rgatish.

2. Tasvirini obrazli, yorqin qiladigan ba'zi bir xarakterli detallarni tasvirlashga o'rgatish.

3. Predmetning rangini, uning mazmuni va obraz xarakterini o'zaro birlashtirib berishga o'rgatish.

4. Bo'yoq, rangli qalam va boshqa materiallar bilan chizishda texnik ko'nikmalarни rivojlantirish.

**Mazmunli rasm chizish.** Mazmunli rasm chizishning asosiy maqsadi bolaning atrof-muhitdan olgan taassurotlarini ifodalashga o'rgatishdir. Mazmunli rasm – bu bir necha mazmunning ma'lum rangda tasvirlanishi. Bolalar qaysi mazmun bo'yicha rasm chizadilar? Bolalar kichik hikoya, ertak asosida va bolalarni o'rab turgan tevarak-atrofni, tabiatni chizishga harakat qiladilar. Masalan, «Biz shanbalikda» va «Kech kuz» rasmlari bunga misol bo'la oladi. Bolalar bilan olib boriladigan bunday mashg'ulotlar ularning har tomonlama kamol topishiga yordam beradi. Bunda bolalarning aqliy qobiliyati rivojlanadi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan ro'y beradi, shuning uchun mazmunli rasm chizish o'rta guruhdan boshlab kiritilgan. Bunda ham yonma-yon turgan 2–3 ta predmetning tasviri o'rgatiladi. Mazmunli tasvirda predmetlarning bir-biridan ajratish uchun uning o'lchamini, fazodagi o'rinaliga qarab, predmetlarning katta yoki kichikligini o'rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bola uchun predmetlar orasidagi fazoviy munosabatlarni farqlay olish

judi qiyin. Mazmunli rasm chizishni, bog‘chada o‘rgatishning umumiyligi vazifalari quyidagilar:

Mavzuning mazmunini ifodalashga uning asosini ajratishga o‘rgatish.

Obyektlar orasidagi o‘zaro aloqani tasvirlashga o‘rgatish.

Obyektlar orasidagi proporsional joylashuvni tasvirlashga va ularning fazodagi o‘rinlarini ko‘rsatishga o‘rgatish.

**Dekorativ rasm chizish.** Dekorativ rasm chizish tasviriy faoliyatning boshqa turlari kabi bolada estetik tuyg‘uni rivojlantiradi. Bolalarni xalq amaliy san’atti namunalari bilan tanishtirishda tarbiyachi ularda vatanparvarlik ruhini shu san’at asarlarini yaratayotgan odamlarning mehnatiga hurmat kabi tuyg‘ularni tarbiyalash kerak.

Dekorativ rasm chizish quyidagi umumiy vazifalarni o‘z ichiga oladi.

Bolalarda naqshning turlicha shakllari bilan bog‘liq holda kompozitsion hisni shakllantirish.

Rang qobiliyatlarini rivojlantirish.

Xalq amaliy san’atining turlarini, usullarini farqlashga va ularning alohida elementlaridan bolalarning o‘z ijodida foydalanishga o‘rgatish.

Qalam va mo‘yqalam bilan chizishning texnik ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Bolalarni dekorativ rasm chizishga o‘rgatishda tarbiyachi ularda naqsh komponentlarining o‘zaro bog‘liqligini, rangini, kompozitsiyasini shakl elementini ko‘rishga o‘rgatadi. Dekorativ rasm chizishda rang qobiliyatining rivojlanishi asosiy masala bo‘lib hisoblanadi.

Bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalar guruvida rasm chizish malakasining hosil bo‘lishi va rivojlanishi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida rasm chizishga o‘rgatish 2 yoshdan boshlanadi. Bu davr bolalarni tasviriy faoliyatga tayyorlash davri hisoblanadi. Bu davrda bolalar qalamni ushslash va qog‘oz ustida yuritishga o‘rganadi. Lekin bu jarayonda rivojlanmaydi, bola qalamni to‘g‘ri ushslashni bilmaydi, tarbiyachi asta-sekin uni qalamni to‘g‘ri ushslashga odatlantiradi, bunda bolani bajarayotganligi emas, balki qalamning harakati, uning uchi bilan qog‘oz betiga taqillatishi qiziqtiradi. Qalam bilan to‘g‘ri turli xil shtrixlar, nuqtalar chiza-

di, qog'oz betida turli harakatlar qiladi, keyin sodda chiziqlar asta-sekin murakkablashadi. Bu vaqtida bola qog'oz ustiga tushirilgan turli xil izlarni ko'rib, xursand bo'ladi. Shuning uchun bu davr «Ala-buji» davr deyiladi. Bu davr bolada tasviriy faoliyatini vujudga keltirishga ta'sir ko'rsatadi. Bu guruhda maktabgacha ta'lim-tarbiya dasturi guruhli mashg'ulotlarni talab qilmasa-da, agar bolalar xohlashsa, ularni stol atrofiga o'tirg'izib, rasm chizdirishga imkon yaratish mumkin.

1. Ilk yoshdagi bolalar guruhlarida bolalarga bir yarim yoshdan boshlab qalam berish mumkin. Lekin bolalar qilayotgan harakatining tasviriy ma'nosiga 1 kichik guruhdan boshlab tushuncha boshlanadi.

1. Kichik guruh (2 yoshdan 3 yoshgacha).

2. Bu davrga kelib, nutqi o'sadi, tasavvur doirasi kengayadi, materiallar bilan mustaqil harakat qilishi faollashadi. Bu guruhda tarbiyachi bolalarni qilayotgan harakatlarini kuzatishga o'rgatadi. Chizayotgan turli chiziqlar bilan predmetlarning turlarini bilishga, ularni ayrim narsalarga o'xshatishga o'rgatadi. Bolalarga savollar bilan murojaat qiladi, sen nimani chizding, deb bolaning chizgan ishini qaysi predmetga o'xshashligini aniqlaydigan ko'plab savollar beradi. Bolaning harakati ixtiyorsiz bo'ladi. Hamma bolalar bir vaqtida o'z harakati natijasida hosil bo'lgan ishida predmet o'rtasidagi o'xshashlikni aniqlay olmaydi, bu xususiyatning o'sishi o'z-o'zidan nutqining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ular tarbiyachi ko'rsatgan ishlarida oddiy predmet va hodisalarini tasvir etadi. Masalan, yomg'ir yog'yapti, qor yog'yapti, barglar uchyapti, daryoda suv oqmoqda kabi.

3-yilda asta-sekin bolalarda ranglarga qiziqish ortadi. Ular turli ranglardan foydalanib, uni predmetga o'xshatadi. Masalan, uncha katta bo'lмаган qog'oz betiga qizil bo'yodqa bo'lib, «men gul soldim» deydi. Bu guruhda tarbiyachi bolalarga predmetning qaysidir bir qismini chizib, tugatishlarni taklif qiladi. Masalan, sharga ip, bayroqchaga tayoqchani va qizil, yashil, ko'k, sariq ranglarni bilishga va foydalanishga o'rgatiladi. «Quyosh», «Ko'm-ko'k o'tlar», «Gullar» kabi. Bolalar dastlab qalam bilan chizishadi, 3–4 mashg'ulotdan keyin bo'yoqdan foydalanib bo'yaydi, undan foydalanishni o'rgatiladi. Bolalarga quyidagi mavzularda bo'yoqlar bilan rasm chizdirish mum-

kin. Masalan, «Daraxtlardan barglar to‘kilyapti, «Uyda chiroqlar yoqildi».

Yilning 2-yarmiga tarbiyachi bolalarni predmetning oddiy tasviriga o‘rgatadi. Tarbiyachi shar chizadi, koptok chizadi, bolalar esa yo‘l chizadi. Yilning 2-yarmiga borib, bolalar bilan mashg‘ulot uyuşhtirilib, ular mo‘yqalam qo‘yib-olish, qo‘g‘irchoqning ko‘ylagini yoki dastro‘molcha va qo‘lqopni dog‘lar bilan bezashga o‘rgatiladi. Bu yoshdagi bolalarni tasvirlashga o‘rgatishda tarbiyachi turli xil usullardan foydalanadi.

Sifatli o‘rgatish uchun usullardan biri, passiv harakatlar usuli, ya’ni bola o‘zi mustaqil harakat qiladi. Tarbiyachi bola qo‘liga qalam berib, chizish harakatlarini bajartiradi yoki o‘yin o‘tkazadi. Bolalar qo‘l harakatining koordinatsiyasini rivojlantirib borib, tarbiyachi qog‘oz betida bir xildagi ritmik harakatlarni bajaradi, o‘ngga-chapga keyin asta-sekin murakkab harakatlarni bajarishga o‘rgatadi. Masalan, ip o‘rami yoki tutun chiqyapti va boshqalar.

Tarbiyachining badiiy so‘zdan foydalanishi, bolalarga tasvirlanayotgan narsaning obrazli tasavvur etishga yordam beradi. Masalan, quyosh to‘g‘risida shunday she‘r va ashulalardan foydalanish usuli muhim usullardan hisoblanadi. I-kichik guruuhda tarbiyachi bolalar bilan hamjihatlik kepg qo‘llaniladi. Tarbiyachi katta qog‘oz betida archani chizadi, bolalar esa chiroqlar yoqadi (mo‘yqalamni qog‘ozga tikka qo‘yish usuli bilan). Bunday mashg‘ulotlarni tarbiyachi 5–6 ta bolalar guruhi bilan uyuştirishi mumkin. 2,5 yoshdagi bolalar bilan tip mashg‘ulotlar uyuştirish mumkin. Masalan, bolalarga rasmlar berib, unda nimalar tasvirlanganligini aytib berish kabi o‘yinlar o‘tkazish mumkin. Masalan, quyosh, bayroqcha, gullar tasvirlangan bo‘lishi mumkin. Bolalar ularni aytib beradi, qiyngagan bolaga tarbiyachi yordam beradi. Tarbiyachi bolalar ishini tahlil qilib ularning ishlarining xilma-xilligi va predmet bilan tasvir o‘rtasidagi o‘xshashlikni ko‘rsatib beradi.

**Birinchi kichik guruuhda o‘rgatishning mazmuni va vazifalari.** Ikki yoshli bola qalam, mo‘yqalamni to‘g‘ri ushlashi mumkin, lekin uning tajribalari kam, bajara olish va bilish qobliyatları yo‘q, qo‘l harakatlari yetarlicha rivojlanmagan. Shuning uchun asosiy vazifalar bolalarga umumiy tarbiyaviy ta‘sir qilish bilan bog‘liqdir. Birinchi kichik guruuhda o‘rgatishning vazifalari quyidagilar:

Rasm chizish jarayoniga natija beruvchi jamoat ishi deb qizi-qashni uyg'otish.

Rasm chizish materiallari – «qalam, bo‘yoqlar» va ulardan foy-dalanish usullari bilan tanishtirish.

Katta yoshli odam chizgan rasmni, predmetning tasviri deb tu-shunishni o‘rgatish.

To‘g‘ri va egri chiziqlarni hamda tomonlari berk shakllarni chizish prinsiplarini o‘rgatish.

Bu guruuning dasturi keyingi guruhlarning dasturidan bosqich-ma-bosqich murakkablashib borishi bilan farqlanadi. Rasm chizishning birinchi mashg‘uloti qog‘oz va qalam bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bu materiallarning o‘yinchoqlardan bolalar-ga ma’lum bo‘lgan turli xil predmetlardan farq qilishini pedagog bolalarga tushuntiradi. Qalamlar bilan turli faoliyat turlarini bajarish mumkin. Qog‘oz toza edi, qalamning harakatlanishidan unda izzlar paydo bo‘ldi. Qalamning ochilgan uchi qog‘ozda iz qoldiradi. Ikki uchi esa iz qoldirmaydi. Agar sekin bosilsa, qog‘ozda uning izzlari ko‘rinmaydi. Agar qattiq bosilsa, qog‘oz yirtilib ketishi mumkin. Bunday tushuntirishni va harakatlarni ko‘rsatib berish bolalarda rasm chizishga qiziqishni uyg‘otadi. Bulardan tashqari, oddiy texnik ko‘nikmalarni qalam, mo‘yqalamni to‘g‘ri ushslash, ulardan tartibli foydalanish, bo‘yoqni mo‘yqalamning uchiga olishni bilish kabilarni o‘rgatishni dastur o‘z ichiga olgan.

Ikkinchi – kichik guruhda rasm chizishni o‘rgatish. Bu guruh bolalar (3 yoshli bolalar) psixologik jihatdan rivojlanadi, tajribalari ancha o‘sadi. Tarbiyachi bu yoshdagi bolalar bilan rasm bo‘yicha mashg‘ulot olib borganda, bolalarning rasmga nisbatan qiziqishlarini orttiradi. Bu guruhda bolalarni rasm ishining sisati emas, balki ish jarayoni qiziqtiradi. Rasm bo‘yicha barcha guruh bolalari tarbiyachining og‘zaki ko‘rsatmalarini tinglashga, tarbiyachining ko‘rsatib bergen usullarini bajarishga o‘rganib boradilar. Bu yoshdagi bolalar rasm faoliyatida tezda o‘yin faoliyatiga o‘tish bilan ajralib turadi. Masalan, doirachalar chizib, uning ichini qalam bilan urib chiqib, uni qush don cho‘qiyapti, deb ifodalaydi. Bunda yosh bolalarning rang tanlash malakasi shakllanadi. Bolaning diqqatini ularga yoqqan ranglar tortadi. Bolalar tasviriy jarayonida so‘z bilan ifodalashga o‘rganadilar. Rasmda tasvirlay olmagan voqealarni so‘z bilan to‘ldiradi. Bolalarda mustaqillik, faolli o‘sadi. Tarbiyachi bo-

lalarga mashg'ulotda olgan bilim va ko'nikmalardan mustaqil foy-dalanish imkoniyatini tug'diradi. Agarda 1-kichik guruhda bolalarni nimaningdir tasviriga o'rgatilsa, 2-kichik guruhda bolalarni narsal-arning tasviriy usullariga o'rgatib boriladi. Bolalar turli shaklda-gi predmetlarning tasviriga o'rgatiladi, doira, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak va turli yo'naliishdagi chiziqlar to'plamidan iborat narsalarni chizadilar. Predmetlarning shaklini to'g'ri tasvirlashga o'rgatish uchun bolalarning qo'llarini shakliy harakat qilishga o'rgatish lozim. Bolalarga predmet shakli bilan qo'lning shakliy harakatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatish lozim. Tarbiyachi predmetni tasvirlashga o'rgatishdan oldin, uni mashg'ulot oldidan ko'rib chiqadi (ya'ni kuzatish olib boradi). Bolalar jon-u dili bilan turli rangdagi koptoklar, sharlar va archa o'yinchoqlarini tas-virlaydilar. To'g'ri to'rtburchak shaklining tasviriga bolalar bu gu-ruhda qiynaladilar, shuning uchun bu shakl yilning 2-yarmida beriladi. Bolalar archa, daraxt, tursa yiqilmas qo'g'irchoq, aravachani tasvirlaydi. Qizil, sariq, ko'k, yashil, qora, oq ranglarni bilishga o'rgatiladi. Shuningdek, rang aralashtirishlarni (pushti, havo rang va zarg'aldoq, jigarrang) tavsiya etish mumkin. Bu guruh bolalardan ranglarni to'g'ri atash va tasvirlash aniq talab etilmaydi, ammo tarbiyachi asta-sekin predmetlar rang-tusining real tas-viriga o'rgatib borishi kerak. Masalan, ko'm-ko'k o'tlar o'smoqda, o'tlarda sap-sariq jo'jalar o'tlab yurishibdi va hokazo. Bu guruhda bolalar rasmi mazmun jihatidan juda kambag'al bo'ladi, ya'ni ishlar mazmuni asosan so'zda ifodalaniladi. Masalan, mashina chizib, so'z bilan mazmun beradi. Masalan, bu mashina yurib ketdi yoki yuk olib kelyapti kabi. Mashg'ulot davomida bolalar bir turdag'i predmetlarni bir necha marta tasvirlashni o'rganadilar. Bu esa bolalarni texnik ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Rasm davomida ishni tezda tugatgan bolalarga tarbiyachi rasm mazmunini kengaytirish maqsadida yangi vazifalar berishi mumkin. Masalan, o't ustida yur-gan jo'jalar yonida don yoki turli chuvalchanglarni solishni tavsiya etish mumkin va bu bilan bolalar chizgan ishlarini mazmunan boyitib borish va bolalarni ham shunga o'rgatib borish lozim.

**Ikkinci guruhda o'rgatishning mazmun va vazifalari.** Hayotining 4-yilida bola predmetni yaxshiroq yoki yomonroq tasvirlay olishni bilmasalar ham, lekin ular rasm chizishning ma'nosini tushuna boshlaydilar. Ular o'zлari chizgan shaklsiz rasmlarni predmetning

**biror** bir belgisiga asosan o'xshatib chizadilar. Pedagog bolalarning rasm bilan predmetning o'xhash belgilarini topishga urunishni rag'batlantirib turishi va shu bilan bir qatorda, turli shakllarni to'g'ri tasvirlashga o'rgatib borish zarur. Bu yoshda tasviriy sholiyatni o'rgatish vazifalari bir rejaga qo'yilgan.

Sodda predmetlarning asosiy belgilar(rang, shakl)ini berib, turli xil to'g'ri va aylanasimon shakllarning tasviriga o'rgatish.

Rangni bilish sezgisi asosiy ranglarni ajratish va aytishni bilishni rivojlantirish;

Kompozitsion ko'nikmalarni, qog'ozning o'rtasiga tasvirlarni joylashtirishni rivojlantirish.

### **Texnik ko'nikmalarni o'zlashtirish.**

Bu guruhda to'g'ri va egri chiziqlarni to'g'ri chizishga o'rgatish **birinchi** vazifa bo'lib qoladi. Bunda turli chiziqlarni turlicha – chapdan o'ngga, tepadan pastga, kesishgan chiziqni chizishga o'r-gatiladi. Bularni, masalan, tizimcha, yo'lakcha, qalam, yomg'ir shaklida chizish mumkin. Ikki kichik guruh bolalariga bir xil shakldan (qorbobo, ikki yoki uch aylanadan iborat) yoki ikki xil shakldan iborat (quyi bitta aylana va birgina to'g'ri chiziqdandan iborat) bo'lgan predmetlarni chizish ancha qiyin, chunki uch yoshli bolaning tahlil (sintez) qilib fikrashi yaxshi rivojlanmagani uchun bu guruh dasturida faqat ikki xil shakldan iborat bo'lgan predmetni, masalan, (quyoshning nurlari, archaning ignachalari) tasviri kiritilgan. Shakl qanchalik murakkablashsa, rangdan foydalanishi ham shunchalik murakkablashadi. Bolalar rasmda aniq predmetlarning tasviri uchun shu predmetga mos rangni ishlata olishni o'rganadilar. Masalan, qizil rang bayroq, sariq rang quyosh, yashil rang archa va boshqalar.

### **O'rta guruhda rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.**

Bu guruhda o'rgatishning vazifalari quyidagilar:

To'g'ri to'rburchakli va aylanasimon shakldagi predmetlarning tasviri ularning tuzilishini, asosiy qismi va detallarini berishga o'r-gatish.

Rangdan badiiy ifodalash vositasi sifatida foydalanishga o'r-gatish.

Qog'oz markazida predmetni joylashtirishda kompozitsion uquvni bilishni rivojlantirish.

Rasmni qalam va bo‘yoq bilan bo‘yashda texnik ko‘nikmalarni mustahkamlash.

Bu guruhda bolalarga ritmik joylashgan predmet qismlarining tasviri (yuqorida, pastda, bir tomonda, boshqa tomonda) hamda bir qancha proporsional joylashgan qismlarning tasviri o‘rgatiladi. Bu alohida qismlarni o‘zaro solishtirish va tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, Qorbobo va archa 2 tomonlama joylashgan novdalari bilan. Bu guruhda tasviri qiyin bo‘lgan obyektni, ya’ni odamning rasmini chizish mashg‘ulotlarga kiritiladi. Odam rasmini chizishdan oldin bolalar soddarоq shakllarni, ya’ni qorbobo, nevolyashka, matreshka, qo‘g‘irchoqlarni chizishga o‘rgatilgan edi.

Katta guruhda rasm chizishga o‘rgatishning mazmuni va vazifalari. Bu guruhda bolalarning tasviriy va yorqin obrazlarni yaratish qobiliyatlarini o‘stiruvchi turli usullardan foydalanib, chizishga o‘rgatiladi. Bunda quyidagi vazifalar bor:

Predmetning shaklini, uning belgilarini, hajmini va qismlarining joylashishini o‘rgatishni davom ettirish.

Rasmda sodda harakatlarni tasvirlashga o‘rgatish.

Rang qobiliyatlarini rivojlantirish va mustahkamlash.

Qalam bilan (shtrixlash usullari) va bo‘yoqlar, mo‘yqalam harakatlarining usullari bilan ishlashda texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish.

Rangli bo‘rlar, ko‘mirlar, akvarel bo‘yoq bilan chizish usullarini o‘rgatish.

Bu yosha bolalar rasmda bir xil predmetning o‘xhash va farqli tomonlarini tasvirlash va topishga o‘rganadilar. Masalan, 2ta olma shakli va rangi bilan farqlanadi yoki lavlagi bilan turup, ular sabzavotlar uchun umumiy bo‘lgan dumaloq shaklda. Bu guruhda bolalar yana asosiy spektr ranglari bilan tanishib, rasmda ularning chiroli turlanishlarini keltirib chiqarishni o‘rganadilar. Bolalar rangli qalamlardan tashqari oddiy qora qalam bilan predmetning umumiy belgilarini chizib olish uchun foydalanadilar.

Bu guruhda tasvirlash qobiliyatiga va ko‘nikmalarga o‘rgatish yakunlanadi. Bunda quyidagi asosiy vazifalar bor:

Naturadan va tasavvur qilishdan predmetning xarakterli belgilari, tuzilishi, hajmining tasviriga o‘rgatish.

Shakl va bo‘yoqlarning boyligini tasvirlab berishga, yorqin obrazlar yaratishga o‘rgatish.

Kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirish (predmetning hajmi va shaklining xarakterini hisobga olib, predmetni qog'ozda joylashtirish).

Rang qibiliyatlarini rivojlantirish (bir xil rangning turli ottenkalarini bera olish qobiliyati).

Texnik ko'nikmalarni rivojlantirish (bo'yoqlarni boshqacharoq bo'yoq olish uchun aralashtirish, predmet shakli bo'yicha qalamda shtrix o'tkazish).

Olti yoshli bolalarda analitik fikrlash qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Ulardan turga mansub predmetlar belgisini ajrata olganliklari kabi, ularning bir predmetni boshqasidan ajratib turuvchi individual xususiyatlarini ham tasvirlay oladilar. Bu esa ijodiy tasavvurni rivojlantiradi.

**O'rta guruhda mazmunli rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.** O'rta guruh bolalariga rasm mashg'ulotlari, asosan, yil boshidan o'tkazila boshlanadi, sababi, kichik guruh bolalariga qaraganda, ular ma'lum mazmun asosida, lo'nda qilib rasm ishlay olish qobiliyatiga egadirlar. Bolalarda rasm chizish malakasini rivojlantirish maqsadida 2–3 predmetni ko'rsatish mashqlari bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Rasm ishslash mazmuni quyidagilardir:

Mazmuni jihatdan bir-biriga o'xshash 2–3 predmetli rasm chizdirish.

Bir necha predmetlarning joylanishini belgilash.

Bola 4 yoshdan boshlab predmetlarning yonma-yon joylanishini, odamlarning ko'rinishini faqat old tomondan, hayvonlarning ko'rinishini faqat yon tomondan bir yo'lda chiza olish qobiliyatiga egadirlar. Masalan, «Bolalarnig qishki o'yinlari».

O'rta guruhlarda rasm chizish orqali bolalarning og'zaki nutqini o'stirish bilan ularni o'rab turgan tevarak-atrof bilan ham tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshdagи bolalar uchun quyidagi rasmlarni tavsiya qilish mumkin:

«Qizcha uy atrofida o'ynayapti».

«Qish, bolalar qorbobo yasayaptilar».

«Bo'g'irsoq», «Chipor tovuq».

O'rta guruhdagi bolalar rasm chizishni faqat bir yo'nalishda chizishlaridan tashqari, bir varaqni to'ldirib chizish malakalarini ham rivojlantirib boradi. Ma'lum narsani ko'rib, tasavvur qilgan

holda rasm chizadi, uning aqliy qobiliyati rivojlanadi, o'sib boradi. Har bir mashg'ulot bolalarni aqliy va estetik ruhda tarbiyalashga, jamoat ishlarini bajara olishiga asos bo'ladi. N.K.Krupskayaning fikricha, «Bolaga beriladigan ta'lim-tarbiya mehnatni sevishdan, uni e'zozlashdan boshlanadi». Bu mashg'ulotlarni o'tkazish asosan bolalarning kuzatuvchanligi asosida olib boriladi, shunda ularning og'zaki nutqi, mustaqil fikrlay olishi, har xil mavzularda rasm chiza olish ko'nikmalari rivojlanadi. Bolalarda rasm chizish ko'nikmasi asosan og'zaki nutq orqali amalgalashadi. Masalan, bola bironta qiz, uy rasmlarini chizib, u haqda kichik ertak ham to'qishi mumkin. Ma'lum maqsadli rasm bolaga ko'rsatilayotganda aniq maqsadga ega bo'lishi kerak. Bola ko'rsatilayotgan rasmni aniq ko'rib chiza oladi, lekin uning yon tomonini, ustini chizishni bilmasligi mumkin. Talabalarga ishlangan rasmlar namunasidan ko'rsatib, quyidagilarga alohida e'tibor berishlarini eslatish kerak. Masalan, predmetlarning proporsional, simmetrik joylashganligi uylar, daraxtlar, samolyotning parvoz qilayotganini chizdirish orqali bolalarda tahlil-sintez usulidan foydalanish muhimdir.

Yuqorida qayd qilinganidek, quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- \* mavzuning mazmuni aniq bo'lishiga;
- \* obyektlar orasidagi bog'lanishga;
- \* ma'lum maqsadga yo'naltirilgan mavzu bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Bu yoshdagagi bolalarga rangli qog'ozlar berilib, maqsad aytildi. Masalan, bola ko'k rangda – o'tlarning, havo rangda – suvning, sariq rangda – qumning ko'rinishini tasvirlay oladi, yoxud «Baliqlar suzyapti», «Jo'jaralar o't ustida o'ynayaptilar» kabi. Bolalarning aqliy qobiliyatlarini tekshirish maqsadida tarbiyachi bir predmet yoki jismni ko'rsatib, uning varaq ustida joylashishini so'roqlar bergen holda, suhbat orqali aniq maqsad asosida rasm chizdirish kerak. Bunda albatta, tarbiyachining bilimdonligi katta mahorat tablab qiladi. Bolalarning bir yarim yilda chizgan rasmlari o'lchovlari asosan bir xil. N.P.Sakulinaning tajribasi shuni ko'rsatdiki, bola chizgan rasmlarini past va balandligini ko'rsatish va farqini tushuntirish lozimdir. To'rt yoshli bolalarda rasm chizish ko'nikmalari o'sib boradi, ular kattalar chizgan rasmlarni tomosha qilgan holda taqlid qilib, rasm chizishga urina boshlaydilar. Xoh ota-onasiga, xoh

tarbiyachi bola tomonidan chizilgan rasmlarni bola oldida baholashi kerak. Bolalar o'rtoqlarining chizgan rasmlarini yaxshi, yomonligi va xatolarini ko'rsatishlari kerak.

Bunda quyidagi vazifalar bor:

Bir-biriga mazmunan bog'liq 2–3 ta predmetni tasvirlashga o'rgatish.

Kompozitsion qobiliyatlarni o'stirish (1 ta chiziqda bir nechta predmetni yonma-yon joylashtirish yoki butun varaqda osmon va yerni chizish).

Bolalarga beriladigan mavzular qiyin emas: uy, uyning yonida daraxt o'syapti, skameyka turibdi; uy yoki daraxt yonida qizcha sayr qilib yuribdi, o'tloqda jo'jalar sayr qilishyapti; o't, gullar, quyosh nur sochyapti. Bu rasmlarda mazmunli rivojlanishni bolalar ko'rsatishmaydi. Bolalar 2–3 predmetni yonma-yon chizishadi, ular orasida hech qanday harakat bog'lanmagan.

Katta guruhda mazmunli rasm chizishga o'rgatishning mazmu ni va vazifalari. Bola besh yoshdan boshlab ma'lum mavzudagi rasmlarni chiza olish qobiliyatiga ega bo'ladi. U tevarak-atrofni o'zgarishlarini tasavvur qila oladi va chizishga harakat qiladi. Bu yoshdagi bolalarga quyidagi mavzudagi rasmlar chizish tavsiya-qilinadi:

«Bolalarning qishki o'yinlari».

«Bog'chada senga nimalar qiziqarli, shularni chiz».

«Men onamga guldaста sovg'a qilyapman».

«Quruvchilar yangi uy quryaptilar».

«Ona bolani bog'chaga olib ketyapti».

«Bolalar qorbobo yasayaptilar».

Katta guruhdagi bolalar badiiy asarlardan olingan taassurotlari asosida va ertak mazmunini tushungan holda quyidagi mavzuda rasm chiza oladilar. «Ikki ochko'z ayiqcha», «Ayyor tulki va kulrang bo'ri», «Mushuk, xo'roz va tulki» va boshqalar. Bu chizdirilgan rasmlar aniq va aniq masalada bo'lishiga ahamiyat berish kerak. Masalan, «14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni», «8-mart – onalar bayrami», «21-mart – Navro'z bayrami». Katta guruhda o'tkaziladigan rasm mashg'ulotlari qiziqarli, savollarga javob olgan holda, asarda qatnashayotgan har bir personajga tavsiif bergan holda ranglarni tanlay olish va varaqqa joylashtirish vazifalarini belgilash kerak. Bolalar tomonidan ishlanayotgan har bir rasmda

predmetlarning hajmi, o'lchovlarini chamalash bilan birga, uzoq-yaqin, oldinma-ketin, ustma-ust, ketma-ket joylash mumkinligini tushuntirish kerak. Bu yoshdagi bolalar, ayniqsa, ertak multfilm-larni tomosha qilishni yaxshi ko'rganliklari sababli shu mavzudagi rasmlar chizishni yaxshi ko'radilar. N.P.Sakulinaning fikricha, bola rasm chizishni varaqning eng chetidan boshlab chizish bilan birga, predmetlarning joylashishini ko'rsatishi kerak va bo'yoqlarni tanlay olishi ham muhim ahamiyatga egadir. Bolani rasm mashg'ulotiga tayyorlash uchun unga kerakli rasm anjomqlarini hozirlagan holda, bironta kuy eshittirib, akvarel bo'yoq berib, ma'lum mavzu va maqsad asosida rasm chizish ishini boshlash lozim.

5–6 yoshli bolalarning mazmunli rasmlarining mazmuni ancha boy bo'ladi. Bunda bolalar faqat predmetlarni chizishmaydi, balki predmetlarning atrofidagi sharoitni ham tasvirlaydi.

Bunda quyidagi vazifalar bor:

Obyektlar orasidagi o'zaro mazmunan bog'liqlikni tasvirlashga o'rgatish.

Kompozitsion qobiliyatlarini rivojlantirish (bunda qog'ozda horizontal chiziqni belgilab chizish).

Rang qobiliyatlarini rivojlantirish.

Bu yoshdagi bolalarda har bir mavzuning mazmuni oldindan to'g'ri aniqlangan bo'lishi kerak. Ularga masalan, «Bayram» mavzusini berish kerakmas, chunki bola yo mavzuga aloqador bo'l-magan narsani chizishi yoki o'zining imkoniyatiga to'g'ri kelmaydigan, kuchi yetmaydigan masalani qo'yishi mumkin.

**Tayyorlov guruhiba mazmunli rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.** Katta guruhibda bolalar orqali egallangan ko'nikma va malakalar tarbiyachiga 6–7 yoshli bolaga o'rgatish vazifalarini murakkablashtirish imkoniyatini beradi. Buning uchun quyidagilar kerak.

Bolalar rasmlarining mazmunini boyitish uchun berilgan mavzu bo'yicha rasm sujetini bolalarni mustaqil holda aniqlashga o'rgatish.

Sujetda harakat natijasida predmetning shaklini o'zgartirishga o'rgatish (masalan, engashishni, yugurishni).

Kompozitsion qibiliyatlarini rivojlantirish; predmetlarning joylashishi, yaqindagilarni qog'ozning pastiga, uzoqdagilarni qog'ozning tepasiga (o'lchamlarini o'zgartirmasdan) joylashtirish.

Ranglarni farqlash qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil holda sujetga mos rangni berishga o'rgatish.

Bu yoshda bolalarning analitik fikrlashi yaxshi rivojlangani uchun tarbiyachi berilgan mavzuga mos mazmunni mustaqil holda tanlashga bolalarga imkoniyat yaratib beradi. Masalan, «Uy qurish» mavzusi bo'lsa, bolalarning o'zlarini qanaqa uy, kim qur-yapti, qayerda kabi savollarga javob beradilar. Bolalar harakatdagi predmetning shakli o'zgarishini bilishadi, shu o'zgartirishlarni tas-virlay oladilar.

**Maktabgacha ta'llim muassasasida dekorativ rasm solishga o'r-gatishning vazifalari.** Dekorativ rasm solish, tasviriy san'atning boshqa barcha turlari kabi, bolada go'zallik hissini rivojlantiradi. Xalq dekorativ san'ati asarlari bolalarga yorqinligi hamda kompozitsiyalarining soddaligi bilan yaqindir. Bolalarni tarbiyachi respublikamizning turli viloyat dekorativ san'at asarlari bilan tanishtirish bilan birga, vatanga bo'lgan muhabbatni, ana shu san'at asarlarini yaratayotgan insonlar mehnatiga bo'lgan hurmatni ham tarbiyalashi zarur. Dekorativ rasm solish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- \* bolalarda turli shakllardagi naqshning tuzilishini, kompozitsiya bilan bog'lash hissini rivojlantirish;
- \* ranglar hissini rivojlantirish;
- \* dekorativ san'atdagi usullarni farqlay olishni va alohida elementlarni o'z ijodida qo'llay olish malakasini rivojlantirish;
- \* mo'yqalam va qalam bilan rasm chizishning texnik ko'nikmalarini hosil qilish.

Bolalarni dekorativ rasm solishga o'rgata turib, pedagog bolalarda butun naqsh komponentlari, ranglari, kompozitsiyalari, shakl elementlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish malakasini rivojlantirishi zarur. Bola predmetning shakliga va nima maqsadda ishlatilishiga qarab, uni bezaydigan ornamenti, naqshi o'zgarishini his qilishi va albatta, tushunishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda, u naqsh bilan bezashning ahamiyatini, maqsadga muvofiqligini, shakl bilan mazmun o'rtasidagi bog'liqlikni bilib, tushunib boradi. Bolalarni dekorativ rasm solish bilan tanishtira turib, ritm nima va simmetriya nimaligi haqida tasavvur hosil qilishga o'rgatish zarur. Chunki dekorativ san'at olami ritm va simmetriyasiz mavjud bo'la olmaydi. Dekorativ rasm solishda asosiy vazifalardan biri – rangni

his qilishni rivojlantirishdir. Rang – naqsh ornamentida kompozitsiya bilan chambarchas bog‘langan, naqsh bezagida ularni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Maktabgacha yoshdagি bolalar ranglarning bir-biriga mos kelib, uyg‘unlashishini albatta, barchasini o‘zlashtira olmaydilar. Lekin rang hissi ularda bog‘chagacha bo‘lgan yoshdan boshlab rivojiana boshlaydi. Dekorativ rasmida ranglardan foydalanish vazifasi har bir guruhda murakkablashib boradi (yorqin, kontrast ranglarning moslashuvidan boshlab, iliq va sovuq ranglar jilosи (ottenok)ning turli uyg‘unlashuviga qadar). Bu vazifani amalga oshirishni bolalar eng sodda tasviriy shakllarni chizishni o‘rganib bo‘lganlaridan keyingina amalga oshirish va bolalar diqqatini yangi vazifaga konsentratsiyalash, ya’ni qaratish lozimdir. Masalan, shu oddiy, sodda shakllarni naqsh hosil qilish uchun ma’lum bir ketma-ketlikda joylashtirish.

Boshlang‘ich tasviriy ko‘nikmalarga bolalar birinchi va ikkinchi kichik guruhda ega bo‘ladilar. Ikkinci kichik guruhda ayrim vazifalar dekorativ xarakterga ega. Masalan, «Ro‘molchaning chetini chiziqlar bilan beza». Lekin bunday mashg‘ulotning asosiy maqsadi – naqsh hosil qilish emas, to‘g‘ri chiziqlarni turli yo‘nalishda o‘tkazish malakasini mustahkamlashdir.

**O‘rta guruhda dekorativ rasm chizishga o‘rgatishning mazmuni va vazifalari.** Dekorativ rasm solish bolalarga 4 yoshdan boshlab o‘rgatiladi. O‘rta guruhda dekorativ rasm solishga o‘rgatishning vazifalari quyidagilar:

- \* chiziqda, kvadratda, doirada shakllarni ritmik joylashtirishning kompozitsion malakasini rivojlantirish;
- \* ranglar hissini rivojlantirish, ya’ni kontrast, yorqin ranglarni chiroyli moslashtirish;
- \* turli yirik va mayda shakllarni – naqshning sodda elementlarini chiza olish malakasini rivojlantirish;
- \* mo‘yqalamdan foydalanishning texnik ko‘nikmalarini rivojlantirish, qog‘ozga yengil tekkizib, nuqtalar hosil qilish;
- \* mo‘yqalamning boshchasidan to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazishda hamda dog‘chalar hosil qilish usulida mo‘yqalamdan to‘liq foydalanish;

O‘rta guruhda dekorativ rasm solishning kompozitsion vazifasi tayyor shakllarni yelimlashga o‘xshashdir. Boshlang‘ich mashg‘ulotlarda, bolalar mo‘yqalam bilan tekis chiziqlar chizib, ularning

orasida mo‘yqalam yordamida dog‘chalar hosil qilishni, nuqtalar hosil qilishni o‘rganadilar. Bunda dog‘chalarning ranglarini va naqsh murakkablashgan sari, o‘rnini o‘zgartiradilar. Mo‘yqalam yordamida dog‘chalar hosil qilish usuli (mazok) bajarish uchun yengil bo‘lgan dekorativ elementdir. Bu aniq bir harakatni talab qilmaydi va mo‘yqalamni qog‘ozga botirib olishdan hosil bo‘ladi. Shuning uchun naqsh chizishda avval botirib olish usuli kiritiladi, so‘ng nuqta hosil qilish usuli kiritiladi. Nuqta hosil qilish mo‘yqalam bilan ishlashda yangi usulni talab qiladi: mo‘yqalamni vertikal holatda ushslash lozim, shu bilan birga, bolada koordinatsion harakat yetaricha rivojlangan bo‘lishi kerak, chunki mo‘yqalam qog‘ozga faqatgina uchi bilangina tekkiziladi. Boshlang‘ich rasmlarning kompozitsiyasi ham soddadir: birliga elementni ritmik qaytarib, naqsh chizish. Faqatgina insonlar uchun xos bo‘lgan qo‘lning ritmik harakati, ana shu mashqlarni qaytarishni yengillashtiradi va tasviriy shakldagi ritmni yetkazib berishga yordam beradi.

Almashinuv – kompozitsiyaning murakkablashgan usulidir. Chunki u bir nechta shakllarning o‘zaro moslashuviga asoslanadi. O‘rtal guruhdagi bolalar uchun ikkitagina elementning shakli va rangi bilan navbatma-navbat almashtirish yetarli bo‘ladi.

Dasturdagi materialning mukammallahib borishi murakkabroq kompozitsiya bilan naqshda yangi tasviriy elementlarni kiritish hisobidan hosil bo‘ladi. Nuqtalar chizish va mo‘yqalamni botirib olish usulidan tashqari, bolalar naqshda doirachalar, halqalardan foydalaniб chizishni o‘rganadilar. Bu elementlarni bolalar kichik guruhlarda tasvirlashni o‘rganganlar.

Dekorativ rasmda bu shakllarni chizish ancha o‘zgaradi: ular ancha kichik hajmda, chizayotganda shakllar bir-biriga hajmi jihatdan mos bo‘lishi kerak; undan tashqari, bu shakllar predmet obrazi bilan bog‘liq emas, bu albatta, bola uchun tasviriy jarayonni murakkablashtiradi. Bolalar yana naqshni faqat bir chiziqda emas, balki to‘rtburchak shaklida, doirada ham joylashtirishni o‘rganadilar. Bu shakllar naqshda boshqa kompozitsiyani talab qiladi. Kvadratda, to‘g‘ri chiziqda joylashtirilgan naqshni chizish yaramaydi, chunki kvadratning to‘rtta tomoni, burchagi, markazi mayjud; doirada esa markaz bilan chekka aylana chegarasi bor.

Bu quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

\* aylana, kvadrat, to‘g‘ri to‘rtburchak ichiga naqsh chizishda

shakllarning ritmik joylashtirishda qo'llanadigan kompozitsion qobiliyatni rivojlantirish;

\* rang qobiliyatini rivojlantirish, kontrast ranglarni mos holda ishlatishni o'rgatish;

\* naqshning oddiy elementlarini chizishga o'rgatish;

\* mo'yqalamdan foydalanishning texnik ko'nikmalarini rivojlan-  
tirish (qog'ozda yengil yurg'izish, tochkalar qo'yish, chiziqlar chi-  
zayotganda mo'yqalamning butun usti bilan chizish).

Avval bolalar mo'yqalam bilan to'g'ri chiziqlarni chizishni va ularning orasiga nuqtalar qo'yishi, ranglarni ketma-ket almashtirib chizishni o'rgatadilar. Undan tashqari, bolalar, dumaloq va aylana shakllarni chizishga o'rganadilar.

**Katta guruhsda dekorativ rasm chizishga o'rgatishning mazmu-  
ni va vazifalari.** Besh yoshdag'i bolalar uchun dekorativ rasmida an-  
cha murakkabroq topshiriqlarni berish mumkin. Chunki bu yoshda bolalarning estetik hissiyotlarining rivojlanish darajasi ancha yuqo-  
ridir. Bolalarga quyidagilarni o'rgatish zarur:

\* qog'oz shakliga yoki hajmli predmetga nisbatan naqshni sim-  
metrik joylashtirish;

\* naqshda turli xil to'g'ri, doirasimon chiziqlardan, shakllardan hamda o'simlik elementlaridan foydalanish;

\* asos (fon)ga nisbatan ranglarning chiroyli moslashuvini to-  
pish;

\* mo'yqalamdan mahorat bilan foydalanish (uchi bilan chizish, boshchasi bilan to'liq chizish, mo'yqalamni turli yo'nalishda harakatlantira olish).

Boshlang'ich mashg'ulotlarda o'rta guruhda hosil qilingan malakalar mustahkamlanadi. Ular quyidagilardan iborat: turli shakllarda mo'yqalam yordamida to'g'ri chiziq chizish, botirib olish usuli bilan chizish, nuqtalar chizish. Bu – o'rta guruh materialini oddiygina qaytarish emas. Bolalarning ixtiyoriga bir necha xil ranglar hamda naqshda bir-biriga moslashadigan elementlarning turli hajmlari havola qilinadi. Yilning boshida bolalarga doira ichida naqsh chizishning yangicha usuli o'rgatiladi, ya'ni markaz hamda konsentrik aylana bo'ylab simmetrik elementlar chiziladi. Doira va kvadratdan tashqari, naqshni tuzish uchun bolalarga oval, uchburchak, rozeta (to'pbarggul shaklidagi bezak), oltiburchak kabi shakllar beriladi.

Katta guruhda kompozitsion usul sifatida elementlarni navbat bilan almashib chizish prinsipidan foydalaniladi; bunday usul naqshni yanada dekorativlashtiradi. Navbat bilan almashib chizishda naqsh o‘z ichiga turli xil shakldagi va rangdagi 2–3 xil elementni olishi mumkin. Naqshning bezak elementi sifatida bolalar turli chiziq shakllaridan (enli va ensiz chiziqlar, botirib olib chizish, nuqtalar, doirachalar, aylanalar chizish) va murakkabroq bo‘lgan – o‘simplik shakllari (barglar, mevalar, gullar)dan foydalanishni o‘rganadilar. Bunday o‘simplik shaklidagi elementlarni bir necha marta qaytarib chizish bolalar uchun ancha murakkablik qiladi. Bolalarga yana mo‘yqalamdan foydalanishning yanigicha usuli ko‘rsatib beriladi, ya’ni qog‘ozga mo‘yqalamni yon tomoni bilan botirib olish usulidir. Bunday botirib olish natijasida hosil bo‘ladigan bosmalar barg shaklida bo‘ladi va ular dan gullarning, barglarning naqshini chizishda foydalanish mumkin (mo‘yqalamning raqamini inobatga olgan holda: № 3, № 5, № 6).

Katta guruhda bolalar rangli fonga moslashtirgan holda turli ranglar jilosidan foydalanishni o‘rganadilar. Dekorativ rasmida mazmunli rasmga nisbatan fonning rangi juda ham turli xil bo‘lishi mumkin. Yorqin ranglarning moslashuvidan tashqari, bolalar ranglarning chiroyini ma’lum bir ranglar majmui (gamma) da (ko‘k, havo rang, oq, qizil, olov rang, sariq va hokazo) ko‘rishni o‘rganadilar. Bolalar bir xil rangdagi, sidiрг‘a naqshlarni his qilish layoqatiga egalar. Masalan, qor parchasining naqshi, to‘rning jimjimador naqshi. Katta guruhda bolalarni hajmli buyumlarda naqshlarni hosil qilishga o‘rgatiladi. Bunday rasm chizishning murakkabligi shundaki, naqsh kompozitsiyasini kuzatish qiyin, negaki, chizuvchi uni qisman ko‘ra oladi va naqsh elementlarining shakli buyumning yuzasi qavariqligidan biroz o‘zgaradi. Masalan, ko‘zani yoki biror o‘yinchoqni bezatish. Shuning uchun bolalarga naqsh bilan bezash uchun beriladigan hajmli buyumlar sodda shaklga ega bo‘lishi kerak. Masalan, Dimkov namunasi asosida loydan yasalgan qushlar, otlar. Dimkov o‘yinchoqlarining naqshi sodda va ritmikdir turli kenglikdagi to‘g‘ri va to‘lqinsimon chiziqlar bilan nuqtalarning, doirachalarning, halqachalarning moslashuvidan iborat. Bu ornamentlar rangi jihatdan oq fonning bir necha asosiy yorqin ranglar bilan oddiy kontrast (keskin) moslashuvini beradi.

Bolalarni quyidagi vazifalarga o'rgatish kerak:

\* varaqning shakliga mos qilib naqshni simmetrik chizish;

\* naqshda turli to'g'ri, egri chiziq va shakkardan, o'simlik elementlaridan foydalanish;

\* fondan kelib chiqib, ranglarning turli jilolaridan foydalanish;

\* mo'yqalam bilan ishslash (uchi bilan, butun uchi bilan, turli yo'nalihlarda erkin harakatlantirish).

\* Bolalar to'g'ri to'rtburchakka, aylanaga, kvadratga naqshni chizishni o'rganib boradilar. Bulardan tashqari, oval, uchburchak va oltiburchak ichiga naqsh chizishni o'rganadilar.

**Tayyorlov guruhiida dekorativ rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.** Yetti yoshdag'i bolalarni dekorativ rasm solishga o'rgatish vazifalari quyidagicha:

\* kompozitsiyalash hissini rivojlantirish: yassi va hajmli shakkarda predmetning ahamiyatliligiga va belgilangan maqsadiga nisbatan naqshlarni tuzish;

\* ranglar hissini rivojlantirish: turli xildagi ranglardan, ularning nozik rang jilosi (ottenok)dan turli moslashuvlarda foydalanish (qizil-pushti rang; ko'k-moviy rang; yashil-och yashil rang; qora-kulrang);

\* xalq dekorativ naqshlari turli ko'rinishlarining ahamiyati ni ko'ra olishni o'rgatish; rasmlarda xalq naqshining alohida elementlaridan foydalanish;

\* qalam va bo'yoqlar bilan chizish texnik ko'nikmalarini takomillashtirish.

Maktabga tayyorlov guruhiiga yumaloq to'g'ri burchakli shakkarda naqsh chizishning asosiy prinsiplari bilan tanish bo'lgan bolalar keladi. Ularga yangi shakklar – to'g'ri to'rtburchak va ko'pburchak hamda turli xildagi yassi shakkli predmetlar – vazalar, ko'za (kuvshin)lar, piyola (chashka)lar, qo'lqoplar, qalpoqlar va hokazolar tavsiya qilinadi. Bu predmetlar to'g'ri geometrik shakliga ega emas, va ularda naqsh chizish turli prinsiplardan foydalanishni talab qiladi. (Masalan, ko'zacha bo'ynining chetiga chiziqli ornament (naqsh) chizilsa, yumaloq qismiga esa markazda chizildigan naqshdan foydalilanadi). Undan tashqari, simmetriya haqidagi tushuncha ham murakkablashadi. Bir xil shaklni chap va o'ng tomonga joylashtirishdan tashqari, bolalar ko'zgusimon aks bilan tanishadilar (Zerkalnoe otrajenie); ko'zgusimon aksda naqshning

qismlari o‘z o‘mini o‘zgartiradi. Undan so‘ng bolalar to‘rsimon bezak prinsipi asosida bir turdagи naqsh bilan elementlarni shaxmat ketma-ketligida qaytarib, galma-gal chizish bilan butun shaklni to‘ldirish usulini egallaydilar. Bolalar matolar uchun, qo‘g‘irchoqning ko‘ylagi uchun turli naqshlarni chizadilar. Uchburchakdagi naqsh faqat chetlarida, burchaklarida bo‘lmay, balki bir burchakdan boshlanib, butun uchburchak bo‘ylab tarqalishi mumkin. Bunday hollarda teng tomonli uchburchak shakli emas, balki yon tomonlari teng bo‘lib, to‘g‘ri yoki o‘tmas burchakli uchburchak shakli olinadi. Bolalar ularda uchburchak shaklga ega bo‘lgan ro‘molcha naqshini chizadilar. Naqshni chizish uchun bolalar turli tabiiy shakllardan (o‘simliklar, hayvonlar) foydalanana boshlaydilar. Maktabga tayyorlov guruh bolalari xalq dekorativ naqsh bezaklarining elementlaridan o‘z naqshlarida foydalanishlari mumkin. Bunda asosiy usul saqlanib qolishi kerak. Tarbiyachi bolalarga xalq san’atining namunalariga qarab, naqsh jimjimalarini, mayda va yirik shakllarni o‘zarо moslashtirishni, ularni o‘tsimon bezak bilan bezashni, berilgan naqshga xos ravishda ranglardan ma’lum moslashuvda foydalanishni o‘rgatadi (Xoxlomskaya, Dimkovskaya, Ukrainskaya va b.). Dimkov namunasi asosida loydan yasalgan o‘yinchoqlarni bezashdan tashqari, bolalar yana «paper-mame»dan yasalgan katta-kichik tarelkalarni, stakanlarni Xoxlom yoki Jostov naqshlariga asoslanib bezashlari mumkin.

Tayyorlov guruhida bolalar faqat bo‘yoqdan emas, balki rangli qalamlardan ham foydalanishni o‘rganadilar. Kichikroq guruhlarda rangli qalamlardan faqat mazmunli rasm mashg‘ulotlarida foydalanilar edi, chunki bolalar qalam bilan kerakli ranglarni me’yoriga yetkaza olmasdilar; bu esa dekorativ rasmda juda katta ahamiyatga ega. Ozoda, bir tekisda yorqin shtrixlash kabi texnik qiyinchiliklar ko‘pgina diqqatlarini va kuchlarini olib qo‘yar edi. Tayyorlov guruhidagi bolalarda ma’lum ko‘nikmalar mavjud bo‘lib, ular qalamdan turli rang jilolarini hosil qila oladilar. Masalan, gulning har bir gulbargi markazdan qalam bilan turli xil bosimda shtrixlanadi. Bolalar faqat yorqin ranglarning moslashuv go‘zalligini emas, balki nozik, sokin va bir vaqtning o‘zida ko‘zlar uchun yoqimli bo‘lgan ranglarning go‘zalligini ko‘rishga o‘rganadilar. Tayyorlov guruhida bu vazifa qalam hamda bo‘yoqlar bilan chizishda hal qilinadi. Dekorativ rasmda barcha guruhlarda faqatgina guashdan foydala-

niladi, chunki guashda bir rang ustiga boshqa rang bilan chizish imkoni bor; dekorativ rasmda ko‘pincha bunday ustma-ust chizish talab qilinadi va akvarel bo‘yoq bunday imkonga ega emas.

## **IX BOB. MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA LOYDAN BUYUM YASASHGA O’RGATISH**

### **Kichik guruhda loydan buyum yasashga o’rgatish**

Maktabgacha tarbiya muassasalarida loy ishlari birinchi kichik guruhdan boshlanadi. Bu guruhda bolalarning loy ishlari boshqa guruhlardan ajralib turadi, ya’ni o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘ladi. Bolalar tasvirlovchi shakllar noaniq bo‘ladi, chunki bu yoshda bolalar qo‘l harakati rivojlanmagan, qo‘l muskullari hali o‘smagan, shuningdek, ishlarni kuzatib, nazorat qilib borish xususiyatlari hali rivojlanmagan bo‘ladi. Bu yoshdagи bolalar uchun loy bilan ishlashda eng muhimi, loyning xususiyatlari bilan tanishishdir, ya’ni loy yumshoq, yopishqoq va hokazo. Shu sababli bolalar bu guruhda loyning xususiyatlari bilan o‘yinlar o‘ynab, tanishib boradilar. Shuning uchun bu davr tasvirlashgacha bo‘lgan davr, deb ataladi. Bu davr quyidagi harakatlar bilan xarakterlanadi: bolalar loyni bir necha bo‘lakka bo‘ladilar, birini ikkinchisining ustiga joylashtiradilar, taxtacha ustida aylantirib, uni taxta ustida yapaloqlashadi, ammo bu harakatlarni hech qanday maqsadsiz bajaradilar. Bolalar asta-sekin tarbiyachining rahbarligi ostida loyni ikki kaft orasida doiraviy, uzunasiga harakatlantirib, sodda, yakka predmetlarni yasashga o‘rganib boradilar. Masalan, olma, tayoqchalar; halqachalar, qo‘ziqorinlar.

Birinchi kichik guruhda bolalarni loy bilan ishlashda qator vazifalar turadi: bu guruhda bolalarda loy ishlariga nisbatan qiziqishni tarbiyalash, loyning xususiyatlari bilan tanishtirish, u bilan to‘g‘ri ishlashga va eng oddiy texnik usullarni o‘zlashtirishga o‘rgatish vazifalari kiradi.

**Kichik guruhda loy dasturi.** Yangi dasturda bu guruhda ko‘proq takroriy mashg‘ulotlar rejallashtirilib, asosiy maqsad bolalarni oddiy texnik usullarni yaxshilab egallashlariga qaratilgandir. Ammo tarbiyachi takroriy mashg‘ulotlar uyushtirganda, bitta das-

tur mazmuni asosida xilma-xil variantda mashg'ulotlar uyuşti-  
rish lozim. Masalan, qalam yoki tayoqchalar, shu bilan birgalik-  
da, tarbiyachi qator tarbiyaviy xususiyatlarni ham bolalarda tar-  
biyalab boradi. Masalan, bolalarni birga jamoa bo'lib ishlash, loy  
bilan toza ishlash, ishlayotganda yenglarini shimarib ishlash, ishlab  
**bo'l**gach qo'llarini yaxshilab yuvish va hokazo. Mashg'ulotlarning  
muvaffaqiyatli o'tishi mashg'ulotda tarbiyachining foydalanadigan  
metod va usullariga bog'liqdir. Bu guruhda tarbiyachi ko'proq in-  
formatsion-retseptiv va reproduktiv metodlardan foydalanadi. Bo-  
lalar bilan birgalikda turli xil o'zlariga tanish predmetlarni ko'-  
rib chiqadilar. Bolalar shu predmetlarni qo'li bilan ushlab, uning  
kattaligini va boshqalarni payqashi mumkin. Shuningdek, bolalar  
bilan bir necha qismli predmetlarni ham ko'rib chiqadilar. Tar-  
biyachi dastavval bolalarning diqqatini o'sha predmetning yirik  
qismlariga, uning mayda qismlariga, shakliga, rangiga jalb etadi.  
Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi tasvirlashning texnik usullar-  
ni ko'rsatib, tushuntirib beradi. Shuningdek, tarbiyachi bolalarni  
loydan narsalar yasashda ko'proq o'yin usullaridan foydalanadi. Bu  
guruhda loy mashg'ulotlari predmetli xarakterga ega bo'ladi, ya'ni  
**bolalar alohida**, yakka predmetlarni yasaydilar, bu guruhda bola-  
lar ishiga yoki faoliyatiga baho berish ham muhim usullardan hi-  
soblanadi. Tarbiyachi albatta bolalarning, ishni qanday bajarganla-  
rini aytib o'tishi lozim. Birinchi kichik guruhda loy mashg'ulotlari  
haftada bir marta o'tkaziladi. Masalan, pechenye, non va barmoq  
bilan yoki alohida tayyorlangan tayoqchalar bilan, ya'ni turli xil  
shakllar – kvadrat, doira, chuqurcha hosil qilib, uni bezatadilar.

Bolalar shar, silindr, disk shaklini yasashni egallab olishgach,  
**bolalar** bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni yasashga o'r-  
ganadilar. Masalan, samolyot, qorobobo, shar yoki disklardan minora-  
cha, ayiq, qo'g'irchoq, quyoncha va hokazo. Bu predmet qismlari  
2 yoki 3 tadan ortmaydigan bo'ladi. Masalan, samolyot 3 qismdan,  
qor odam katta va kichik sharlardan iborat va boshqalar. Bu bo-  
lalar 3 kvartalda olgan bilim va malakalarni kengaytiradilar. Yoz  
davomida bolalar har xil mevalarni, sabzavotlarni yasab, zarur  
**bo'l**gan malaka va ko'nikmalarni egallaydilar. Bu guruhda tarbiya-  
chi informatsion-retseptiv va reproduktiv metoddan keng foydala-  
nadi. Bolalar bilan birgalikda sharlar, koptok, mevalar, qalamlar va  
**boshqa** predmetlarni yaxshilab ko'rib chiqadilar. Eng muhim, bu

predmetlarni qo'l bilan ushlab ko'rishlari zarur. Shu sababli tarbiyachi mashg'ulotlardan oldin bolalarga o'ynash uchun o'yin taklif etadi. Xuddi shunday qilib, 3–4 qismdan tuzilgan predmetlarni ushlab, har tomonlama u bilan tanishib oladilar. Bu predmetlarni kuzatib chiqishda tarbiyachi oldin o'sha predmetni qismlarga va har bir qismning shakliga, tuzilishiga, shu bilan birga, qismlarning katta-kichikligiga diqqatni tortadi. Dastlabki mashg'ulotlarda tarbiyachi predmetni loydan yasab berishni ko'rsatib, tushuntirib beradi. Tushuntirish aniq va tushunarli bo'lishi lozim yoki u predmetni yasashdan oldin, yasashning texnik usullarini havoda mashq qildirishi mumkin. Ko'rsatib, tushuntirib berish 3–4 daqiqadan oshmasligi kerak. Agar yasashning texnik usuli bolalarga tanish bo'lsa, ularning mustaqilligini o'stirish maqsadida bolalarning o'ziga taklif etilishi mumkin.

**Ikkinci kichik guruhda loydan buyum yasashga o'rgatish.** Ikkinci kichik guruh bolalari loy ishlariiga nisbatan ancha tayyor bo'ladilar. Ularning ko'pchiligi loy ishlari, loy va uning xususiyati bilan tanish bo'ladilar. Loydan narsalar yasashning oddiy texnik usullarini biladilar. Lekin shu bilan birga, bu guruhda bolalar hali qo'l harakatlari, shuningdek, o'ylagan fikrlarini ro'yobga chiqarishda qat'iylik bo'lmaydi. Loy bilan ishlashda malakaviy texnik ko'nikmalar yetarli rivojlanmagan bo'ladi. Shu sababli bu guruhda tarbiyachi bolalar egallagan tasviriy uquv va malakani mustahkamlash ustida ishslashadi. Bu guruhda bolalarni loy ishlariiga o'rgatish vazifalari 1 yarim yillik qilib berilgan. Bu vazifalarga quyidagilarni kiritish mumkin: bolalarda loydan narsalar yasash xohishini uyg'otishni, shu bilan bog'liq ravishda, estetik sezgilarini o'stirish loy bilan ishslash vaqtida diqqatlarini predmetning shakliga va katta-kichikligiga tortishga yoki qaratishga o'rgatish va shu kabilar. Bolalarni oddiy predmetlarni, masalan, tayoqcha, qalamchalar yasashga o'rgatiladi, bu predmetlarni yasash jarayonida bolalar ikkala kaft, qo'l barmoqlari bilan ishslashga o'rganadilar. So'ng asta-sekin bolalar bilan keyingi bosqichga o'tiladi, bunda bolalar o'zlariga tanish bo'lgan predmetni o'zgartirib, boshqasini yasashga o'rganadilar. Masalan, tayoqchani buklab, halqacha hosil qilish yoki tanish predmetlarni yasashda qo'l kaftlari bilan ishslashdan, qo'l barmoqlari bilan ishslashga o'tadilar, shu bilan birgalikda, loy bilan ishslash qoidalariga o'rganib boradilar: stolni va o'z kiyimini

**Islos qilmaslik, loy bilan ishlaganda yengni shimarib olish, doska-cha ustida ishlash, ishdan so'ng qo'lni yuvish va hokazo.**

Bolalar halqacha va tayoqchasimon predmetlarni yasashni o'z-lashtirib olishgach, dumaloq shakldagi predmetlarni yasashga o'r-gana boshlaydilar, ya'ni loy bo'lagini qo'l kaftlari orasida dumaloq yoki aylanaviy harakat qilishga o'rgatiladi. Masalan, shar, olma, apelsin, olcha, koptok. Bolalar disksimon predmetlarni yasashga o'rganadilar, ya'ni oldin loyni ikki kaft orasida sharsimon shaklga kiritib, so'ng ikki kafti orasida yapaloqlaydilar.

**O'rta guruhda loydan buyum yasashga o'rgatish.** O'rta guruhda bolalar rivojlanishi jihatdan quyi guruhdan farqlanadi. Bolalar hayotining 5-yilida fiziologik, ya'ni ham jismoniy jihatdan, ham psixologik jihatdan rivojlanadi. Ular predmetlar tuzilishidagi xususiyatlarni ajrata oladigan, tarbiyachining tushuntirib, ko'rsatib berishini tinglay oladigan bo'lishadi, lekin yasagan ishlari quyi guruhdan katta farq qilmaydi. Bolalar hali o'z ishlari-da proporsiyaga rioya qilmaydi, qismlarini mahkam birlashtirmaydi, predmet shaklini aniq tasvirlaydilar, chunki bolalar hali tasvirining hamma usullarini egallamagan va predmet haqida aniq tasavvurga ega bo'lmaydi. Tarbiyachi bu guruhda ham bolalar-da loy mashg'ulotiga nisbatan qiziqish uyg'otish, qo'l harakatlari-ning koordinatsiyasini tarbiyalash, faolligini o'stirish bo'yicha ish olib borishini davom ettiradi. Bolalarni predmet shakli to'g'risidagi tasavvurlarini yana ham chuqurlashtirish, uning detallarini to'g'ri tasvirlash ustida ish olib boradi. Masalan, odamning boshi dumaloq, uning yuzida ko'zi, burni, og'zi bor va boshqalar. Bu guruhda quyi guruhga nisbatan predmetni, uning tuzilishini aniqroq tasavvur yoki idrok etishga, simmetriyaga rioya qilish proporsiyaniнg to'g'ri tasviri kabi sifatlarni o'stirishga kattaroq va ko'proq ahamiyat beriladi. Shu bilan birgalikda, bu guruhda tarbiyachi loy bilan ishlash usullari va xillarini o'zları mustaqil ravishda qo'llay olishi ustida ko'proq ish olib boradi. Loy bilan ishlashning texnik usullaridan foydalanishga nisbatan ham talab ortadi: bolalar barmoq bilan, uning uchlari bilan ishlashga, qismlarini mustahkam yopishtirishga, yopishtirgan qismlarini, mayda qismlarini chimdib chiqarishga va hokazo. Bolalar loy bo'lagini aylanaviy va uzunasiga harakat qildirishadi, barmoq uchi bilan chimdib chiqazadilar, ya'ni I yarim yillikda bolalar, asosan, takror ishlaydilar. II yarim yil-

Ikkda bolalar butun loy bo'lagidan sabzavot-mevalar, shuningdek, bir necha qismdan tuzilgan figuralar yasashga o'rganadilar. Ular qo'g'irchoq, mushuk, quyon, o'yinchoq ayiq, qorbobo yasaydilar. Ikkinchchi kichik guruhda ikkita shardan yasagan bo'lishsa, o'rta guruhda esa katta-kichik uchta shardan, shuningdek, qo'l va boshqa detallarni ham qo'shib yasaydilar. Bolalarni loy bo'lagining mayda qismlarini cho'zib chiqarishga, barmoq bilan chuqurcha hosil qilishga, buklashga, biriktirilgan qismini mahkam qilib yopishtirishga o'rganadilar. Chimdib chiqarish bilan bolalar jo'ja, qushlarni yasashni o'rganadilar. Shu jarayonda bolalar predmetlarni, ularning qismlarini, shakllarining kattaligi jihatdan taqqoslashga o'rganadilar. Masalan, baliqni loy yasashdan oldin tanasini oval shakliga keltirib oladilar, so'ng baliqning bir tomonini salgina cho'zib va dumaloqlab, baliqning boshini, qarama-qarshi tomonini ko'proq cho'zib chiqarib, yapaloqlab, uning dumini yasaydilar, suzgichlarini chimdib chiqaradilar. Shuningdek, bolalar loy bo'lagini bir necha bo'lakka bo'lishga o'rganadilar. Masalan, qush yasashda yuqoridagilardan tashqari, idishlar yasashga o'rganadilar. Ular idishlarni yakka usulda, ya'ni yumaloqsimon va silindrsimon shakllarni barmoq bilan bosib, chuqurcha hosil qilish, bandini esa alohida loy bo'lagidan yoki asosiy loy bo'lagidan cho'zib chiqarib yasash mumkin. Bolalar olgan bilim va malakalarni o'stirib, mustahkamlaydilar. Bolalar bu kvartalda butun yil davomida o'rgangan predmetlарини yasaydilar, shu bilan birga, tarbiyachi bolalarni tipratiqan, sichqon, meva solingan idishcha, qo'ziqorin solingan savatcha kabilarni ham loydan yasashga o'rgatib boradi. Butun yil davomida olib boriladigan mashg'ulot asosan predmetli mavzu asosida olib boriladi va bu mashg'ulotlar jarayonida bolalar boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishga, mustaqil ishlashga, o'z ishlarini yangi detallar bilan boyitib borishga o'rganadilar.

Yuqorida aytib o'tilgan loy bilan ishslash dasturini bolalar o'zlashtirishlari uchun tarbiyachi turli xil metod va usullardan foydalanadi. Tarbiyachi guruhda yoki sayrda tevarak-atrofda predmetlarni kuzatishni taklif etadi. Kuzatish va predmetni ko'rib chiqish vaqtida bolalar dekoratsiya, predmetning asosiy shakliga, uning qismlariga, tuzilishiga, bir-biriga nisbatan proporsiyasiga jalb etadi. Masalan, shuni kuzatishda uning tanasi boshining shakliga, dumining tekisligiga, boshi, gavdasiga tik joylashganligiga va boshqalarga

jalg etadi. Shu bilan birga, tarbiyachi bolalarning diqqatini predmet va hayvon, parrandalarning harakati natijasida gavda holatlari ham o'zgarib turishini tushuntirib beradi. Bu guruhda tarbiyachi predmetni kuzatishi va ko'rib chiqish vaqtida uni qo'l barmoqlarining harakati bilan ko'rsatib beradi va bolalardan ham shuni qat'iy talab qilishlari kerak, bu sensor tarbiyaga ta'sir ko'rsatadi.

Bu guruhda yuqorida usullardan tashqari tarbiyachi ko'rsatib, tushuntirib berish usulidan foydalanadi. Bu guruhda kuzatish, ko'rsatish qisman yoki to'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, mashg'ulot boshqa kuzatishdan tashqari predmet yoki o'yinchoqlarni tarbiyachi tomonidan yasalgan kichik haykaltaroshlik asarlaridan foydalanish mumkin. Shu bilan birgalikda, tarbiyachi mashg'ulot jarayonida o'yin usulidan ham foydalanishi mumkin. Masalan, qo'g'irchoq uchun shirinliklar va boshqalar.

Bolalarni mashg'ulot jarayonida qiziqishlarini saralash maqsadida tarbiyachi mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotgacha loy ishiga mos keluvchi she'r, topishmoq, qisqa ertaklar o'qib berishi mumkin. Yasalayotgan ishni yana ham obrazli qilish uchun stekdan foydalanish mumkin. Masalan, quyonning ko'zini yasashda. Bu guruhda bolalar ixtiyoriy loy ishlarini ham o'rganadilar. Bunda tarbiyachi savollar bilan bolalar yasaydigan mavzularni aniqlay oladi, ularni yashash usullarini eslab oladilar. So'ng bolalarning o'zlarini ishga kirishadilar. Bolalarning mustaqil ishlari jarayonida tarbiyachi bolalarga maslahatlar, ko'rsatmalar bilan yordamlashib boradi.

Katta guruhda loydan buyum yasashga o'rgatish. Bola hayotining 6-yilida uning tevarak-atrof haqidagi bilimlari, turmush tajribasi kengaya boradi. Uning qo'l muskullari mustahkamlanib, taraqqiy etadi. U qo'l barmoqlari bilan nozik harakatlarni bajara oladigan bo'ladi. Uning psixikasida ham sifat o'zgarishi yuz beradi. Xotirasi o'sadi, barqaror bo'ladi, diqqat ham tobora barqaror bo'lib boradi. Bolalar oldin predmetni yasashda uning qismlarini va qislarning shakli, xususiyatlarini aniq tasavvur eta oladilar. Shu bilan birgalikda, katta guruhda bolalar predmetlarni ko'proq harakatta tasvirlashga harakat qiladilar. Bu guruhda bolalarni loy ishlari ga o'rgatishda quyidagi vazifalar turadi: predmet shaklini, proporsiyasini, uning tuzilishini, xarakterli detallarini va harakatini tasvir etish va boshqalar. Bu guruhda dekorativ loy ishlari davom ettiriladi. Bolalar idishlar yasab, so'ng uni bo'yaydilar, dekorativ plastink-

alar yasab, ularni bezaydilar. Bu guruhda bolalar sujet, mazmun asosida ishlaydilar. Texnik usullar ham bu guruhda murakkablashadi. O'rta guruhda qismlardan yasashsa, katta guruhga kelib, butun bir loy bo'lagidan yasaydilar. Shu bilan birga, stek bilan ishlashga ham keng imkoniyat va o'rin ajratiladi. Bu kvartalda bolalar dastavval o'zlariga tanish bo'lgan sodda predmetlarni yasaydilar. Ular loy bilan ishlashning ikki usuli: konstruktorlik va haykaltaroshlik usullaridan foydalanib, turli xil meva va sabzavotlar yasaydilar. Bodring, lavlagi, sabzi, olmaning ikki xil navi. Bolalar shu ikki usulda odam figurasi va hayvonlarni yasaydilar. Bu ishlarining mazmuni asosan o'yinchoqlardan olinadi. Masalan, Dimkovo qo'g'irchog'i. Shu asosida bolalar asta-sekin ishlashga o'tadilar. Tarbiyachi bolalarni predmetning sifatlarini loydan tasvirlashga o'rgatib boradi. Masalan, uzun, qisqa, ingichka, kalta, shuningdek, predmetlarni vertikal, tik holatini o'rgatadilar, qismlarni mahkam biriktirishga, birlashtirilgan qismlarni silliqlashga o'rganadilar. Bolalar asta-sekin o'z ishlariga mazmun berishni keng tatbiq etadilar, asosan, bir butun loy bo'lagidan haykaltaroshlik usulida predmetlar yasaydilar. Masalan, mushuk, kuchuk, quyon va boshqalar. Ikkinci yarim yillikda butun bir loy bo'lagidan idishlar yasaydilar, so'ng ularni lentasimon usul bilan bezaydilar.

Bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlari kengayadi, loy ishi bo'yicha bilim, malakanı egallashgan bo'ladi, ishslash jarayoni yana ham sifatli bo'ladi. Bolalar harakatdagi odam yoki hayvonlar figurasi mavzusida turli xil loy ishlarini bajaradilar. Masalan, raqs-ga tushayotgan petrushka, «Ikki qizg'anchiq ayiq» ertagi asosida va boshqalar. Idishlar yasashda yangi usulni qo'llaydilar. Bu idishning tagi disk ko'rinishida bo'lib, devori esa yassilangan loy bo'lagidan iborat bo'ladi. Bolalar o'zlariga tanish texnik usullar yordamida turli narsalarni yasaydilar. Masalan, xo'roz, tovuq, o'rdak, jo'ja va boshqalarni yasab, parrandalar shakli mazmunida ishlaydilar. Bu kvartalda bolalar ko'proq natura asosida, ixtiyoriy loy ishlarini bajaradilar. Katta guruhda tarbiyachi loy mashg'ulotini uyuştirganda ko'p metod va usullarni qo'llaydi. Bu guruhda ham tarbiyachi dastavval predmetni yoki naturani kuzatib, uning shaklini, qismlarini, proporsiyasini ko'rib chiqadilar. Bu guruhda ham bolalar predmetni barmoq harakatlari bilan ko'rib chiqishlari mumkin. Agarda bolalar yasash usulini bilishsa, unda mustaqil yasay-

dilar, agarda bilishmasa, unda tarbiyachi qisman ko'rsatib berishi mumkin. Shuningdek, tarbiyachi bu guruhda ham bolalar bilan qo'proq kuzatishlar olib boradi, badiiy adabiyotdan foydalanadi, rasm, haykaltaroshlik asarlari ustida kuzatishlar olib boradi. Savol-javoblar uyushtiradi, ko'rsatmalar, maslahatlar beradi, bola juda qiynalsa, alohida loy bo'lagida yasash usulini ko'rsatib beradi, topishmoqlardan keng foydalanadi. Bolalar ishini tahlil qilish ham muhim usullardan hisoblanadi. Bolalar bilan tahlil, suhbat sifatida uyuştiriladi. Bolalar har biri chiqib, ishning qandayligini, yasash usuli to'g'ri tanlanganmi, shakl to'g'ri berilganmi, qismlari, ularning proporsiyasi to'g'ri berilganmi, shular haqida so'zlashadi. Tahlilni har xil shaklda uyuştirish mumkin: bolalar o'z joyida o'tirib, bir bolani doskaga chiqarib, ishning sifatini tahlil qilishlari ham mumkin. Bunda o'yin usulidan ham foydalanish mumkin.

**Maktabga tayyorlov guruhida loydan buyum yasashga o'rgatish.** Tayyorlov guruh bolalarining loy ishlari xilma-xil va qiziqarlidir. Bunga sabab bola ham jismoniy, ham fiziologik rivojlangan bo'ladi. Bolalar predmetlar shaklining aniq tasviri, proporsiyasini to'g'ri berishga o'rganadilar. Bu guruh katta guruhga nisbatan bir bo'lak loydan cho'zib chiqarish usuli orqali ko'proq ishlaydilar. Shuningdek, stekdan keng foydalanadilar, bu bilan har xil operatsiyalar bajaradilar. Tayyorlov guruhida loy ishlarini o'rgatish dasturi xilma-xil va murakkabdir. Bolalar predmetlarning shakllarini ko'rib, his qilib, idrok etishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar mustaqil ravishda tasvirlashning texnik usullaridan keng va erkin foydalana olishlari kerak. Shuningdek, bolalar tasvirlashning haykaltaroshlik usulidan keng foydalanadilar. Tarbiyachi bolalarning ijodiy faolligini o'stirib, ularga mustaqil ishlash uchun keng sharoit yaratib berib, bolalarni mustaqil mavzu topib, tasvir usullarini ham mustaqil o'ylab topishga o'rgatib boradi. Tarbiyachi bolalarga xarakterli shakldagi predmetlarni loydan yasashni taklif etadi. Masalan, sabzavot, mevalar. Agar katta guruhda turli sabzavot va mevalarni loydan yasashga o'rgatilsa, tayyorlov guruhida ancha murakkab vazifa topshiriladi. Masalan, turli xil shakldagi bir xil guruhga kiruvchi predmetlarni, olmaning ikki navi – krem va antonovka va bodringning bir necha navlarini. Bu kvartalda bolalar o'yinchoqni, haykaltaroshlik usullari asosida harakatdagi predmedlarni loydan yasashga o'rganadilar. Masalan, bo'ynini

cho'zib qichqirayotgan xo'roz, koptok o'ynayotgan mushukcha va boshqalar. Bundan tashqari, bolalar bu kvartalda tasavvurlari asosida turli hayvonlarni yasaydilar. Shuningdek, bolalar odam figurasini yasashda davom etadilar. Masalan, asosan, Dimkova qo'g'irchog'i. Dimkova qo'g'irchoqlarini yangi texnik usul asosida yasaydilar, ya'ni boshi va koftalari alohida loy bo'lagidan, yubkasini esa, alohida, boshqa loy bo'lagidan, loyni yassilab konussimon shakl asosida yasashadi. Bolalar o'z tasavvurlari asosida mavzu bo'yicha «Qiz bola yoki bola bayroqcha ko'tarib ketyapti», «Bola maktabga ketyapti» kabi ishlarni yasaydilar. Bolalar yalmog'iz kam-pir, chipollino va boshqa ertak qahramonlarini yasaydilar. Bunday ishlarni bajarish esa bolalarda ijodiy faollikni, mustaqillikni, tas-vir etishning yangi vositalarini o'ylab topishga yordam beradi. Bolalar bu kvartalda butun bir loy bo'lagidan yasash ustida izlanadilar va dekorativ loy bo'yicha keng imkoniyatlarga ega bo'ladilar. Masalan, asosan, xalq o'yinchoqlari, idishlar, dekorativ plastinkalar yasaydilar. Tayyorlov guruhida bolalar idishlarni yangi usulda yasaydilar. Bu usul idishlarni halqachalar hosil qilib yasash va stek yordamida loyni olib tashlash usulidir. Masalan, halqachalar yasalib, ustma-ust qo'yilib, bir-biriga mustahkam o'rnatilib, so'ng ichki va tashqi tomonidan ulangan qismlari tekislanib, silliqlanib chiqiladi. Loyni stek bilan o'yib olib tashlash usulida, chap qo'l bilan silindrsimon, sharsimon shakklardan o'sha predmet ushlanib, o'ng qo'lda stek bilan ichki qismidan loy olib tashlanadi. Masalan, halqachalar usulida krujka, tog'oracha, gullar uchun vaza, chashka, ikkinchi usul bilan kuvshin, ko'zachalar, xumlar, ya'ni dumaloq va silindrsimon predmetlar yasash mumkin. Bolalar jamoa loy ishlariga o'rganadilar. Masalan, parrandalik fermasi, hayvonot bog'i. Bular jarayonida bolalar bilan tasviriy va texnik vazifalar ham o'tilishi shu bilan birga, tarbiyaviy xarakterdagи vazifa ham ko'proq hal etiladi, chunki jamoa loy yashlari bilan shug'ullanganda, ular-ga yaxshi imkoniyat yaratib beriladn. Shuningdek, bolalar tasavvurlari asosida, naturaga qarab loy ishlarini bajaradilar. Bolalar loy bo'yicha olgan bilim-malakalari asosida ishlab, o'yinda foydalanish uchun turli xil predmetlarni yasaydilar. Masalan, vazalar, turli xil idishlar plastinkalar va boshqalar. Bu tayyorlov guruhida predmetli, mazmunli dekorativ, loy ishlarining turlari uyuştiliriladi. Bularning barchasi ixtiyoriy ravishda ham uyuştilishi mumkin. Bu guruh-

da tarbiyachi mashg'ulotlar uyuştirganda, bolalar bilan birgalikda kuzatish va predmetlarni ko'rib chiqish usulidan keng foydalana-di. Kuzatish va ko'rib chiqish jarayonida tarbiyachi bolalar diqqatini predmetning shakliga, xarakterli xususiyatiga, holatiga tortadi. Kuzatish, ko'rib chiqish vaqtida tarbiyachi bolalarga savollar bilan murojaat qiladi. Shuningdek, bolalarga turli xil illustrativ kitob-chalar, rasmlar ko'rsatib, birgalikda ko'rib chiqish mumkin. Odam figurasining tasviri ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun tarbiyachi bolalar bilan birgalikda turli xil qo'g'irchoqlarni (sanitarka, kosmonavtni) ko'rib chiqadilar. Sayr vaqtida kuzatishlar uyuştiriladi. Predmetlarning harakat vaqtidagi vaziyatiga, holatiga bolalar diqqatini tortadi. O'ynchoqni ko'rib chiqish vaqtida bolalar diqqatini harakatning plastikligiga, uning qaysi usul bilan yasalganligiga jalg etadi. Shuningdek, hali o'ynchoqlar bilan yangidan tanishtirish maqsadida bolalar bilan «O'ynchoqlar do'kon» degan didaktik o'yin uyuştiriladi. O'ynchoqning xususiyati haqida suhbat qiladi. Idishlarni yashashda tarbiyachi bolalar diqqatini idishning shakliga qaratadi, qanday usullardan foydalanib yashash mumkinligi haqida so'raladi. Xalq amaliy-dekorativ san'at muzeyiga olib borishi mumkin. Bolalarga predmetli yoki mazmunli loy ishlari ni o'rgatishda, shuningdek, badiiy adabiyotdan keng foydalana-di. Shunday asarlarni tanlab o'qib berish kerakki, bolalar eshitib, o'zлari tasvirlamoqchi bo'lgan qahramonlarini ko'z o'ngida aniq gavdalantira olsin. O'qib berib bo'lgach, bolalar bilan birga qaysi personajni yashchlari haqida suhbatlashib oladilar. Bu guruhda ham o'yin usullaridan foydalanadi. Masalan, bolalar turli xil idishlar yashashganda, «Ustaxona» o'yinini uyuştirish mumkin, natijada bolalar qiziqish bilan ishlaydilar.

## X BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARНИ APPLIKATSIYA QILISHGA O'RGATISH

Tasviriy faoliyat metodikasida rasm solish, loydan buyum yashash metodikasi bilan bir qatorda applikatsiya ham asosiy ishlardan biri sifatida maktabgacha ta'lim muassasasi dasturiga kiril-gan. Applikatsiya mashg'uloti bolalarning har tomonlama o'sishida katta ahamiyatga ega. U bolalardagi xayolni, fantaziyanı uyg'otadi,

ijodini tug‘diradi, kuzatuvchanligini faollashtiradi, diqqat va tasavvurini, irodasini tarbiyalaydi. Qo‘l malakasini rivojlantiradi, shaklni sezishni, mo‘ljallay olish, rang sezish hissini rivojlantiradi.

Olimlar fikricha, insonlar eng kuchli rang sezishda 1300 xil rangni ajrata oladilar. Rang sezishni o‘stirish orqali bolalar da estetik tarbiya qobiliyati tarbiyalanadi. Qirqish texnologiyasini egallagan holda qog‘ozdan predmetli, mazmunli, dekorativ applikatsiya, quritilgan o‘simlikdan, somondan applikatsiya kabi ishlarni bajaradilar.

Applikatsiya haqida ma’lumot.

«Applikatsiya» so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «joylashtirish» degan ma’noni anglatadi. Applikatsiya tasviriy faoliyatning bir turi. Applikatsiyada ishlatiladigan ashyo o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Qog‘oz, somon, quritilgan o‘simlik o‘ramga joylashtirilib, turli xil yelim bilan yelimanadi. Mato, charm, jun, paxmoq kabilarga esa tiqiladi. Applikatsiya bir xil rangli yoki ko‘p rangli bo‘ladi. Bir xil applikatsiya grafik tus bersa, ko‘p ranglisi esa go‘zallik baxsh etadi. Unda ham, bunda ham badiiylik bo‘ladi. Applikatsiyada chamlash va buyumning hajmiy tasviri xarakterli bo‘ladi. Applikatsiya o‘ziga xosligi katta doirachalardan iborat.

Rang applikatsiyani ifodalash darajasini oshiruvchi vositadir. Shuning uchun applikatsiya ishida ranglarning uyg‘unlashuviga mos tushishi xayoliy va dekorativ kompozitsyaning ifodaliligi garmoniyasini izlab topishdir. Applikatsiya bolalarda qog‘ozda kompozitsion uquvni bilishga sharoit yaratadi. Bola tayyorlagan applikatsiya ishi estetik talabga javob berishi kerak. Applikatsiya predmetning umumiyligi, tipik va individual belgisini ko‘ra olishga o‘rgatadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi, butun, qismlar, rita, simmetrik chamlash rivojlanadi, predmetning shaklini, rangini bosqichma-bosqich ko‘rsatish malakasini ko‘rsata oladi.

Applikatsiya badiiy ishlarni oddiy va mos vosita orqali, real asosni saqlagan holda amalga oshiruvchi faoliyatdir. Masalan, mustaqil asar pannolar, surat, plakat. Ilustrativ tasvir, elementar matematikaga o‘rgatuvchi ko‘rgazma qurol, tabiat, nutq o‘stirish metodikasi uchun ijodiy o‘yin, o‘yinchoq, 8-mart bayram sovg‘asi, qurolli kuchlar va boshqa bayramlarda bezatish uchun devoriy gazeta, ko‘rgazma kabi. Maktabgacha ta’lim muassasasini bezatish ishlarida ham bolalar applikatsiya ishlarining o‘rni katta.

Applikatsiya ishini bajarishda ishlatiladigan kerakli asbob uskunalar. Asboblar ishlatilishiga mos bo'lishi bilan birga, estetik talabga javob berishi kerak. Ayrim kerakli ashyni «pape-mame» usulida qaychi qo'yish uchun qalamdon yasash, mo'yqalam qo'ygichni esa qalin kartondan yasash mumkin. Applikatsiya uchun kerakli ashyo murakkab emas; qaychi, yelim uchun mo'yqalam, oddiy qalam, qiyqim uchun quticha, lattacha, gazeta qog'ozni.

Qaychi – uchi to'g'ri, katta-kichik bo'lib, katta qaychi – 14–20 sm, to'g'ri, uchi uchli va aylanaviy katta tasvirlarni qirqish uchun ishlatiladi.

Kichik qaychi – 8–10 sm, mayda detallarni qirqish uchun qaychi o'tkir bo'lishi kerak. Stakanga qaychi uchi pastga qaratilgan holda qo'yilishi, boshqa odamga uzatganda ham uchini ushlagan holda uzatish kerak, qaychi ko'ndalang turganda qo'lni silkitish, o'qtalish mumkin emas. Unda ko'rsatish sifatida foydalanish mumkin emas.

**Yelim uchun mo'yqalam.** Masalan, 2–3 ta mo'yqalamga ega bo'lish kerak. Mo'yqalam applikatsiya mazmunining katta-kichikligiga bog'liq. Katta hajmdagi applikatsiyaga uchi enli mo'yqalam, mayda detallarga esa, kichik mo'yqalamdan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish tugagandan so'ng, mo'yqalamni yaxshilab yuvib, artib, quritib, mo'yining tuzilishini saqlash uchun mo'yini yuqoriga qilib qo'yish kerak.

**Mo'yqalam qo'ygich** – yelim ishlatishda yelimning ortiqchasi surkalib ketmasligi, stolni iflos qilmasligi uchun ishlatiladi.

Qalam, masalan, tasvir konturini chizish uchun oddiy, M va TM (yumshoq, yarim yumshoq) qalam ishlatiladi. Ular yaxshi ochilgan bo'lishi lozim. Kontur chizishda ruchka va kimyoviy qalamni ishlatish mumkin emas.

Yelim uchun plastmassa idishlar, sopol taqsimchalar tanlanadi. Ishlatib bo'lingandan so'ng tezda yuvib qo'yish kerak.

Applikatsiya mavzuli yoki qirqilgan dekorativ shakllarni asosiy fonda, turli predmetlar yordamida badiiy bezash uchun ishlatiladigan xalq amaliy san'atining bir turi. Applikatsiyaning o'ziga xos jihatlari mavjud. Applikatsiya mashg'ulotlari bolaning tasviriylar malakalarini shakllantirishga va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishiga yordam beradi. Applikatsiya o'z ichiga xayolni, tasvirni, go'zallikni ko'ra olish qobiliyatlarini oladi. Applikatsiya mashg'ulotlaridan ol-

gan malakalarini bolalar boshqa faoliyatda ham qo'llashlari mumkin. Applikatsiya mashg'ulotlarini to'laqonli o'tkazish uchun material va jihozlarni oldindan tayyorlab qo'yish muhimdir.

Applikatsiyani o'rgatish, material bilan tanishish, turli shakllarni qirqa olish malakalarini egallash, ularni ma'lum tartibda joylashtirish, obraz va sujetga mos ravishda yopishtirishni talab qiladi. Applikatsiyani o'rgatish bolalarning qabul qilish jarayonini o'stirishga asoslanadi. Shabl, hajm, rang, predmetning o'zaro munosabatlari haqidagi taassurotlarni boyitish, bolalarni mashg'ulot vaqtida fikrlash va (taassurot) tasavvurni ishlatishga yordam beradi. Ammo har bir yosh guruhlarda applikatsiya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan ta'limiy usullar o'ziga xos xususiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida o'tkaziladigan applikatsiya mashg'ulotlari bolalarda sezish qobiliyatlarining rivojlanishi ga ta'sir etib, ularni estetik jihatdan tarbiyalashga va ijodiy faolligini shakllantirishga, shuningdek, mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga va ularda xarakterning irodaviy xususiyatlarini vujudga kelishiga yordam beradi. Applikatsiya mashg'uloti jarayonida bola rang va uning jilosi (ottenkasi) bilan tanishadi, mashq qiladi, shabl va predmetning tuzilishini bilishga o'rganadi. Ritm va simmetriya haqidagi tushunchalari kengayib borib, qog'oz varag'ida mo'ljallay olishga o'rganadi. Bolalar applikatsiya faoliyatida rang va uning uygunlashuv bilan juda ko'p marta mashq qiladilar, shuning uchun ular ko'plab rang va uning uyg'unlashuvini tezda esda saqlab qoladilar va bir-biridan ajrata oladilar.

«Rangni sezish – 'estetik sezishning, umuman eng ommabop shakli bo'lib hisoblanadi». Buning uchun uni rivojlantirish natijasida biz bolalarning estetik tarbiyasiga ta'sir ko'rsatamiz. Ular shu asosda shaklning go'zalligini, ritm va simmetriyanı bilishga, sezishga o'rganadilar. Bolalar ritm va simmetriyaning qoidasini bilib olishlari natijasida ular shaklning tartibli joylashishidan xursand bo'ladilar va aksincha, tartib-qoidanining buzilishi bolani asabiylashtirib yuboradi. Bolalar bu holatni xunuk, tartibsiz, buzuq siyatida tasavvur etadilar.

Applikatsiya mashg'ulotlarida bolalar ko'pincha geometrik shakllar bilan munosabatda bo'ladilar natijada ular tevarak-atrofdagi predmetlarda geometrik shakllarning abstrakt ko'rinishini ko'ra olishga o'rganadilar. Murakkab tuzilgan shakllarning tuzil-

ishini yaxshiroq tushunishiga, ularni to‘g‘ri tahlil va sintez qilishga o‘rganadilar. Bolalar geometrik shakllar bilan tanishishlari jaramayonida hali o‘zlariga tanish bo‘lmagan figuralarning nomini to‘g‘ri aniqlashga o‘rganadilar. Masalan, bolalar shaklning burchaklarni sanab, uning 3 ta yoki 4 taligini bilib oladilar va natijada uchburchak va to‘rtburchak, keyinchalik ularning o‘zları mustaqil ko‘pburchak kabi shakllarning nomini bilib oladilar. Applikatsiya mashg‘ulotlarida bolalarning kattalik va fazoni mo‘ljallash bo‘yicha olgan tasavvurlari va qog‘oz betini to‘g‘ri mo‘ljallay olish kabi o‘quvlari rivojlanadi. Bolalar shaklni yopishtirishda yelimsiz aloqa qilishlari natijasida, shaklni mantiqiy va ritmik holida joylash-tirishga o‘rganishlari asosida o‘rtasida, o‘ngda, chapda, yuqorida, pastda, orqada, qarama-qarshi tomonda, atrofida kabi so‘zlar bilan tanishib oladilar. Bolalarni qog‘oz betiga nuqta qo‘yib, mo‘jal olishga o‘rgatish – ularning muktabda muvaffaqiyatli o‘qishlarining asosiy shartlaridan biridir.

Bolalar applikatsiya mashg‘ulotlarida juda ko‘p qimmatli mehnat malakalari va ko‘nikmalarini egallaydilar. Ular ozoda, batartib yopishtirishga, o‘z ish joylarini toza saqlashga va murakkab asbob hisoblangan qaychi bilan ishlashga o‘rganadilar. Bularning barchasi bolalarning muktabdag‘i qo‘l mehnati darsiga tayyorlaydi. Bolalar yengil va mayda qog‘oz shakllari bilan ishlashlari natijasida, o‘z harakatlarining tezligini to‘xtatib turishga o‘rganadilar. Mashg‘ulot jarayonida ular oz bo‘lsa-da, qiyinchilikni yengadilar, bu esa bolalar xarakterida irodalilik xususiyatini, chidam, sabr kabi fazilatlar ni tarbiyalaydi.

Kichik guruhlarda applikatsiya qilishga o‘rgatish. Maktabgacha ta’lim muassasasida applikatsiya mashg‘ulotlari bиринчи kichik guruh, ikkinchi kichik guruhdan boshlab olib boriladi. Bu guruhda barcha mashg‘ulotlarda bolalarga kattalar tomonidan tayyor qilib berilgan shakllarni qog‘ozga to‘g‘ri, turli xil joylashtirib terib chiqish va yopishtirish o‘rgatiladi. Bu guruhda asosiy vazifa – bolalarga yelimlash usullarini o‘rgatish hisoblanadi. Kattalar uchun oddiy hisoblangan bu malaka, qator harakatlarni ketma-ket bajarishdan iborat bo‘ladi, ya’ni mo‘yqalamni to‘g‘ri ushlab, unga ozgina yelim olish, shaklning teskarisi bilan qo‘yib, yelimni butun shakliga tekis qilib surtib chiqish, chap qo‘lining barmog‘i bilan shaklni tutib turish, so‘ng mo‘yqalamga ehtiyyotkorlik bilan qo‘yib, shak-

Ini sekin rang tomonini o‘girib, qog‘oz varag‘ining kerak joyiga qo‘yish va salfetka yordamida sekin bosish, chekkalaridan chiqib ketgan ortiqcha yelimni sekingina artib olish. Bu yoshdag‘i bolalarga ana shu harakatlarni egallab olish, albatta oson emas. Eng sodda shakl-kvadrat va doira uning uchun shu shakllardan ishni boshlash lozim. Yil davomida bolalar shu shakllarning nomini to‘g‘ri aytishni egallab olishlari lozim. Lekin butun yil davomida o‘tkaziladigan applikatsiya mashg‘ulotlarida faqat shu shakllar bilan kifoyalanib qolish bo‘lmaydi. Bu guruhda bolalarda dastlab bir, keyin 2–3 qismdan tuzilgan predmetlarni (qo‘ziqorin, bayroqcha, qorbobo, uy) yopishtirishga o‘rganadilar. Shuningdek, yil oxiriga borib, bolalar olti-yetti xil rangning qizil, ko‘k, sariq, yashil, jigarrangni to‘g‘ri aytib berishlari lozim. Bu guruh bolalariga qaychi berilmaydi, chunki bolalarning qo‘l harakati yetarli taraqqiy etmagan va hali qurish nazorati yetarli bo‘lmajanligi sababli bolalar qo‘lidagi qaychi xavf tug‘dirishi mumkin.

Ikkinch‘i kichik guruhda bolalarni applikatsiya qilishga o‘rgatishida ish uchun beriladigan materiallar va mashg‘ulotni tashkil etish ahamiyatga egadir. Materialning rangi bolalarning diqqatini tortib, ularni chalg‘itadi. Shuning uchun dastlabki mashg‘ulotlarda material alohida paketlarda, tushuntirilib bo‘lgandan so‘ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo‘lganidan so‘ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda kesmaga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarning qo‘yib chiqilganini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga yelim ishlatish uchun beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatishni namuna bilan birgalikda olib borish kerak. namunani ko‘rsatish jarayonida tarbiyachi shaklning rangini aniq atash va barmog‘i bilan uni ko‘rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko‘rsatib beradi. Tarbiyachi tomonidan ishni bajarilishini ko‘rsatib berilishi, bolalarda turli malaka va uquvning vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko‘rsatib boradi. Qanday shaklni oldi, qanday ushlab turib, yelim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o‘zining har bir harakatini so‘z bilan birgalikda olib boradi.

Maktabgacha kichik tarbiya yoshdag‘i bolalar esa tayyor shakllarni va ularning rangini bir-biriga moslab, tanlab yopishtiradilar. Juda yaxshi estetik effekt bilan qilingan ishlar, ayniqsa, dekorativ

bezaklar guruh xonasini bezatish mumkin. Shunday qilib, olib borilgan tekshirish ishlari shuni ko'rsatadiki, yaxshi uyuştirilgan applikatsiya mashg'ulotlari, boshqa mashg'ulotlarga, ya'ni dekorativ, predmetli va mazmunli mashg'ulotlarga ijobiy ta'sir etadi. Bolalar da sensor madaniyat oshadi, qo'l bilan tahlil qilish qobiliyati o'sadi va badiiy didlari shakllanadi.

**O'rta guruhda applikatsiya qilishga o'rgatish.** Bola hayotining 5-yiliga kelib, ham psixologik, ham jismoniy tomonidan o'sadi. Bu esa bolaning applikatsiya bo'yicha bajaradigan ishining sifat jihatidan o'zgarishiga olib keladi. Bolalar tuzilish jihatdan ancha murakkab bo'lgan predmetlarni tasvirlashga o'rganadilar.

O'rta guruh bolalari kichik guruhga nisbatan malaka va ko'nikmalarini ancha egallagan bo'ladilar. Bu guruh bolalari 2–3 qismli emas, balki 4–5 qismidan iborat predmetlarni tuzishga o'rgaradilar. Dastlab bu guruhga qaychi bilan ishlash kiritiladi. Bolalar qaychini to'g'ri ushslashga, uning richagini yopishga va ochish to'g'ri qirqim olishga o'rganadilar. Buning uchun oldin eskiz, keyin esa enli yoki keng qog'oz tasmalar qirqishga o'rganadilar. Bu guruhda bolalar yelimlash malakasini egallahni davom ettiradilar. Bola hayotining 5-yilida doira, kvadratdan tashqari, uchburchak, oval, uzun to'g'ri to'rtburchakni biladi. Trapetsiya shaklini esa, kichik guruhda bo'lgani kabi, obrazli tasvirida davom etadi. Masalan, tom, qayiqcha, kichik guruhga yana qo'shimcha havo rang, pushti, kulrangni sezishga va to'g'ri aytishga o'rganadilar. Ular qog'oz varag'ida tez va osonlik bilan mo'ljal qilishga o'rganadilar. Ular orqada, ketma-ket, teng masofada va boshqa fazoviy tushunchalarni egallaydilar. Bolalar to'g'ri kesmalar qirqishdan tashqari, aylanaviy shakllar qirqishga o'rganadilar. Ular kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning burchaklarini dumaloqlashga o'rganadilar. Ana shu qirqib olingen aylanaviy shakllardan qo'ziqorin, minorcha, qorbobo kabi predmetlarni hosil qilishga o'rganadilar.

Yopishtiriladigan detallar soni ham ko'payadi, masalan, uychaning tasvirida faqat devorni emas, balki eshik va derazalarni ham tasvirlaydilar. Shakl va rang bilan ishslash ham rivojlanadi: to'rtburchak, kvadrat, doira, uchburchak, pushti rang, kulrang, havo rang va boshqalar. Bu guruhda qog'oz varag'ida to'g'ri mo'l jallahni o'rganadilar va orasida, chekkada, bir xil masofada va boshqa shu kabi tushunchalar bilan tanishib boradilar. O'rta ju-

ruhda tarbiyachi o‘zining asosiy diqqatini bolalarning qaychi bilan ishlashiga qaratadi. Yil davomida tarbiyachi bolalarni qirqishning turli usullari bilan tanishtiradi. Tarbiyachi qaychini va qog‘ozni to‘g‘ri ushlashga o‘rgatib boradi. Yopishtirish· malakasi esa mustahkamlanib boradi. Bu guruhda asosiy vazifa bolalarning qirqish texnikasini egallab olishiga qaratilgandir. Bu guruhda tarbiyachi bolalarni predmetli-dekorativ, mazmunli applikatsiyaga o‘rgatib boradir. Sodda predmetlardan murakkab predmetlarning tasviri ga o‘rgatiladi.

Tarbiyachi bolalarni qaychi bilan ishlashga, uni to‘g‘ri ushslashga o‘rgatib boradi. Bolalar albatta qaychi bilan ishlashni darhol o‘zlashtira olmaydi. Shuning uchun tarbiyachi qaychi bilan ishslashga o‘rgatishda dastlab enli, ensiz kesmalar qirqishga o‘rgatib, mashqlantiradi, har bir applikatsiya mashg‘ulotlarining mavzu va mazmuni turlichab o‘lishi lozim. Masalan, dastlabki mashg‘ulotlarda tarbiyachi bolalarga «do‘kon» uchun chipta, cheklar qirqishni taklif etadi. Yoki, masalan, qirqilgan kesmalardan uycha, daraxt, panjara, narvon kabi predmetlarning oddiy ko‘rinishini tasvir etishi mumkin. Bu esa bolalarni mashg‘ulotga qiziqishini oshiradi va mashg‘ulotning bir xil tarzda bo‘lishining oldini olad!. Bir-ikkita mashg‘ulotni o‘tkazgach, keyingi mashg‘ulotlarni bolalarning ijodiy faolligini o‘stirish uchun tavsiya etish mumkin. Masalan, bolalar o‘zları qirqib olgan rangli kesmachalardan turli xil predmedlarning ko‘rinishini tasvirlaydilar. Masalan, yulduzlar, bayroqchalar, gullar. Keyingi applikatsiya mashg‘ulotlarida bolalar to‘rtburchak, kvadratning diagonali bo‘yicha, trapetsiya va uchburchak hosil qilishga o‘rgatiladi. Sharf, sochiqni kvadrat va uchburchaklar bilan bezaydilar, shuningdek, kvadrat bilan gilamni, dastro‘molchani, doira bilan taxsimchani bezaydilar. Tayyor siluetlar ham berish mumkin. Bolalar oval va doira shaklni hosil qilib qirqishga ancha qiynaladilar. Ular doiraviy shakldagi predmetlardan: tursa yiqilmas qo‘g‘irchoq, meva-sabzavotlar, piramida va boshqalarni qirqib yopishtiradilar. O‘quv yili davomida bolalarga mazmunli applikatsiya ishlarini ham taklif etishi mumkin. Masalan, bo‘g‘irsoq yo‘ldan dumalab ketyapti, o‘tloqdagi jo‘jalar, qo‘ziqorinlar va hokazo.

Bu guruhda bolalarni jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatamiz. Masalan, katta gilam yoki sabzavot mevalardan tashkil topgan vitrinnani yoki havoda, osmonda samolyotlarni tasvirlashlari mumkin.

Bundan tashqari, bolalar o‘z xohishlari bo‘yicha xilma-xil applikatsiya ishlarini bajaradilar. Masalan, Onam uchun sovg‘a, tayyor siluetni naqshlar bilan bezatish mumkin: fartuk, qo‘lqop, shapkani qirqib yopishtirish yoki bezatish mumkin. Tarbiyachi bu guruhda ham xilma-xil metod va usullardan foydalanadi. Muhim bo‘lgan metodlardan biri – informatsion-retseptiv hisoblanadi. Bu metod tasviri lozim bo‘lgan predmetni har tomonlama ko‘rib chiqish va tahlilni o‘z ichiga oladi. Tarbiyachi bu guruhda ko‘proq bolalarning o‘zlariga tasvirlanayotgan predmetga haqida gapirib berish, uning sifati, belgisini aniq aytib berishga, tasviriy yo‘llarini mustaqil bilishga o‘rgatib boradi. Bolalar predmetning tasvirini tuzish orqali, o‘scha predmet shaklini qirqishga, uning tuzilishining to‘g‘ri tasviriga, qismlarning kattaligini to‘g‘ri berishga o‘rganib boradilar. Bu guruhda qirqish birinchi marta kiritiladi. Shuning uchun eng muhimmi, diqqat-e’tibor qaychini ushlashga, qirqish usullarini ko‘rsatishga bog‘liq bo‘ladi. Dastlabki mashg‘ulotlarda tarbiyachi qaychi bilan qanday ishslash kerakligini ko‘rsatib beradi (qanday ochib yopishni, qayerdan ushslashni ko‘rsatib beradi). Qog‘oz qirqishni bolalarga namoyish qilish orqali qaychining qanday qilib harakat qilishini ko‘rsatadi. Bolalarga kvadratlaridan doiraviy shakllar qirqishni, ularning faqat burchaklarini qirqish kerakligini ko‘rsatish kerak va qog‘ozni qo‘lda biroz harakat qildirish kerakligini namoyish qilib beradi. Bu usulda bolalarga oq qog‘oz, so‘ng rangli qog‘oz berish tavsiya etiladi. Tarbiyachi tanish bo‘lgan qirqish usullarini birorta bolani chaqirib, bolalar uchun namoyish qilib berishni taklif etish mumkin. Har bir harakatni tarbiyachi so‘z bilan tushuntirib borishi kerak. Agarda murakkab applikatsiyani tuzish kerak bo‘lsa, tarbiyachi flanigrafdan o‘scha narsani illyustrativ rasmlarni ko‘rib chiqishni taklif etish mumkin. Masalan, qo‘zigorin, uning oyoqchasi va shapkachasi bor, oyoqchasi pastda, shapkasi yuqorida joylashgan. So‘ng tarbiyachi bolalarga savollar beradi, obrazli so‘zlardan foydalanadi, qo‘l bilan shakl ko‘rinishini tasvirlovchi harakatlarni bajarishlari mumkin. Shuningdek, tarbiyachi namuna ko‘rsatishda foydalanadi. Namuna, shuningdek, predmetning o‘zi ham topilmagan taqdirda foydalanish mumkin. Mashg‘ulotda eng muhim metodlardan biri yopishtirishni ko‘rsatish va tushuntirish hisoblanadi. Yopishtirish jarayonini hamma bolalarga ko‘rinadigan qilib, namoyish qilish lo-

zim. Buning uchun doska yoki molbertdan foydalanish mumkin. Shuningdek, yopishtirish jarayonida ketma-ketlikni bolalar yaxshilab o'zlashtirib olishsa, uni bolalarning o'zlariga taklif etish mumkin yoki ko'rsatish o'rniغا, faqatgina og'zaki tushuntirish bilan kifoynanib qolish mumkin. Bu yoshdag'i bolalar bilan ishslashda o'yin usulidan keng foydalanish mumkin va lozim. Chunki bu usul bolalarni mashg'ulotga nisbatan qiziqishni uyg'otib, ularni faollashtiradi. Bu yoshdag'i bolalar bilan ishslashda individual ishslash, muhim rol o'ynaydi.

Tarbiyachi bir bolaga yopishtirishni ko'rsatsa, ikkinchisiga ni-mani davom ettirish kerakligini tushuntirib beradi. Bolalar ishini ko'rib chiqish ham muhim metod va usullardan biri bo'lib hisoblanadi. Tarbiyachi bolalar ishini ko'rib chiqish va tahlil qiliш faqatgina barcha bolalarning ishini maqtash lozim. Keyingi mashg'ulotlarda tarbiyachi bolalar ishini tahlil qiliшda ishning ozoda bajarilganligi, rangning to'g'ri tanlanganligi va qog'ozda to'g'ri joylashtirilganligini hisobga olib, tahlil qiladi va bolalarni ham shunga o'rgatib boradi. Masalan, bolalar tursa yiqilmas qo'g'irchog'ini ichida chiroyli, singanlari va xafalari ham borligini aytishga o'rganadilar. Bunga tarbiyachi bolalarni yilning II yarmidan boshlab o'rgatib boradi.

O'rta guruhda bolalar tayyor shakllardan applikatsiya tuzish bilan birga o'zlar ham mustaqil qirqib yopishtiradilar. Naturani tahlil qiliшda bolalarning diqqati faqatgina rang va shaklga tortilmay, balki qismlarning o'lchami va soniga ham tortiladi. Masalan, tursa yig'ilmas qo'g'irchoq sharchalardan katta, o'rtacha va ikki shardan iboratligini aniqlaydilar. Murakkab topshiriqlarni bajarish jarayonida ularga material alohida beriladi. Masalan, uyni yopishtirish. Uning devor, tom va oynaga mos bo'lgan razmerdagi rangli qog'ozlar beriladi. Bu guruhda naturani ko'rib chiqish namuna bilan birga olib borilishi shart emas. Namuna tahlilining o'zi yetarli bo'ladi. Namuna qurib chiqishda tarbiyachi bolalarning diqqatini uni yaxshilab qurib chiqishga tortib, quyidagi savollarni beradi: predmet qanday shakllardan tuzilgan? Bu qanday shakl? Rangi qanday? va boshqalar.

Tarbiyachi predmetning qismlarini yoki naqsh elementlarini yopishtirish tartibini ko'rsatib beradi. Bu guruhda tarbiyachi faqatgina ma'lum qismini ko'rsatib berishdan ham foydalanadi. Masalan,

yni yopishtirishda uning tomini qirqishni ko'rsatib beradi xolos, qolganini bolalarning o'zlarini bajaradilar. Bu guruhda alohida ahamiyat qaychi bilan ishlashga beriladi. Tarbiyachi bolalarga qaychi bilan ishslash texnikasini ko'rsatib, tushuntiradi. Qo'lni qaychi ning richagini qanday harakatlantirishini o'rgatadi. Qaychi bilan dastlabki mashqlarni, yaxshisi 8–10 bola bilan o'tkazgan ma'qul, chunki ularni kuzatish va o'z vaqtida yordam ko'rsatish imkoniyati ko'proq bo'ladi.

Mashg'ulotning oxirida tarbiyachi bolalar bilan birgalikda bajarilgan applikatsiyani ko'rib chiqadi: predmetga o'xshaydimi, shakllar toza yopishtirilganmi? Tarbiyachi bolalarning tahliliga yakun yasab, yaxshi ishlarga bolalarning diqqatini jalb etadi.

**Katta guruhda applikatsiya qilishga o'rgatish.** Katta guruhlarda ko'pincha mashg'ulotning ma'lum bir qismini ikki va undan ortiq bolalar bilan birga ishlaydigan jamoa ishi sifatida tashkil etish lozim. Bolalar birgalikda oldinda turgan vazifani muhokama qiladilar, ish tartibini rejalashtiradilar, bir-birlariga yordam ko'rsatadilar. Applikatsiya mashg'uloti shartsiz ravishda bolalarda ijodiy qobiliyatlarning o'sishga ta'sir ko'rsatadi.

Bola hayotining 6-yilida kuzatishlar, o'yin sensor tarbiyaning ta'siri ostida bolalarda predmetning rangi, shakli, kattaligi va boshqa sifatlari to'g'risida bilim va tasavvurlari shakllana boradi. Bu yoshga kelib bolalarda tasviriy uquvi va texnik usullari mavjud bo'ladi, qo'l muskullari rivojlangan bo'lib, qaychi bilan qiladigan harakatlari ancha aniq va ishonchli bo'ladi, bu esa o'z-o'zidan applikatsiyaga o'rgatishning ancha murakkab vazifalarini hal etishni taqozo etadi. Applikatsiya mashg'ulotlari jarayonida predmet to'g'risida xilma-xil ma'lumotlar berib boriladi. Bolalar xilma-xil shakllarni atashga, kvadrat, to'rtburchakni bir-biridan farq qilishga, ularning asosiy belgilarini to'g'ri atashga o'rgatib boriladi. Shuningdek, bolalarga oval, doira, uchburchakni to'g'ri ajratishni farq qilishni o'rgatadi. Shunday qilib, bolalar faqat shakllar bilan emas, balki ranglar bilan tanishib boradilar. Masalan, och, to'q, yorqin ranglar va boshqalar. Bular orqali bolalar rangni sezishga, uni tanlay bilishga o'rganib boradilar. Applikatsiya jarayonida figuralarni bir-biri bilan taqqoslashga o'rganadilar, baland-past, keng-tor, ya'ni qalin-ingichka kabi tushunchalarni egallab, tushunib boradilar. Shuningdek, qog'oz varag'ini mo'ljallay bilish

bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar, tepada, pastda, o'rtaida kabi ketma-ket tushunchalarni egallashga harakat qiladilar. Bu ish bolalarni qaychi bilan qirqish usullariga o'rgatib borish bilan davom ettiriladi. Bu bilan o'rgatib borish davom ettiriladi, bolalar o'rta guruhda egallagan qirqish usullarini takrorlab, mustahkamlaydilar va yangi qirqish usullarini egallaydilar. Bular quyidagilar: qog'ozni ikki buklab, bir xil shakllar qirqish usuli, simmetrik shakllarini ham bir necha marta buklab (garmoshka qilib taxlab) qirqishga o'rganadilar. Masalan, gullar, barglar va hokazo. Bu guruhda tarbiyachi bolalarning diqqatini doimo ishning sifatiga qaratib boradi. Chunki qirqish va yopishtirishning sifati butun bir ishning yoki applikatsiyaning sifatiga ta'sir etadi. O'quv yilining boshida bolalar bilan doiraviy shakllarni qirqish ustida ishlanadi, chunki bolalar bu usulni o'rta guruhda yetarli darajada egallamagan bo'ladilar. Bolalar predmetlarni qismlarga bo'lib, qirqib yopishtirishni o'rgangach, ularning qirqishning ratsional usuli, ya'ni garmoshka usulida qog'ozni buklab qirqishni o'rganadilar. Ammo yilning boshida dumaloq shakldagi predmetlarni qirqishni mustahkamlashga tarbiyachi quyidagi mavzularda ishlar berishi mumkin. Masalan, kuzgi barglar, sabzavot, mevalar, qo'z:qorinlar va hokazo. O'quv yili davomida bolalar predmetli applikatsiya ishlarini bajaradilar. Masalan, samolyot, raketa, mashina, trolleybus va hokazo. Qog'ozni garmoshka usulida buklab, qirqishga turli xil predmetlarni taklif qilish mumkin. Masalan, bargli shoxcha, gullar, archa o'yinchoqlari. Shuningdek, dekorativ applikatsiya bo'yicha ham shar, sochiq, kvadrat, gilam, doira, tarelka va shuningdek, tayyor siluetlarni, zontik, choynak, fartuk kabilarini bezatishni taklif etish mumkin. Bolalarni simmetrik figuralarni qirqishga o'rgatishda tarbiyachi simmetrik tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni taklif etadi. Masalan, guldon, nok, kapalak, masxaraboz va hokazo.

Bolalar predmetli dekorativ applikatsiyadan tashqari, mazmuni applikatsiyani ham bajaradilar. Masalan, quyonning bo'g'irsoq bilan uchrashuvi, qor bosgan uycha, qiz bayroq ushlab turibdi va hokazo. Katta guruhda bolalar o'z ixtiyorlari bilan ham applikatsiya ishlarini bajaradilar. Bolalar olgan bilim, malakalari asosida o'zlari mustaqil applikatsiya ishlarini bajaradilar. Applikatsiya mashg'ulotlarida bolalar jamoa ishlarni bajaradilar. Gullar va

afsonaviy qushlar tasvirlangan gilam, sevimli o'ynichoqlari va boshqalar. Katta guruhda ham applikatsiya mashg'ulotida tasvirlash kerak bo'lgan predmetlarni tahlil qilishga katta o'rinnajratiladi va unda bolalarni savollar bilan faollashtirilsa, katta guruhlar-da esa bolalarning mustaqilligini qo'proq ta'minlaydi. Tahlil jara-yonida bolalar predmetning shakliga, rangiga, turli xil xususiyatlariga e'tibor berishi lozim. Xalq amaliy san'ati asarlarini ko'rib, tahlil qilishga, bolalarga ranglar garmoniyasining go'zalligini sezishga, ko'pincha kompozitsiyaning mazmundorligini ochishga o'rgatiladi. Bu guruhda namunadan, ayrim hollarda, ya'ni ishning yakunini namoyish qilishda foydalanish mumkin. Har bir qirqish usullarini ko'rsatib berish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Tarbiyachi ko'proq bolalarning o'zlarini faollashtirib, bolalarning o'zlarini mustaqil ravishda qirqish yo'llari, yopishtirish tartibini qidirib topishga undaydi. Agarda yangi qirqish yo'llari kiritiladigan bo'lsa, tarbiyachining o'zi qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Masalan, qat-qat usulida qirqish, ayniqsa, simmetrik figuralar ni qirqishda bolalar ancha qynaladilar. Shuningdek, tarbiyachi ayrim predmetning qog'ozdag'i tasviridan foydalanish mumkin (qo'l harakatlari bilan yurgizib chiqishi mumkin). Dastlab tarbiyachining «predmetning yarmi» deb tushuntirishi asosida bolalar usulni tushunib yetadilar. Bu guruhda bolalar qog'ozni qo'l bilan yirtib, mayda bo'lakchalardan foydalanib, tasvirini hosil qilishga o'rganadilar. Tarbiyachi bolalarni mustaqil, ijodiy ishlashga o'rgatib, mazmundor applikatsiya yaratishga, tayyorlov guruhga o'tgach ularning applikatsiya bo'limi ancha murakkabla-shadi. Ular qirqimning yangi, ya'ni bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va siluet qirqish usullarini egallay boshlaydilar. Bu bilan bu guruh bolalarini turli xil shakllarda dekorativ naqsh chizishga va bir necha qismidan tuzilgan predmetlarni tuzishga hamda mazmunli applikatsiya tuzishga, predmetlarni joylashtirishga o'rganadilar. Shu bilan birga, rang spektrining barcha ranglaridan foydalanishga o'rgatiladi.

Siluet qirqish – eng murakkab usullardan biridir. Siluet qir-qish jarayonida bola doimo predmetning obrazini xotirasida tutib turishga va uning konstruksiyasi va proporsiyasini kuzatib turishi ga, qo'l harakatini hosil qilinayotgan shaklning yo'nalishiga mos lashtirishga to'g'ri keladi. Shuning uchun bolalarni siluet qit-

qishga o'rgatishni sodda shakllardan, masalan, baliqlar, sabzavot, mevalardan boshlash lozim.

Katta guruhda bolalarni applikatsiya qilishga o'rgatishda qu-yidagi vazifalar turadi: bolalarni to'g'ri harakat bo'ylab qir-qish, dumaloq shakllarni va ikkiga buklangan qog'ozni qirqishga o'rgatiladi. Bir nechta qismdan tuzilgan predmetlarni hosil qilishga, geometrik va simmetrik shakllardan chiroli dekorativ naqsh tuzishga o'rganadilar. Demak, bu guruhda asosiy vazifa qirqishning xilma-xil usullarini egallashdan iborat ekan. Oldin bu guruhda ham o'rtा guruhdagi kabi mavzularda, faqat detallar soni ko'paytirilib, qorbobo, boshida qalpog'i yoki qo'lida xaltasi bilan, samolyot esa qanotlarida yulduzi bilan va qorboboning yuz qismidagi mayda detallarni: burun, ko'z va boshqalar yasalardi. Bu guruhda bolalar ba'zi shakllarni ikkiga buklangan qog'ozdan, shoxlarni barglari bilan yasashgan. Bu usullarning ishlatalishi vaqtini ancha tejaydi va chiroli mazmun yoki kompozitsiya tayyorlash mumkin. Qog'ozni ikkiga buklab qirqish, bir-biriga simmetrik shakllarni qirqishni osonlashtiradi. Bu usuldan foydalanib, bolalar vaza, barglar, sabzavot va mevalar shaklini qirqadilar. Katta guruhda bolalar shakllarni qog'ozning uchini qo'li bilan tekislab, barmoqlarda qirqishga o'rganadilar. Katta guruh bolalarining ishlaydigan ish mazmuni shu bolalarda qirqishning ko'nikma va malakasini rivojlantirishdir. Dekorativ applikatsiya ishlarida esa bu guruhda faqatgina tayyor geometrik shakllar berilmay, balki xilma-xil o'simlik shakllaridan barg gullar va boshqalarning elementlari kiritiladi.

Tayyorlov guruhga o'tgach, ularning applikatsiya bo'limi ancha murakkablashadi, ular qirqishning yangi usullarini egallay boshlaydilar. Bu usullarga bir necha marta buklangan qog'ozdan qirqish va siluet qirqish kiradi. Shu bilan birga, bu guruh bolalari turli xil shakllarda dekorativ naqsh tuzishga va bir necha qismdan tuzilgan predmetlarni tuzishga hamda mazmunli applikatsiya tuzish va predmetlarni joylashtirishga o'rganadilar. Shu bilan birga, spektorlarning barcha ranglaridan foydalanishga o'rganadilar.

Yuqorida siluet qirqish eng murakkab usullaridan biri ekanligi aytildi. Siluet qirqish jarayonida bola doimo predmetning obrazini xotirasida tutib turishga va uning konstruksiyasi va proporsiyasini kuzatib turishga, qo'l harakati hosil qilayotgan shaklning yo'nalishiga moslashishga to'g'ri keladi. Shuning uchun bolalarni si-

luet qirqishga o'rgatishni sodda shakllaridan (baliqlar, sabzavot va mevalar) dan boshlash lozim.

Katta guruh bolalarini applikatsiya qilishga o'rgatishda qirqimning turli usullarini egallash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarning tasavvuriga asoslangan holda tarbiyachi bolalar bilan naturani, uning qismlari, tuzilishini tahlil qilib, alohida qismlarga ajratib ko'rsatadi. Namunada, agar bolalar predmetni birinchi marta tasvirlayotgan bo'lishsa, foydalanish mumkin. Uni tahlil qilishni bolalarning o'ziga topshirish mumkin bo'ladi. Agar bolalar o'zlariga tanish predmetni bir necha detallari bilan tasvirlayotgan bo'lishsa, namuna o'rnini natura bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, oddiy uyni emas, afsonaviy uyni yoki bayramga bezatilgan uyni katta va tayyorlov guruhlarida bir necha namunalardan foydalanib, ko'rsatish tavsiya etiladi. Chunki bu narsa bolalarning ijodiy faolligini tarbiyalaydi. Bu guruhda bolalar qog'ozni ingichka buklab, simmetrik shakllar qirqishga o'rganadilar. Bu albatta, qiyin usul, shuning uchun I.A.Gusakova bolalarni bu usul bilan dastlab tanishtirishda qog'ozni buklab chizilgan kontur berishni tavsiya etadi. Bolalar bu usulni egallab olgach, ularni qunt bilan chamalab qirqishga o'rgatiladi. Katta guruhda jamoa bo'lib applikatsiyalar bajariladi. Masalan, «Akvariumdagi baliqlar», «O'tloqdag'i gullar», «Ko'chadagi uy va mashinalar» kabi. Har bir bola ishning qaysidir qismini bajaradi. Keyin har bir qism umumiy fonga birlashtiriladi. Tarbiyachi ishni bolalarning xohishiga qarab taqsimlaydi. Ba'zi jamoa ishlarini bajarishda bolalar 4–5 ta bo'lib, guruhchalarga birlashishadi.

**Tayyorlov guruhida applikatsiya qilishga o'rgatish.** Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli applikatsiyalarni berish ko'zda tutiladi. Ular ko'cha, akvarium kabi mavzularda, shuningdek, «Bo'g'irsoq» kabi ertaklarga illustratsiyalar bajarishlari mumkin.

Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar tuzishda ularga turli o'l-cham va rangdagi tayyor shakllar beriladi va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog'ozni qo'l bilan yirtish usulidan foydalanish davom etadi.

Tayyorlov guruh bolalari bilan dasturda mazmunli applikatsiyalarni bajarish ko'zda tutilgan. Ular «Ko'cha», «Akvarium» kabi

mavzularda, shuningdek, «Bo‘g‘irsoq» kabi ertaklarga illustratsiyalar bajarishlari mumkin. Tayyor shakllarni yopishtirish tayyorlov guruhida ham davom ettiriladi. Simmetrik shakllardan naqshlar tuzishda turli o‘lcham va rangdagi tayyor shakllar beriladi. Va bu guruhda ham katta guruhdagi kabi qog‘ozni qo‘l bilan yirtish usulidan foydalanishi davom ettiriladi. Ikkinchi kichik guruhda bolalarni appilikatsiya qilishga o‘rgatishga ish uchun beriladigan materiallar va mashg‘ulotni tashkil etish muhim ahamiyatga ega-dir. Materialning rangi bolalarning diqqatini o‘ziga tortib, ularni chalg‘itadi. Shuning uchun dastlab mashg‘ulotlarda material alohida paketlarda, tushuntirilib bo‘lgandan so‘ng tarqatiladi. Tarbiyachi mavzuni tushuntirib bo‘lgandan so‘ng material tarqatilib, bolalar materialni topshiriqqa mos ravishda qog‘oz varag‘iga terib chiqadilar. Tarbiyachi dastlab elementlarning yig‘ilganligini tekshiradi, shundan keyingina bolalarga yelim (kley) ishlatish uchun ruxsat beriladi. Bu guruhda tarbiyachi bolalar bilan naturani kuzatish namuna bilan birgalikda olib borilishi kerak. Namunani ko‘rayotgan jarayonda tarbiyachi shaklning rangini aniq atashi va barmog‘i bilan uni ko‘rsatib, shu shaklning xususiyatlarini bolaga aniq ko‘rsatib berishi lozim. Tarbiyachi tomonidan ishning bajarilishini ko‘rsatib berilishi bolalarda turli malaka va uquvning vujudga kelishida muhimdir. Shuningdek, tarbiyachi ish tartibini ham boshidan ko‘rsatib beradi. Qanday shaklni oldi, qanday qilib quyib, yelim surtdi va boshqalar. Tarbiyachi o‘zining har bir harakatini so‘z bilan birgalikda olib boradi.

Tayyorlov guruhida ishning dastur materialiga siluet qirqish usuli kiritiladi. Shuning uchun o‘rgatish usullarining xarakteri bir muncha o‘zgaradi. Naturani tahlil qilishda tarbiyachi barmoq harakati orqali ularning diqqatini predmetning konturiga tortadi. Bunda harakatni qirqish qaysi qismidan boshlanadigan bo‘lsa, o‘scha qismidan boshlash lozim. Bu guruhda bolalar endi predmet konturiga, qandaydir detal qirqishga o‘rganadilar, masalan, tipratikanni ignalari bilan. Albatta, bolalarga bu qiyin. Shuning uchun bu ishda ikki bosqichdan foydalaniladi. Oldin tayyorlangan qog‘ozdan umumiy kontur qirqiladi. So‘ngra uning detallari, masalan, oyog‘i yoki suzgichlari qirqiladi. Ba’zi vaqlarda siluet qirqish oldindan chizilgan kontur asosida qirqiladi. Bu narsa ko‘proq murakkab o‘simlik elementlaridan dekorativ shakllar tuzishda qo‘llaniladi. Bu guruh-

da qog'ozni ikkiga buklab, qirqishning murakkabroq usuli bilan tanshitiriladi. Masalan, archa, odam, hayvon shakllari. Yana bu guruhda qirqishning murakkab usuli – qog'ozni bir necha marta buklash orqali qirqishga o'rgatish usuli o'rgatiladi. Bu usul salfetka, qor parchalari hosil qilishda qo'llaniladi. Tarbiyachi bolalarga qog'ozni qanday buklash kerakligini, qirqish yo'llarini ko'rsatib beradi. Bu usuldan bolalar keyin dekorativ applikatsiya mashg'ulotlarida foydalanadilar. Bu guruhda hali mazmunli applikatsiya qilish davom ettiriladi. Bunda bolalarni shakllarni to'g'ri joylashtirib, yopish-tirishga o'rgatadilar. Oldin umumiy fon, keyin uzoqdan joylashgan, o'rtada va oldinda joylashgan predmetlar yopishtiriladi. Tayyorlov guruhida applikatsiya jamoa ishi sifatida berilishi mumkin. Masalan, «Egri va to'g'ri» ertagida bolalar to'rttadan bo'lib, har bir guruh shu ertakdan ma'lum bir ko'rinishni bajarishlari mumkin. Bolalar shu ko'rinish elementlarini qirqib, joylashtirib qurganlardan so'ng uni qanday ketma-ketlikda yopishtirish kerakligini aniqlaydilar. Biri yelim surtadi, ikkinchisi uni joylashtiradi, uchinchisi latta bilan mahkam yopishtiradi. Bu ish bolalarni o'rtoqlik, ja-moatchilik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Maktabgacha ta'lif muassasasining hamma guruhlarida ixtiyoriy applikatsiya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Lekin o'rta guruh bolalariga o'yagan mazmuniy elementlari asosida tayyor shakllar beriladi. Katta guruhlarda bolalar o'zları o'yagan mazmuniy elementlari asosida qirqadilar. 6–7 yoshdagagi bolalar oldindan qiladigan ishlari mazmunining eskizini oddiy qalam bilan chizib olishlari, keyin esa shu eskizning detallarini applikatsiya qilishlari mumkin.

## XI BOB. MAK TABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA BOLALARNI QURISH-YASASHGA O'RGATISH

Maktabgacha ta'lif muassasasida bolalar bilan qurilish materiallari yordamida o'yin va mashg'ulotlar o'tkazishning ahamiyati katta. Yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashda maktabgacha ta'lif muassasasida qurilish materiallari yordamida o'tkaziladigan o'yin va mashg'ulotlar katta o'rin egallaydi. Bolalarning qurilish o'yinlari rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Qurilish o'yinlarida ham bolalar tevuruk

atrofdagi narsalarni, kattalarning faoliyatlarini aks ettiradilar. Qurilish o'yinlarining mazmunini bolalarning o'zлari yaratadilar. Bolalar, ko'pincha, kattalarning qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, «Quruvchi ishchi» rolini bajaradilar. Bolalarning qurilish o'yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Ular o'z o'yinlarida qurilishlarni transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar. Bunday o'yinlar bolalarda tashabbuskorlikni uyg'otishga, ularni fikr yuritish va harakat faoliyatlarini faollashtirishga keng imkon yaratadi. Mashg'ulot va o'yin vaqtida bolalar bir-birlari bilan turlicha munosabatda bo'ladilar. Ular rollarni o'zaro bo'lishib oладilar, ishlarni bajarishda bir-birlariga yordam beradilar va maslahatlashadilar. Qurilish o'yinlarida harakat elementlari ko'p bo'lib, u bolalarning harakat qilishga nisbatan bo'lgan talablarini qondirishga yordam beradi. Bola biror narsani qura boshlaganda qurilish materiallarini tegishli joyga olib boradi, ularni stol yoki pol ustiga joylashtiradi, engashadi, bu vaqtida uning qo'llari faol harakat qiladi, ya'ni ma'lum miqdorda jismoni kuch sarflaydi. Mayda qurilish materiallari bilan o'ynaganda, qo'lning mayda muskululari yaxshi rivojlanadi. Qurilish o'yinlarini o'ynash natijasida bolalarning kuzatuvchanligi ortadi, texnikaga bo'lgan qiziqishlari o'sib boradi. Bundan tashqari, ular o'yin jarayonida oddiy geometrik shakllarning tuzilishi bilan ham tanishadilar. Qurilish o'yinlarining tarbiyaviy ta'siri shundaki, bunda bolalar aks ettiradigan hodisa va narsalarning g'oyaviy mazmuni o'z aksini topadi.

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda tafakkurning tahlil va sintez, taqqoslay bilish kabi uquvlar hali sust rivojlangan bo'ladi. Qurilish materialari yordamida o'tkaziladigan o'yinlar esa bolalarning tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o'stiradi. Tarbiyachining ko'rsatgan narsasini esda saqlab qolish va uni qayta esga solish bolalarni narsalarni bir-biriga solishtirishga, tahlil va sintez qilishga, o'xshashini topib qo'yishga va farqini ajrata bilishga majbur qiladi va qurilishdagi vazifalarni pala-partish bajarmaslikka, tasodifiy xulosa bilan qoniqib qolmay, balki maqsadga muvofiq yo'l tutishga o'rgatadi. Bolalar bilimini sistemali ravishda qurilish o'yinlari faqat tevarak-atrofni bilib olish vositasigina bo'lib qolmay, balki axloqiy sifatlarni tarbiyalovchi vosita hamdir. Bolalar doimo atrofsda qurilayotgan yangi turar joylarni, maktablar, bolalar bog'chalari, do'konlarni kuzatib boradilar va tarbiyachidan hukumatimizning

xalqlarga qilayotgan g‘amxo‘rligini eshitadilar. Bolalar bevosita kuzatayotgan qurilishdagi aniq misollar bolalarning o‘zbek xalqi o‘z mehnatini qanchalik sevishini tushunishlariga yordam beradi. Qurilish o‘yinlari orqali tarbiyachi bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, o‘z ishiga javobgarlik hissini tarbiyalab borishga harakat qiladi.

Bolalar jamoasini to‘g‘ri tashkil etishda qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega. Qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar bolalarni maktabga tayyorlash ishini amalga oshirishda ham yordam beradi. Bu o‘yin va mashg‘ulotlar jarayonida bolalarda diqqatni bir joyga to‘plash, oldiga qo‘yan maqsadga chidam va sabot bilan erishish, olgan bilimi va malakasi asosida ijodiy tashabbuskorlik ko‘rsatish xususiyatlari shakllanib boradi. Qurilish haqidagi asosiy bilimni bolalar qurish-yasash mashg‘ulotida egallaydilar. Ana shu mashg‘ulotlarda ular narsalarning elementar ko‘rinishlarini, qurilish detallaridan maqsadga muvofiq foydalana olishni o‘rganadilar va qurilishni badiiy jihatdan bezashning oddiy usullarini o‘zlashtirib oladilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi kichik bolalar qurish-yasashga bir necha bor urinadilar, ular faqat qurilish to‘plamlaridagi materiallarni yapaloq tomoni bilan qo‘yib, terib chiqadilar yoki bir-birining ustiga qo‘yadilar. Tarbiyachi bolalarni har xil narsalar qurishga o‘rgatgan bo‘lsa, kichik yoshdagi bolalarning qurilish o‘yinlarida u o‘z aksini topadi.

Qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yin va mashg‘ulotlar uchun zaruriy sharoitlar. Bolalar qurish texnikasini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun guruhlarda zarur shart-sharoitlarni yaratish lozim. Buning uchun, avvalo, guruhdha yetarli miqdorda qurilish materiallari bo‘lishi, ya’ni hamma bolalar bir vaqtida yoki hech bo‘Imaganda yarim guruh bolalar mashg‘ul bo‘la oladigan darajada material bo‘lishi zarur. Namunaga qarab qurish mashg‘ulotida ham bolalarni materialdan cheklab qo‘ymay, balki har kimga keragini taqsimlab berish lozim. Bolalar har doim zarur bo‘lgan materialni olib ishlata bilishni o‘rgansinlar. Bolalar qurish-yasash malakalarini endigina egallay boshlaganlarida, ya’ni ikkinchi kichik guruhdan boshlab qurish mashg‘ulotlarni o‘tishiga ruxsat beriladi. Mashg‘ulotlarda qurish-yasashga o‘rgatish uchun stol ustida o‘ynaladigan qurilish to‘plamidan foydalangan ma‘qul

Ko'pchilik bolalar bog'chasingining uchastkasida qurib o'ynash uchun yirik qurilish materiallaridan foydalaniadi. Bu materiallar bolalarni ko'pchilik bo'lib qurishga, o'ynashga o'rgatadi. Guruhdagi bolalarning hammasi qurish usullarini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun mashg'ulot vaqtida stollarni har xil joylashtirish mumkin. Qurilishni yakka-yakka bajarayotganda stollarni odatdagagi taribda yoki Π harfi shaklida terib qo'yish mumkin, agar bolalar bir qurilishni guruh bo'lib bajarsalar, 2–3 stolni birlashtirib, qator qilib qo'yish kerak. Mashg'ulot vaqtida bolalarga qurilishning eng zarur usullari ko'rsatiladi, shuning uchun mashg'ulot uzoq cho'zilmasligi (10–12 daqiqadan oshmasligi) kerak. Qurish-yasash mashg'ulotlarini o'quv yilining birinchi yarmida o'tkazish maqsadga muvofiqdir, ikkinchi yarmida esa o'yinlar bilan chegaralansa ham bo'ladi. Mashg'ulotning maqsadi qurish-yasashning hamma usullarini ko'rsatishdan iborat: qurilishni qurishda qurish-yasashning hamma usullari ko'rsatishni va harakat bilan tushuntirish, tayyor qurilgan namunani ko'rsatish va unga kirgan elementlarni tahlil qilish. Namuna sifatida qurilish materiallaridan nimalar yasash mumkinligini ko'rsatuvchi tayyor qurilishdan foydalinish. Bolalar bino, inshootni qurishni bilib olishlari uchun (baland poydevorning ustini qanday bekitish, bir detalni qanday qilib boshqasi bilan almashtirish, tekislikni qanday kengaytirish va shu kabilar) qurilishning ayrim detallarini ko'rsatish. Tarbiyachi tomonidan bajarilayotgan qurilishning ayrim qismini davom ettirishni bolalarga taklif qilish. Quriladigan obyekt haqida tushuncha berish, masalan, qurilishning hajmini (katta-kichikligini) aniqlash, bunda qurilishning o'ynichoqlarga mos bo'lishini aytish. Bolalarni o'zları ijod qilib qurishga o'rgatish uchun zarur sharoitlar va ashyolar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

## XI. 1. QURISH-YASASH VA UNING BOLALAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI

«Qurish-yasash» lotin tilidan olingan bo'lib, turli predmetlarni, qism va elementlarni ma'lum bir holatga keltirish, degan ma'noni bildiradi. Bolalarni qurish-yasashida qurilish materiallaridan, qog'ozdan, karton, daraxt va boshqa materiallardan turli xil o'ynichoqlar yasash o'rgatiladi. O'z xarakteriga ko'ra bolalar qurish-

yasashi ko'pincha tasviriy va o'yin faoliyati bilan o'xshashdir, bu tevarak-atrofda aks etadi. Bolalarning yasagan narsalari asosan amaliyotda ishlataladi. Masalan, o'yinlar, archani yasatish uchun, onalarga sovg'a uchun.

Qurish-yasash faoliyati – amaliy faoliyat bo'lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqelikdir. Qurish-yasash faoliyatiga o'rgatish jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi hamda ularda tevarak-atrofdagi predmetlarni tahlil qilish ko'nikmasi, mustaqil fikrlash, badiiy did, shaxsning irodaviy sifatlaridan (maqsadga intilish, qat'iylik va hokazo) tarkib topa boshlaydi, bularning barchasi bolalarni mакtabda o'qishga tayyorlaydi.

Qurish-yasash materiallarining turlari. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarga qurish-yasash faoliyatini o'rgatishda qurilish materiali, konstruktor, qog'ozdan, tabiatdagi, tashlandiq materiallardan va boshqalardan foydalilanildi. Materialning turi qurish-yasash turini aniqlab beradi.

Qurilish materiali mayda va yirik geometrik figuralardan (kub, silindr, prizma va hokazo) iborat. Mashg'ulotlarda qurilish materiallaridan, turli xil mayda to'plamlardan foydalilanildi. Masalan, M.P. Agapovning № 2, 3, 4, 5, 6, 7 mazmunli to'plamlar: «Kosmodrom», «Temir yo'l vokzali» va boshqalar. Mashg'ulot paytida materiallar ko'p bo'lishi kerak. Tarbiyachi qurilish materiallaridan qurish-yasash faoliyatini tashkil etayotgan odam, hayvon, o'simlik va transportni ifodalovchi mayda o'yinchoqlarni tanlashi maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tevarak-atrofdagi aniq narsalarni, ya'ni quyon uchun uy, mashinalar va yo'lovchilar uchun ko'priq yasaydilar. O'yinchoqlarni qurish-yasashda ishlatish katta ahamiyatga ega, o'yin faoliyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qurilish materiallari ma'lum bir javonlarda, tartib bilan saqlanadi.

**Konstruktorlar.** Katta maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulotdan tashqari konstruktorlardan (taxtali, plastmassa, metall va keramika) foydalananilar. Bu to'plamar orqali turli konstruksiyalar yasash mumkin. Tarbiyachi rahbarligida bolalar oddiy birlashtirish usulidan suratlar bo'yicha turli xil harakatli konstruksiyalar yasaydilar. Asosiy diqqat bolalarda ma'lum qismlarini birlashtirish

malakalarini shakkantirishga qaratiladi. Bunda bolalar qo'llarining muskullari ishtirok etadi, bu yoshda qo'l muskullari hali yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Tarbiyachi avval konstruktor yig'ishning metodik ko'rsatmalarini o'rganadi. Tarbiyachi rahbarligida qurilish materiali va konstruktorlar bolalarga ketma-ket beriladi.

Katta maktabgacha yoshdag'i bolalar mashg'ulotdan tashqari vaqtida turli xil konstruktorlardan: yog'ochli, platmassali va metalldan tayyorlangan konstruktorlardan foydalanadilar. Bolalar bu to'plamlar yordamida detallarning joylashtirilishi ancha murakkab bo'lgan qurilmalar yasaydilar. Tarbiyachi rahbarligi ostida bolalar yangi birlashtirish yo'llarini va turli xil xarakterdagi konstruksiyalarni rasmg'a, chizmaga qarab yaratishga o'rganadilar. Bu ishlarni bolalarga taklif etishdan oldin, tarbiyachining o'zi bu konstruktorlar, ularga berilgan metodik ko'rsatmalar bilan yaxshilab tanishib, o'rganib chiqishi zarur. Bolalarga qurilish materiallari va konstruktorlar to'plami hammasi bordaniga berilmaydi, balki astasekin, ketma-ket bolalarning o'zlashtirishlariga qarab beriladi.

Birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda qurish-yasashga o'rnatishning vazifalari.

**I kichik guruh.** Bolalarga qurilish materiali – kubik, g'ishtcha, turli xil shakldagi shakllar bilan, ularning qanday holatda joylashganligi (g'ishtcha yotibdi, turibdi) bilan tanishtiriladi. Bundan tashqari, kubiklarni gorizontal holda joylashtirish, bir-birining ustiga qo'yish, darvoza, uycha qurish kabilar ham o'rgatiladi. Tarbiyachi qurilmalar va tevarak olamdag'i tanish predmetlar o'rtasidagi o'xshashlikni topishni bolalardan so'raydi.

**II kichik guruh.** Bolalarga asosiy qurilish materiallarini (kubik, g'ishtcha, plastilin) farqlash bilan birga, ularni nomini aytish, katta, kichik, uzun, qisqa, baland, past kabi so'zlarning ma'nosini tushunib aytish, g'ishtchalarining orasini teng masofada joylashtirish kerakligi tushuntiriladi.

Birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda qurish-yasashga o'rnatishning mazmuni.

**I kichik guruh.** Bolalarga 8–10 qurilmalar qurish o'rgatiladi. Masalan, mebel (stol, stul, divan, krovat), zinapoya, ko'priq, uycha, tramvay. Birinchi mashg'ulotlarda bolalar oldingi guruhlarda yasalgan qurish-yasash ishlarini qaytaradilar, so'ng bolalar mebel quradilar. Avval bolalar alohida predmetlarni turli variantlarda,

so'ng 2–3 qurilmalarni birdaniga qurishni o'rganadilar (stol va stul, divan va hokazo). Keyingi mashg'ulotda bolalar katta uy quradilar, 3–4 kubiklardan, so'ng 6 kubik yoki g'ishtchadan zinapoya quradilar. Ishning keyingi bosqichi – ko'prik qurish, 2 kichik prizmadan ko'prik qurishadilar.

**II kichik guruhi.** Dastlabki mashg'ulotlar ikkinchi kichik guruhda g'ishtchalarni bir tekisda yo'lakcha qilib terib chiqish malakalarini rivojlantirish, mustahkamlashga qaratiladi. Bolalar qisqa yo'lka, keng yo'lkalar quradilar. Keyinchalik tramvay yo'li qurishni bolalardan talab qilish mumkin. Bu mashg'ulotlarning asosiy maqsadi – bolalarga g'ishtchalarni bir tekislikda joylashtirishga va uzun-qisqa, tor-keng kabi tushunchalarni o'rgatish. Keyingi mashg'ulotlarda bolalar g'ishtchalarni vertikal holda joylashtirishni o'rganadilar. Shundan keyin bolalarga tarbiyachi darvozani turli variantda yasashga o'rgatadi (g'ishtchalarda, kubik, plastilindan). Bularni bolalar ma'lum ketma-ketlikka asoslangan holda bajaradilar. Tor-keng, baland-past tushunchalari darvoza qurish jarayonida bolalarga tushuntirib boriladi: keng darvoza – yuk mashinasi uchun, tori esa – yengil mashina uchun, baland darvoza – katta qo'g'irchoq uchun, pasti esa – kichik qo'g'irchoq uchun mo'l-jallangan. Bolalarga bir necha mashg'ulot davomida sistemali ravishda uychaning yangi konstruksiyasi berib boriladi. Tarbiyachi har gal yangi konstruksiyani oldingi konstruksiya bilan solishtiradi, ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarini topadi. Bolalarda namunaga qarab uychani qurish malakasi hosil bo'lganligini tekshirish uchun, namunani o'zлari mustaqil tarzda qurib berishlarini tarbiyachi iltimos qiladi. Masalan, tarbiyachi boladan namunada qurilgan uychani, balandroq qilib qurib berishni so'raydi. Masalaning bu turi bolalarda aqliy faollikni yanada oshiradi.

Birinchi kichik guruhdagi tarbiyachi dastavval bolalarni qurilish materiallari – kub, g'isht bilan ularning shakli katta-kichikligi, tekis stol yuzasida turlicha joylashishi (ya'ni g'isht yotibdi, g'isht turibdi) va uning mustahkamligi, holatiga bog'liq ekanligi bilan tanishtirib boradi. G'ishtlarni ketma-ket gorizontal joylashtirib (poyezd, yo'lkacha) bir-biri ustiga qo'yish orqali oddiy to'siqlar (darvozalar, uylarni) qurishga o'rgatib boriladi. Tarbiyachi bolalarni o'z qurilmalari bilan hayotdagagi tanish predmetlar o'rtasidagi o'xshashlikni topishga, aniqlashga o'rgatib boradi.

Ikkinci kichik guruhda bolalarni faqatgina qurilish detallari (kub, g'isht, plastina)ni bilishga farq qilishga ularni to'g'ri atashga o'rgatib boriladi. Masalan, katta-kichik, uzun-qisqa, past-baland g'ishtlarni bir-biridan bir xil masofada doyra, to'g'ri to'rtburchak bo'ylab (panjara) ularni ensiz tomoni bilan qo'yib chiqishga o'rgatib boriladi.

Birinchi kichik guruhda bolalarni 8–10 oddiy bo'lgan qurilmalarni barpo etishga o'rgatiladi, (stol, stul, divan, krovat, minioracha, ko'prikcha, uycha, tramvay) kabilarni qurishga o'rgatiladi. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar oldingi guruhda bajarilgan qurilmalarni qaytadan quradilar, so'ng mebel qurishga o'rganadilar. Oldin bu predmetlar alohida turli xil variantlarda quriladi, so'ng bolalarga birato'lasiga 2–3 ta qurilmalarni qurish taklif etiladi (stol, stullar, stol va divanlar) bu qurilmalar bilan bolalar o'yin o'ynashlari uchun bolalarga turli xil qo'g'irchoqlar, idishlar beriladi. Keyingi mashg'ulotlarda bolalar uycha, qurishlar uchun 3–4 kubikdan bir-birining ustiga qo'yish, 3 yoqli prizma bilan us-tini qoplash orqali quradilar. So'ng kubikdan yoki g'ishtdan yuqoriga taxlash orqali narvoncha quradilar. Bolalar bu qurilmalarni qurish yo'llarini o'zlashtirib olishgach, ular tarbiyachining so'zi orqali qurilmalarni qurishga 2 ta kubikdan plastinalar va ikki kichik uch yoqli prizma yordamida ko'prik qurishni o'rganadilar. Tarbiyachi bolalarni bog'cha uchastkasida va guruh hovlisida mashg'ulot jarayonida o'rgangan qurilmalarni qurib, ular bilan o'yinlar o'ynashga qiziqish uyg'otishi kerak. Ikkinci kichik guruhda dastlab birinchi kichik guruhda olgan bilim va malakalari mustahkamlanadi. Bolalar keng va tor yo'lkachalarini, g'ishtlarni qatorasiga tekislikda joylashtirish orqali quradilar. Keyinchalik tramvay uchun har bir bola kalta yo'lkachani, hammasi bir bo'lib, tramvay yo'lini quradilar. Bu mashg'ulotlardan maqsad bolalar ni g'ishtchalarni tartibli qilib bir-biriga ulashga yoki birlashtirishga, ularning fazoviy belgilarini to'g'ri atashga, uzun qisqa, keng-torligini o'rganadilar. Keyingi 2–3 ta mashg'ulotlarda bolalar g'ishtlarni bir-biriga zinch yoki ma'lum bir oraliqda vertikal joylashtirishga o'rganadilar. Bunda g'ishtlarni uzunasiga yoki ensiz, qisqa tomoni bilan joylashtirishni o'rganadilar. Masalan, shu maqsadda bolalar o'z hayvonlaridan o'rdakcha, kuchukcha uchun panjaralar quradilar. Keyingi mashg'ulotlarda bolalar dar-

vozalarning turli variantlari bilan tanishadilar. Bularni kub va plastinalardan quradilar. Tarbiyachi bolalarning keng va tor haqidagi tushunchalarni egallashlari uchun, ularga yuk mashinasi uchun keng darvoza, yengil mashina uchun tor darvozalar qurishni taklif etadi. Bitta qurilma detallarini o'zgartirish orqali uning qurilish yo'llarini o'zgartirish mumkinligini bolalalarga tushuntirish maqsadida tarbiyachi bir nechta mashg'ulotlar uyushtiradi. Har bir mashg'ulotda qat'iy sistema asosida yangi qurish konstruksiyasi bilan tanishtiriladi va uni eski konstruksiya bilan solishtirib, ular orasidagi farq aniqlashtiriladi. Bolalar tarbiyachining namunasiga qarab qurishni o'zlashtirib olishgach, tarbiyachi bolalar oldiga xuddi shunday uycha, ammo balandroq yoki uzunroq qilib qurishni taklif etishi mumkin. Avvalo, tarbiyachi shu konstruksiyani saqlab qolib, faqatgina uni uzunroq yoki balandroq qilib qurish yo'llarini oldindan tushuntirib beradi. Bu esa bolalarda aqliy faollikning o'sishiga olib keladi.

Birinchi va ikkinchi kichik guruhda bolalarni qurishga o'rgatishda kublar, g'ishtlar, plastina va uch yoqli prizmalar to'plamidan iborat qurilish materiali M.A. Agapova muallifligidagi, shuningdek, № 3–4 bo'lgan qurilish to'plamlaridan foydalanadilar. Yil davomida tarbiyachi birinchi kichik guruhda to'rtta-oltitadan bo'lib, mashg'ulotlarni uyushtiradi. Asta-sekin guruhchalar soni ko'paytiriladi, yilning ikkinchi yarmidan boshlab, butun guruh bolalari bilan o'tkaziladi. Kichik guruh bolalarini qurishga o'rgatishda turlichay metodlardan foydalaniladi. Asosiy o'rinni informatsion-retseptiv va reproduktiv metod egallaydi. Bolalar niman qurish va qanday qurish kerakligi bilan tanishtiriladi. Shu maqsadda tarbiyachining qurish namunasidan qurish yo'llarini ko'rsatish va to'g'ri tushuntirish jarayoni bilan birgalikda foydalanildi. Bolalarni u yoki bu qurilmani qurishga o'rgatishdan oldin, tarbiyachi bolalarni o'sha predmet, uning qismlari bilan, ularning amaliy belgilari bilan tanishtirib boriladi. Masalan, tarbiyachi sayr vaqtida bolalar bilan arg'imchoqni kuzatadi, u ikki qismdan iborat: birinchi qism zinapoya, ya'ni bolalarning tepasiga chiqishlari uchun, ikkinchi qismi esa, tushishi uchun sirg'aluvchi qismi. Bunday maqsad sari ko'rib chiqishlar, uyuştirishlar yordamida bolalar bu narsalarni o'z qurilmalarida ijobiy hal qilishlariga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni qurishga o'rgatishda o'z namunalari

ni ko'rib, tahlil qilib chiqadi. Oldin namuna yaxshilab ko'rib chiqiladi, butun bir holda, so'ng esa ularni qismma-qism ko'rib chiqiladi. Masalan, uycha devorlari, to'siqlari va tomi. So'ng ularning shakllari va bir-biriga nisbatan joylashishlari ko'rib chiqiladi. So'ng har bir qismning qaysi detallardan qurilganliklari ko'rib chiqiladi. Masalan, uychaning tomi, qatorma-qator qo'yilgan prizmalardan iborat va hokazo. Namunani bunday tartibda ko'rib chiqish, qurilmani bunday bunyod etishda ketma-ketlikka rioya qilishga yordam berib, bolalar uchun ham qurish-yasash jarayonini ancha osonlashtiradi. Tarbiyachi bolalarni qurish-yasashning texnik usullariga o'rgatishda, bolalarning o'zлari mustaqil ravishda harakat qilishlari uchun qurish-yasashning xilma-xil variantlaridan va uni qurishning turli yo'llaridan foydalanishga o'rgatib boriladi. Bu vaqtida tarbiyachi reproduktiv va evristik metodlardan birgalikda foydalanadi yoki qo'llaydi. Har bir mashg'ulot oxirida tarbiyachi bolalarni o'zi qurgan ishlari yoki qurilmalari bilan o'yin o'ynashlari uchun ikki-uch daqiqa ajratib beriladi bu esa bolalarda o'yin jarayoniga nisbatan qiziqishni uyg'otadi, unda foydalanadigan o'yinchoqlar esa bolalarni qurish-yasashga chalg'itmay, balki qurish-yasashiga nisbatan qiziqish, havas paydo qiladi. Tarbiyachi bolalarga qurilish materiallari detallari nomini faqatgina mashg'ulotlarda emas, balki mashg'ulottan keyin ularni yig'ib qo'yish jarayonida ham tushuntirishni amalga oshiradi. Masalan, qurilmalarni yig'ib-terganda, oldin kublar, so'ng plastinkalarni va bolalar qurish-yasash jarayonida she'r, qo'shiqlardan, ertaklar mazmunidan («Uch ayiq» ertagida) mebel qurishda foydalanish bolalar qurilish ishlarining yana ham qiziqarli bo'lishiga olib keladi. Shuningdek, qurish-yasash jarayonida ba'zi bolalarga savollarni amaliy harakat orqali berish mumkin. Agarda ko'ngilli bolalar vazifani bajarishga qiynalsalar yoki bilmasalar, unda tarbiyachi qaytatdan tushuntirib beradi. Bolalar ishlarini tahlil qilishda faqatgina bolalar ishlarining toza va to'g'riliги ko'rsatib o'tilmay, balki barcha jarayon, ya'ni namunani qanday ko'rib chiqishligi, material qanday tanlanganligi ayrim harakatlar qanday bajarilganligi haqida tarbiyachi gapirib o'tadi. Har bir mashg'ulottan so'ng tarbiyachi bolalarga qurilmani joy-joyiga qanday taxlashni, qanday ish qo'yishni tizimli ravishda ko'rsatib beradi. Qurish-yasashning oddiy qurilmalarini yasashda bolalar texnik malakalarga ega bo'ladilar.

Yilning boshida ikkinchi kichik guruuhda o'tilgan mavzularni takrorlovchi mashg'ulotlar o'tkaziladi. Masalan, darvoza qurish (keng-tor, baland), mebel, o'yinchoqlarning kattaligiga qarab, garaj qurish. Tarbiyachi garaj qurib ko'rsatishdan avval bolalarغا mashinaning katta-kichikligiga e'tibor berishni iltimos qiladi. Yuk mashinasi uchun katta garaj, yengil mashina uchun kichik garaj qurish kerak. Keyingi mashg'ulotlarda bolalar tarbiyachining ko'rsatmasi va namunasi asosida ko'prik, trolleybus, tramvay, avtobus, yuk mashinasini qura boshlaydilar. Shunda bolalar silindr bilan, undan qurilmada qanday foydalanish kerakligi bilan tanishadilar. Har bir qurilmani o'rganish uchun bir nechta mashg'ulotlar o'tkaziladi. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalar namuna bo'yicha, keyingilarida esa mustaqil qurishni o'rganadilar. Masalan, bolalar namuna bo'yicha ko'prik qurishni o'rganib bo'lganlardidan so'ng, ularga mustaqil tarzda baland, keng ko'prik qurish taklif etiladi. Bunda bolalar o'zлari qurilish materiali tanlab, ko'prikning konstruksiyasini o'ylab topadilar. Har bir mavzu, konstruksiya borgan sari murakkablashib boradi. Har bir mashg'ulot tarbiyachi rahbarligida olib boriladi, ba'zi bir variantlarni bolalar o'zлari mustaqil bajaradilar, shu orqali bolalarda mustaqil fikrlash malakasi rivojlanadi. Yilning ikkinchi yarmida bolalar o'zi o'ylagan, istagan narsalarini yasashlari mumkin. Bundan maqsad – hosil bo'lgan malakalarini mustahkamlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'yagan narsalarini ijodlarida qo'llashga o'rgatish.

Birinchi va ikkinchi kichik guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning metod va usullari. Birinchi va ikkinchi kichik guruhlar da kubiklar, g'ishtchalar, plastilin, prizmalardan foydalaniladi. Yil boshida 1 kichik guruuhda tarbiyachi 4–6 tadan iborat bolalar guruhi tashkil qiladi. Sekin-asta guruhlar soni ko'payib boradi, yilning 2-yarmida esa mashg'ulotlar butun guruuh bilan birgalikda olib boriladi. Kichik guruuhda qurish-yasashga o'rgatishda tarbiyachi turli metodlardan foydalanadi. Asosiy metodlar informatsion-retseptiv va reproduktiv metodlardir. Bolalarga nimani qanday yasash kerakligi tushuntiriladi, tarbiyachi bolalarga namuna ko'rsatib, to'la tushuncha beradi. O'rgatishdan avval tarbiyachi tashvirlanadigan predmetning yaxlit o'zini, uning qismlarini bolalarga to'laligicha ko'rsatib tushuntiriladi. Bolalar predmetni kuzatishlari asosida o'z qurilmalarini quradilar. Masalan, tarbiyachi sayi vaqt

da bolalarga avval zinapoyadan tepalikka ko'tarilib, so'ng sirpanib tushish kerakligini aytadi. Mashg'ulotning boshida namuna yaxlitligicha ko'rsatiladi. So'ng namunaning qismlari, uning shakli qanday joylashganligi tushuntiriladi (uyning devori, tomonlari, tomi va hokazo). Tarbiyachining bunday tushuntirishi bolalar ishini ancha osonlashtiradi. Bolalar olgan bilimlari asosida o'z qurilmalarning mustaqil tarzda yasay olishlari kerak. Shuning uchun biror bir qurilmani turli xil variantlarda ko'rib ko'rsatish lozim. Har bir mashg'ulot yakunida tarbiyachi bolalarga bu qurilma bilan qanday o'ynash mumkinligini ko'rsatadi (2–3 daq.). Bu paytda bolalarda o'yin faoliyatiga qiziqish uyg'onadi. Bu o'yin faoliyati bolalarni qurish-yasash jarayonidan chalg'itadi, lekin kichik guruhsda bundan tez-tez foydalaniladi. O'yinchoq bolalarni qurishga undaydi. Bolalarga qurilish materiallarning qismlari nomini yaxshi o'zlashtirish uchun tarbiyachi mashg'ulotdan keyin materiallarni stolga birmabir qo'yib, ularni nomini aytadi.

Didaktik o'yinlar orqali ham bolalarga tushuncha berib boriladi. Qurish-yasash faoliyatini yanada qiziqarli o'tishi uchun tarbiyachi bolalar bilan ishlaganda ertak parchalari, topishmoq, she'rlardan keng foydalanish lozim. Bu tarbiyachining mahoratiga bog'liq. Tarbiyachi qurish-yasash jarayonida bolalarning ishlarini to'g'ri bajarishtilarini, materialdan to'g'ri foydalanishlarini kuzatib boradi. Agar tarbiyachi bolalarning biron bir xatosini ko'rsa, u paytda qaytadan tushuntirib, ko'rsatib berishi mumkin. Bolalarning ish faoliyatini tahlil qilganda tarbiyachi faqtgina natijalarnigina emas, balki bolalar namunani qanday kuzatganliklari, materialni tanlab, ishni qanday bajara olishlarini ham hisobga oladi. Mashg'ulot yakunida pedagog bolalarga qurilish materiallarini yig'ib, joyiga joylashni ham ko'rsatib beradi.

O'rta guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning vazifalari. O'rta guruhsda bolalarga tanish bo'lgan qismlarni (kubik, g'ishtcha, plastilin) nomlash bilan birga, ularni bir-biridan farqlashga ham o'rgatiladi. Bolalar qurilmalarni mustaqil tahlil qilishni o'rganadilar; uning asosiy qismlarini ajratish, katta-kichikligi, tuzilishini farqlash, narsalarning qanday joylashganligini o'rganadilar. Bolalar kichik guruhsda tarbiyachining namunasi asosida ko'rgan bo'lsalar, o'rta guruhda esa mavzuning nomlanishiga qarab, o'zları o'ylaganlari bo'yicha quradilar. Shuning uchun bolalar diqqa-

ti qurilmani oldindan rejalahtirib, unga kerakli bo'lgan shakllarni tanlashga qaratiladi. O'rta guruhda qurish-yasash predmetlarini farqlash, ularning xususiyati bilan tanishish, shu xususiyatiga asoslanib, predmetlarni guruhlarga ajratishni o'rganadilar. Qurilmalarni qurish ishning ketma-ketligini rejalahtirishga bolalarni oldindan detallarning shakliga, katta-kichikligiga va mustahkamli-giga qarab tanlashga o'rgatilib boriladi. Bularni qurish jarayonida bolalar silindr nomini to'g'ri aytishga, undan o'z o'rnida to'g'ri foydalanishga o'rganadilar. Bolalarning har bir konstruksiyani o'zlashtirib olishlari uchun bir necha mashg'ulot o'tkaziladi. Birinchisida, bolalar namunaga qarab qurishga o'rganadilar, keyingi mashg'ulotlarda esa, bu namunani o'zları mustaqil hal qilishga, ya'ni konstruktiv masalani hal qilishga o'rganadilar. Masalan, bolalar namuna asosida ko'proq qurishni (ko'prikning tayanch qismi, ko'prik qurilmalarini va mashinalar uchun plastik qism, ya'ni tushuvchi qismni bilib olishgach, uni qurish uchun qanday detallardan foydalanish kerakligini) o'rganib olishgach, bolalarga shu usulda ko'prik, ammo baland yoki keng ko'prik qurish tavsiya etiladi. Keyinchalik bolalar o'zlarida bor bo'lgan qurilish materiallaridan keng foydalanib, o'zları yangi ko'prik konstruksiyasini o'ylab topadilar. Tarbiyachining rahbarligida bolalar bitta konstruksiyani bir necha murakkablashgan ko'rinishlarda qurishga o'rganadilar. Bu esa bolalarda qurishning turli yo'llari haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi. Yilning ikkinchi yarmidan boshlab bolalarga yuqoridagi vazifalar dan tashqari, bolalarga o'z ixtiyorlari bo'yicha qurish-yasashlar beriladi. Bu ixtiyoriy qurish mashg'ulotlari davomida bolalar qurish bo'yicha o'lgan bilim malakalari rivojlanadi, mustaqillik va tashabbuskorliklari o'sadi. O'z maqsadlarini va qurish-yasash ishlarida amalga oshirish uquvlari shakllanadi. Mashg'ulotlarni uyuşhtirganda, turli-tuman mayda o'yinchoqlardan (odamlar, hayvonlar, o'simliklar, transport) foydalanadilar. Bu esa bolalar qurilish o'yinlarini yanada boyitadi, uni maqsad sari yo'naltiradi va o'yin faoliyatlarining yanada rivojlanishiga olib keladi. Qurilish materiallari alohida-alohida bo'lakchalarga yoki bo'limlarga ajratilgan javonlarda saqlanishi mumkin. Har bir qurilish materialining turi tuzilishiga, ya'ni shakliga qarab, bir-biridan alohida-alohida saqlanadi, chunki bolalar o'zlariga kerak qurilish materiallarini tez

va oson ajratib oladilar va har bir shaklni tezroq o'zlashtirib olish-lariga yordam beradi.

Yilning ikkinchi yarmidan «Shaharcha» mazmunli to'plamdan foydalaniladi, bu to'plam prizma, kubik va daraxt siluetlaridan iborat.

O'rta guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning metod va usullari. O'rta guruhda, asosan, informatsion-retseptiv metoddan foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarga yangi bilim berayotganda, bolalarga illustratsiyani ko'rsatib, uning asosiy qismlarini ajratib tushuntiradi. Namunani kuzatish paytida tarbiyachi bolalarga ular o'rtasidagi farq, o'xshashlikni tushuntirib beradi. Bolalarni tahlil qilishga jalg qilish lozim, qurilma nimadan iborat, uning qismlari qaysi detallardan iboratligi so'raladi. Tarbiyachi, agar bolalar xato qilsa, to'g'rilaydi, qiyalsa, yo'llanma beradi. Tarbiyachi bolalarga ko'prik konstruksiyasini o'ylab topish vazifasini berayotganda, bolalar bilan qisqa suhbat o'tkazadi: ko'prikning asosiy qismlari nimadan iboratligi eslatib o'tiladi. Mavjud materialdan qurilma uchun kerakli bo'lgan detallarni tanlab olish taklif etiladi. Qurish-yasash mashg'ulotida bolalarga tanish bo'lgan materiallar stol ustiga qo'yiladi, uning yoniga turli xil mayda o'yinchoqlar: qo'g'irchoq, hayvon, transport terib qo'yiladi. Mashg'ulotning boshida tarbiyachi bolalarning nima yasamoqchi ekanliklarini, kim uchun, qanday materialdan foydalanishlarini bilib oladi. Buning uchun bolalar kerakli materialni tanlab olib, keyin qurishni boshlashlari lozim. Tarbiyachi bolalar ishini kuzatib, ularga yordam beradi, rag'batlantiradi. Bolalarning o'zları o'ylab topgan qurilmalari tahlil qilinadi. Bolalarni qurish-yasashga o'rgatishda tarbiyachi har bir bolaga berilgan vazifani mustaqil bajarishga imkoniyat yaratadi.

Katta guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning vazifalari. Katta guruhda predmetni tahlil qilish, ularning xarakterli belgilarini solishtirishga o'rgatib boriladi. Bu guruhda o'rgatish faoliyatining oddiy elementlari katta ahamiyatga ega, ya'ni vazifani tushuniши, ularni mustaqil bajarishi kabi. Bolalarga so'zlab berish orqali qurish-yasashga o'rgatiladi. Tarbiyachi bolalarga o'z so'zları orqali mavzuni rasm, illustratsiyalar orqali tushuntirib beradi. Asosiy diqqat bolalarni o'z o'yaganlari bo'yicha ishlashga qaratiladi. Bolalarda qurilmalarni mustahkam qurish, g'ishtchalardan ustuncha qurish kabi yangi malakalar shakllanadi. Jamoa qurilmalarini qu-

rishni (hayvonot bog'i, ko'cha, bolalar bog'chasi) bolalar bir-birlari bilan birga bajaradi.

Yuqoridagi malakalarni bolalar turli qurilmalarni yasashda egallab boradilar. Ba'zi qismlarni almashtirib yasash uchun turli mavzular tanlanadi: uylar, transport, ko'pri. Bu paytda tarbiyachi mavzuni nomlashni bolalarga aytadi. Shundan so'ng tarbiyachi tayyor qurilmani bolalarga ko'rsatib, xuddi shunday bajarishlari kerakligini talab qiladi. Bunday mashg'ulotlarda bolalar bor bo'lgan materiallar-dan mustaqil ravishda konstruktiv vazifalarni bajarishni o'rganadilar. Bolalarda oldindan, quriladigan materialni mo'ljallash malakasini shakllantirish, devorchalar qurish-yasash mashg'ulotlarini o'tkazish mumkin. Dastlabki mashg'ulotlarda bolalarga oddiy vazifa, ya'ni devorni namuna orqali qurish vazifasi beriladi. Tarbiyachi ustunchalarni qurish, so'ng g'ishtchalarni to'g'ri joylashtirishni ko'rsatadi. Keyingi mashg'ulotda esa bolalar 2 ta uy quradilar. Bu vazifa namunasiz bajariladi. Vazifaning shu tariqa berilishi va uni asta-sekin murakkablashtirib borish bolalarni keyingi bo'ladigan faoliyatga tayyorlab boradi. «Tepalik qurish» mashg'ulotlarida bolalar avval tarbiyachining namunasini ko'rib, tepalikning balandligini belgilab oladilar. Shundan so'ng bu tepalikdan koptokchani dumalatib ko'radir. Tarbiyachi bolalarga tepalikning baland, pastligiga ko'ra, koptokchalarni tez va sekin dumalatishni tushuntirib beradi. Bolalarga baland tepalik va past tepalik qurish topshirig'i beriladi. Bu mashg'ulotda bolalar koptokchani tez yoki sekin dumalatish tepalikning baland-pastligiga bog'liqligini aniqlaydilar, ya'ni baland tepalikdan koptok tez dumalaydi, past tepalikdan esa sekin dumalaydi. Bunday mashg'ulotlar bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi.

**Katta guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning metod va usullari.** Katta guruhlarda M.P. Agapovaning qurilish materiallaridan, o'yinchoqlar institutida ishlab chiqilgan № 2, 5, 6 to'plamlaridan foydalanish mumkin. O'rgatishning asosiy metodlari – informatsion-retseptiv, tekshirish evristik metodlar. Bolalar namuna orqali tasvirlaydilar, tarbiyachi tushuntiradi, sayrda maqsadga qaratilgan kuzatishlar olib borishadi. Tarbiyachi bu metodlar yordamida bolalarda mustaqillikni rivojlantiradi. So'zlashuv usuli ham bolalarda faollik, mustaqillikni o'stiradi. Tarbiyachi mavzu nomini aytib namunani ko'rsatadi (kema).

Bolalar modelni kuzatib topshiriqni bajaradilar. Tarbiyachi esa oldindan bir qancha detallarni to'playdi va ularni bolalar oldiga qo'yadi. Topshiriqni bajarayotganda tarbiyachi bolalarga savollar berib, bolalarni mustaqil faoliyatga undaydi. Tarbiyachi bolalarga gapirib berishni o'rgatgandagina ular o'zları o'yaganları bo'yicha qurilmalarni qurishlari mumkin. Qurilmalarni tahlil qilayotganda shuni ko'rsatib o'tish kerakki, bir predmetni turlicha qilib qurish mumkin.

**Maktabga tayyorlov guruhlarda qurish-yasashga o'rgatishning vazifalari.** Tayyorlov guruhiida bolalarga predmetning umumiy va individual xususiyatlarini ajratishga o'rgatiladi. Bolalar narsalar qismalarining proporsiyasini, simmetriyasini aniq chandalashga, narsalar ni chiroyli bezashni o'rganadilar. Bu yoshdag'i bolalar oldindan ko'rmoqchi bo'lgan narsalarini tasavvur qilib, uning qanday tuzilishi ni gapirib bera olishlari kerak, buning uchun qanday materialni tanlab, ishni qanday bajarishni bilishlari lozim. Tarbiyachi bolalarga kompleks narsalarni jamoa bo'lib qurishni, guruhi bilan qurishni o'rgatib boradi. Bolalar bundan tashqari, mavzuni aniqlab, kerakli materiallar tanlash, bir-birlari bilan maslahatlashib, birga fikrlab qurishni o'rganadilar. Tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari berilgan topshiriq bo'yicha, rasmlar orqali murakkab bo'lgan turli narsalar ni yasaydilar. Qurish-yasash jarayonida predmetlar shakli orasida bog'liqlikni o'rganish, ularning qo'llanilishi, alohida qismlarning katta-kichikligi, konstruksiyasini bolalar egallab boradilar.

Tayyorlov guruhiida bolalarning transport turlari bilan, binalar bilan tanishishlari katta ahamiyatga ega. Tarbiyachi mashg'ulot o'tishdan avval bolalarni transportning turlari bilan tanishtiradi. Bundan tashqari, bolalar kemalarni turlari bilan ham tanishadilar: katta va kichik, yuk, harbiy, passajir kemalari. Tarbiyachi kemalarning turlarini solishtirib, bolalarga tushuntiradi: tez yurar kemalar uzun, ingichga asosga ega, yuk kemasi — keng asosli, passajir kemasi harbiy kemaga qaraganda keng bo'ladi. Birinchi mashg'ulotda bolalar harbiy kema, keyingisida passajir kemasini yasaydilar. Shu sxema asosida «shahar transporti» mavzusida mashg'ulot o'tkaziladi. Kuzatish paytida bolalarning shahar transportining turli-tumanligi haqida tasavvuri rivojlanadi. Tarbiyachi transportning har bir turing nima uchun qo'llanilishi ta'kidlab o'tadi. Keyinchalik bolalar da predmetning qo'llanishiga ko'ra konstruksiyasini ajratish, kons-

truksiyani va predmetning alohida qismlari katta-kichikligini aniqlash malakasi shakllanadi. Bu vazifani ko‘prik qurish jarayonida qo‘llash mumkin. Bolalar bir nechta konstruksiya bilan tanishadilar va quyidagi fikrga keladilar: qurilmalarning o‘lchami, ularning qo‘llanilishi bo‘yicha aniqlanadi. Kemalar qatnaydigan keng va chuoq daryoga baland va keng ko‘prik quriladi. Ko‘prikning tepe qismida transport va yo‘lovchilar uchun yo‘laklar quriladi. Birinchi mashg‘ulotda tarbiyachi bolalarga yo‘lovchilar uchun va transport uchun ko‘prik qurishni taklif qiladi. Ikkinchi mashg‘ulotda bolalar ham yo‘lovchi, ham transport uchun umumiy ko‘prik quradilar. Uchinchi mashg‘ulotda esa bolalarni o‘zлari mustaqil konstruksiya o‘ylab, uni nima uchun qo‘llanilishini tushuntirib beradilar. Tayyorlov guruhida bolalarda turli binolar haqida tushuncha bo‘ladi: ko‘p qavatli bino, teatr, vokzal, ertak-uchchalar. Pedagog asosan bolalar diqqatini fazoviy joylashtirish, qurilmalarini fazoviy joylashtirishga qaratadi. «Ko‘cha, shahar maydonlarini qurish» mavzusini o‘tishdan avval pedagog bolalarni shahar bo‘ylab ekskursiyaga olib boradi va bolalar diqqatini shaharning qurilishi va estetik tuzilishiga qaratadi. Mashg‘ulotda bolalarni guruhchalarga bo‘lib, har bir guruhga biror bir maydon, ko‘chalar qurish topshiriladi. Bolalar turli binolarni qurayotganlarida, ularda predmetning asosiy qismlarini va tanish bo‘lgan geometrik shakllarni ajratish malakasi shakllanib boradi. Kinoteatrga ekskursiyadan so‘ng bolalar tomoshabinlar zali, foyega kirish qismi kub, prizma, yarimdoira shakliga ega ekanligini ko‘radilar va o‘zлari kinoteatr qurbanlarida shu narsalarga e’tibor beradilar. Tarbiyachi tomoshabinlar zali va foyening qurilish usulini ko‘rsatib beradi. Bolalar jamoa bo‘lib, turli mavzularda narsalar quradilar (ko‘chalar, temir yo‘llar, vokzal, hayvonot bog‘lari, kinoteatrlar va hokazo).

**Maktabga tayyorlov guruhlarda qurish-yasashga o‘rgatishning metod va usullari.** Tayyorlov guruh bolalari asosan qurish-yasashning quyidagi usulidan foydalanadilar, ya’ni tarbiyachining topshirigi bo‘yicha bola o‘z tasavvuriga tayangan holda rasm, foto-rasmardan foydalanadi. Ko‘pgina qurilma mavzusi beriladi. Katta guruhga qaraganda bu guruhga beriladigan shartlar murakkabdir. Namunalar, ko‘pincha rasm, foto-rasm bo‘lib, bu rasinda bolalarning ishlamayotgan qurilish materialidan qurilgan qurilmaları aks etgan bo‘ladi. Ba’zida tarbiyachining o‘zi yasagan narsani namu-

na sifatida ko'rsatish mumkin. Lekin bu usul bu yoshdagi bolalarga to'g'ri kelmaydi. Tarbiyachi topshiriqni tushuntirayotganda qurish-yasashning yangi usulini qisman ko'rsatib o'tadi. Tayyorlov guruhidagi ekskursiya va suhbatlar bolalarni qurish-yasash obyektlari haqida tasavvur qilishlariga yordam beradi. Har bir sayohat bolalarning keyingi mashg'ulotga tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Shahar bo'ylab ekskursiyada tarbiyachi asosiy diqqatni maydon, ko'chalarining tuzilishiga, binolarning chiroyli qurilganligiga qaratadi. Tarbiyachi bolalar bilan biror bir maydonning fazoviy joylashishini, binolarni tahlil qiladi. Mashg'ulotda esa topshiriqni tushuntirib, bolalar bilimini faollashtiradi. Mashg'ulotning boshida o'tkaziladigan suhbatlar bolalar bilimini faollashtiradi. Ko'priq qurayotganida tarbiyachi bolalarga eslatib o'tadi: ko'priklar har xil bo'ladi. Yo'lovchilar uchun va transport uchun ko'priklar. Mashg'ulotning boshida, kinoteatr qurishda tarbiyachi suhbat o'tkazib, binoning asosiy qismi tomoshabinlar zali, foyeni ajratadi, uning asosiy shakli, fazoviy joylashishini aniqlaydi. Agar boshqa mashg'ulot bo'lsa, tarbiyachi bolalardan o'ylagan qurilmalari, uning nima uchun qo'llanishi, tanlangan materiallar haqida gapirib berishni talab qiladi.

## XI. 2. QOG'oz VA TABIAT MATERIALLARIDAN QURISH-YASASH

Maktabgacha ta'lif muassasasida turli xil o'yinchoqlarni yasash uchun qog'ozdan, tabiat materiallaridan keng foydalaniladi. Bolalarga qog'ozning turli xil turlari beriladi: vatman, karton, yupqa va turli qog'ozlar.

Tarbiyachi bolalar bilan birga tabiiy materiallarni tayyorlab, bir yil ichida ularni g'amlaydi. Yozda somon, manzarali daraxt mevalari, yong'oqlar teradilar. Mevalar urug'i yaxshilab yuvilib, quritiladi, bunday urug'lar maxsus qutilarda saqlanadi. Bu xildagi qo'llanmalarni yasash uchun: qog'oz, karton, plastilin, sim, gugurt cho'pi, yelim, qaychi kabi materiallardan ham foydalaniladi.

Qog'oz, tabiatdagi tashlandiq, materiallar. Bu materiallardan bolalar bog'chasida turli-tuman o'yinchoqlar yasash jarayonida foydalaniladi. Bu jarayon faqatgina foydali bo'lib qolmay, balki qiziqarli hamda bolalar tomonidan sevib bajariladigan jarayon-

dir. Bolalar xilma-xil turlardagi qog'ozlar bilan ishlaydilar. Xilma-xil tabiat materiallari, manzarali daraxt mevalari, shox-shabbalar va boshqalarni tarbiyachi bolalar bilan birgalikda oldindan tayyorlab boradi. Masalan, urug'lar, danaklar yaxshilab yuvilib, quritilib yig'iladi. Jolud va kashtanlarni daraxtdan to'kilishi bilan terib oladilar. Klen va yasen daraxting urug'i esa qishda yig'iladi. Har bir tabiat materialining turi alohida qutichalarda saqlanadi. Shuningdek, ulardan o'yinchoqlar yasashda, yordamchi materialllar, qog'oz, karton, plastilin, simlar, kley va mehnat qurollaridan: qaychi, bigiz, igna va boshqalar qo'llaniladi.

O'rta guruhda tabiiy material va qog'ozdan qurish-yasashga o'rgatishning vazifalari. Bolalarni yangi qurilish materiali — qog'oz bilan, uning xususiyati bilan tanishtiriladi. O'rta guruh tarbiyalanuvchilari tabiat materiali bo'lgan — shox, barg, ildiz, turli yong'oqlar, ularning po'stlaridan narsa yasashga o'rgatib boriladi. Tarbiyachi bolalarga turli tabiiy materiallar borligi va undan turli xil narsalar yasashda foydalaniishi yoritib beriladi. Bolalarda umumiyo ko'nikma va malakalar shakllanib boradi, ya'ni predmetlarni tekshirish, ketma-ketlikka asoslanib ishslash, boshlagan ishni oxirigacha bajarish hamda qo'llarni aniq harakatlantirish va hokazolar.

Dastlabki mashg'ulotda tarbiyachi bolalarga bir necha predmetlarni, qog'ozdan yasalgan o'yinchoqlarni ko'rsatib, uni buklab, yopishtirish orqali archani yasatish uchun o'yinchoq va sovg'alar uchun turli xil qiziqarli o'yinchoqlar yasash mumkinligi haqida gapirib beradi. Birinchi mashg'ulotdayoq bolalar tarbiyachining ko'rsatmasi va tushuntirishi asosida qog'ozni teng ikkiiga buklashni o'rganadilar. Keyingi mashg'ulotlarda archa uchun o'yinchoq, sovg'a yasalgan paytlarda bu ko'nikma mustahkamnadi. Mashg'ulotlarda uycha, avtobus, yuk mashinasini yasatganlarida bolalar tayyor elementlardan o'yinchoq yasash, asosiy qismiga alohida detallarni yopishtirishni ham o'rganadilar. Masalan, uychaga — eshik, deraza; avtobusga — oyna, g'ildirak yopishtiradilar. Topshiriqning bunday turini bajarish faqat texnik malakalar ni shakllantirib qolmay, balki bolalarning aqliy faoliyatini, mustaqil ishini ham rivojlantiradi. O'yinchoqni yasashdan avval bolalar qaysi qismni bir-biri bilan birlashtirishni, qaysi qismni yopishtirish kerakligini o'ylaydi. Yoz paytida bolalar tabiiy materiallardan

foydalana boshlaydilar. Avvalo, tarbiyachi bolalarni shu material bilan oldindan yasalgan sodda qurilmalar bilan tanishtirib, alohi-da predmetlarni, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik, undan qanday foy-dalanish kerakligini tushuntiradi. Tabiiy material, qog‘ozdan qu-rish-yasash mashg‘uloti bilan qurilish materialidan qurish-yasash mashg‘uloti almashinib turadi.

**O‘rta guruhda tabiiy material va qog‘ozdan qurish-yasashga o‘rgatishning metod va usullari.** O‘rgatishning asosiy usuli – namunani ko‘rsatish va tushuntirishdir. Tushuntirish qisqa va aniq bo‘lishi kerak. Tarbiyachining aniq, tushunarli qilib tushuntirishi uchun bolalar vazifani to‘liq bajarishlari lozim. Qog‘ozdan uycha yasash davomida, tarbiyachi bolalarga tayyor uychani ko‘rsatadi (ikkiga buklangan qalin qog‘oz, ustida esa mo‘rili tom) va u ni-madan qilinganini so‘raydi (qog‘ozdan – uy, rangli qog‘ozdan esa tomi, chiqizlardan mo‘ri, deraza, eshiklar va hokazo). Oldingi tajribalarga tayangan holda, tarbiyachi bolalar bilan birga uychani ketma-ketlik asosida qurishni davom ettiradi. Qachonki bolalarga murakkab konstruksiya berilsa, ularning tajribalarini hisobga ol-gan holda, tarbiyachi bajarish usulini to‘laligicha ko‘rsatib, tush-untirib beradi. Agar yasaladigan narsa sodda bo‘lsa, bolalar o‘zlarì mustaqil bajarishlari mumkin, lekin tarbiyachi namunani bolalarga ko‘rsatadi. Masalan, yozuv kitobchalari yasash mashg‘ulotida tarbiyachi bolalarga bir necha xil applikatsiya bilan bezatilgan yozuv kitobchalarini namoyish qiladi va bolalarga mustaqil bajarib, so‘ng uni bezashni topshiradi. Yilning oxirida bolalarda qog‘oz bilan ish-lash tajribasi ortganligi uchun tarbiyachi bolaning xohishi bo‘yicha qurish-yasash mashg‘uloti o‘tkazadi. Tarbiyachi bu mashg‘ulotdan 1–2 kun oldin qog‘ozdan yasalgan narsalardan ko‘rgazma qilib, bo-lalarga ularning qanday yasalganligini eslatib qo‘yadi. Mashg‘ulot davomida tarbiyachi bolalar ishiga rahbarlik qilib, tekshirib boradi. Tayyor bo‘lgan narsalarni tahlil qilganda, tarbiyachi asosiy e’tiborni to‘g‘ri va ozoda bajarilgan ishlarga qaratadi. Tabiiy materialdan narsa yasashga o‘rgatish yilning oxirida boshlanadi. Ma-salan, yong‘oq po‘stidan tipratikan yasashga o‘rgatishdan oldin tarbiyachi bolalarga tipratikanning o‘zini ko‘rsatadi. Yoki uning ras-minni ko‘rsatadi, uni tanasi igna bilan qoplanganligini, oyoqlari kal-taligini tushuntiradi. Keyin mashg‘ulotda tayyor o‘yinchoq bilan rostakam, tirik tipratikanni solishtiradi, so‘ng uni qanday yasashni

birma-bir ko'rsatadi. Uning tanasi yong'oq po'stidan, ignalari, yuzi plastilindan yasaladi. Avval yong'oq ustiga plastilin surtiladi, yuz tuzilishi va ignalarni yasaydi. Mashg'ulot davomida tarbiyachi bolalarga maslahat berib, yordamlashadi. Bolalarning barcha yasagan narsalari ma'lum bir maqsad uchun ishlataladi. Albomlar – rasm uchun, yuk mashinasi, uychalar – o'yinlar uchun. Shunda bolalarda qiziqish uyg'onadi, shuning uchun narsalarni qiziqib, chiroyli, toza bajaradilar. Qurish-yasash uchun kerak bo'lgan materialni tayyorlash tarbiyachidan ko'p vaqt ni talab etadi.

Bolalarda qurilish materiallari bilan turli xil predmetlarning turlicha timsollarini yaratish kabi ijodiy faoliyatini shakllantirish amalga oshiriladi.

**Katta guruhsda tabiiy material va qog'ozdan qurish-yasashga o'rgatishning vazifalari.** Bolalarga qog'ozni teng buklash, to'rt buklash, buklangan joyni tekislash malakalari o'rgatib boriladi. Qog'ozni 16 kvadratlarga buklash, burchak va tomonlarni aniq joylashtirish, doirani diametri bo'ylab buklash va konus hosil qilib yopishtirish o'rgatiladi. Masalan, qog'oz silindrni birlashtirib, turli, murakkab bo'lmagan kompozitsiyalarni yasaydilar. Yana bolalar gugurt qutisini bir-biriga yopishtirib, narsalar yasashi ham o'rganadilar. Tabiiy materiallardan archa shishkasi, gulning urug'lari, o'tlar, yong'oqdan turli narsalar yasab, ularni yelim, gugurt bilan birlashtirishni, ulardan to'g'ri foydalanish kabi malakalarni egallab boradilar. Bolalar o'z faoliyatlarini rejalashtirish va uni mustaqil bajarishni ham o'rganadilar.

Dastlabki mashg'ulotlarda o'tgan materiallar takrorlanadi, natijada bolalarda qog'ozni teng buklash, tomonlarini qo'l bilan tekislash malakasi yanada mustahkamlanadi. Bolalar bu amallarni qanday bajarishni esga oladilar. Birinchi mashg'ulotda qog'ozdan savatcha yasaydilar. Tayyor namunani kuzatib bo'lgach, tarbiyachi kvadrat qog'ozni qanday buklab qirqish, qanday yopishtirishni ko'rsatadi. Savatchaning bandini qanday yopishtirishni esa bolalar o'zlar o'ylab topadilar. Ikkinci mashg'ulotda esa kvadratni diagonal bo'yicha buklashni o'rganadilar. Bunda kvadrat qog'ozni 16 kvadratga buklash ko'rsatilmaydi. Tarbiyachi tushuntirayotganda ikki tomoni qirqilgan, buklangan tayyor kvadratdan foydalaniladi. Bolalar oldingi mashg'ulotdan olgan bilimlarini uycha qurishda qo'llaydilar, o'zlar qirqib yopishtiradilar. Mashg'ulotning boshi

da namunani kuzatayotganda tarbiyachi ishni qanday bajarishni bolalarga o'rgatadi va yordam beradi. Qog'ozdan narsa yasashni ma'lum bir vaqtdan so'ng qaytarish mumkin, lekin bolalar o'zlarini mustaqil bajaradilar (masalan, ochiq quticha). Tayyor shakllaridan biror bir narsani yopishtirish orqali yasashni bolalar asta-sekin o'rganadilar. Birinchi mashg'ulotda tarbiyachi gugurt qutisidan qanday qilib avtobus yasashni ko'rsatadi: qutini qanday qilib bir-biriga yopishtirish, g'ildiraklarni qanday qilib birlashtirish va hokazo. Bolalar topshiriqni ko'rsatish va tushuntirish asosida bajaradilar. Ikkinci mashg'ulotda tarbiyachi bolalardan avtobusni qanday yasaganlarini eslatib, so'ng tayyor yasalgan mebelning bir necha namunasini bolalarga namoyish qiladi. Bu qurilmalarni bolalar kuzatib bo'lgach, uni qanday qilib bir-biriga yopishtirilganligini va boshqalarni ko'radilar. Qurishlari kerak bo'lgan predmet uchun kerakli materiallar tanlaydilar. Bu mashg'ulotlarda hosil bo'lgan malakalarni tarbiyachi bolalarni o'ylaganlari bo'yicha narsa qurish mashg'ulotlarida mustahkamlaydilar. Bunda bolalar o'zlarini qaysi materialdan nima yasashlarini, qanday qilib yasashlarini mustaqil hal qiladilar. Lekin keyingi mashg'ulotlarda mavzu ancha murakkablashadi, ya'ni quticha, karton, qog'ozdan yuk mashina, kema yasash va hokazo. Bu paytda tarbiyachi yana bolalar bilan birgalikda ish olib boradi, ya'ni o'zi ko'rsatib, tushuntirib beradi. Ish faoliyatining bunday olib borilishi bolalarning keyingi ijodiy faoliyatida katta ahamiyatga ega. Bolalarga doirani diametri bo'ylab buklash, konusni yopishtirish, kontur bo'ylab qirqishdan avval, tarbiyachi parashut, uzun ko'ylik kiygan matryoshka, o'yinga tu-shayotgan matryoshkani yasashni o'rgatadi. Shunday qilib, topshiriq murakkablashib boradi: bolalar tayyor yarim doiradan qir-qishni o'rganadilar. Bu jarayonni tarbiyachi tushuntiradi, qolganini esa bolalar bajaradi. Yil oxirida bolalar o'z bilimlarini tekshiradilar. Kvadratni diagonal bo'ylab buklash tomonlarni, burchaklarni to'g'ri birlashtirish, qayiq, o'yinchoqlar yasashni mashg'ulotlarda o'rganadilar. Mashg'ulotlarda bolalar tayyor murakkab bo'lmagan andoza bo'yicha ishlashni ham o'rganadilar. Shunday qilib, bolalar silindrni turli konstruksiyalarga birlashtirishni egallaydilar. Ularda fikrlesh, ijodiyot, fantaziya rivojlanib boradi. Boshqa materiallardan narsa yasashga o'rgatishdan oldin tarbiyachi materialning xususiyati bilan tanishtiradi, bolalarga shu materialni ushlab, uning qan-

day ekanligini so‘raydi, parolon – yumshoq, yengil, uni ezsa, yana o‘z holatiga qayta oladi. Parolondan bolalar qorbobo, nayzangul, quyoncha, jo‘ja va hokazolar yasaydilar. Narsa yashashni tushuntirayotganda tarbiyachi asosiy diqqatni alohida predmetlarni qanday birlashtirishga qaratadi, mashg‘ulot davomida eslatib o‘tadi. Yangi yil bayramida bolalar archa o‘yinchoqlari yasaydilar: qog‘ozni qat-qat qilib (gormoshka) buklab undan (turli) simmetrik shakllar qirqadilar. Bolalar o‘z o‘ylaganlari bo‘yicha qog‘oz, karton, boshqa materialdan narsa yasayotganida avval olgan bilimlarini ishlarida qo‘llaydilar.

**Katta guruhda tabiiy material va qog‘ozdan qurish-yasashga o‘rgatishning metod va usullari.** Bolalarga qog‘oz va boshqa materialdan narsa yashashni o‘rgatishda tarbiyachi narsalarni ketma-ket ko‘rsatish, tayyor namunani kuzatish, bolalar bilimini tekshirish uchun savollar berish, bajarish usulini ko‘rsatishdan keng foydalanadi. Metodni tanlash va uni amalda qo‘llash o‘rgatishning vazifasiga bog‘liq. Silindr dan narsa yasashda tarbiyachi silindrni qanday yashashni tushuntirmaydi, chunki bu shakl bolalarga tanish. Bu o‘yinchoq qanday qismlardan qilingan? Chiziqchani qanday qilib silindrga aylantirish mumkin? kabi savollar beriladi. Bunday savollar bolalarga ish faoliyatining qanday borishini eslatadi, qismlarni bir-ma-bir birlashtirish kerakligini tushuntiradi. Boshqa mashg‘ulotda tarbiyachi tayyor namunani kuzatib bo‘lgach, kvadrat qog‘ozni ikkiga buklash, doirani teng ikkiga buklashni taklif etadi. Bolalar kema hosil qilish uchun, nima qilish kerakligini aytib beradilar. Agar ular javob berishda qiyalsalar yoki noto‘g‘ri javob bersalar, tarbiyachi to‘g‘rilab aytib beradi. Bolalar diqqatini yangi yasaladigan narsaga qaratish uchun tarbiyachi mashg‘ulotga 1–2 kun qolganda qo‘l ishlari burchagida namunalar ko‘rgazmasini tashkil qiladi. Masalan, kichik kompozitsiyalar tashkil qiladi, silindr dan 2 xil figura – tulki va quyon, 2 ayiqcha yoki turli o‘yinchoqlarni namoyish qiladi. Tarbiyachi bu o‘yinchoqlarni ko‘rsatmay turib, bolalar diqqatini ularni bir-biriga qanday birlashtirilganligiga qaratadi. Mashg‘ulotda tarbiyachi ba‘zan yangi usulni individual tarzda ko‘rsatib beradi. Bolalar parolondan doiracha hosil qilishni o‘rganganlaridan so‘ng tarbiyachi hamma bolalarga doirachani sim bilan birlashtirishni ko‘rsatadi. Bolalar o‘z ishlarini bajarayotganlarida tarbiyachi qiy algan bolalarga yordam beradi. Tarbiyachi mashg‘ulot paytida bo

lalarga avvaldan bu o‘yinchoqlar, narsalarni nima uchun yasashlarini, nima uchun kerakligini uqtiriladi (o‘yin uchun, kichkintoylarga sovg‘a uchun, archani bezatish uchun va hokazo). Qurishyasash mashg‘ulotlarini tarbiyachi turli qurilish materiallardan foydalanilgan holda olib borishi lozim.

**Tayyorlov guruhida tabiiy material va qog‘ozdan qurish-yasashga o‘rgatishning vazifalari.** Mashg‘ulotda bolalar qog‘oz bilan ishlash ko‘nikma va malakasini egallab boradilar: qog‘ozni turlicha buklash, diagonal bo‘ylab bo‘lish, tayyor andazani buklash shablon bo‘yicha detallarni qirqish va hokazo. Tayyorlov guruhida bolalar turli narsalar yasaydilar. Karton yordamida o‘yinchoqlar tayyorlanadi (petrushka balalayka bilan, qo‘lini qimirlatayotgan quyon...). Korobkadan, karton va qog‘ozdan avtomashina, yuk krani, traktor, uy qurish mumkin. Qog‘oz, karton, tabiiy materialdan (ildiz, tayyoqcha va boshqalar) suvda o‘ynaladigan o‘yinchoqlar (kemacha, barja) qurish mumkin. Tarbiyachi bu o‘yinchoqlarning nima uchun qo‘llanilishini bolalarga o‘rgatadi. Tabiiy materiallardan narsa yasash mashg‘ulotida tarbiyachi bolalarga shox-shabba, shisha, urug‘lardan foydalanib, bu figuralarning alohida qismlarini turli usulda birlashtirishni (yelim, sim, gugurt cho‘pi, plastilin bilan) o‘rgatadi. Bolalar turli shakllarni odam, hayvonlarni, qush, baliq, kapalaklarni, archaning urug‘i, yong‘oq po‘stdan, o‘z o‘ylaganlari asosida, tarbiyachining topshirig‘i bo‘yicha yasaydilar. Bolalarga yana shoxlar, ildizlardan tanish bo‘lgan ertak qahramonlariga o‘xshashlarini topish ham o‘rgatib boriladi. Bu faoliyat orqali bolalarda fantaziya, tasavvurlari rivojlanib boradi.

Qog‘ozni chizilgan chiziq bo‘ylab buklash, andaza bo‘yicha ishslash malakasi mebel yasash mashg‘ulotida shakllanib, mustahkamlanadi. Namunani kuzatgach, bolalar undan nima yasash mumkinligini aniqlaydilar. Bir stol atrofida o‘tirgan bolalar, ishni bo‘lib olib (bir bola, divan, boshqasi kreslo va hokazo). Stol stulning oyoqlarini balandligini aniqlaydi. Xuddi shu mavzu bo‘yicha yana bir mashg‘ulot o‘tkaziladi, bunda bolalar o‘zlari andaza qilib, uni to‘g‘ri buklab turli mebellar yasaydilar. Bundan tashqari, ular chizg‘ich bilan chiziq chizish, uzunlik, enini o‘lchashni ham o‘rganadi. Tarbiyachi faqat chizg‘ich bilan qanday ishslashni ko‘rsatib beradi, qolgan qismini bolalar mustaqil bajaradilar. Mashg‘ulot boshlanishidan oldin bolalar bir-birlari bilan nima

yasashlarini gaplashib oladilar va kerakli materiallarni o‘z stollari-  
ga joylaydilar. Bunday mashg‘ulotlar bolalarni qo‘l muskullarini  
rivojlantirib qolmay, balki ularni xotira, fikrlash, ijodlarini ish-  
dan oldin rejalashtirish qobiliyatlarini ham o‘stiradi. Aytaylik,  
yangi yil bayramiga bolalar mashg‘ulotda archa o‘yinchoqlarini  
yasaydilar. Bolalar namunani o‘zlarini tanlab, materiallarni tayy-  
orlab, mustaqil bajaradilar. Bu mashg‘ulotda bolalar applika-  
tsiya mashg‘ulotida olgan bilimlarini qo‘llaydilar: qog‘ozni ko‘p  
buklab, bir xil tipli figuralarni qirqadilar. Tayyorlov guruhda tar-  
biyachi bolalarni oldingi guruhlarda olgan bilimlarini, malakalarini  
mustahkamlaydi. Bolalar o‘z o‘ylaganlari bo‘yicha mavzu tan-  
lab, kerakli materiallarni tanlab, ishni nimadan boshlash, uning  
qismlarini qanday birlashtirishni mustaqil bajara oladilar. Tarbiya-  
chingning yordami bilan bolalar avtomashina, kartondan harakat-  
lanuvchi o‘yinchoqlar (quyon, matryoshka, ayiq va hokazo)ni  
asosiy qismiga mayda qismlarni ip bilan birlashtiradilar. Tarbiyachi  
yangi materialni tushuntirayotganda uning qismlarini birlashtiri-  
shga bolalar diqqatini qaratadi, mavzuga ikki mashg‘ulot ajrat-  
tiladi. Birinchisida bolalar quyoncha va ayiqni qirqadilar, boshqa  
mashg‘ulotda hayvonlarni, qo‘g‘irchoqlarni qirqadilar. Tabiiy ma-  
terialdan narsa yasash mashg‘uloti ko‘pincha yozda va kuzda olib  
boriladi. Mashg‘ulotga bir necha kun qolganda tarbiyachi mav-  
zu nomini aytib, mavzuga oid materiallarni yig‘ishni iltimos qila-  
di. Mashg‘ulot davomida bolalar qanday qilib qismlarni bir-biriga  
birlashtirayotganliklarini kuzatib boriladi. Bir stol atrosida o‘tirgan  
bolalar birga fikrlashib, kompozitsiya tashkil qiladilar. Tarbiyachi  
bolalarga qarag‘ayning ochilmagan shishka — urug‘idan kapalak,  
baliqchalar yasashni o‘rgatadi. Bolalar olgan bilim, malakalarini  
boshqa mashg‘ulotlarda qo‘llaydilar.

**Tayyorlov guruhida tabiiy material va qog‘ozdan qurish-yasash-  
ga o‘rgatishning metod va usullari.** Tayyorlov guruhida bolalar  
katta texnik malakalarni talab qiluvchi ancha murakkab konstruk-  
siyalarni o‘zlashtirib beradilar. Shuning uchun tarbiyachi narsalar  
yasashni, uning bajarilish usullarini aniq tushuntirib, ko‘rsatish us-  
lubidan tez-tez foydalanadi. Tarbiyachi balkonli uyni qurish mav-  
zusida avval ko‘p qavatli, balkonli uy konstruksiyasini tayyor hol-  
da ko‘rsatadi, so‘ng ishni o‘zi ko‘rsatib, uyning qanday yasalishi-  
ni qog‘ozni buklab, balkonlarini yasash uchun qirqib, uni tomi-

ni qanday joylashishini ko'rsatib beradi. Agar mashg'ulotda bolalar tanishish usulini qo'llasalar, tarbiyachi faqat namunani kuzatish va qisman ko'rsatish bilan cheklanadi xolos yoki bolalar bilimini faollashtiruvchi savollar berishi mumkin. Archa o'yinchog'ini yasash mashg'ulotida tarbiyachi bolalarga namunani ko'rsatgach, uni qanday qirqishni bolalardan so'raydi. Ular bunga javob beradilar, so'ng o'zлari mustaqil bajaradilar. Agar yasa layotgan narsa, masalan, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ko'p vaqt ni olsa, bolalar qiyalsalar, tarbiyachi mashg'ulotni ikkiga bo'lishi mumkin. Birinchi mashg'ulotda tarbiyachi kartondan yasalgan o'yinchoqlarni ko'rsatib, bugungi teatr o'yiniga ham xuddi shunday o'yinchoqlar yasashligini aytib o'tadi. Lekin bu o'yinchoqni chizib berish lozim, so'ng bolalar hayvonchani o'ylab topib, chizib bo'yaydilar. Ikkinci mashg'ulotda bolalar tarbiyachining tus-huntirishi va ko'rsatmasi asosida o'yinchoq yasaydilar. O'yinchoq yasash mashg'uloti avvaldan tayyorlikni talab qiladi. Tarbiyachi bu ishga bolalarni jalb qiladi. Ular material tayyorlashga yordamlashadilar: qog'oz qirqadilar, shakli bo'yicha joylashtiradilar, qog'ozni oldidan (mebelning oyog'i uchun) truba qilib yopishtiradilar. Bolalar o'z o'ylaganlari bo'yicha mashg'ulotning yaxshi o'tishi avvaldan ko'rildan tayyorgarlikka bog'lik: bolalar materiallarni yasaydigan predmetlarini qanchalik tez topsalar, nima yasashlarini oldindan bilsalar, mashg'ulot shunchalik qiziqarli bo'ladi. Tarbiyachi mashg'ulot uchun bolalar bilan turli o'lcham, turli shakldagi daraxt, gul, butalarning urug'larini, shox, makkajo'xorining doni, beresta, moh va boshqa ko'pgina tabiiy materiallarni yig'adilar. Bolalar oldindan o'yagan narsalari uchun materiallar yig'adilar: yirik urug' – tanasi uchun, mayda urug' – boshi uchun, turli shoxlar – qo'l, oyoq, panjalar uchun. Tarbiyachi bolalarga yig'gan materialidan narsalar yasashni o'rgatadi, ya'ni bolalar diqqatini shu materiallar hayvonlarning figuralariga o'xshab ketishiga (yugurayotgan kiyik, tuyaqush, odamlar va hokazo) qaratadi. Bu narsalarni yasashda tarbiyachi ham ishtirot etishi mumkin. Bolalar tayyor figuralarni taglikka o'rnatayotganlarida tarbiyachi taglikni mix bilan teshib beradi yoki kapalaklarning qanotlarini shishkaga joylashtirib beradi. Bu barcha yasalgan narsalardan ko'rgazma uyuştiliriladi. 8-mart bayramiga, ota-onalar majlisiga bag'ishlanadi. Bu ko'rgazmalar bolalar ishining yanada yaxshi bo'lishiga yor-

dam beradi va bolałarda javobgarlik hissini, estetik didlarini yana-da o'stiradi.

## XII BOB.

### MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG'ULOTLARINI REJALASHTIRISH VA HISOBGA OЛИSH

Maktabgacha ta'lif muassasasida tasviriy faoliyat bo'yicha ishlarni rejalashtirishda asosiy prinsip, bu tasviriy faoliyatni ta'lif-tarbiyaviy ishning eng muhim bo'limlaridan biri sifatida qarash hisoblanadi. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni ma'lum bir vaqtga rejalashtirishda, shu davrda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha amalga oshiriladigan ta'lif-tarbiyaviy ishlarni ham nazarda tutmoq lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirishda, albatta tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni ham hisobga olmoq zarurdir. Tasviriy faoliyatning har bir turi o'ziga xos vazifalarni hal etadi, ammo qanday bo'lsa-da, ularni bir yo'nalish, maqsad bo'yicha (tevarak-atrof, hayotning xilma-xil, o'ziga xos ko'rinishlardagi tasviri) birlashadilar. Tasviriy faoliyat turlari – rasm chizish, loy bilan ishlash, applikatsiya o'ziga xos tasviriy texnikaga egadir. Tasviriy faoliyat bo'yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi, albatta har bir turdag'i mashg'ulotlar soniga qat'iy rioya qilishi lozim. Tasviriy faoliyat bo'yicha mashg'ulotlarni rejalashtirish, yuqoridagilardan tashqari, mashg'ulot qanday materiallar bilan o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'lishini ham tarbiyachi nazarda tutmog'i lozim. Masalan, loy bilan ishlashda – loy yoki plastilin, rasm chizishda – guash, rangli qalam, ko'mir tayoqchasi va hokazo. Shuningdek, tarbiyachi mashg'ulotning dastur mazmunini tanlashda, bolalarga qanday predmetlarni chizdirish haqida emas, balki shu predmetni chizdirish yoki loydan yasattirish orqali qanday bilim va ko'nikma berish yoki o'rgatish haqida ko'proq o'yashi lozim. Ixtiyoriy mashg'ulotlarni rejalashtirishda esa tarbiyachi bolalarning mustaqilligini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlan-tirishga yordam beruvchi o'rgatish usullari to'g'risida o'yab olishi kerakdir. Tarbiyachi ishlarni rejalashtirishda u yoki bu guruh bo'yicha dastur qo'ygan vazifalarning barchasini e'tiborda

tutgan holda ish rejasini tuzadi. Shuningdek, tasviriy faoliyatlarini bo'yicha bir oyga mo'ljallangan istiqlol reja tuzish ham maqsadiga muvosfiqdir. Bunda tarbiyachi tasviriy faoliyat mashg'ulotlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni ham nazarda tutadi. Shunday qilgan taqdirdagina, bolalar ma'lum bilim, malaka va ko'nigmaga ega bo'lishlari mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, tasviriy faoliyat turlari o'rtasidagi o'zaro bog'lanish natijasida tevarak-atrofni badiiy jihatdan o'zlashtirishlarning yangi-yangi yo'llari vujudga keladi va bolalar tevarak-atrofni obrazli qilib tasvirlashning turli xil usullari bilan tanishadilar. Demak, tasviriy faoliyat turlari o'rtasidagi o'zaro aloqa ishlarni rejalashtirishda katta ahamiyatga ega ekan. Bu o'zaro bog'lanish qaysilar ekan?

1. Tasviriy faoliyatga ta'lim-tarbiya ishining muhim bo'lagi, deb qarash hamda rasm chizish, loy bilan ishslash, applikatsiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda dasturning barcha bo'limlari o'rtasidagi o'zaro aloqa, bog'lanishni doimo diqqat-e'tiborda tutish lozim. Ya'ni tevarak-atrof bilan tanishtirish, musiqa mashg'ulotlari va hokazo. Bular tasviriy faoliyat uchun qiziqarli hodisalar va voqealarni tanlashga yordam beradi.

2. Tasviriy faoliyatning barcha turlari tevarak-atrof, hayotni obrazlarda tasvirlaydi, ammo har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini hisobga olmoq zarur. Ya'ni rasm chizish – predmet va voqealarni rangda tekis yuzada tasvirlaydi, loy hajmlarda, applikatsiya – rangda, siluet ravishda. Shuningdek, har biri o'ziga xos tasvir texnikasiga ega: rasm chizish chiziqli grafik ravishda, rang-tasvir usulida, loy plastik ravishda, applikatsiya – qog'ozdan qir-qish va alohida qismlardan tuzish.

3. Dasturda tasviriy faoliyat turlari oldiga qo'yilgan vazifalardan biri ularning o'zaro aloqada ekanligidir. Masalan, bolalar rang bilan rasm chizish bilan bir vaqtida, applikatsiya bilan ham tanishib boradilar.

4. Tasviriy faoliyati turlari o'rtasidagi bog'lanish tarbiyachi-ga rasm chizish, loy, applikatsiya bo'yicha vazifalarni aniqlashga yordam beradi. Masalan, kichik guruhga doiraviy shakllarni o'rgatishda, oldin tayyor doira shakllarini applikatsiyada bergen ma'qul, so'ng esa rasm chizish mashg'ulotlarida bergen ma'qul.

5. Tasviriy faoliyat turlari o'rtasidagi bog'lanish ma'lum bir mavzudagi mashg'uflotlar asosida ham bo'lishi mumkin. Masalan,

rus xalq ertagi «Bo‘g‘irsoq»ni bolalar ham chizishi, ham applikatsiya, ham loydan yasashi mumkin. Bu turdag'i takrorlanish bolalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini pasaytirmaydi, chunki har bir faoliyat turi jarayonida bolalar ertak qahramonlarining xilma-xil tasvirining yangi usul va yo‘llari bilan tanishadilar.

6. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirishda, mashg‘ulotlar o‘rtasida ularning dastur vazifalari, mavzular o‘rtasida bog‘lanish vujudga keladiki, buning natijasida bolalarning yangi malaka va ko‘nikmalarini va bilimlarni egallashlarida ma’lum ketma-ketlik va bog‘lanish vujudga keladi. Masalan, «Qushlar» mavzusi asosida olib borilgan mashg‘ulotlar jarayonida bolalar don cho‘qiyotgan qushni loydan yasashni, shoxda o‘tirgan qushni rasmini chizishni, afsonaviy qushni qanday qilib qog‘ozdan qirqib olishni bilib oladilar.

7. Shuningdek, tasviriy faoliyatni bo‘yicha ishni rejalashtirishda faqatgina ularning turlari o‘rtasidagi ketma-ketlikni nazarda tutmay, balki har bir turdag'i mashg‘ulotlar o‘rtasida ham bog‘lanish o‘rnatish va ularni diqqatda tutish lozim. Masalan, predmetli rasm chizish loy ishlaridan keyin mazmunli ishlarni rejalashtirish lozim.

Tasviriy faoliyat bo‘yicha ishni rejalashtirishda tarbiyachi bolalar bilan ishslashda foydalanadigan metod va usullariga ham ahamiyat bermog‘imiz lozim. Bular ko‘rsatmali va og‘zaki metod hisoblanadi. Ko‘rsatmali va og‘zaki metod o‘zaro birgalikda olib borilishi lozim. Demak, tarbiyachi tasviriy faoliyat bo‘yicha ishlarni rejalashtirishga juda katta ahamiyat bermog‘i lozim ekan. Tarbiyachi ishni rejalashtirishga qanday ahamiyat bergen bo‘lsa, ishni hisobga olishga ham shunday e’tibor bermog‘i lozim bo‘ladi. Chunki bu narsa – tarbiyachiga tasviriy faoliyatga o‘rgatish bo‘yicha dastur vazifalari talablari qanday bajarilganligini aniqlashga va mashg‘ulotlarning sifatli chiqishi uchun qanday tayyorgarlik ishlarini ko‘proq olib borish lozimligi hamda o‘rgatishlarning yangi xilma-xil metod va usullari ustida ko‘proq ishslash lozimligini aniqlab olishga va keyinchalik ulardan bolalar bilan ishslashda foydalanish uchun yangi-yangi imkoniyat yaratib beradi. Tasviriy faoliyat bo‘yicha bolalar ishini tahlil qilish ikki shaklda olib borishi mumkin.

**1. Matn shaklida:** har kungi hisobot va alohida bolalarni kuza-tish bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar matni.

**2. Ko‘rgazmali:** Bolalar ishlarini saqlash, tasviriy faoliyat bo‘yicha bolalar ishlarini saqlash tarbiyachiga guruhdagi u yoki bu bolaga tasviriy malaka va ko‘nikmalarni egalladimi, yo‘qmi, tevarak-atrof go‘zalligini, rang va shaklni ko‘rishga o‘rgandimi, yo‘qmi? Shu masalalarni hal etishga yordam beradi. Har bir bolaning ishi belgilangan bo‘lishi lozim. Bola chizgan yoki yopishtirgan ishining orqa tomonida uning ismi-familiyasi, mashg‘ulot o‘tkazilgan sanani ham yozish kerak. Bolalarning chizgan ishlarini alohida papkalarga solish yoki ularni albom holiga keltirib qo‘yish mumkin. Eng qulayi ishlarni tikib qo‘yish, ya’ni hamma mashg‘ulotlarni yig‘ib, o‘rtasidan uzun tasmasimon qog‘oz bilan bog‘lab qo‘yishdir. Bu tasmaning kengligiga, bolalarning yoshi, mashg‘ulot nomi, familiyasi, tarbiyachining o‘tkazgan sanoi sig‘ishi lozim. Shunga qarab, bolalarning loy ishlarini (har bir bolaning 3 ta ishi 1 yil saqlanishi lozim) saqlashda ham o‘quv yilining boshi, o‘rtasi va oxiri bo‘yicha ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu esa bolalarning malaka va bilimini tahlil qilishga yordam beradi.

**Kundalik hisobot.** Bu hisobot bolalar berilayotgan bilimlarni qay darajada egallayotganlarini aniqlashda yordam beradi. Tarbiyachi bu hisobotida bolalarning davomati va mashg‘ulot davomida o‘zini qanday tutganligi, ularda ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlar belgilab boriladi. Bu hisobot har kunning oxirida yozib boriladi. Kundalik hisobotda tarbiyachi mashg‘ulotlardagi yutuq va kam-chiliklarni aniq ko‘rsatib bermog‘i lozim. Bunda yangi berilgan bilimni bola qay darajada egallaganligi, individual bolaning ismi, familiyasi aniq ko‘rsatib, olib borilishi lozim. Masalan, o‘rta guruhda loy mashg‘ulotida Tolipov Husan qushlarning shaklini obrazli yaratishga harakat qildi, kaftlari orasida loyni to‘g‘ri eshdi. Komilov Shuhrat bugungi mashg‘ulotda passiv qatnashdi. Shaklning qismlarini proporsiyalarga bo‘lishda xatoliklarga yo‘l qo‘ydi, deb yozish mumkin. Tarbiyachi bu hisobot yordamida qaysi bolada berilgan bilimlarni egallahsha sustlik sezilganligini aniqlab ola-di. So‘ngra esa bu bolalar bilan alohida mashg‘ulotlardan tashqari vaqtida individual ishlaydi.

**Yakuniy hisobot.** Yakuniy hisobot har 6 oyda, yilning oxirida tuziladi. Bu hisobot yordamida tarbiyachi bolalar shu muddat ichida qanday bilimlarga, ko‘nikma, malakalarga ega bo‘lganliklarini

aniqlab oladi. Keyingi bosqichlarga o‘quv yiliga reja tuza oladi. Yakuniy hisobotning yana bir maqsadi, bolani guruhdan guruhga o‘tkazishda undagi barcha bilimlar shu guruhga mos keladimi yoki yo‘qmi? ekanligini aniqlashda yordam beradi.

Ota-onalar bilan ishlarni yanada yaxshilash, ota-onalar burchagini yanada mazmunli qilib bezash, shuningdek, ota-onalar bilan individual suhbatlar o‘tkazish lozim. Natijada shu narsa ko‘rinadiki, bolalarning o‘zlashtirishi yanada yuqori darajaga ko‘tariladi. Bu o‘rinda shuni qo‘srimcha qilib o‘tish lozimki, bolalarning tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarida bajargan ishlardan ko‘rgazmalar tay-yorlansa, bunda bolalarda qiziqish yanada kuchayadi, o‘z ishlarni yanada yaxshiroq bajarishga harakat qiladilar. Shuningdek, ota-onalar ham bolalarining bilimlari qay darajada rivojlanib borayot-ganliklaridan xabardor bo‘lib turadilar. Bulardan ko‘rinib turibdiki, bolalar bog‘chasida hisobot ishlariga alohida e’tibor bermog‘imiz lozim. Bu esa, o‘z vaqtida, bolalarni mustahkam bilimlarga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Bu hisobot uchun ma’lumotlar quyidagicha tuziladi:

Ota-onalardan olingan ma’lumotlar.

Tarbiyachining shaxsiy kuzatishlari asosida to‘plangan ma’lumotlar. Ota-onalardan olinadigan ma’lumotlar anketalar orqali suhbatlar davomida olinadi.

Anketa quyidagicha tuzilishi mumkin:

Bolaning ismi, familiyasi.

Tug‘ilgan kuni, yili.

Yoshi.

Ota-onasining ismi va familiyasi.

Millati.

Qiziqishi.

Bolaning uyda bo‘lgan vaqtida nimalar bilan shug‘ullanishi.

Ota-onalari o‘qib bergen ertak, hikoyalardan misollar nomi.

Oilada nechanchi bola ekanligi.

Uy adresi.

Bolalar bog‘chasida bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun tarbiyachi barcha ishlarni to‘g‘ri rejallashtirib olishi lozim. Tarbiyachi tomonidan olib boriladigan barcha ishlarni to‘g‘ri rejallashtirish uchun esa tarbiyachi doimo hisobot ishlarini olib borishi lozim.

Hisobot – bolalarning bilimi va saviyasingin o’sishi, turli ko’nikma va malakalarni egallashi va har tomonlama rivojlanishini aniqlashdir. Hisobot o’z vaqtida quyidagi turlarga bo’lib olib boriladi:

Dastlabki hisobot.

Kundalik hisobot.

Yakuniy hisobot.

Dastlabki hisobot – tasviriylar faoliyat ishlarini to’g’ri rejalashtirish uchun tuziladi.

## **XII. 1. TASVIRIY FAOLIYAT MASHG‘ULOTLARIDA BOLALARINI MAKTABGA TAYYORLASH**

Tasviriylar faoliyat bo‘yicha maktabgacha ta’lim muassasasi dasturi va mактабда tasviriylar san’at dasturi bolalarda tevarak-atrofga nisbatan bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash, ijodiy qobiliyat va badiiy tasvirlarni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha ta’lim muassasasi mashg‘ulotlarida, mактабда muvaffaqiyatli o‘qib ketishlari uchun zarur bo‘lgan vazifalar hal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning tahlil, sintez, takrorlash, aniqlashtirish kabi jihatlari shakllanadi. Shuningdek, bu jarayonilarda bolalar jamoada ishlashga, o‘z harakatini o‘rtoqlarining harakatiga bo‘ysindirishga o‘rganadilar. Bolalar bog‘chasida tasviriylar faoliyat mashg‘ulotlari bolalarda, o‘quv faoliyatida zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Bunday malaka va ko‘nikmalarga: topshiriqni tinglash va yodda tutish ma’lum vaqt orasida bajarish, o‘z ishini rejalashtirish va baholash, boshlangan ishni oxiriga etkazish, xato va kamchiliklarni topish va uni tuzatish, material, ish qurollari va ish joyini tartibli saqlash va boshqalar kiradi.

Pedagoglarning olib borgan tekshirishlari shuni ko‘rsatadiki, bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiyaning bunday tuzimi bolalarni maktabga tayyorlashga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, psixologlardan E.A. Labunskiy va boshqalar tomonidan mактаб o‘quvchilarining tasviriylar faoliyatini o‘rganish jarayonlari shuni ko‘rsatib o‘tadiki, mактабда tasviriylar san’at darslarining tuzilishi, bolalar bog‘chasida olgan bilim, malaka va ko‘nikmalari asosida, ularni hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida tasviriya faoliyat mashg'u-lotlarda bolalar asosan amaliy ish bajaradilar, san'at asarlari bilan rasmga qarab hikoya qilish, kitobdagagi illustratsiyalarni ko'rib chiqish jarayonida tanishadilar. Maktabda tasviriya san'atning turlari – rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlari bilan yanada chuquroq tanishadilar. Maktabgacha ta'lif muassasida tasviriya faoliyat mashg'u-lotlari xilma-xildir. Masalan, rasm, mazmunli dekorativ va loy applikatsiya mashg'u-lotlari. Maktabgacha ta'lif muassasalarida barcha mashg'u-lotlarga katta ahamiyat beriladi. Maktabda esa tasviriya san'at darslarida rasm (naturaga qarab) mavzu asosida va dekorativ turlari o'tkaziladi. Bunda predmetli rasm bo'yicha naturaga qarab rasm chizish o'quv predmeti alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Loy applikatsiya, qu-rish-yasash bo'yicha amaliy ishlar maktabda qo'l mexnatiga kiritiladi. Boshlang'ich sinf tasviriya san'at dasturining tahlili shuni ko'rsatadiki, predmetli, rasm bo'yicha o'quv vazifalari ancha murakkab tarzda kiritilishidan tashqari, bolalar bog'cha dasturi bo'yicha ayrim takrorlash ishlari kiritildi. 1-sinfda bolalar doira, kvadrat, to'rtburchak, avval kabi tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni aniqlashga o'rGANADILAR, bog'chada bolalar oldiga qo'yilgan vazifa rasm chizish texnikasini egallashdir. Bunga sabab, hamma bolalar bog'chadan maktabga kelmaydilar va shu bois bolalar bilan ishni maktabga kelguncha, tayyorlov guruhda olgan bilimlardan boshlash lozim. Mavzu asosida rasm chizish maktabgacha ta'lif muassasasida o'tkaziladigan mazmunli rasmning davomi sifatida o'tkaziladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hodisa va predmetlarni kuzatib, ko'rib chiqadilar, so'ng xotiralariga asoslanib, ularni chizadilar. O'quvchilar obyektlar o'rtasidagi mazmunli bog'lanishlar-da uzoqdagi predmetlarni kichiklashtirib tasvirlaydilar. Dekorativ rasm bo'yicha maktabda texnik tartibga doir vazifalar qo'yiladi, ya'ni naqsh tuzilishi ketma-ketligida tasviri bilan birgalikda, yordamchi chiziqlardan foydalanish va o'z ixtiyorlari bilan xalq amaliy-dekorativ san'at elementlaridan foydalanish va san'at haqida o'tkaziladigan dars-suhbat jarayonida o'rGANADILAR. Bolalarni tasviriya san'atga o'rgatish metodlari bolalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar va kichik o'quvchilarning ish xususiyatlari o'rtasida ancha yaqinlik bor. Shuning uchun u yoki bular-

ni o'rgatish metodikasi o'rtasida ham ko'p o'xshashlik bor. Maktabda o'qituvchining rasmini ba'zi bir elementini ko'rsatish va shu jarayonida tushuntirish tarbiyachining ish usullarini ko'rsatib berishga yaqin turadi. Maktabda ishning ketma-ketligi tartibili ko'rinishda bo'ladi. Agar tasvirlanayotgan predmetning tuzilishi sodda bo'lsa, tartib tushuntirilgandan so'ng, o'chirib tashlanadi. Agar murakkab tuzilishga ega bo'lgan predmet tasvirlansa, o'qituvchining doskada ko'rsatib berishi bilan ketma-ket tasvirlanadi. O'qituvchi predmetning umumiy konturini qalamning uchi bilan yengilgina belgilab chiqadi hamda uning kengligini, balandligini ham ko'rsatadi. So'ng o'quvchi predmetining xomaki rasmni bilan naturani solishtirib, uning qismlarini, shaklini aniqlaydi, tuzatadi. Ish jarayonida ko'rsatish va tahlil qilish uchun rasmilar to'plami, bolalar kitobchalaridagi rangli rasmlar, shuningdek, o'quv xarakteriga ega bo'lgan alohida rasmlardan foydalanadi. Rasm bo'yicha o'tkaziladigan har bir dars o'qituvchining suhbatidan va rasmni nimadan boshlash kerakligini tushuntirishdan boshlanadi. Ishning amaliy bajarilishiga o'tishda o'qituvchi bolalarning tartibli ravishda chizish qoida va yo'llarni eslatib turadi. Katta bog'cha yoshidagi bolalar va kichik mакtab o'quvchilarining ishiga yoki rasmiga qo'yilgan talablar bir-biriga juda yaqin. Bolalar ishini tahlil qilishda diqqatni predmet proporsiyasi, konstruksiyasi, qismlarining bog'liqligi, rang va kompozitsion tuzilishiga tortish lozim. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatlari hal etilishi, bolalar bog'chasiда olib boriladigan tasviriy faoliyati mashg'ulotlari bilan uzviy ravishda olib boriladi. Bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida katta guruhdagi kuzatishlar bo'yicha rasm chizishga katta e'tibor beriladi, chunki bu narsa bolalarni naturaga qarab rasm chizishga tayyorlashda dastlabki bosqich hisoblanadi. Bu narsa bolalarda ko'rish xotirasini rivojlantiradi, ba'zida predmet bolalarda natura sifatida to'g'ri tasvirga yordam beradi. Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyati mashg'ulotlarida, qalamdan, mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar.

Bu malakani egallahash, bolalarda qo'lini yengil, erkin, bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlari rivojlanadi. Bolalar tur-

li shakldagi, kattalikdagi, turli proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo‘nalishni saqlash zarurligiga, harakatini, predmetning uzunligiga mos ravishda harakatlanishga o‘rganadilar. Maktabgacha ta’lim muassasasida olib boriladigan tasviriy faoliyati materialdan toza va tartibli foydalanishga o‘rganadilar, ularni toza saqlashga, faqat zarur materiallardan foydalanishga, ularni ishlatish yo‘llarini rejalashtirishga o‘rganadilar, katta ahamiyat beriladi. Bu mashg‘ulot bolalarda diqqatni, ko‘rish xotirasini rivojlantiradi. Bolalar bog‘chasining tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirga nisbatan talablar oshadi va bu talablar maktab talabiga yaqinlashadi. Bolalar naturani tahlil qilishga butun umumiyl shaklni qog‘ozga xomaki tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to‘g‘rilashga, naturaga o‘xshatishga urinadilar. Naturaga qarab tasvirda ishning ketma-ketligini ko‘rsatish, maktabgacha ta’lim muassasasining tayyorlov va katta guruhida o‘rganishning boshlang‘ich bosqichidagi na amalga oshiriladi. Ko‘rsatishdan doimo foydalanish, bolalarni rasmni mexanik ravishda ishlashga odatlantirib qo‘yadi.

Bolalarning tasviriy faoliyati mashg‘ulotlari geometrik shakllarni topa yoki ko‘ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi, kattaligi, uzunligi, balandligini, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishi bilan tanishishni bolalarni maktabning l-sinfida elementar matematik tushunchalarini puxta egallashlariga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim muassasasida kerakli materiallardan qurish-yasashi bolalarda ko‘z bilan chamlashni shakllantiradi va bolalarni maktabdagi texnik darslarni egallashiga yoki o‘zlashtirishiga yordam beradi. Maktabgacha ta’lim muassasasining katta guruhidagi naturaga qarab rasm chizish mashg‘ulotlarda mantiqiy fikr yuritishga, kuzatishga, asosiy ajratib ko‘rishga predmetning fazoviy xususiyatlarini tahlil qilishga, o‘zlarini mustaqil ravishda tasviriy vositalarni tanlashga o‘rganadilar. Bolalarning hammasi esa mакtabda o‘qish jarayonida zarurdır. Shunday qilib, bolalarining tasviriy faoliyati mashg‘ulotlarda mакtabda o‘qishga tayyorlash axloqiy, estetik tarbiyalab, ularda badiiy did va ijodiy qobiliyatlarini o‘stiradi.

### XIII BOB.

## PEDAGOGIK KOLLEJLARDA TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH METODIKASIDAN DARS BERISH

Bolalarni tasviriy faoliyatga chuqur o'rgatish tarbiyachilarning rasm, loy, applikatsiya bo'yicha tayyorgarligiga qog'ozda qalam va bo'yoqni ishlata bilish, qog'ozdan siluet qirqish, loydan har xil shakl, plastilindan har xil shakl yasashga bog'liq. Tarbiyachi predmetning shaklini, tuzilishini ko'ra olishi kerak, predmetni bo'yash uchun bo'yoq tanlay bilishi hamda bolalarni tasviriy faoliyat metodikasi bilan tanishtirishni bilishi lozim. Bunday tayyorgarlikni tarbiyachilar bиринчи navbatda pedagogika kollejida oladilar. Pedagogika kolleji talabalariga bиринчи bo'lib qalam bilan rasm chizdiriladi. Bu mashqlar rasm chizish vaqtida qo'lning harakatini mustahkamlaydi. Ular to'g'ri, oval, aylana, shtrix chiziqlarni chizadilar. Qalam bilan ishslash texnikasini o'rganish uchun, talabalar dekorativ naqsh grafikasini o'rganadilar. Bu mashqlar pedagogika kollejlaridagi devoriy gazetalar va bolalar bog'chasidagi bezak ishlariiga ham yordam beradi. Xuddi shu bo'limda rang bilan, bo'yoq va guash bilan ishslash ko'rsatilgan. Dastur dekorativ – xalq amaliy san'ati bilan tanishtiradi. Talabalar bиринчи bolalar ijodi bilan tanishadilar, shuning uchun o'zlarining rasmlarida bolalar qanday ud-dalasa, shunday chizadilar. Keyin xuddi rassomlar chizganidek qilib, rang va soya berib chizadilar.

Loy bilan ishslash darslarida haykaltaroshlik va uning turlari bilan tanishadilar. Qalam, ko'mir, tush bilan rasm chizgandan so'ng, ular bo'yoqlar bilan ishlaydilar. Naturaga qarab, sabzavot, meva, idish-tovoqlarning rasmlarini chizadilar. Keyin 2–3 ta predmetdan iborat natyurmort chizadilar. Ularda rangni sezishga o'rganadilar, tomoshabinga qanday ta'sir qilishini ko'radilar. Rasm chizish ni-hoyasida peyzaj, illustratsiya va ertaklarga dekoratsiyalar chizadilar. Ular dumaloq relyef, katta va kichik shakldagi haykaltaroshlik bilan tanishadilar. Ular loydan idishlar yasaydilar. Stek bilan ishslashni, loy bilan ishslash texnik malakalarini o'rganadilar. Bu malakalarni o'zlashtirgandan so'ng, o'quvchilar loydan qush yasaydilar. Uning shakli, proporsiyasi, qismlari bilan tanishadilar. Loy qush yasashni o'rganganlari ularga qalam va bo'yoqda qush rasmini chizishga yordam beradi. Qushdan tashqari, tala-

balar hayvonlarning rasmlarini chizadilar. Ularni naturaga qarab tasvirlash mumkin. Xotira bo'yicha ham tasvirlash mumkin. Har bir tarbiyachi albatta, bo'yoq bilan ishlash sirlarini (rasm chizish, loydan narsalar yasash) bilishi zarur. Birinchi bo'lib odam tasvirini qalam bilan chizishdan boshlash lozim (15–20 daq.). Talabalar bir-birlarining rasmini chizadilar. Bu qisqa muddatli chizishlar diqqatni kuchaytiradi, ishni tez va ishonch bilan bajarishga o'rgatadi hamda predmetning qog'ozda joylashishini, qismalarning proporsiyasini, shaklning asosiy xarakterli belgilarini ko'rsatishga yordam beradi.

**Dastur mazmuni:** Odam tasvirini chizish bilan tanishganlardan so'ng, tasviriy san'at bilan tanishtirish mustahkamlanadi. Bu bo'limga 30 soat ketadi. Birinchi mavzu — «San'atning asosiy nazariv savollari», «San'at — inson ongingin bir shakli», undan keyin «Rus san'ati» (XVIII, XIX).

«Tasviriy faoliyat va qurish-yasash metodikasi» bo'limi har bir yosh guruvida rasm, loy, applikatsiya, amaliy mashg'ulotlardan iborat. Bu bo'limning asosiy maqsadi talabalarini tasviriy faoliyat bilan, aqliy, estetik, tarbiya masalalari bilan badiiy, axloqiy, mehnat tarbiyasi bilan tanishtirishdir. Navbatdagi mavzu «Bolalar bog'chasida tasviriy san'at», unga 2 soat ajratiladi. Talabalar san'at turlari, bolalarning atrof hayotga bo'lgan qiziqishlarini o'rganadilar. Oxirgi mavzu «Tasviriy faoliyat va qurish-yasash bo'yicha reja asosida tuzilgan mashg'ulot».

**Dars tiplari:** Pedagogika kollejida darsning 2 varianti: ma'ruza darsi, amaliy-praktik dars bor. 2 variantdan tashqari muzeyga ekskursiya, ko'rgazmaga, suhbat tariqasida ma'ruzalar bo'ladi. Ma'ruza vaqtidagi suhbatni, o'qituvchi yangi materialni tushuntirish uchun, o'tilgan materialni takrorlaydi. O'qituvchining ma'ruza o'tishdagi mahorati uning ma'ruzani qanday tashkil qildi, diqqatni qanday qilib faollashtirdi, talabalarning xotira va idrokini qanday qilib faollashtirishga, o'stirishga bog'liq. Yangi materialning bir qismi talabalar tomonidan yaxshi o'zlashtirilgan bo'lsa va metodikaning ba'zi bir savollarini o'zlari hal eta olishlarini o'rgangan bo'ladilar. O'qituvchi talabalarga savol berganda talabalar pedagogika, psixologiya va anatomiyadan olgan bilimlari asosida va bolalar bilan olib borgan ish tajribalariga tayanib, javob berishlari lozim. Ma'ruzalar kinofilmlar, slaydlar ko'rsatish bilan o'tkaziladi. Bu

kinofilmlarni, slaydlarni, televideniya ko'rsatuvlarini diqqat bilan ko'rish, diqqatni o'stiradi, ongini o'stiradi, yangi materialni o'zlashtirishga yordam beradi. Talabalar ma'ruzadan tashqari ham filmlar, teleko'rsatuvlar ko'rib, keyin o'qituvchi bilan muhokama qilishi mumkin.

Pedagog ma'ruza o'tish vaqtida ko'rgazmali quroldan foydalanadi. Illustratsiyalardan, o'yinchoqlardan, bolalar rasmlaridan ko'rsatadi. San'at haqidagi ma'ruzalarda esa rassomlar reproduksiyalaridan kinofilmlar, slaydlar ko'rsatadilar. Amaliy mashg'ulotlar pedagogika kolleji talabalariga mashg'ulotlarni namunali o'tkazishga yordam beradi. Ular bolalar chiza oladigan, loydan yasay oladigan predmetlarni tasvirlay olishlari zarur. O'zlariga ta'lim berish metodikasi va dastur asosida mustaqil mashg'ulot ishlanmasini yozishlari lozim. Mashg'ulotlarning suhbatdan boshlanishi ma'qul. Masalan, «Qo'ziqorinlar» nomli darsda tarbiyachi birinchi qo'ziqorin turlarini eslashni taklif qiladi, uning xarakterli belgilari, loydan yasash usullari bilan tanishadilar. Shunday suhbatdan so'ng, talabalar har bir yosh guruh dastur talabiga asosan, beriladigan bilimlarning bog'liqligi asosida yasashni o'rganadilar. Kichik guruh bolalari bitta qo'ziqorin, ya'ni disk, aylana chetlari sal tushgan va silindrsimon tanasini, oyog'ini, o'rta guruh bir qancha qo'ziqorinni yasashlari mumkin (turlari bo'yicha), katta guruh bolalari oq qo'ziqorinning shaklini bera bilishi, katta guruh bolalari to'g'ri kelgan qo'ziqorinni yasay oladilar, uning oldiga barg, o'tlar yasaydilar.

Darsning oxirida 2–3 daqiqa tahlil qiladilar, qaysi bir guruh dastur talabiga mos keladi. Talabalarga uyg'a vazifa qilib, shu guruh mashg'ulot ishlanmasini tuzish beriladi. Keyingi mashg'ulotda mashg'ulot ishlanmasini tahlil qiladilar va o'zlarini tarbiyachi o'rniqiga qo'yib, mashg'ulot o'tadilar.

Amaliy mashg'ulot bir necha reja asosida bo'lishi mumkin. Masalan, har bir yosh guruhida naturadan foydalanish usullari, tasviriy san'at turlarida naturadan qanday qilib foydalanish, bolalar bilan naturani tahlil qilish, mashg'ulotning qaysi vaqtida foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Masalan, applikatsiya: katta guruhda qirqish usuli, qog'ozdan o'qituvchi namuna tayyorlaydi, jadval ham bo'lishi mumkin. Agar amaliy mashg'ulot «Rasm» va «Loy» bo'limi asosida o'tkazilsa, sabzavot va mevalar mulya-

ji bo‘lishi shart. Transport rasmini chizdirish uchun o‘yinchoq ko‘rgazmali quroq bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xona o‘simgiliklarini natura asosida tasvirlash uchun namunalar kerak. Loy mashg‘uloti uchun ko‘rgazmali quroq sifatida kichik shakldagi haykaltaroshlik namunalari xizmat qiladi. Loy ishini bajarishda, xalq o‘yinchoqlari (Dimkova, filimono, korgopol, kirov) ni ko‘rib chiqish yaxshi nati-ja beradi.

Natura bilan ishlash: naturani ko‘rib chiqish asosida bo‘lajak tarbiyachilar tahlil qilishga, predmetning shaklini ko‘ra bilishga, keyin tasvirlashga o‘rganadilar. Shunga ko‘ra, talabalarda idrok, xotira, tafakkur o‘sadi. Natura bilan ishlash 2 bosqichga bo‘linadi:

Birinchi bosqich naturani to‘g‘ri tanlay olish. Talabalar to‘g‘ri kelgan predmet va o‘yinchoq natura bo‘lib xizmat qilmasligini bilishlari lozim. Loy uchun natura bir xil rangda bo‘lishi kerak.

Ikkinchi bosqich naturani tahlil qilish. Birinchi predmetni hamma guruh bilan tahlil qilish, keyinchalik talabalar mustaqil tahlil qiladilar.

Amaliy mashg‘ulotlar ko‘rsatish va tushuntirishdan iborat bo‘-ladi, ya’ni talabalarga yangi qirqish usullari ko‘rsatib beriladi. Bo‘yoq bilan ishlashni ko‘rsatishda, qog‘ozni doskaga yopishtirib, o‘qituvchi mo‘yqalam bilan chizib ko‘rsatadi. Qurish-yasash va aplikatsiyada ishning hamma borishini ko‘rsatish kerak. O‘qituvchi va talabalar bir vaqtida ishlaydilar.

Pedagogika kolleji talabalarining mustaqil ishlari katta ahamiyatga ega. Bu ularning ko‘nikma va malakalarini mustahkamlaydi, ijod qilishlari rivojlanadi. Mustaqil ish o‘z ichiga adabiyotlarni o‘rganish, ishlanma tuzish, istiqlol reja tuzish, mакtabgacha ta’lim muassasasida mashg‘ulot o‘tish uchun reja ishlanma tuzish kabilarni qamrab oladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Hasanboyeva O.U. va boshq.** Maktabgacha ta'lif pedagogikasi. T.: «Ilm ziyo». 2006.
- Hasanboyeva O.U. va boshq.** Oilada barkamol avlod tarbiyasi. T.: «Fan va texnologiya», 2010.
- Hasanboyeva O.U va boshqalar.** Oila pedagogikasi. Darslik. T.: «Aloqachi» 2007.
- Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. V.I.Loginova, P.G.Samurokovalar tahriri ostida. T.: O'qituvchi, 1991.
- Uchinchi ming yillikning bolasi. Ma'rifat-madadkor. T.: 2002.
- Bolalar bog'chasida estetik tarbiya ( N.A.Vetlugina tahriri ostida). T., O'qituvchi, 1981.
- Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. V.I. Loginova, T.G. Samarkovalar tahrifi ostida. 2 qismli. 1-qism. T., O'qituvchi, 1991.
- Комарова Т.С.** Методика обучения изобразительной деятельности и конструированию. М.: Просвещение, 1991.
- Теория и методика изобразительной деятельности в детском саду. М.: Просвещение. 1997.
- Сакулина Н.П.** Рисунок, аппликация, работа с глиной в детском саду. М.: Просвещение, 1993.
- Куцакова Л.В.** «Конструирование и ручной труд в детском саду». М.: «Просвещение», 1990.
- O.Jamollidinova.** «Katta bog'cha bolalarini xalq hunarmand-chiligiga o'rgatish bo'yicha ish dasturi» T.: 1996.
- Лиштван З.В.** «Конструирование» М.: «Просвещение». 1981.
- Гусакова М.А.** Аппликация. М.: «Просвещение» 1977.
- Сакулина Н.П.** Рисунок, аппликация, работа с глиной в детском саду. М.: Просвещение. 1993.

# MUNDARIJA

Kirish .....	3
I BOB. Tasviriy san'at nazariyasi, uning tur va janri .....	4
I. 1. Tasviriy san'atning tur va janrlari .....	6
I. 2. Dekorativ-amaliy va me'morlik san'ati .....	13
II BOB. Jahon san'ati tarixidan ma'lumotlar .....	20
II. 1. Qadimgi dunyo san'ati .....	20
II. 2. O'rta asrlar san'ati .....	24
II. 3. Uyg'onish davri san'ati .....	28
II. 4. Chet el san'ati .....	30
II. 5. Hozirgi zamon chet el san'ati .....	34
II. 6. Qadimgi o'zbek san'ati .....	37
II. 7. O'zbek sobiq sovet san'ati .....	41
III BOB. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasining ahamiyati .....	45
III. 1. Tasviriy faoliyatning boshqa faoliyatlar bilan o'zaro bog'liqligi .....	47
III. 2. Bolalarning tasviriy faoliyatlarini rivojlantirish vazifalari .....	48
IV BOB. Maktabgacha ta'lim muassasasida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini tashkil etish .....	50
IV. 1. Mashg'ulotga tarbiyachining tayyorlanishi .....	52
IV. 2. Bolalarni mashg'ulotlarda o'qitish .....	54
IV. 3. Mashg'ulotlarni kuzatish bo'yicha umumiy ko'rsatmalar .....	56
IV. 4. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining ko'rigi .....	58
IV. 5. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlari uchun materiallar va uskunalar .....	63
V BOB. Mashg'ulotdan tashqari vaqtarda tasviriy faoliyat .....	68
VI BOB. Tasviriy san'atda badiiy idrok .....	74
VI. 1. Idrok etishni boshqarish metodikasi	79

VII BOB. Tasviriy faoliyatga o'rgatishning metod va usullari .....	82
VIII BOB. Maktabgacha ta'lif muassasasida rasm chizishga o'rgatish .....	96
IX BOB. Maktabgacha ta'lif muassasalarida loydan buyum yasashga o'rgatish .....	116
X BOB. Maktabgacha ta'lif muassasalarida bolalarni applikatsiya qilishga o'rgatish .....	125
XI BOB. Maktabgacha ta'lif muassasasida bolalarni qurish-yasashga o'rgatish .....	141
XI. 1. Qurish-yasash va uning bolalar tarbiyasida tutgan o'rni .....	144
XI. 2. Qog'oz va tabiat materiallaridan qurish-yasash .....	158
XII BOB. Maktabgacha ta'lif muassasasida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va hisobga olish .....	167
XII. 1. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarni maktabga tayyorlash .....	172
XIII BOB. Pedagogik kollejlarda tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasidan dars berish .....	176
Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati .....	180

**M.SH.NURMATOVA, SH.T.HASANOVA**

**RASM, BUYUM YASASH VA TASVIRIY FAOLIYATGA  
O'RGATISH METODIKASI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan  
pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma sifatida  
tavsiya etilgan*



«Musiqa» nashriyoti,  
Toshkent – 2012

Muharrir H. Yusupova  
Musahhih M. Toshpo'latov  
Komputerda sahifalovchi A. Tillaxo'jayev

Bosishga 2012-y. 27.11.da ruxsat etildi. Bichimi 60×84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>.  
Tayms garniturasu. Ofset bosma. Shartli b.t. 11,5.  
Nashr tabog'i 11,25. Jami 1648 nusxa. Buyurtma № 51.

«Musiqa» nashriyoti. 100027. Toshkent, B.Zokirov ko‘chasi,

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»  
bosmaxonasida offset usulida chop etildi.  
100003. Toshkent. Olmazor ko‘chasi, 171-uy.



ISBN 978-9943-307-57-5

A standard barcode representing the ISBN 978-9943-307-57-5.

9 789943 307575